


IN VOLUME #2  
ISSUE#2,  
FEBRUARY 2024

ISSN: 2992-8869



# JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN

- Exact Sciences
- Natural Sciences
- Technical Sciences
- Pedagogical Sciences
- Social Sciences
- Philosophical Sciences
- Philology
- Economics
- Agriculture
- Psychological Sciences
- Medical Sciences



Research Science and  
Innovation House

OJS / PKP  
**ISSN**

INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER



[www.universalpublishings.com](http://www.universalpublishings.com)



**“RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE” MCHJ**

# **JOURNAL OF SCIENCE RESEARCH**

**Research Science and  
Innovation House**

**VOLUME 2, ISSUE 2,  
2024. FEBRUARY**

**Tel: +998930901912**

**Web sayt: <http://universalpublishings.com> Email: [sabirovj75@gmail.com](mailto:sabirovj75@gmail.com)**

«Journal of science-innovative research in Uzbekistan» ilmiy-uslubiy jurnali:  
29.02.2024-yil.

Ushbu to‘plamda « Journal of science-innovative research in Uzbekistan » ilmiy-uslubiy jurnali 2024-yil 2-soni 2-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga DOI unikal raqami biriktirilib, **Directory of Research Journals Indexing, Researchbib, Index Copernicus, Zenodo, Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro‘yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

**Asos:** O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Jurnal materiallaridan professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o‘qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**Eslatma!** Jurnal materiallari to‘plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

“RESEARCH SCIENCE AND  
INNOVATION HOUSE” MCHJ





## TAHRIRIYAT

**Bosh muharrir,** Matsaidova Sayyora Xudayberganovna, Urganch davlat universiteti, Geografiya kafedrası, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Mas’ul kotib:** Sobirov Javoxir Xayrulla o‘g‘li Urganch davlat Universiteti talabasi

**Nashrga tayyorlovchi:** Eshqorayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi.

## TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

1. **Rahimov Rahimboy Atajanovich**, Urganch davlat universiteti professori, Texnika fanlari doktori, Rossiya tabiiy fanlar akademiyasining Akademigi.
2. **Isayev Sabirjan Xusanbayevich**, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, Irrigatsiya va melioratsiya kafedrası, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.
3. **Matyakubov Baxtiyar Shamratovich**, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, “Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrası professori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.
4. **Norboyeva Umida Toshtemirovna**, Buxoro davlat universiteti, Ekologiya va geografiya kafedrası professori, DSc (Biologiya fanlari), professor.
5. **Matsaidova Sayyora Xudayberganovna**, Urganch davlat universiteti, Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti, Geografiya kafedrası, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.
6. **Xamroyev Muxtor Ozodovich**, Urganch davlat universiteti, Geografiya kafedrası, Geografiya fanlari nomzodi, dotsent.
7. **Matchanov Otabek Jumanazarovich** Urganch Davlat Universiteti, Texnika fakulteti Geodeziya, Kartografiya, kafedrası Dotsenti. Yo‘nalish - Tabiiy Geografiya.
8. **Djumaniyazava Muhayyo Xusinovna**, Urganch davlat Universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
9. **Djumayev Mamanazar Irgashevich** Pedagogika fanlari nomzodi, professor Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’limda matematika va uni o‘qitish metodikasi kafedrası , professori p.f.n.
10. **Qandov Bahodir Mirzaevich** Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrası PhD, dotsenti.

11. **Samandarov Ergash Iskandarovich**, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti Ekologiya va xayot faoliyati xavfsizligi kafedrasasi, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dosent.
12. **Egamov Baxtiyor Nurmetovich**, Urganch davlat universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrasasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.
13. **Rajabov Alibek Xushnodbekovich**, Urganch davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrasasi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
14. **Babajanova Sanabar Yuldashbayevna**, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrasasi, qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori-PhD., dotsent.
15. **Masharipov Adamboy Atanazarovich**, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrasasi dotsenti.
16. **Ismoilova Himoyat Matnazarovna**, Urganch davlat universiteti, Kimyo kafedrasasi, kimyo fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent.
17. **Ismayilova Intizar**, Urganch davlat Universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti Biologiya kafedrasasi, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent.
18. **Razakova Rayxan Saylaubekovna** Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrasasi dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD.
19. **Ataullayev Zokir Maxsudovich**, Urganch davlat universiteti, kimyo kafedrasasi, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), kimyo kafedrasasi dotsenti.
20. **Raximova Xolisxon Maksudovna**, Urganch davlat universiteti, Biologiya kafedrasasi, biologiya fanlari falsafa doktori (PhD) , dotsent.
21. **Axmedova Ma‘rifat Abdullayevna** Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi kafedrasasi dotsenti.
22. **Raximova E‘tibor Rustamovna**, Urganch davlat universiteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasasi o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
23. **Parda Alimov**, Termiz davlat pedagogika instituti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.
24. **Mardonova Lobar Umaraliyevna**, Termiz davlat pedagogika instituti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasasi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
25. **Tajiyev Zokirjon Rajabovich**, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Biologiya” kafedrasasi, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent.
26. **Atadjanov Ilhom Sharipovich** Urganch davlat universiteti, Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti. Geografiya kafedrasasi dotsenti.
27. **Raximova Go‘zal Yuldashovna**, Urganch davlat universiteti, Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasasi mudiri, PhD.



28. **Atabayeva Mavjuda Rustamovna**, Urganch Davlat Universiteti qoshidagi akademik liseyi Oliy toifali geografiya fani o'qituvchisi.
29. **Xamidov Abdumalik Kironovich**, Termiz davlat pedagogika instituti, o'zbek tili va adabiyoti kafedrası, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
30. **Matchanova Aybibi Erkinovna**, Urganch davlat universiteti, Geografiya kafedrası, geografiya fanlari falsafa doktori (PhD).
31. **Ashurbayeva Rukiya Kaxxorovna**, Pedagogika fanlari nomzodi (PhD) Buxoro davlat tibbiyot instituti o'zbek tili va adabiyoti, rus tili, pedagogika, psixologiya kafedrası PhD assistenti.
32. **Narzullayeva Dilfuza Saitovna** Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Buxoro muhandislik-texnologiya instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti.
33. **Kazimova Gulnora Xakimovna** falsafa fanlari nomzodi, Buxoro muxandislik- texnologiya instituti Ozbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti.
34. **Sapayeva Rayxon Bobojonovna** Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Urganch davlat universiteti, “Roman-german filologiyasi” kafedrası katta o'qituvchisi (PhD).
35. **Bahodirova Feruza Bahodir qizi** Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) UrDU Roman-german filologiyasi kafedrası PhD, dotsenti
36. **Eshchanova Aziza Karriyevna**, Urganch davlat universiteti, Tabiiy va qishloq xo'jaligi fanlari fakulteti, Kimyo kafedrası, kimyo fanlari falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi.
37. **Sadikova Saboxat Babayevna**, Urganch davlat universiteti, Kimyo kafedrası, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b
38. **Azizjanov Xushnud Maksudovich**, Urganch davlat universiteti, Kimyo kafedrası, kimyo fanlari nomzodi, dotsent.
39. **Baxronov Jur'at Djurakulovich** Tibbiyot fanlari bo'yich falsafa doktori (PhD), Gistologiya, sitologiya va embriologiya kafedrası mudiri.
40. **Hakimov Sherali Qo'zievich**. Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori. Buxoro davlat tibbiyot instituti, travmatologiya va neyroxirurgiya kafedrası v.b. dotsenti.
41. **Samadova Shaxzoda Isoqovna** Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro davlat tibbiyot instituti Terapevtik stomatologiya kafedrası v.b. dotsenti.
42. **Azimov Sardorbek Ilhomovich** Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti Urologiya, nefrologiy va gemodializ kafedrası mudiri ,dotsent.
43. **Hamroyeva Dilafro'z Shukurovna** Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro davlat tibbiyot instituti Terapevtik stomatologiya kafedrası assistenti.

44. **Xodjayeva Gulshod Baxadirovna**, Urganch davlat universiteti, Fakultetlararo chet tillar kafedrasini, PhD, kafedra dotsenti.
45. **Jonibekov Jasurbek Jonibekovich** Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Buxoro davlat tibbiyot instituti, Yadro tibbiyoti va tibbiy radiologiya kafedrasini mudiri.
46. **Raxmatova Dilbar Baxriddinovna**, Ichki kasalliklar kafedrasini dotsenti (kardiologiya ixtisosligi bo'yicha), PhD (profilaktik tibbiyot va kardiologiya ixtisosligi).
47. **Davronova Shohsanam Gaybulloyevna** Buxoro davlat universiteti Buxoro davlat universiteti. Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini, DSc, dots.
48. **Nusratov Umid G'olibovich** Tibbiyot fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) Buxoro Davlat tibbiyot instituti Ortopedik stomatologiya va ortodonti kafedrasini assistenti.
49. **Radjapova Feruza Abdullaevna**, Urganch davlat universiteti, Fakultetlararo chet tillar kafedrasini mudiri, PhD (Filologiya fanlari), dotsent.
50. **Saidmuratova Malohat Baxtiyorovna**, UrDU pedagogika fakulteti "pedagogika va psixologiya" kafedrasini katta o'qituvchi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). v.b. dots.
51. **Choriyev Faxriddin Abdig'apparovich** O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti "Xarbiy vatanparvarlik ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash" kafedrasini dotsenti
52. **Baxranov Sherzad Tashtursunovich** O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti "Xarbiy vatanparvarlik ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash" kafedrasini O'qituvchisi
53. **Xaitov Abror Uralovich** O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti "Xarbiy vatanparvarlik ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash" kafedrasini O'qituvchisi
54. **Xujaniyozova Oygul Rajabovna** Urganch davlat Universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrasini dotsenti
55. **Dexqonov Maxmud Roxataliyevich** Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti falsafa fanlari doktori (PhD) dotsenti
56. **Berdiyev Xayriddin Abdullloyevich** Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasini tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
57. **Rashidov Azizbek Ulugbekovich** PhD, dotsent, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
58. **Maxmudjon Ochilovich Shoniyozov** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Tillar kafedrasini filologiya fanlari nomzodi, dotsenti
59. **Atayeva Mexriniso Farxodovna**, Buxoro davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD).



60. **Boltayeva Zarina Azamatovna**, Buxoro davlat universiteti, Tabiiy fanlar fakulteti, Ekologiya va geografiya kafedrası dotsenti, PhD (Biologiya fanlari), Dotsent
61. **Ibragimova Ra'no Isakovna** Filologiya fanlari falsafa doktori(PhD), Qoraqalpogiston qishloq xojaligi va agrotexnologiyalar instituti
62. **Kabulova Lola Tolibaevna** Qoraqalpoq davlat universiteti rus tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari namzodi.
63. **Kuryazov Rustamxon Shonazarovich** Urganch davlat Universiteti Tabiiy va qishloq xo'jaligi fanlari fakulteti Kimyo kafedrası Kimyo fanlari nomzodi dotsent
64. **Ollaberganova Sanobar Xamidovna** Filologiya fanlari nomzodi, Urganch davlat universiteti “Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrası dotsenti
65. **Nafisa Zaribova Umirboy qizi**, Urganch davlat universiteti biologiya kafedrası o'qituvchisi, qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori (PhD). nafisazaripova299@gmail.com
66. **Annamuratova Dilorom Raxmanovna** Urganch davlat universiteti "Biologiya" kafedrası dotsenti, biologiya fanlari nomzodi, dotsent. dannamuratova@mail.ru
67. **Tursunov Burxon**, O'zbekiston Respublikasi jamoat Xavfsizligi universiteti Xarbiy Vatanparvalik ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrası boshlig'i podpolkovnik
68. **Xudayberganova Ogiljan Batirovna** O'zbekiston Respublikasi Urganch davlat universiteti Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrası pedagogika fanlari nomzodi professori, Dotsent. Urganch, O'zbekiston. Elektron pochta: xydayberganova66@mail.ru
69. **Dusimov Zaribboy**, filologiya fanlari doktori (DSc), Urganch davlat universiteti, O'zbekiston
70. **Amanov Allabergan Kutlimuratovich**, Urganch davlat unversiteti, Tabiiy va qishloq xo'jaligi fanlari fakulteti, Geografiya kafedrası o'qituvchisi.
71. **Kuchkarova Dilbar Pirlapasovna**, Urganch davlat universiteti geografiya fani o'qituvchisi.
72. **Raximova Anamoy**, Qo'shko'pir tumani 25-son umum ta'lim maktabi Manaviy ma'rifiy ishlar direktori o'rinbosari. Geografiya fani o'qituvchisi.



## O‘QISH DARSLARINING MAQSAD VA VAZIFALARI HAMDA ULARNING TA’LIMY- TARBIYAVIY AHAMIYATI

MADINA XURRAMOVA ABDUNAZAR QIZI

Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarda o‘qish darslarining ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati va ularga kerakli bilim ko‘nikmalarni yetkazib berish yo‘llari haqida ma’lumotlar yoritilgan. O‘qish darslari orqali bolalarning fikrlash usullarini yuksaltirish haqida keng ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** DTS, analitik, sintetik bosqichlar, tez o‘qish, ongli o‘qish, innotatsiya, ta’lim.

**KIRISH:** Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta’limini o‘qish ta’limisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘quvchi matni to‘g‘ri, tez, tushunib o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish bilan ilk bor o‘qish darslarida yuzlashadi. O‘qish darslari orqali o‘quvchilarning Davlat ta’lim standarti (DTS) talablari bo‘yicha o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan o‘quv-biluv ko‘nikma-malakalarida hamda bilimlarni egallashlariga yo‘l ochiladi. Aynan o‘qish ta’limida insonning, avvalo, o‘zligini, qolaversa olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda „O‘qish kitobi“ darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o‘rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma’naviy qadriyatlar, xalqlar do‘stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo‘yicha atroflicha tushunchalar berishga mo‘ljallangan badiiy, axloqiy-ta’limiy, ilmiy ommabop asarlar kiritiladi. Bu vazifalarni bajarishning aniq yo‘li bo‘lishi zarur. Yaxshi o‘qish malakalarining sifatlari va ularni takomillashtirish yullari. Yaxshi o‘qish malakalarining sifatlari to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qish kiradi va ular o‘qish darslarida o‘zaro bog‘liq xolda takomillashtiriladi, bu to‘rt o‘qish sifati bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Ongli o‘qish asosiy hisoblanadi, chunki o‘quvchi tez qisqa o‘qiganini anglamasa bunday o‘qish talabga javob bermaydi, o‘qiganini tushunmaslikka olib keladi. To‘g‘ri o‘qish ongli o‘qishga xizmat qiladi. Tez, to‘g‘ri, ongli o‘qish ifodali o‘qishning asosi hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘qish darslari savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarni bo‘g‘in, so‘z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o‘qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o‘qish texnikasi egallangandan so‘ng o‘qish muayyan mavzular bo‘yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi. Boshlang‘ich sinf „O‘qish kitobi“ darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o‘quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to‘g‘ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra, o‘qish darslarining yetakchi xususiyati o‘quvchilarning savodxonligini ta‘minlash bilan birga, o‘quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo‘lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og‘zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma‘naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan. O‘qish darslari uchun tanlangan mavzular o‘quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo‘yicha ham bilim va tarbiya berishni ko‘zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma‘naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko‘zlangan maqsad o‘zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog‘liq tuyg‘ularni uyg‘otishdir. Vatanparvarlik, atrofimizdagi olam, mehnatsevarlik kabi mavzular o‘qish darsliklaridagi keng qamrovli mavzulardan bo‘lib, 2-sinf „O‘qish kitobi“dagi „Ona yurtim-oltin beshigim“ bo‘limiga kiritilgan, “O‘zbekistonim” {H. Imonberdiyev), “Istiqlol” (J.Jabborov), “O‘lka” (E.Vohidov), “Yur tog‘larga” (U .Nosir), 3-sinfda “Ona bitta, Vatan yagona” bo‘limidagi “Vatan haqida she‘r” (A.Avloniy), “O‘zbekim” (E.Vohidov), “Vatan mo‘tabardir” (X .Davron), “Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi” (T. Malik), 4-sinfda “O‘zbrkiston — Vatanim manim” bo‘limidagi “Serquyosh o‘lka” (Z. Diyor), „Iqboli buyuksan” (A. Oripov), „Toshkentnoma” (M .Shayxzoda), „Xarira” (N .Norqobil) kabi asarlar misolida atroflicha tahlilga tortiladi. Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o‘tmoshini, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug‘ siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to‘g‘risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi asarlar o‘quvchilarni faqat o‘tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas‘uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg‘usi shu tariqa shakllanadi. Vatanimiz



o‘tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar o‘tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo‘ladilar, jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo‘lsada, tushuncha hosil qiladilar. „O‘qish kitobi“ darsliklaridagi barcha mavzular o‘quvchilarga ta’lim -tarbiya berish bilan birga, ularning lug‘atini boyitishga, og‘zaki va yozma nutqini to‘g‘ri shakllantirish va nutq madaniyatini o‘stirishga ham qaratiladi. Amaldagi „O‘qish kitobi“ darsliklarida materiallarning sinfdan sinfga o‘tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan. Masalan, 1-sinfda o‘rgatiladigan „Ajdodlarimiz — faxrimiz“, „Hr ~ aql chirog‘i“, „Zumrad bahor“, „Kumush qish“ kabi mavzular 2—4-sinflarda ham davom ettirilgan. Bu esa o‘quvchilarning oldingi bilimlarini to‘ldiradi va boyitadi. Uzluksiz ta’limning boshqa bosqichlaridan farqli o‘laroq, boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta’limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma’naviy-ahloqiy, adabiy-estetik tarbiya bilan chambarchas bog‘lab olib boriladi. Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o‘quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar darsliklar yordamida o‘zlashtiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo‘lishini tushunib yetishishlariga erishish o‘qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha DTS va „Ona tili“ o‘quv dasturida o‘qish ta’limi oldiga qo‘yilgan talablarni amalga oshirish sinfdan o‘qishni to‘g‘ri tashkil qilish, o‘qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan o‘rinli foydalanishga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Umuman olganda, o‘qish darslari oldiga qo‘yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlari: to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qishlarini shakllantirish.
2. O‘quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o‘rgatish, kitobga muhabbat uyg‘otish; ularni oddiy kitobxonlardan chuqur muloqatga yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish.
3. O‘quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.





ta'qidlash lozimki, O'zbekistonda har yili yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli va kitobdga bo'lgan mehrlarini yanada uyg'otish maqsadida Respublika bo'ylab turli xil tanlovlar o'tkazilmoqda, shulardan biri “Yosh kitobxon” tanlovidir. Bu tanlov orqali bir qator yoshlar 50, 60 dan ziyod kitoblarni o'qib Spark va bir qator qimmatbaxo sovg'alarni qo'lga kiritishmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev takidlaganlaridek “Kitob o'qi Spark yutib ol, ota-onangni xursand qil”, bu degani qancha kitob o'qisak, bizning bilimimiz, dunyo qarashimiz va tassavur doiramiz ham kengayib boradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. Zunnunov va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. — T.: „O'qituvchi41,
2. A. Rafiyev. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. — T.: 2003.
3. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O'qituvchi”, 1992.
4. B. Ma'qulova, T. Adashboyev. Kitobim - oftobim (1 -sinf uchun sinfdan tashqari o'qish kitobi). — T.: „O'qituvchi”, 1999.
5. B. Ma'qulova, S. Sa'diyeva. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari (1-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). — T.: „O'qituvchi”, 1997.
6. Y. Abdullayev. Eski maktabda xat-savod o'rgatish. - T.: „O'qituvchi”, 1960.
7. K. Qosimova. Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish. — T.:

---

# Research Science and Innovation House

## “GOOGLE DRIVE” ИЛОВАСИДА ЭЛЕКТРОН АХБОРОТ ТАЪЛИМ РЕСУРСЛАРИНИ ЯРАТИШ ИМКОНИЯТЛАРИ ТАХЛИЛИ

**N.R. Sherkulova Ph.d., dotsent,  
Guliston davlat universiteti**

**G.G. Bazarbayeva t.f.n., dotsent  
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti**

**I.O.Hamidova talaba  
Guliston davlat universiteti**

Мақолада “Ilmiy tadqiqotning nazariy asoslari” fanini o‘qitishda “GOOGLE DRIVE” иловасида Web-texnologiya asosida elektron-axborot ta’lim resurslarini yaratish, EATRning mohiyati, turlari, tarkibiy elementlari va dasturiy-texnik tavsiflari ko‘rib chiqilgan. EATRni yaratish, zarur holatlarda unga o‘zgartirishlar kiritish va qayta ishlash shartlari kўrib чиқилган.

**Калит сўзлар:** электрон ахборот таълим ресурси, таълим тизини рақамлаштириш, ахборот-ресурс, Web texnologiya.

Globalashuv jaraënida ta’limni tashkil etishda tezkorlik va sifat ko‘rsatkichlariga erishish muhim ahamiyatga ega. O‘quv jaraënining didaktik imkoniyatlari “pedagog-tinglovchi” èki “tinglovchi-pedagog” tamoyili asosida tinglovchilar tomonidan o‘quv materiallarining nazariy hamda amaliy jihatdan samarali o‘zlashtirish imkonini beradi. Zamonaviy ta’limning tashkil etilishiga qo‘yilayotgan talablar orasida talabalarning mustaqil ta’lim olishlarini tashkil qilish ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Talabalarning mustaqil ta’lim olishlariga erishishda har bir o‘quv moduli bo‘yicha yaratiladigan elektron axborot ta’lim resursi muhim ahamiyat kasb etadi. EATRni Web texnologiya asosida yaratish bugungi kunning muhim talablaridan biri sanaladi. Shu sababli ayni vaqtda respublika OTMda o‘quv rejasiga muvofiq ta’lim yo‘nalishlarida har bir o‘quv moduli (fani) bo‘yicha Web texnologiya asosida EATRni yaratishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.



EATRning dasturiy texnik tavsifi. EATR an’anaviy o‘quv manbalaridan ko‘ra “yuqori intellektga” ega bo‘lishi zarur. Kompyuter pedagog faoliyatining muhim qirralarini, ya’ni, zarur o‘rinda, kerakli maslahatni berish, bilimlarni mustahkamlash va h.k.)ni imitatsiya qilish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga u o‘rganilaётgan fan èki modul bo‘yicha muhim va qo‘shimcha ma’lumotlardan iborat o‘quv materiallarini to‘laligicha qamrab olishi zarur. O‘quv fan èki modul bo‘yicha to‘la ma’lumotlarigina EATRning amaliy qiymatini ta’minlashi mumkin. Bu turdagi ta’lim resurslarda “intellektual qirra”ning mavjudligi esa ularning qog‘ozda bosilgan axborot ta’lim resurslariga xos kamchilik (faqatgina kompyuterda foydalanilishi)ni bartaf etish bilan birga qo‘shimcha imkoniyatlar (zarur ma’lumotlarni tezkor suratda izlash, ixchamlilik va h.k.)ni yaratadi.[1,2,3,4].

EATRning dasturiy texnik tavsifi quyidagilarni o‘zida aks ettiradi (1-jadval):

1-jadval.

**EATRning dasturiy texnik tavsifi**

<b>№</b>	<b>Ob’ekt turi</b>	<b>Tavsifi</b>	<b>Formati (bichimi)</b>
1.	Interfeys	Interfeys	Html, Javascript
2.	Nazariy material	Matn	html
3.	Mashq va masalalar to‘plami	Dastur	.swf
4.	Fotogalereya	Web dastur	Html, Javascript
5.	So‘rovnoma	Matn, tasvir, animatsiya, video, audio....	html
6.	Animatsiya va animatsion roliklar	Flesh rolik	.fla, .swf

7.	Nazorat dasturlari	Web dastur, ma'lu- motlar bazasi	Html, Javascript, SUBD Firebird 2.5
8.	Audio	Ovoz fayli	.mp3
9.	Video	Flesh video	.swf, avi
10.	Didaktik material	Web dastur	.jpeg

Har bir EATR, birinchidan, ma'lum darajada avtonom (mustaqil) bo'lishi, ikkinchidan, tarkibiy tuzilmasi va undagi axborot ma'lumotlari bichimlari (formatlari)ga taalluqli standartlarga javob berishi kerak. Bu esa o'z navbatida zarur EATR to'plamini axborotlashtirilgan ta'lim tizimiga (bunda axborot-qidiruv tizimi, imtihon qilish tizimi, "test" va h.k.) yo'naltirish asosida oson va tezkor yig'ish imkonini beradi. Agarda elektron darslik etarli darajada sifatli bo'lib, mazmun, o'quv jaraenini nazorat qilish hamda egallangan bilimlarni tekshirish tizimiga ega bo'lsa, u holda mavjud ehtiëj qondirilishi mumkin. Hozirgi kunda yuqori sifatli EATRni yaratishga imkon beruvchi uslublar, dasturiy ta'minot va ishlanmalar mavjud.

EATR o'zining dasturiy texnik tavsifiga ega. Bu turdagi axborot-ta'lim resurslarini yaratishda ushbu tavsif konseptual asos bo'lib xizmat qilishi zarur.

Google Drive ilovasi imkoniyatlari tahlili.

1. Google diskini yuklab olish mumkin kompyuter, planshet yoki mobil OSni qo'llab-quvvatlaydigan qurilma Windows 7, 8, 10 (va boshqalar), MAC, Android, iOS... Yuqoridagilarning barchasi bilan operatsion tizimlar, Google bulutli drayveri ishlaydi.



2. **Aniq diagramma.** LucidChart bu maxsus dastur HTML5 ga asoslangan bo'lib, diagrammalar, eskizlarni oson yaratishga imkon beradi. Bu bugungi kunda o'z toifasidagi eng kuchli veb-illovalardan biridir. Mustaqil ravishda ham, cheksiz miqdordagi boshqa ishtirokchilar bilan ham ishlash mumkin, shu bilan birga barcha o'zgarishlar real vaqtda sinxron tarzda paydo bo'ladi.



Bu eng yaxshi onlayn taqdimot va slayd-shou yaratuvchilaridan biridir. Google drive bilan integratsiya tufayli nafaqat taqdimotlar yaratish mumkin balki standart dastur SlideRocke xam ishlash imkoniyati mavjud.

3. Google Drive uchun WeVideo.

Google Drive uchun WeVideo funksional muharriri video brauzeringizda ishlaydi. Uning yordamida Google Drive-da saqlangan videodapclarni osongina tahrirlash, o'tishlarni qo'shish, effektlarni qo'llash va boshqa ko'p narsalarni qilish mumkin.

**4. Har qanday formatdagi fayllar.** Ishlab chiquvchilarning fikriga ko'ra, 30 dan ortiq turdagi fayllarni to'g'ridan-to'g'ri brauzerdan ochish mumkin. Bir qism google drive fon ma'lumotlari 30 tagacha fayl turlari, talim jarayonlari uchun 16 turi ishlatish mumkin.

**Oddiy fayllar:**

- arxivlar (ZIP, RAR, TAR, GZIP);
- audiofayllar (MP3, MPEG, WAV, OGG, OPUS);
- formatli tasvirlar (JPEG, PNG, GIF, BMP, TIFF, SVG);
- kodlar fayllari (CSS, HTML, PHP, C, CPP, H, HPP, JS, JAVA, PY);
- tekstli fayllar (TXT);
- videofayllar (WebM, MPEG4, 3GPP, MOV, AVI, MPEGPS, WMV, FLV, OGG).

**Adobe fayllari:**


- Autodesk AutoCad (DXF);
- Illustrator (AI);
- Photoshop (PSD);
- Xujjatlar formati (PDF);
- Postscript (EPS, PS);
- masshtabli vektorli rasmlar (SVG);
- rasmlar formati TIFF;
- TrueType (TTF).

**Microsoft Office amaliy dasturlari paketi:**

- Excel (XLS, XLSX);
- PowerPoint (PPT, PPTX);
- Word (DOC, DOCX);
- XML Paper Specification (XPS);

- Apple parollari bilan ximoyalangan Microsoft Office fayllari
- Redaktor fayllari (KEY, NUMBERS).

### Fayllarni konvertatsiya qilish.



CloudConvert ilovasida xujjatlar, turli rasm va diagrammalar, audio va video tasvirlar, elektron kitoblar konvertatsiya qilish imkoniyati mavjud.

#### Fayllarni tezda yaratish.

Brauzer panelida xavolalar yordamida turli fayllarni yaratish mumkin.

- <http://doc.new> — yangi xujjat.
- <http://sheets.new> — yangi tablitsa.
- <http://deck.new> — yangi prezentatsiya, taqdimot.
- <http://site.new> — yangi sayt.
- <http://form.new> — so‘rovnomani yangi formasi, shakli.

# Research Science and Innovation House





“GOOGLE DRIVE”: hujjatlar bilan ishlash.

- “Papka” - ma'lumotlarni tashkil qilish Mening Drive 1 papka yaratadi.
- “Hujjat” - matn hujjat turlarini ochiladi. Bu Microsoft Word, OpenOffice, PDF va dasturlari boshqa turdagi ma'lumotlarni eksport qilish mumkin.
- “Taqdimot” - takliflar Microsoft PowerPointdek ishlatish uchun. Microsoft PowerPoint, PDF, JPG va: Data formatda turli fayllarni eksport mumkin.
- “Elektron jadval” - bo'sh stol beradi. Ma'lumot Microsoft Excel, PDF, CSV, OpenOffice va shunga o'xshash formatda eksport qilish mumkin.
- “Shakl” - onlayn to'ldirish mumkin shakllari bilan ishlash imkonini beradi. Ular CSV-fayllar sifatida eksport qilish mumkin. [5,6,7,8,9,10].

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish” konsepsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun 3.09.2020 yil №637-son.
3. Muslimov N.A., Sayfurov D.M., Usmonboeva M.H., To‘raev A.B. Web texnologiya asosida elektron axborot ta’lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish Toshkent: 2015.128 bet.
4. Voykov V.D. Rol Interneta – Web-texnologiy v dele razvitiya obrazovaniya i kulturny // J. Internet: kultura i obrazovanie. – SPb.: 1998. – S. 15-19.



4. Vorotniskiy Yu.I. Ob arxitekture korporativnykh informatsionnykh veb-sistem // Doklady NAN Belarusi. T. 48. 2004. № 6. – S. 32-34.

5. Шеркулова, Н. Р., Давлатов, Р. М., Негматов, С. С., & Негматова, М. Н. (2021). Улучшения характеристических свойств на натуральном шелке в процессе переработки с использованием модификатора. *Universum: технические науки*, (10-4 (91)), 73-78.

6. Шеркулова, Н. Р., & Давлатов, Р. М. (2021). Исследование влияния способа модификации на показатели качества шелка. *Universum: технические науки*, (10-4 (91)), 79-85.

7. Abed, N. S., Ulmasov, T. U., Sherkulova, N. R., Ganiyeva, D. F., & Negmatova, M. N. (2022). Study of the influence of different technological factors on the formation of adhesion strength of composite polymer coatings. *Journal of Optoelectronics Laser*, 41(6), 727-733.

8. Шеркулова, Н. Р., & Давлатов, Р. М. (2021). Исследование влияния способа модификации на показатели качества шелка. *Universum: технические науки*, (10-4 (91)), 79-85.8.

---

# Research Science and Innovation House



## XIRURGIK STOMATOLOGIYA

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi

**Omononov Otamurod Ziyodullo o‘g‘li**

**Yoqubov Feruz**

**Boboqandov Hoshimbek Umar o‘g‘li**

**Shadiyev Orzubek Umidjonovich**

Tel nomeri: +998 904734640

Email: [otamurod7340@gmail.com](mailto:otamurod7340@gmail.com)

**Annotatsiya:** Xirurgik stomatologiya, tish va og‘iz tizimiga kirurgik ravishda qaratilgan jarayonlarni o‘z ichiga oluvchi soha. Bu tibbiy yo‘nalish, tish chirishlar, implantatsiyalar, og‘izni tozalash, cyst va tumorlarni o‘lib tashlash, va blok turar joylarni ochish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Maxillofacial xirurgiya deb ataladigan bu soha, insonlarning oral sakkiz organlaridagi qattiq muammolarni hal qilishda keng ko‘lamli xizmat ko‘rsatadi. Xirurgik stomatologiya, sog‘ligi va go‘zalligi saqlash, funksiyalarni tiklash, va estetik tuzish asosida insonlarga yordam bera olish uchun mahsulotli va keng doiradagi usullar bilan mashg‘uldir.

**Kalit so‘zlar:** xirurgik stomatologiya, implantatsiya, tozalash, cyst, maxillofacial xirurgiya, stomatologiya.

**Stomatologiya** (yun. „stomatos“ — og‘iz va „logos“ — fan, ta’limot) — klinik tibbiyotning bir sohasi; og‘iz bo‘shlig‘i a‘zolari: til, lab, lunj, og‘iz shilliq pardalari hamda yuz-jag‘ tizimi va unga yondosh soha kasalliklarini, ularni keltirib chiqaradigan sabablarni va mazkur kasalliklarning oldini olish usullarini o‘rganadi. Stomatologiya, oral sakkiz organlarining tadqiqot, davolash, va saqlashiga asoslangan tibbiy soha. Ummumiy stomatologiya, ortodontiya, kirurgik stomatologiya, protetika va boshqa turli yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. O‘tin yozish, dişlar va og‘izning sog‘ligi, go‘zalligi, va funksiyalari bu soha ichida muhim ahamiyatga ega. Og‘iz bo‘shlig‘i a‘zolari kasalliklari [Gippokrat](#), [Ibn Sino](#), [Galen](#), Sels va boshqa olimlar tomonidan tavsiflangan. Ibn Sino asarlarida ilk bor tishlar qamashishi va og‘riqlarining tabiati bayon etilib, shunday hollarda nimalardan foydalanish ko‘rsatilgan. 14-asrda fransuz vrachi Gide Sholiak tish sug‘uradigan asbob ixtiro qildi. 15-asr oxirida italyan vrachi J. D.

Arkale tishni oltin, qo‘rg‘oshin va qalay folgasi bilan plombalash mumkinligini ko‘rsatadi.

17—18-asrlarga kelib stomatologiya klinik tibbiyotning mustaqil sohasiga aylandi. 19-asrda tishni plombalash va yasama tishlar tayyorlash texnikasi puxta ishlab chiqildi. 19-asr oxiri —20-asrning birinchi yarmida fiziologiya, anatomiya, patologiya, biokimyo va boshqa fanlarning taraqqiyoti stomatologik kasalliklar etiologiyasi, patogenezi, davolash choralari va profilaktika tadbirlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi. [O‘zbekistonda](#) stomatologiya fani 1954-yildan shakllandi, shu yili ToshTI (hozirgi Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti)da stomatologiya fakulteti ochildi. 1956-yilda maxsus stomatologik kafedralar tashkil etildi. Keyinchalik bunday kafedralar Samarqand, Andijon tibbiyot institutlarida, Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutida ham ochildi, 1994-yilda Buxoro Davlat Tibbiyot instituti tashkil etilib, uning tarkibida stomatologiya fakultetining ochilishi stomatologiya fanining yanada ravnaq topishiga zamin yaratdi.

Stomatologiya turlari:

1. Umumiy Stomatologiya: Tish yozish, og‘izning umumiy davolash va saqlash bo‘yicha asosiy yo‘nalish.
2. Ortodontiya: Tishlar va og‘iz tizimining ortiqcha joy vaqtida yuzaga chiqadigan o‘rnatishlar uchun mutaxassislik.
3. Kirurgik Stomatologiya: Kirurgik jarayonlar orqali tish va og‘izning muammolari, jismlari, yoki tashqi ko‘rinishlari davolash uchun yo‘nalish.

Ko‘rishlari davolash uchun yo‘nalish.

4. Protetika: Tishlar yo‘qotilganda, ularni o‘rniga qo‘yadigan va insonning aholi shakllanishini ta‘minlaydigan protetik qurilmalarni rivojlantirishga asoslangan tur.

5. Endodontiya: Tishdan noyob (nerv) tashqi zarar qilgach, tish tozalanishi va uning ichki qismi davolashga asoslangan yo‘nalish.



6. Dentogenetika: Genetik tahlillar orqali diş yoki og‘izga aloqador genetik xususiyatlar va tashqi omillarning ta‘sirini o‘rganishga asoslangan tur.

Stomatologiya, insonlarning oral sakkiz organlarining sog‘ligi va go‘zalligini saqlash, davolash va yaxshi o‘z ichiga olishga xizmat qiladi.

Hozirgi zamon stomatologiya fani terapevtik, xirurgik, ortopedik, bolalar stomatologiyasi kabi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi. Terapevtik stomatologiya tish (kariyes, pulpit, periodontit, nokariyes xastaliklar) hamda og‘iz shilliq qavati (stomatit), lab, til kasalliklari diagnostikasi, Davosi va profilaktikasi bilan shug‘ullanadi. Xirurgik stomatologiya tish olishdan tashqari yuz-jag‘ va unga qo‘shni sohalardagi yallig‘lanishlar, o‘smalar, shikastlanishlar, tug‘ma va orttirilgan nuqsonlarni o‘rganadi, og‘iz bo‘shlig‘i va yuz-jag‘ operatsiyalari, plastik operatsiyalarni amalga oshiradi. Ortopedik stomatologiya ortopedik va ortodontik usullar bilan birlamchi va ikkilamchi tishlar qatori hamda tug‘ma va orttirilgan tishlar nuqsonlarini davolaydi, yasama tishlar bilan tish qatori nuqsonlarini tiklaydi. Xirurgik stomatologiya, tish va og‘iz tizimiga kirurugik ravishda qaratilgan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bu turdagi jarayonlar odatda quyidagi mavzularga aloqador bo‘lishi mumkin:

- Tish chirishlar va implantatsiyalar: Tishning yo‘qlanishi yoki yo‘qotilgan tishni o‘rniga implantatsiya qilish, bu turda xirurgik stavkalarni qo‘llash.

- Og‘izni tozalash va og‘iz bo‘shlig‘ini chiqarish: So‘nggi dişlar, tish sisligi yoki boshqa sabablarga qarab og‘izdan katta ko‘lib turadigan og‘iz bo‘shlig‘ini chirish va tozalash jarayonlari.

- Cyst va tumorlarni olib tashlash: Tish yoki og‘izda paydo bo‘lgan cystlar yoki tumorlar, ularni kirurugik ravishda o‘lib tashlash.

- Blok turar joylarni ochish: Eng oddiy ravishda dişni chirish, sinuslar (maxillary sinus)ni ochib, sinusboshtan foydalanib implantatsiyalarni o‘rnatish.

Xirurgik stomatologiya, maxillofacial xirurgiya deb ham ataladi, va u insonning yuz va chiroqli xislati bilan bog‘liq paydo bo‘lgan tibbiy jarayonlarni

davolash uchun mutaxassislikka ega bo‘ladi. Xirurgik stomatologiya, tish va og‘iz tizimiga kirurugik ravishda qaratilgan jarayonlarni o‘z ichiga oluvchi tibbiy soha sifatida taniladi. Bu soha umumiy tish davolashidan farqli ravishda, kirurugik yo‘nalishni talab qiladi va og‘izning chirish, implantatsiyalar, tozalash, cyst va tumorlarni o‘lib tashlash, va blok turar joylarni ochish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Maxillofacial xirurgiya ham bu soha qamrab oladi, yuz va chiroqli xislati bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda mutaxassislik ko‘rsatadi. Xirurgik stomatologiya, insonlarning oral sakkiz organlaridagi qattiq muammolarni hal qilishda keng xizmat ko‘rsatadi, shuningdek og‘iz va diʃlarning sog‘ligi, go‘zalligi, va funksiyalarni tiklashda muhim rol oynaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Stomatologiya>
2. Abdusalomov Sunnatulla Shonazar o‘g‘li Международный научный журнал № 3 (100), част 1 «Новости образования: исследование в XXI веке» октябрь, 2022 г
3. [https://n.ziyouz.com/books/kollej\\_va\\_otm\\_darsliklari/tibbiyot/Terapevtik%20stomatologiya%20\(M.Ziyayeva,%20R.Bahodirova\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/tibbiyot/Terapevtik%20stomatologiya%20(M.Ziyayeva,%20R.Bahodirova).pdf)

---

# Research Science and Innovation House



## TA'LIM TIZIMIDA KREATIVLIK POTENSIALINING TARKIBIY ASOSLARI VA USTUVOR TAMOYILLARI

**Omonboyeva Meruyert Erkin qizi**

“Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi, NavDPI

**Kamalova Dilnavoz Ixtiyorovna**

“Fizika va astronomiya” kafedrası professori, NavDPI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta‘lim tizimida kreativlik potensialining tarkibiy asoslari va ustuvor tamoyillari haqida fikrlar bayon etilgan. Ta‘lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, rahbar va pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, oliy ta‘lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovatsion ta‘lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va maqsadli yo‘naltirish oliy ta‘lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilanishi maqolada o‘z aksini topgan.

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, pedagog, kreativlik, bilim, texnika, tamoyil, pedagogik mahorat, kompetensiya.

**Abstract.** This article describes the structural basis and priority principles of the potential of creativity in the educational system. To increase the efficiency of education, to develop the level of professional competence of specialists, to direct the leaders and pedagogues to innovative activities, to apply innovative education and information and communication technologies to the educational process in higher education institutions, to study advanced foreign experiences. The definition of mastering and targeting as urgent tasks in the modernization of the higher education system is reflected in the article.

**Key words:** education, pedagogue, creativity, knowledge, technique, principle, pedagogical skill, competence.

Bugungi kunda jamiyatimiz har sohada, jumladan, ijtimoiy-ma‘rifiy, fan va ta‘lim, iqtisodiy, madaniy sohalarda shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Shunday rivojlanib borayotgan mamlakatimizda har bir soha uchun yetuk malakaga ega bo‘lgan sifatli kadrlarni tayyorlab berish biz – pedagoglarning asosiy maqsadimizga

aylanmoqda. Shu jumladan, ta'lim sohasida ham zamon bilan ham nafas mutaxassislar yetishtirishimiz zarur. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini olib kirish, ta'limni kompyuterlashtirish muammosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Millat, mamlakatning ertangi kuni qanday bo'lishi bugungi kun pedagoglari mehnati samarasiga bog'liq. Insoniyat paydo bo'libdiki, kim bo'lishidan, qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, barchasining taqdiri ozgina bo'lsa-da, ushbu buyuk kasb egalariga bog'liq bo'ladi. Kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Shunday ekan, inson kamolotida muhim rol o'ynaydigan o'qituvchining bilim, ko'nikma, malakasi, kasbiy va shaxsiy tayyorgarligi, pedagogik mahorati yuqori darajada bo'lishi talab etiladi. Quyidagi egallanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar va shaxsning sifatleri yangi ming yillikda faoliyat olib boradigan pedagoglar duch kelishi mumkin bo'lgan asosiy muammolar:

- ✓ ta'lim sifatini oshirish, ta'lim standartlarining yuqori darajasini kafolatlash;
- ✓ ijodiy va tadqiqot masalalarini mustaqil hal etish, ya'ni kelajakdagi o'qituvchi bevosita ijodiy shaxs bo'lishi kerak;
- ✓ ta'lim oluvchilarning tarbiyasiga qo'yiladigan murakkab talablar yuqori darajali o'qituvchidan ziyolilikni talab etadi, ya'ni pedagogdagi ma'naviy-ahloqiy potentsialning o'рни va ahamiyati oshadi;
- ✓ o'qitish va tarbiyalashning taraqqiy etgan texnologiyalarini, mahalliy va xorijiy tajribaning yangi yutuqlarini uzluksiz o'zlashtirish zarurati;
- ✓ falsafa, psixologiya, tibbiyot, dinshunoslik, iqtisodiyot, huquq, kibernetika va shu kabi turdosh pedagogik fanlarning bilimlar, amaliy malakalar va ko'nikmalarni integratsiyalash talab etiladigan qator yangi murakkab kasbiy-pedagogik muammolarni hal etish zarurati.

Bu talablarni tahlil qilar ekanmiz, bularning barchasini faqat har tomonlama etuk, yuqori kasbiy kompetentlilikga ega bo'lgan pedagog amalga oshirishi mumkin. Bunda bugungi kun pedagoglaridan tinmasdan o'z ustida ishlash, innovatsion jarayonlardan xabardor bo'lish, uzluksiz ta'lim uchun bor imkoniyatlarini yo'naltirgan holda o'zlarida kuch va imkoniyatlar topa olishi talab etiladi. Quyidagilar mutaxassisning pedagogik ishga tayyorgarligining zarur va yetarli



darajasini ta'minlaydigan asosiy talablar hisoblanadi. Shulardan o'qituvchining mahorati kasbiy zaruratdir. Pedagogning mahorati uning kasbiy pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishga doir shaxsiy sifatlar majmui bilan belgilanadi. Bu sifatlarga pedagogning:

- ✓ pedagogik bilimi;
- ✓ pedagogik zakovati;
- ✓ pedagogik qobiliyati;
- ✓ pedagogik texnikasi kiradi.

Pedagogning faoliyati quyidagi uchta obyektga yo'naltirilgan:

- ✓ shaxs sifatida pedagog faoliyatining o'z-o'ziga yo'naltirilganligi;
- ✓ pedagog faoliyatining boshqa shaxslarga, jumladan, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilganligi;
- ✓ pedagogning o'z faoliyatiga yo'nalganligidadir.

Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kun pedagogi yangilikka intiluvchan bo'lishi va yangilikni sohaga joriy qila olishi zarur. O'qituvchi yangilik kirituvchi sifatida quyidagilarni o'zida shakllantira olishi lozim:

- ✓ yangiliklarni ayniqsa, o'zga davlatlardan kirib kelayotganlarini farqlay olishi va tushunib yetishi;
- ✓ yangiliklarni tahlil qila olishga layoqatlilik;
- ✓ yangiliklarni turli xil vaziyatlarda qo'llay bilishi va kamchiliklarini to'g'rilashi;
- ✓ o'z pedagogik amaliyotida yangiliklardan ijodkorona foydalana olishga layoqatlilik.

Kasbiy kompetensiya – kasbiy faoliyatda insonning kasbiy yetukligini namoyon qiladi. Masalan, pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish, o'z ustida ishlash, o'quvchilarda motivatsiyani shakllantirish, AKTni bilishi, o'z fanini mukammal bilishi.

Shaxsiy kompetensiya – insonning shaxsiy sifatlarini kiritish mumkin. Muloqotchanlik, bag'rikenglik, yetakchilik, faollik va tashabbuskorlik, moslashuvchanlik, sog'lom turmush tarziga amal qilish, ma'suliyatlilik.

Umummadaniy kompetensiya – o'z tarkibiga ma'lumotli, madaniyatli bo'lishni, umuminsoniy qadriyatlarga va milliy madaniyatga ega bo'lish, mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish, boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilish kabi sifatlarni birlashtiradi.

Maxsus kompetensiya – yetarlicha yuqori darajada o‘zining kasbiy faoliyatini egallash, o‘zining keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalash imkoniyatini beradi. Haqiqiy pedagog mazkur sifatlarni o‘zida shakllantira olishi va o‘z o‘rnida foydalanishni, ta’lim tarbiya maqsadini to‘g‘ri qo‘yib, jarayonni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishi bugungi kun talabidir. Bunda pedagog faoliyati davomida pedagogik jamoada:

- ✓ o‘z ijtimoiy mavqeyiga ega bo‘lishi;
- ✓ o‘z bilimi va tafakkurini oshirib borib, yangilik sari intilishi;
- ✓ samarali natijalarga erishishi;
- ✓ o‘z faoliyatini samarali tashkil etishi;
- ✓ tajriba orttirishi;
- ✓ ish sharoitini yaratishi;
- ✓ ijod etishi zarur.

Zero, Konfutsiy o‘z qarashlarida takidlanganidek, “O‘zini kamol toptira olmagan inson, o‘zgalar kamolotini ta’minlay olmaydi”. Xulosa shuki, ta’limdagi muammolar va ularning yechimlari birinchi navbatda pedagog kompetentligiga bog‘liq.

Ta’lim sifatini ta’minlash – bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan birga o‘quv jarayonining qanday tashkil etilishi va uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko‘rinadi. Ushbu vazifa bir qator qonunchilik va me’yoriy hujjatlarda, xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish misolida aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan ko‘rsatma va tamoyillar ko‘rinishida o‘z aksini topgan.

Shu bois, hozirgi davrda ta’lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, rahbar va pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiiq etish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va maqsadli yo‘naltirish oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi. Bu esa o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv-uslubiy faoliyat mazmunini takomillashtirish, o‘qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini shakllantirdi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. D.I.Kamalova, Sh.M.Mansurova, M.E.Omonboyeva. “Technique of laboratory works in physics using information technologies”. “Science and education”. July. 2020. Volume 1. Issue 4. pp. 145-148.
2. D.I.Kamalova, L.X.Turabova. “Fizika fanini o‘qitishda elektron o‘quv qo‘llanmalardan foydalanishning ahamiyati”. “Polish science journal” International scientific journal. Warsaw, Poland. Issue 4(37). April. 2021. pp. 222-225.
3. L.N.Muzaffarova, D.I.Kamalova. “СВЯЗЬ МАТЕМАТИКИ С ЕСТЕСТВЕННЫМИ НАУКАМИ”. “Science and education”. April. 2021. Volume 2. Issue 4. pp. 593-603.
4. D.I.Kamalova, Y.O‘.Mardanova. “Elektron ta’lim muhitida talabalarning texnik bilimlarini rivojlantirishda pedagogik kompetensiyalardan foydalanish”. “Zamonaviy ta’limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent. 4-5 noyabr. 2021. 321-324 bet.
5. D.I.Kamalova, Y.O‘.Mardanova. “Nutzung pädagogischer kompetenzen beim entwicklung technischen wissens von studierenden im e-learning-umfeld”. “Berlin Studies” transnational journal of science and humanities. Germany. Volume 1. Issue 1.5. November. 2021. pp. 405-411.
6. D.I.Kamalova, S.O.Hamidova, O.D.O‘rinova, M.E.Omonboyeva. “Elektron o‘quv adabiyotlarini ishlab chiqish jarayonlari”. “Science and innovation” International scientific journal. Volume 1. Issue 8. November. 2022. pp. 318-321.
To'g'ridan-to'g'ri usullar bu – yashirin iqtisodiyot ishtirokchilarining maxsus so'rovlari yoki kuzatishlari natijasida olingan ma'lumotlarga asoslangan usullar (hech bo'lmaganda iste'molchilar huquqlari bo'yicha).


Shunday qilib, yashirin iqtisodiyotni o'lchash usullarining ushbu tasnifi zarur ma'lumotlarni olish uchun manba turiga asoslanadi.

Bilvosita usullar bu – rasmiy statistika, moliya organlari, soliq xizmatlarining mavjud umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilishga asoslangan usullar.

Yashirin iqtisodiyot – ijtimoiy muammo. Aynan shuning uchun ham u bilan faqatgina davlat imkoniyatlari bilan kurashish yetarli bo'lmaydi. Jamiyatdagi boshqa kuchlar, birinchi navbatda, tadbirkorlar, keng jamoatchilik bu muammoga o'z muammosi sifatida qarasagina, uni hal qilishda sezilarli natijalarga erishish mumkin.

Bizning fikrimizcha, bu mutlaqo noqonuniy birlashma, chunki to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita usullarga bo'lish olingan ma'lumotlarning manbasiga qarab sodir bo'ladi va mikro va makrometodlarga bo'linish tadqiqot birliklarining qamroviga bog'liq.





1-rasm. O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot hajmini baholash usullari tasnifi[7]

Yashirin iqtisodiyotni statistik o‘lchash usullarini aniqlash bo‘yicha mualliflarning ko‘plab ishlarini o‘rganib, tahlil qilib, bizning fikrimizcha, biz yashirin iqtisodiyotni statistik baholash usullarining quyidagi tasnifini taklif qilishimiz mumkin (1-rasm) va xuddi shu usullarni “Yashirin iqtisodiyot” toifasiga kiritish mumkin. Ularni qo‘llash zaruriyatiga qarab u yoki bu tasnif guruhlari.

Shunday qilib, yashirin iqtisodiyotni o‘lchashning mavjud usullarining yuqorida keltirilgan tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy statistika xizmati kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmini o‘lchash imkoniyatiga ega. Jamiyat taklif etilayotgan baholarning muvofiqligi va foydalanilayotgan usullarning xolisligiga ishonch hosil qilishi mumkin. Biroq, rasmiy statistikaning asosiy vazifasi

statistik kuzatish va ko'rsatkichlarni hisoblash metodologiyasini tako millashtirish, shuningdek, yashirin iqtisodiy faoliyat to'g'risida reprezentativ ma'lumotlarni olishning eng samarali usullarini topishdir.

Demak, tadbirkorlar bilan ochiq muloqot orqali bugun ularning ishiga xalaqit berayotgan muammolar nimadan iboratligini aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etish imkonini beradi.

Bu jarayonlarda barcha, xususan, siyosiy partiyalar, mas'ul idoralar, biznes sub'yektlari va keng jamoatchilik o'zaro ishonchga asoslangan muloqot maydonlarini shakllantirishlari lozim. Ushbu maydon mavzuga doir og'riqli muammolarni qo'rqmasdan ko'tarib, ularga mos yechimlarni taklif qila olsa, davlat rahbari ilgari surgan muammolarni hal qilishda o'zlarining real hissalarini qo'shgan bo'lar edi.

Albatta, g'oyat mashaqqatli va tinimsiz kurashish talab etiladigan ishlarning barchasini bajarish mumkin, keng jamoatchilik, ayniqsa, tadbirkorlik subyektlarini bu umumxalq ishiga keng jalb qila olsak, yangilanayotgan O'zbekistonda shu kabi masalalarga yechim topiladi, mamlakatimiz kelajakda yuqoridagi reytinglarda o'z munosib o'rnini egallaydi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Colin C Williams, Friedrich Schneider. The Shadow Economy. June 2013. DOI:10.13140/2.1.1324.1286. Publisher: Institute of Economic Affairs, London ISBN: 978 0 255 366748. p.14.

2. Raphael Markellos. Sovereign Debt Markets in Light of the Shadow Economy. July 2016 European Journal of Operational Research 252(1):220-231.p.4.

3. Andreas Buehn and Friedrich Schneider. Journal Article. No. 2007-9 July 24, 2007. Shadow Economies and Corruption All Over the World: Revised Estimates for 120 Countries.

4. <https://www.worldbank.org/en/research/brief/informal-economy-database>

5. Baxtiyor Yakubov, O'zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasi raising o'rinbosari. Manba: "Yangi O'zbekiston" gazetasining 146-soni. <https://review.uz/uz/post/ozbekistondayashirin-iqtisodiyotning-darajasi-qanday>.

6. Суринов А.Е. Ненаблюдаемая экономика: Попытка количественных измерений / под ред. А.Е. Суринова. М., 2003. С. 15-24.

7. Muallif ishlanmasi.





**O‘zbekiston psixologlari tomonidan  
er-xotin o‘rtasidagi ajrim sabablarini o‘rganilganligi**

**Qo‘shnazarova O‘g‘iljon Rustambekovna**  
**Urganch davlat universiteti**  
**mustaqil tadqiqotchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston psixologlari tomonidan er-xotin munosabatlaridagi nizolarni o‘rganilganlik xolati yoritilgan. O‘zbekiston psixologlarining oilaviy munosabatlar haqidagi fikrlari to‘liq keltirilgan. Er-xotin o‘rtasidagi nizolar qanday kechishi aniqlanib, izohlandi.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek psixologlari, er-xotin, oilaviy munosabatlar, nizolar, oilaviy hayot muammolari, oilada yuz beradigan ziddiyatlar, ajralishlar.

**Annotatsiya.** В данной статье описывается исследование конфликтов в супружеских отношениях уzbekskimi psixologami. Мнения uzbekskix psixologov о семейных отношениях приводятся полностью. Определено и объяснено, как происходит конфликт между мужем и женой.

**Klyuchevye slova:** uzbekskie psixologi, муж и жена, семейные отношения, конфликты, проблемы семейной жизни, конфликты в семье, расставание.

**Annotation.** This article describes the study of conflicts in marital relations by Uzbek psychologists. The opinions of Uzbek psychologists about family relations are given in full. It was determined and explained how conflicts between husband and wife take place.

**Key words:** Uzbek psychologists, husband and wife, family relations, conflicts, problems of family life, conflicts in the family, separation.

**Kirish.** Muxtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich o‘z nutqida “keyingi paytda oilaviy ajrimlarning oldini olish, ajrim sonini kamaytirish bo‘yicha samarali ishlar olib borilayotganini qayd etib o‘tdilar, buni ajrim yoqasiga kelib qolgan, 23 mingga yaqin oila yarashtirilgani, ajrimlar soni 3 mingdan ziyodga kamaygani ham ko‘rsatib turibdi, lekin shunga qaramay bir achchiq haqiqatni tan olishimiz kerak. bu raqamlar hamon yuqori ko‘rsatkichda saqlanib qolmoqda”, shuningdek, “Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne‘mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma‘naviyat bor. Oilaviy baxt bu – eng ulug‘ saodatdir. Eng katta baxt, men buni

ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo‘lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa, vatan tinch bo‘ladi. O‘sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko‘rish hammamizga nasib etsin!”, — deya ta’kidlagan.

Ma’lumki, o‘zbek oilalarida ajralishlar miqdori boshqa millatlar, masalan rus oilalarinikiga qaraganda ikki marta, Yevropa xalqlarinikiga qaraganda uch-to‘rt marta kam. Ammo har bir ajrashgan oilaga to‘g‘ri keladigan “tirik yetim” bolalar soni boshqa millatlarga nisbatan o‘zbek oilalarida ikki-uch martaga ko‘p. Buning natijasi oilada er-xotin munosabatlarining mustahkamligi va qadriyatlarini yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda oilaviy nizolar hamda ajralish muammosini ilmiy asosda o‘rganish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda.

Oilaviy nizolarning eng xarakterlilaridan biri bu er va xotin o‘rtasidagi nizolardir. Xo‘sh, eng ezgu niyatlilar bilan bir-birlarini sevib oila qurgan yoshlar nega oila qurishgandan keyin ularning o‘zaro munosabatlarida nizo-janjallar ro‘y beradi? Ular nima uchun urushadilar? Umuman er-xotinlik hayotida nizolarsiz, urush - janjalarsiz ham yashasa bo‘ladimi? Bu kabi savollarni yana ko‘p davom ettirish mumkin.

Xalqimizda bir gap bor: oshsiz uy bo‘lishi mumkin, lekin nizosiz uy bo‘lmaydi. Faqat, nizoning nizodan farqi bor.

Yosh oilada er-xotinlarning o‘zaro munosabatlari rivojlanishining o‘ziga [xos qonuniyatlari](#), ayniqsa, yosh o‘zbek oilasida uning etnik, hududiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yosh kelin va kuyovning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashishi jarayoni bilan bog‘liq qiyinchiliklar er-xotin munosabatlarida nizoli vaziyatlar va nizolarni yuzaga keltirishi mumkin. Afsuski, bunday jarayonlar deyarli har bir oila uchun muqarrar bo‘lgan va aksariyat yoshlar oila qurish arafasida o‘z nikohlaridan kutmagan jarayonlardir

**Mavzuga oid adabiyotlar taxlili (Literature review).** X.Karimovning ilmiy ishlarida o‘zbek oilasida er-xotin orasidagi nizolar boshqa millat vakillari (rus, ukrain va boshqa) oilalaridagi nizolardan farqlanishi, ya’ni o‘ziga xos etnopsixologik xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan o‘zbek oilalaridagi er-xotin orasida nizolarning kelib chiqishiga milliy-madaniy muhitga xos bo‘lgan nikoholdi omillarining xususiyatlari: ya’ni ba’zida tanishish imkoniyatining bo‘lmasligi yoki qisqaligi ham ta’sir etishi, natijada yuzaga kelgan nizo sabablarini tomonlar o‘zidan



qidirmasligi, uni bartaraf etishda ota-onalarga tayanish, oiladagi o‘zaro munosabatlar qo‘pollik asosiga qurilishi va boshqa bir qator salbiy holatlar yuzaga kelishi ko‘rsatib o‘tiladi.

X.Karimov tadqiqot ishlari natijalariga tayanib er-xotin o‘rtasidagi yuz beradigan nizoli holatlarning klassifikatsiyasini ishlab chiqqan. Nizolar klassifikatsiyasini asoslashda nizo sabablari, unda ishtirok etganlar soni, uning ifodalanish darajalari, nizo o‘chog‘i, yo‘nalganlik xarakteri, bosqichlari va boshqalar asos qilib olingan. Shu bilan bir qatorda, muallif tadqiqotlariga tayanib oilaviy nizolarning oldini olish yo‘llari, bartaraf qilish choralari, unda o‘zaro munosabatlar barqarorligini ta‘minlashga bog‘liq tavsiyalarni ham ilgari suradi. [1.142-b.]

F.R.Ro‘ziqulov ilmiy izlanishlarida o‘zbek oilalarda ajralishning ijtimoiy-psixologik asoratlarini ilmiy asoslashga harakat qilgan. F.Ro‘ziqulov ajralish 34 miqdori haqida gapirar ekan, “Ajralish respublikamiz hududida istiqomat qilayotgan oilalarda Fransiya, Angliya, Germaniya, AQSH, Boltiq bo‘yi davlatlari, Rossiya va boshqa MDH mamlakatlaridagiga qaraganda, bir necha marotaba kam bo‘lsa-da, biroq o‘zbek oilalarida ajralish asoratlari nihoyatda ayanchli, noxush holatlar, kechinmalar, hodisalar keltirib chiqarishini hisobga olsak, uning miqdoriy ko‘rsatkichlari quyi ekanligi xotirjamlikka asos bo‘la olmaydi”, deb ko‘rsatib o‘tadi. Muallifning tadqiqot xulosalariga ko‘ra, ajralish va uning asoratlari o‘zbek oilalarida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ko‘p bolalilik, uning murakkab tuzilmaliligi, qarindosh-urug‘chilik aloqalarining kuchliligi, oila-nikoh munosabatlarining etnik xususiyati ko‘proq saqlanib kelganligi, o‘zbek oilasida ajralish boshqa xalqlarnikiga nisbatan qoralanishi, er-xotinlarning turmush darajasi, bilim saviyasi, muloqot madaniyati va shu kabilar bilan asoslanadi.

[3,160-b.]

E.G‘oziyevning oilaviy hayot muammolari sohasida olib borgan tadqiqotlarida ta‘kidlanishicha, oilaviy munosabatlar turli negiz: iqtisodiy, mafkuraviy, hissiy-irodaviy, ahloqiy-aqliy, qarindosh-urug‘chilik, yaqinlik va do‘stlik- birodarlik asosida quriladi. Ana shu negizlar baquvvat oilada er-xotin totuvligi, oila barqarorligi, oilaning baxti va farovonligi ta‘minlanadi.[4,123-b.]

E.G‘oziyev o‘z tadqiqotlarida oilada yuzaga keladigan ziddiyatlar va oila buzilishlari haqida ham alohida to‘xtalib, uning muayyan sabablari: er-xotinning xarakter jihatidan mos tushmaganligi, farzand ko‘rmaslik, kelinning ma‘naviy va

jismoniy jihatdan haqoratlanganligi, moddiy ta'minotdagi kamchiliklar, tarbiyaviy qashshoqlik, oilada ortiqcha an'ana va marosimlarning mavjudligi, ichkilikka ruju qo'yish, rashk, madaniy hordiq chiqarish imkoniyatining yo'qligi, qarindoshurug'chilikdagi ko'ngil buzar ishlar mavjudligini ko'rsatib o'tadi.

M.G.Davletshin tadqiqotlarida o'zbek oilasining etnopsixologik muammolari keng qamrovli o'rganilgan, shuningdek, ta'lim tizimida o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda etnopsixologik omillarni e'tiborga olish masalalari, etnopsixologik xususiyatlarning O'zbekistonning psixologiya fanida o'rganilganlik darajalari nazariy yo'nalishda tahlil qilinadi.

M.G.Davletshin ajrimlar ularning yuzaga keltirgan sabablar er-xotinlarning o'zaro munosabatlari doirasidan tashqaridagi omillarga xam bog'liq bo'lmoqda. Ularning sababchilari va ishtirokchilari xam ba'zan er-xotindan tashqari uchinchi odam bo'lishi mumkin, xal etilishi ham er-xotinlarning o'zlarigagina emas balki shu uchinchi “boshqa” odamga bog'liq bo'ladi. Bularning oqibatida nizolarning yanada kuchayishi va sonining ortishi kuzatiladi. [8,37-b]

N.A.Sog'inov o'z tadqiqot ishlarida o'zbek oilalarida kuzatiladigan ajralishlarning etnopsixologik xususiyatlari, ajralishlarga olib keluvchi muhim omillar, uning motivlari va sabablarini ilmiy asoslashga harakat qilgan. [6,49-b]

N.A.Sog'inovning ta'kidlashicha, o'zbek oilalarda er-xotinlarni yoki ulardan birini ajralishiga undovchi muhim sabablar sirasiga turmush o'rtog'ining qo'polligi, turmush o'rtog'ining hurmat qilmasligi, yosh oila hayotiga ota-onalarnig noo'rin aralashuvi, turmush o'rtog'ining oilaning umumiy masalalariga befarqligi va boshqalar kiradi. [5,49-b]

M.Fayziyeva tadqiqotlarida oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yoritilib, munosabatlar barqarorligini ta'minlashda er-xotin o'rtasida o'zaro hurmat va ishonchning bo'lishi, oila a'zolarining tushunishlari, muomala odobi, ularning onglilik va ma'naviyahloqiy mavqei, moddiy ta'minlanganlik, rollar taqsimotining o'rnliligi, jinsiy moslik, uy-joy mavjudligi muhim omillar sifatida e'tirof etilgan.

M.Fayziyevaning xulosalariga ko'ra, nizolarning kelib chiqishida er-xotin fe'l-atvorining mos kelmasligi, farzandsizlik, byudjetni oqilona boshqara olmaslik kabi omillar tan olinsa, rashk va ishonchsizlik, oilaga uchinchi shaxsning aralashuvi, jinsiy munosabat qoidalariga amal qilmaslik ziddiyatlar kelib chiqishida muhim o'rin egallashini e'tirof etadi. [7,121-b.]



**Taxlil va natijalar (Analysis and results).** V.M.Karimova tadqiqotlarida oilaviy ijtimoiy tasavvurlar shakllanishida bola shakllanayotgan oila va undagi o‘zaro munosabatlar xarakteri muhim ahamiyat kasb etishi, ya’ni oilaning katta yoki kichikligi, to‘liq yoki noto‘liqligi, undagi rollar, jinsiy o‘zaro munosabatlar haqida va reproduktiv tasavvurlar xarakterini belgilashi va shaxsiy ijtimoiy ustanovkalar yo‘nalishida aks etishi aniqlangan. Oiladagi o‘zaro munosabatlarning asosini tashkil etgan oilaviy rollarga oid tasavvurlar va ularning differentsiatsiyasi o‘zining yosh, hududiy va jinsiy xususiyatlariga ega bo‘lib, ular avvalo har bir oilaning ruhiy ma’naviy muhiti, u yerdagi milliy qadriyatlar, an’analar, rasm-rusumlar qanchalik saqlanib qolganligiga ham bog‘liqligi asoslangan. Muallif nikoh yoshigacha bo‘lgan yoshlar bilan oilali er-xotinlarning oilaviy ijtimoiy tasavvurlari o‘rtasidagi asosiy farqlarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilib, uning sabablarini ko‘rsatib o‘tgan. Ajralish faqatgina ajralgan er-xotinlar emas, balki ajralish oqibatida otasiz yashayotgan farzandlarga salbiy ta’sir ko‘rsatar ekan. Ayniqsa, ajralish natijasida o‘sayotgan qiz bolani xis tuyg‘ulariga otasiga bo‘lgan mexriga, qiz bolada shakllanadigan ota obriziga va otasiz o‘sayotgan qizning ruxiyatiga kuchli ta’sir qiladi. Bu esa nafaqat qiz bolani bolalik davrida balki kelgusi o‘zi mustaqil oila qurganida xam o‘z asoratini ifodalashi mumkin. [2.44-45-b]

Oila - bu muhabbat va hurmatda yaratilgan aholi va qonunlarga ega bo‘lgan kichik davlat. Har bir mustahkam va birlashgan oilada o‘zlarining oilaviy qadriyatlari mavjud bo‘lib, bu jamiyatning bu tuzilishiga butunligini saqlashga yordam beradi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Nizoli vaziyatlar har qanday oilada u yoki bu darajada yuzaga keladi. Oila qanday bo‘lishidan qat’i nazar nizolar- dan mutlaqo xoh (himoyalangan, kafolatlangan) bo‘la olmaydi. Chunki oiladagi shaxslararo munosabatlar odatda nizosiz bo‘lmaydi. Bu nizolar ma’lum darajada er-xotin munosabatlarini rivojlantiruvchi katalizator vazifasini o‘taydi. Lekin nizoning nizodan farqi bor. Ular kelib chiqishi, tashqi ifodalanishi, takrorlanib turish tezligi (soni) va nihoyat oqibatlariga ko‘ra bir-birlaridan farqlanadi. Biror-bir maxsus mezon yo‘qki, shunga asosan nizolarning qaytalanishi, kuchi, darajasi va boshqa ma’lumotlari (ko‘rsatkichlari)ni aniq belgilab berish (olish) mumkin bo‘lsa. Bunda hamma narsa subyektning o‘ziga, uning shaxsiy, psixologik xususiyatlariga, yoshiga, jinsiga, uning qo‘yilishiga, nizoning qanday idrok qilinishi va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi. Ma’lumki, bir-birlariga aynan

o'xshash, mos ikki odamning bo'lishi mumkin emas, chunki shaxs va uning individualligi takrorlanmasdir. Shunday ekan ikki va undan ortiq shaxsdan (individ)dan tashkil topgan oila ham ikki, uch karra takrorlanmasdir.

Bir oila uchun me'yorida bo'lgan shaxslararo munosabatlar tizimi, ikkinchi bir oilaga mutlaqo mos kelmasligi, yoki biron-bir oila uchun u qadar ahamiyatga ega bo'lmagan nizo va uning sababi boshqa oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida jiddiy oqibatlar olib kelishi mumkin va hokazo.

Shunday ekan jamiki oilalarga xos bo'lgan nizolar va ularning sabablarini yagona bir o'lcham yoki xarakteristika bilan ko'rsatib berish masalasi ham mantiqqa to'g'ri kelmaydigan ishdir. Lekin turli toifadagi oilalarni o'rganish, ular a'zolarining o'zaro munosabatlarini taqqoslash va shu kabilar asosida ayrim nisbiy xulosalarga, mulohazalarga kelish mumkinki, shu nisbiylikdan har bir odam o'zi uchun nisbatan «tegishli» xulosalar chiqarib olishi lozim bo'ladi. Shuning uchun, biz quyida oilaviy munosabatlar, oiladagi nizolar haqida fikr yuritir ekanmiz, ularning barcha oilalarga mutlaq tegishli bo'lishligini (ekanligini) da'vo qilolmaymiz.

Er-xotin nizolarini bartaraf etishda yanada yuksak psixokorreksion va psixokonsultatsiya yondashuvlarini, oilaviy hayotga ta'sirini qulaylashtirish imkoniyatlarini tayyorlash bugungi kunning dolzarb tavsiyasi hisoblanadi. Shuningdek, psixokorreksion va psixokonsultatsiya yondashuvlarini sog'lom oila qurishga yoshlarni lozim darajada tayyorlash, psixik sog'lom er-xotinlarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi yoshlari o'rtasida, eng avvalo turli o'quv muassasalari bazasida, global tarmoqda ommalashtirish mexanizmlarini o'rganish ushbu tadqiqotimizning eng asosiy maqsadi hisoblanadi.

Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi tomonidan ajrimlarning sabablari o'rganilganda, aksariyat holatlarda bu birinchi o'rinda er-xotinlarning o'zaro kelishmovchiliklari, fe'l-atvorning bir-biriga mos kelmasliklari, rashk, xiyonat, kelin bilan qaynona va boshqa yaqin qarindoshlarning chiqishmasliklari, erkakning zararli odatlarga berilib ketishi (ichkilikka, giyohvand moddalarga va shu kabi), moddiy qiyinchiliklar (asosan erning ishlamasligi, mustaqil oilani boshqara olmasligi), qudalarining to'ydan keyin o'zaro kelishmay qolishlari, erning daraksiz ketib qolishi kabilar qayd etiladi. Ajrimlar sabablari o'rganilganda, iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli oilaning buzilishi eng oxirgi o'rinda qayd etiladi, chunki aksariyat o'ziga to'q, boy-badavlat oilalarda yoshlar asosan uch sabab tufayli ajrishib ketmoqda: rashk va xiyonat, kelin-qaynona munosabatlaridagi



kelishmovchilik va turmush sharoitidagi noqulayliklar. Umuman olganda, nikoh ajrimlarining bosh omili yoshlarni ma'naviy jihatdan turmush qurishga tayyor emasliklaridir.

Shuning uchun xam hozirgi vaqtda ajralish muaamosi ilmiy asosda o'rganish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Bu o'rinda ajralish omillari va sabablarini aniqlash muxim axamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov X.K. Uzbek oilalarida er-xotin nizolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Dis... psixologiya fanlari nomzodi. - T.: 1994. - 142 b.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishida er-xotin uzaro munosabatlariniig roli. / Uzbek oilasi- ning etnopsixologik muammo-lari. Resp. Ilm. amal. anj. ma'ruzasi kiskacha bayoni. - T., 1993. -44-45 b.
3. Ruzikulov F.R. Uzbek oilalarida ajralishning ijtimoiy- psixologik asoratlari: Dis... psixologiya fan nomzodi: 19.00.05. - T.:2002.-160 b
4. G'oziyev. E, M. Xolmuhammedov, X. Ibrohimov. Psixologiya metodologiyasi .T: "Sharq",2002.-123 b49 SHoumarov G' B, I.O.Haydarov "Oila psixologiyasi" o'quv qo'l. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun. 2008 y. "SHarq" nashriyoti.
7. Soginov NA. SHoumarov F. B. Uzbek oilalrida ajralish va uning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. //Resp. Ilm- amal. anjum. ma'r. kisk. bayoni. -T., 1993. - 49 b.
8. Soginov N.A. YOsh uzbek oilalarida yuzaga keladigan er- xotin nizolarining etnik xussusiyatlari. //Resp. Ilm amal. anjum. Ma'ryu. kiska bayoni. -T., 1993. -49 b.
9. Mavluda Fayzieva, Azim Jabborov «Oilaviy munosabatlar psixologiyasi» Toshkent «YAngi asr avlodi» 2007.121-b
10. Davletshin M.G, Shoumarov G 'B. Zamonaviy o'zbek oilasi va uning psixologik xususiyatlari / O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anju- mani ma'ruzalari qisqacha bayoni. — Toshkent, 1993. - 37-b.

## Psixologik xizmatlar orqali talabalarning ta'lim motivatsiyasini rivojlantirish

Odamova O'g'iljon Kenjayevna – Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi

[ogiljon-odamova@gmail.com](mailto:ogiljon-odamova@gmail.com) <tel:+998942302875>

**Annotatsiya:** Mazkur maqola motivatsiyani shakllantirish inson shaxsini rivojlantirishning ajralmas qismi ekanligi va Ta'lim motivatsiyasini o'rganish talaba shaxsini rivojlantirishning turli bosqichlarida amalga oshirilishi kerakligi, kognitiv va keng ijtimoiy motivlarga qarab natijalar ham har xil bo'lishi mumkinligi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** muvaffaqiyat, bevosita, inqiroz, rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlar, shaxs, samaradorlik, o'zlashtirish, organizm.

Talim muassalarining psixologik xizmati tizimi ta'lim tizimining zaruriy qismi bo'lib, ko'p jihatdan uning hozirgi holatini aks ettiradi va uni rivojlantirishning zarur turlari va usullariga talablarni keltirib chiqaradi.

Barcha Talim muassalari talabalarining shaxsini rivojlantirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish bo'yicha tizimli ishlar psixolog tomonidan talabalarining muammolari va yoshiga qarab ajratilgan tizimli psixologik treninglar shaklida olib boriladi, uning mazmuni bilim, ko'nikma va mehnat qobiliyatini o'z ichiga oladi. ma'lum yoshdagi talabalarining tipik psixologik muammolari bilan.

Motivatsiya va qiymat yo'nalishlarini shakllantirish inson shaxsini rivojlantirishning ajralmas qismidir. Ta'lim motivatsiyasini o'rganish talaba shaxsini rivojlantirishning turli bosqichlarida amalga oshirilishi kerak, chunki kognitiv va keng ijtimoiy motivlarga qarab natija har xil bo'ladi. Talabalar faoliyati va uning o'quv motivatsiyasini o'rganishimiz o'quvchilarning o'quv jarayoniga jalb etilishining bir necha bosqichlarini aniqlash imkonini beradi [2]. Ushbu bosqichlarning har biri, birinchi navbatda, o'rganishga ma'lum umumiy munosabat bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, o'quvchilarning ta'limga jalb etilishining har bir darajasi ortida turli motivlar va o'quv maqsadlari yotadi. Uchinchidan, talabaning



ta'limga jalb etilishining har bir bosqichi o'rganish qobiliyatining u yoki bu holatiga mos keladi, bu ma'lum motivatsion munosabatlarning sababini, to'siqlarni, talabaning ishdagi qiyinchiliklardan qochishini va hokazolarni tushunishga yordam beradi.

Rivojlanishning o'tish, inqirozli davrlarida yangi motivlar, yangi qiymat yo'nalishlari, yangi ehtiyojlar va qiziqishlar paydo bo'ladi va ular asosida oldingi davrga xos bo'lgan shaxsiy xususiyatlar qayta quriladi. Shunday qilib, ushbu asrga xos bo'lgan motivlar shaxsni shakllantiruvchi tizim sifatida ishlaydi va o'z-o'zini anglashni rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'z “men” ning mavqeini anglash bilan bog'liq. Qadriyat yo'nalishlari ham, motivlar ham shaxs tuzilishining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ularning shakllanish darajasi shaxsning rivojlanish darajasini baholash uchun ishlatilishi mumkin. O'rta maktab yoshidan talabalik davriga o'tish qarama-qarshiliklar va odatiy hayot g'oyalarini buzish bilan birga keladi. Turli kurslar, fakultetlar va mutaxassisliklar talabalari o'rtasida motivatsiyadagi farqlar kuzatilishi mumkinligini hisobga olish kerak. Talabalik davrida bir tomondan, motivatsiyaning o'zgarishi, barcha qiymat yo'nalishlari tizimi, ikkinchi tomondan, maxsus qobiliyatlarning jadal shakllanishi sodir bo'ladi. Talabalik yoshi ijtimoiy yaqinlashuvga intilish, hayotning ma'nosini izlash, ob'ektiv sharoitlar va shaxsning qadriyat yo'nalishlari bilan belgilanadigan hayot rejalarini qurish bilan tavsiflanadi. Oliy ma'lumot olish va qiziqarli ishlash istagi aniq ifodalangan. Yaxshi turmush sharoiti va moddiy ta'minotiga e'tibor kuchaytirilmoqda [ 7].

Talabalik davrida talabalarining o'z kelajagiga umumiy yo'nalishi mavjud bo'lib, ular uchun butun hozirgi zamon ularning shaxsiyatining ushbu yangi yo'nalishi tarmog'ida paydo bo'ladi. Ular o'zlarining axloqiy dunyoqarashini, tashqi sharoitlar va boshqalarning bosimidan qat'iy nazar barqaror e'tiqodlar tizimining mavjudligini nazarda tutuvchi axloqiy “men” ni shakllantiradilar.

Umuman Talim muassalaridagi o'quv jarayonining samaradorligi talabalarining kelajakdagi kasbini egallashga bo'lgan ishtiyoqi qanchalik yuqori ekanligiga bevosita bog'liq.

Talabalik davrida shaxsiy rivojlanishning eng muhim sharti muloqotdir. Shaxs rivojlanishining ushbu bosqichida muloqot ta'lim faoliyati bilan bir qatorda yetakchi faoliyatdir. Muloqot sohasida yangi o'zgarishlar ro'y beradi. Shuni ta'kidlashni istardimki, bu yosh o'sish jarayonining tugashi bilan tavsiflanadi, bu

oxir-oqibatda organizmning gullab-yashnashiga olib keladi, bu yoshning nafaqat o'rganishdagi alohida mavqeiga, balki boshqa imkoniyatlar, rollarni o'zlashtirishi uchun asos yaratadi. va intilishlar. Rivojlanish psixologiyasi nuqtai nazaridan, talaba yoshida ichki dunyo va o'z-o'zini anglash xususiyatlari o'zgaradi, psixik jarayonlar va shaxs xususiyatlari rivojlanadi va qayta tuziladi, hayotning hissiy-irodaviy tuzilishi o'zgaradi. Aynan yoshlikda boshqalarning holatlariga hamdard bo'lish, bu holatlarni o'zinikidek his qilish qobiliyati yanada keskinlashadi. Shuning uchun ham yoshlar o'zining boshqa odamlarga nisbatan namoyon bo'lishida, tabiatni o'ylash va unga identifikatsiya qilishdan olingan taassurotlarni boshidan kechirishida, san'atga munosabati va tushunchasida juda nozik, nozik bo'lishi mumkin. Identifikatsiya insonning his qilish sohasini yanada nozik qiladi, uni yanada boy va ayni paytda himoyasiz qiladi. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim faoliyati uchun motivatsiya bir xil emas, bu ko'plab omillarga bog'liq: talabalarning individual xususiyatlari, bevosita murojaat guruhining tabiati, talabalar jamoasining rivojlanish darajasi va boshqalar. Boshqa tomondan, inson xatti-harakatining motivatsiyasi psixik hodisa sifatida harakat qilib, har doim shaxs vakili bo'lgan ijtimoiy qatlam (guruh, jamoa) qarashlari, qadriyat yo'nalishlari va munosabatlarini aks ettiradi. Ta'lim faoliyati motivatsiyasini ko'rib chiqayotganda, motiv tushunchasi maqsad va ehtiyoj tushunchasi bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlash kerak. Shaxsning shaxsiyatida ular o'zaro ta'sir qiladi va motivatsion soha deb ataladi. Adabiyotda bu atama barcha turdagi motivlarni o'z ichiga oladi: ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsadlar, rag'batlantirishlar, motivlar, moyilliklar, munosabatlar. Ta'lim motivatsiyasi ma'lum bir faoliyatga kiritilgan motivatsiyaning ma'lum bir turi sifatida belgilanadi - bu holda o'qitish, ta'lim faoliyati. Har qanday boshqa turdagi kabi, ta'lim motivatsiyasi ham u ishtirok etadigan faoliyatga xos bo'lgan bir qator omillar bilan belgilanadi [5].

Birinchiidan, uni ta'lim tizimining o'zi, ta'lim muassasasi belgilaydi; ikkinchiidan, - o'quv jarayonini tashkil etish; uchinchiidan, o'quvchining sub'ektiv xususiyatlari; to'rtinchiidan, - o'qituvchining sub'ektiv xususiyatlari va birinchi navbatda, uning o'quvchiga, mehnatga bo'lgan munosabatlari tizimi; beshinchiidan, - o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim motivatsiyasi, har qanday boshqa turdagi kabi, tizimli bo'lib, yo'nalish, barqarorlik va dinamizm bilan ajralib turadi. Talim muassalaridagi psixologik xizmatning asosiy vazifasi talabalarning hayotning yangi sharoitlariga moslashishi va Talim muassalarida o'qishga imkon qadar tezroq



yordam berishdan iborat; yuzaga kelgan psixo-emotsional, intellektual va jismoniy ortiqcha yuklarni bartaraf etish oqilona. Shaxsning motivatsion sohasi insonning ichki holati va tashqi xulq-atvorini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Psixologik xizmat ta'lim jarayoni bilan birga keladi va shuning uchun birinchi navbatda mijozlarning shaxsiy rivojlanishi va faoliyatining hozirgi holati bilan bevosita bog'liq muammolariga duch keladi. Talabalar psixologik xizmatga murojaat qiladigan dolzarb muammolarning mazmuni va sifatini tahlil qilish nafaqat o'quv jarayonini psixologik qo'llab-quvvatlashning boshqa turlarining yo'nalishini o'zgartirishga, balki o'quvchining shaxsiy rivojlanishining ayrim hodisalarini o'rganishga imkon beradi. Ta'lim sohasidagi taraqqiyot hozirgi kunda eng dolzarb bo'lib, inson rivojlanishi va hayot sifatini yaxshilash uchun haqiqiy ahamiyatga ega [10].

Shuningdek, u yosh avlod salomatligini mustahkamlash, ijtimoiy muhitni uyg'unlashtirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga katta hissa qo'shishi mumkin. Shu munosabat bilan belgilangan vazifalarni hal etish mexanizmlari va ularni mamlakatimiz ta'lim muassasalari amaliyotiga tatbiq etish yo'llari haqida savol tug'iladi. Mamlakatda ta'lim tizimining yangi gumanistik paradigmaga o'tishi munosabati bilan ta'lim sohasida ko'p tarmoqli yordamni har tomonlama rivojlantirish zarurati ayniqsa keskinlashdi. Shaxsni barcha ko'rinishlarida tan olish hozirgi vaqtda shaxsni sotsializatsiya qilishning amalda yagona instituti sifatida ta'limning eng muhim ustuvor yo'nalishidir.

Zamonaviy O'zbekistonda faoliyatning turli sohalarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning asosiy bazasi oliy kasbiy ta'lim muassasalaridir. Talabalarning har biri, kasbiy yo'nalishi, malakasi, kasbiy faoliyatning mo'ljallangan yo'nalishi, ta'lim faoliyatini amalga oshirishdan qat'i nazar, kasbiy bilim va ko'nikmalarga qo'shimcha ravishda, zamonaviy jamiyatda mavjud bo'lish va harakat qilish uchun ma'lum qobiliyatga ega bo'lishi kerak. O'zini amalga oshirishda ham, ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshirishda ham mumkin bo'lgan ijobiy natija.

Axborot bilan to'yingan dunyoda ishlash shartlari, doimiy vaqt etishmasligi va har doim ham ish va dam olish uchun qoniqarli sharoitlar odamdan doimiy zo'riqishni talab qiladi. Shuning uchun mutaxassisning psixologik holatining ahamiyati uning kasbiy faoliyati muvaffaqiyatining eng muhim tarkibiy qismidir. Zamonaviy jamiyatning har bir sub'ekti hayotida deyarli doimo yuzaga keladigan

psixologik muammolarni ijobiy hal qilish tajribasi dastlabki kasbiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida olinishi kerak. Bozor sharoitida samarali faoliyat ko'rsatishga qodir ijtimoiy harakatchan shaxsni shakllantirish zamonaviy oliy ta'limning eng muhim vazifasi bo'lib, uni Talim muassalaridagi psixologik xizmat aniq hal qilishi kerak. U Talim muassalarining ta'lim muhitida talabaning raqobatbardosh shaxsini rivojlantirishga psixologik yordam ko'rsatadigan ilmiy, uslubiy va amaliy markaz sifatida harakat qilishi kerak. Talim muassalarining psixologik xizmatining ahamiyati psixologik fanni boyitishga hissa qo'shadigan yangi bilimlarni olish nuqtai nazaridan baholanishi kerak.

Psixologik xizmatning faoliyat ko'rsatish jarayonida nazariy va amaliy muammolarni hal qilish birlashtiriladi: bir tomondan, psixik hodisalarni o'rganish va tushuntirish amalga oshiriladi, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi sodir bo'ladi, birgalikdagi faoliyat optimallashtiriladi va hokazo. Ta'limda psixologik xizmat muhim rol o'ynaydi, chunki hozirgi vaqtda ta'lim va tarbiya sohasidagi ko'plab muammolar nafaqat hal qilinmagan, balki yanada yomonlashgan. Aksariyat talabalar va o'qituvchilar qandaydir psixologik yordamga muhtoj, ammo qayerga murojaat qilishni bilishmaydi [11].

Ma'lumki, maktablarda psixolog ancha vaqtdan beri psixologik xizmat faoliyatni yuritib kelmoqda va maktab o'quvchilari va o'qituvchilari bilan ishlashda katta tajribaga ega, ammo oliy kasbiy ta'lim sohasida ham tashkiliy va uslubiy jihatdan ko'plab muammolar mavjud. Bizning tadqiqotimiz Talim muassalarilarda psixologik xizmatni tashkil etishning xususiyatlarini va bu bilan bog'liq muammolarni ko'rib chiqishga imkon berdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aseev V.G. Xulq-atvor va shaxsiyatni shakllantirish motivatsiyasi. M., 2006 yil.
2. Atkinson J.V. Motivatsiyani rivojlantirish nazariyasi. N., 2006 yil.
3. Bodalev A.A. Shaxsiyat haqida psixologiya. Moskva davlat Talim muassalarii, 2008 yil, 63-bet.
4. Galperina P.Ya. Psixologiyaga kirish. Uch. Talim muassalarilar uchun qo'llanma, 2003 yil.
5. Gadjeva M.M. Ta'lim tizimida psixologik xizmatning o'rni.//maqolalar to'plami.FU.DGPU// M. 2005 y.



6. Orlov Yu.M. Talim muassalari talabalarining o‘quv faoliyati samaradorligining ehtiyoj-motiv omillari: Dissertatsiya avtoreferati. Psixologiya fanlari doktori n. M., 2004 yil.
7. Smirnov S.D. Oliy ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi: faoliyatdan shaxsga / Oliy ta’lim talabarlari uchun darslik. ped. darslik muassasalar - M., 2003 y.
8. Rubinshteyn S.P. Umumiy psixologiya asoslari. - Sankt-Peterburg “Peter”, 2009 yil.
9. X. Dekina E.V. Psixologik va pedagogik faoliyatga kirish. Tula: TSPU im. nashriyot uyi. L.N. Tolstoy, 2005 yil.
10. Krasnoshchechenko I.P. Psixologik tarbiyaning qadriyat asoslari. 2007. No 3. 37-48-betlar.
11. Kretsan Z.V. Ijtimoiy-psixologiya fakulteti talabarlari uchun amaliyotni tashkil etish ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatlari uchun asos sifatida. 2009. No 1. B. 60-71.
12. Menshikov P.V. Talim muassalarida psixologik olimpiada: kontseptual asoslar va metodologiya. 2007. No 2. B. 103-110.
13. Razina T.V. Psixologiya fanining kategorik tuzilishi va ularning psixologik fakultet talabarlari orasida rivojlanishi haqidagi fikrlar. 2007. No 3. B. 19-36.
14. Savin E.Yu., Fomin A.E. Ta’lim psixologiyasi: mavzuni tushunish va o‘quv kursini qurishda yangi ko‘rsatmalar. 2007. No 2. B. 78-95.

---

# Research Science and Innovation House

## MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGI DAVLATLARI VA O‘ZBEKISTON O‘RTASIDAGI ALOQALARNING RIVOJLANISH MUAMMOLARI

**Abdusalomov Mo‘min Murtazo o‘g‘li**  
Oriental universiteti,  
Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

### Annotatsiya

Ushbu maqola hozirgi kundagi regional masalaga aylanib borayotgan Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi doirasidagi muammolarga bir nechta faktorlar orqali yechim topishga harakat qiladi. MDH davlatlaridagi muammoli vaziyatlar, geosiyosiy keskinliklar va bir nechta umumiy masalalar prezidentimizning mintaqaviy sammitlarda so‘zlagan nutqlari orqali qamrab olinadi. Davlatlardagi iqtisodiy, madaniy va siyosiy hamkorliklarni yanada oshirish hamda o‘zaro aloqlarni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

**Tayanch so‘zlar:** turizm, ekologiya, sport, yoshlar siyosati, madaniy shaharlar, logistika sohasi, iqtisodiy hamkorliklar, import va eksport masalalari.

### Annotation

This article highlights the problems and solutions within the framework of the Commonwealth of Independent States, which is becoming a strategic issue today, through several factors. The situation in the above countries covers geopolitical tensions and several common needs with presidential speeches at regional summits. The issues of increasing economic, cultural and political cooperation between the countries and developing mutual relations will be considered.

**Key words:** tourism, ecology, sports, youth policy, cultural cities, logistics sector, economic cooperation, import and export issues.

So‘ngi yillarda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasida amalga oshirilgan strategik loyihalar o‘z ijobiy natijasini ko‘rsatmoqda. Hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlar orqasidan qo‘shni davlatlarga borib kelish tizimi osonlashtirildi. Misol uchun, Qozog‘iston, Qirg‘iziston Respublikalari bilan bardavom aloqalar o‘rnatilmoqda. Xalqlarimiz o‘rtasidagi ma‘daniy aloqalarni va boshqa sohalardagi ikkitomonlama manfaatli munosabatlarni yanada





rivojlantirishga chorlaydigan shartnomalar tuzishda davom etmoqdamiz. Ushbu shartnomalar natijasi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Ta’kidlash joizki, Nyu-Yorkda o‘tkazilgan BMTning 78-sessiyasida Prezidentimiz shunday ta’kidlaydilar: “Ishonch bilan aytish mumkinki, bizning xalqlarimizni mintaqaviy o‘ziga xoslikni anglash tuyg‘usi birlashtirmoqda va bu tuyg‘u tobora kuchayib bormoqda. Bizning nafaqat tariximiz, balki kelajagimiz, hayotiy muhim manfaatlarimiz ham umumiy va mushtarakdir. Mintaqaviy hamkorligimizni kengaytirishdan boshqa yo‘limiz yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas!”<sup>1</sup> MDH doirasida iqtisodiy, ma’daniy va siyosiy munosabatlarni global ehtiyojlar sifatida barqaror faoliyat yuritishi uchun ko‘plab harakatlar amalga oshirilayotganligini yuqoridagi ta’kidlanganlar asosida anglashimiz mumkin.

### **MDH tashkilotlari jahon davlatlari nigohida (Xalqaro tajriba)**

Xalqaro nigohda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) bir necha faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi ta’kidlanadi. Jumladan:

- iqtisodiy hamkorlik: a’zo davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni, xususan, savdo shartnomalari va qo‘shma korxonalarni rivojlantirishga yordam beradi.
- siyosiy muloqot: mintaqaviy va xalqaro muammolar bo‘yicha siyosiy munozaralar va maslahatlarga yordam beradi.
- madaniy almashinuv: a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash uchun madaniy va ma’rifiy almashinuvlarni rag‘batlantiradi.
- xavfsizlik sohasida hamkorlik: xavfsizlik masalalari, jumladan, terrorizmga qarshi kurash va chegara nazorati bo‘yicha sa’y-harakatlarni muvofiqlashtiradi.
- gumanitar yordam: tabiiy hamda sun’iy ofatlar va favqulodda vaziyatlarda yordam ko‘rsatadi.
- yuridik asoslar: a’zo davlatlarning o‘zaro munosabatlarini tartibga solish uchun huquqiy kelishuvlar va asoslarni ishlab chiqadi.
- tadqiqot va axborot almashish: a’zo davlatlar o‘rtasida tadqiqot, ma’lumot almashishni rag‘batlantiradi.
- sport ko‘rgazmalari: sport musobaqalarini tashkil qiladi va o‘tkazadi, sport faoliyati orqali birlik tuyg‘usini rivojlantiradi.

<sup>1</sup> 10-sinf Jaxon tarixi



- diplomatik aloqalar: a'zo davlatlar va xalqaro hamjamiyat o'rtasida diplomatik munosabatlar va hamkorlikni osonlashtiradi.

- mojarolarni hal qilish: mintaqaviy mojarolar va nizolarni muloqot va muzokaralar orqali ya'ni tinchlik asosida muammolarni hal qilish uchun platforma taklif qiladi.

Ushbu tuzilmadagi bo'shliqlarni tasvirlash uchun xalqaro tajriba quyidagi qatlamda qurilgan. MDHning huquqiy maqomini baholash va MDH xalqaro huquqda qay darajada mustahkam asosga ega bo'lganligini aniqlash va nihoyat yangi mintaqaviy tashkilotni shakllantirishda yo'l qo'yilgan institutsional xatolardan saboq olish. Buni tasvirlash juda muhim, chunki ushbu integratsiya modelining muvaffaqiyatsizligi submintaqaviy integratsiya modellarida shunga o'xshash xatolarning takrorlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Shu masalalarni inobatga olgan holda, SSSR parchalangandan so'ng Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tashkil etishga ehtiyoj sezildi. Shu paytda, bir-birini iqtisodiy bozorini to'ldirib borish, o'zaro taqchilliklarni bartaraf etish hamda aholiga sifatli tovarlarni yetkazish kabi bir qancha muammolarga yechim berish sababli MDH tashkil etildi. MDH tashkiloti 1991-yil 8-dekabrda Minskda Belarus, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Bu bitimda ko'rishimiz mumkin, SSSR chuqur tanazzulga uchrab bo'lgani va parchalanib ketgani qayd qilindi. Ayni vaqtda esa, MDH davlatlari ushbu tanazzuldan so'ng xatolarni hisobga olib, bundan bardavom taraqqiyot yo'lini hamda porloq istiqbolni bunyod etishmoqda.<sup>2</sup>

# Research Science and Innovation House

---

<sup>2</sup> Lapasof 1-kitob





## MDH davlatlari hamda O‘zbekistonning rivojlanish yo‘lidagi muammolar

Hozirgi kunga kelib, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida bir qator rivojlanish bosqichlarini guvohi bo‘lmoqdamiz. Lekin shularga qaramasdan bir nechta muammolar ko‘zga tashlanmoqda. Jumladan:

**1-muammo:** turizm sohasida vujudga kelayotgan muammolar qatoriga nafaqat Osiyo, balki butun jahon miqyosidagi ekologik muammolar;

**2-muammo:** turizm rivojlanayotgan davlatlardagi turizmga bog‘liq bo‘lmagan, lekin, ushbu sohaga bevosita ta‘sir ko‘rsatadagan respublikadagi jinoyat ko‘lamining oshishi;

**3-muammo:** bevosita turistlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish infratuzilmalarni tashkil etish muammolari;

**4-muammo:** MDH doirasida o‘qituvchilar vositasidagi ta‘lim tizimi muammolari;

Yuqoridagi muammolarga quyidagi **yechimlardan** o‘rinli foydalanishni tavsiya etmoqchimiz.

**1-muammoga yechim:** bevosita O‘zbekistonda rezidentlarni ham, norezidentlarni ham qamrab olishda, ularning tashrifiga asosiy to‘siq bo‘ladigan omillaridan biri **atmosfera muammolari**. Birgina, Toshkent shahri misolida AQI (havo ifloslanishi) indeksida yuqori natijalarni qayd etgan. Aynan ushbu muammo O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hamda uning tarkibiga kiruvchi turizm qo‘mitasining integratsiyasida bir necha kelishmovchiliklar borligidan dalolat beradi. Birinchi muammoga yechim sifatida shuni ta‘kidlamochimanki, havo ifloslanishidan xalos bo‘lish uchun jamoat transportidan foydalanish hamda daraxtzorlashtirish tadbirlarini rivojlantirish strategiyalarini qo‘llab-quvvatlash zarur.

**2-muammoga yechim:** hozirgi kunga kelib, O‘zbekistonda hamda MDH davlatlarida jinoyat ko‘lami kengayib bormoqda. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining ochiqqlangan statistik ma‘lumotlariga qaraganda, 2022-yilda 58 ming sud majlisida 78 ming sudlanuvchilarning ishtiroki qayd etilgan. Bu raqamlar hozirgi kunga kelib turizm sohasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ya‘ni turistlarning mamlakatga nisbatan ishonchsizligi ortmoqda. Ushbu raqamlarni kamaytirish uchun mamlakat miqyosida adolatli qonunchilik tizimini o‘rnatish hamda huquqiy tartibga solish mexanizmini kengroq qo‘llash talab etiladi.



**3-muammoga yechim:** yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, O‘zbekistonda xalqaro aeroportlar soni yetarlicha ekanligi yutuqlarimizdan biri. Jumladan, Andijon, Buxoro, Qarshi, Navoiy, Namangan, Nukus, Samarqand, Termiz, Urganch, Farg‘ona shaharlarida xalqaro aeroportlar xizmati yo‘lga qo‘yilgan. Ammo, aeroportlarning xizmat ko‘rsatish tizimi xalqaro talablarga javob bermasligini ta’kidlab o‘tmoqchiman. Aeroportlarda xizmat ko‘rsatish uchun tariflarni shakllantirish qoidalari tasdiqlangan bo‘lsa-da, erkin bozor iqtisodiyoti kabi shakllantirilmayapti. Bu bevosita ichki monopoliyaga olib kelishi va bevosita rezident hamda norezident fuqarolar uchun qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy. Ushbu muammoga ya’ni aeroportlarda xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish uchun erkin bozor iqtisodiy siyosat tamoyillarining mexanizmlarini qo‘llab-quvvatlash uchun **Turizm qo‘mitasining** vakolatlarini oshirish maqsadga muvofiqdir. Zero, bir faoliyat uchun yagona vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan tartib tamoyillar o‘z natijasini bermas ekan, vakolatlarni imkon qadar cheklash yoki davlatning boshqa organiga o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

**4-muammoga yechim:** dastavval, davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan loyihalar tufayli o‘qituvchilarga bir necha qulayliklar yaratilganligini ta’kidlash joiz. Ammo, nisbiy jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, boshqa kasb egalaridan ko‘p ishlab, kam daromadga ega bo‘layotganliklari hammamizga ma’lum. Umuman ta’lim tizimi islohotlarga muhtoj ekan, ushbu masala doimo dolzarb bo‘lib kelgan. MDH doirasida xalqaro tajriba jumladan, Yevropa strategiyalarini ta’lim tizimimizda qo‘llashimiz maqsadga muvofiqdir. Umid qilamizki, ushbu sa’y-harakatlar natijasiz qolmaydi. Xalqaro tajribaga qaraydigan bo‘lsak, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash masalasi davlat taraqqiyotida asosiy rol o‘ynab kelgan. Yaponiya bosh vaziri Sindze Abedan Yaponiya taraqqiyotini, Yapon mo‘jizasining siri nima deb so‘rashganda u shunday javob qaytargan: “Biz o‘qituvchilarga Vazirning maoshini diplomatning daxlsizligini va imperatorning hurmatini berdik” – deb javob qaytargan.<sup>3</sup>

Albatta davlatimiz rahbari ham xalqaro tajribalarga asoslangan holda birinchi navbatda o‘qituvchi va yoshlarga e’tibor qaratmoqda va bu o‘z natijasini bermoqda.

---

<sup>3</sup> Yangi O‘zbekiston kitobi





## Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasida davlatimiz pozitsiyasi naqadar yuqori ekanligini bilishimiz mumkin. Jumladan, joriy 2023-yil 13-oktabrda MDH davlatlar sammiti bo‘lib o‘tdi. Bu sammitda asosan global geosiyosiy keskinlik va xavf-xatarlar haqida uzoq muzokaralar olib borildi. Davlatimiz rahbari so‘zining boshida avvalo, Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti Sadir Norbojayeovich Jeparovga MDH davlatlar sammitini tashkil etgani uchun samimiy va iliqlik minnatdorchiliklar bildirdi va O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlari va iqtisodiy hamkorlik hamda aloqalari yanada jadal rivojlanayotganini ta’kidlab o‘tdilar. Shu o‘rinda davlatimiz rahbari MDH sammitidagi nutqida bir qancha takliflarni o‘rtaga tashladi. Shulardan eng asosiylari muqobil savdo va logistika, energetika, transport, ekologiya sohalari va eng asosiysi yoshlar siyosati sohasidagi hamkorlikni faollashtirish masalasi taklif etildi. Nega? Chunki, aynan yoshlar davlatimizning har tomonlama rivojlanishida eng muhim omillardan biridir. Mamlakatimizda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar siyosatini davlat siyosati darajasiga olib chiqish natijasi o‘laroq MDH yoshlar poytaxti deb Toshkent shahrini e‘lon qilingan.

Prizidentimiz shu o‘rinda hamdo‘stlik doirasida iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish import va eksport tovarlarini yanada oshirish masalalarini ko‘rib chiqish kerakligini bayon etdilar. MDH davlatlarining iqtisodiy aloqalarini yanada rivojlantirish yo‘lidagi bir qancha muamolarni keltirib o‘tdilar va bu muamolarning yechimini bo‘yicha takliflarni berdilar.

Bu takliflar quydagilardan iborat:

**Birinchidan**, erkin savdo hududi tug‘risidagi shartnomaning tovarlarni olib quyishga doir qoidalarini qayta ko‘rib chiqish;

**Ikkinchidan**, import o‘rnini bosishga qaratilgan milliy dasturlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish, ya’ni bunda eksport qiluvchi tovarlar xajmini oshirish va import qiluvchi tovarlarning o‘rnini bosuvchi milliy tovarlar dasturini yanada rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

**Uchunchidan**, hamdo‘stlik doirasidagi davlat xaridlarini amalga oshirishda ortiqcha qonun qoidalaridan kechgan holda bilvosita emas balki bevosita amalga oshirish va davlat xaridlari orqali zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish orqali sanoat korxonalarini yanada rivojlantirish ko‘zda tutiladi.



**To‘rtinchidan**, qo‘shma ulgurji taqsimlash va logistika markazlarini tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash dasturini qabul qilish, ya’ni bunda MDH doirasida bir birini o‘rnini bosuvchi milliy tavorlar ishlab chiqarish va qo‘shma logistika bazaviy markazlarini shakillantirib to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘z tovar va mahsulotlari bilan jahon bozorlariga kirib borish nazarda tutiladi.

**Beshinchidan**, elektron savdoni rivojlantirishni, jumladan, mavjud platformalarni kengaytirish yo‘li bilan rag‘batlantirish, ya’ni bunda elektron savdoni yanada rivojlantirish uchun barcha texnologik usullardan foydalanib savdo aloqalarni yanada tez fursatlarda amalga oshirish va raqamli iqtisodiyotga o‘tish orqali milliy standartlardan xalqaro standartlarga moslashish nazarda tutiladi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tashkiloti taraqqiyoti yuqoridagi takliflarning amaliyotda qo‘llanishi hamda erkin ijtimoiy jamiyatga tatbiq etilishiga bevosita va bilvosita bog‘liq.

**Foydalanilgan manba/adabiyotlar:**

1. THE COMMONWEALTH OF INDEPENDENT STATES: DECAYED WITHIN A DECADE KEMAL BAŞLAR ARTICLE;
2. My.sud.uz rasmiy sayti;
3. <https://cisedu.com/>;
4. Commonwealth of independent states 1991-1998: Stagnation and survival Richard Sakwa, Mark weber Article
5. MT.UZ

---

# Research Science and Innovation House



## ВЗАИМОСВЯЗЬ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ И САМОУТВЕРЖДЕНИЯ С САМОРЕГУЛЯЦИЕЙ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Атаджанова Людмила Арифовна

Преподаватель кафедры педагогики и  
психологии Ургенчского государственного  
университета. Узбекистан, Хорезмская обл.

[ludmilaatadzanova34@gmail.com](mailto:ludmilaatadzanova34@gmail.com)

**Аннотация.** В статье представлены результаты эмпирического исследования межличностных коммуникативных навыков и самоутверждения во взаимосвязи с саморегуляцией. Методологическую основу исследования составляют культурно-историческая концепция Л.С. Выготского и онтогенетическая теория общения М.И.Лисиной. Исследование показало, что более высокая выраженность коммуникативных умений и конструктивного самоутверждения характерна для детей с высоким уровнем саморегуляции.

**Ключевые слова:** коммуникативные навыки, общение, саморегуляция, самоутверждение, подростковый возраст

## CORRELATION OF TEENAGERS COMMUNICATIVE SKILLS AND SELF - AFFIRMATION WITH SELF-REGULATION OF TEENAGERS.

**Annotation.** The article presents the results of an empirical study of communication skills and self-affirmation in relation to self-regulation. The methodological basis of the study is the cultural and historical concept of L.S. Vygotsky and the ontogenetic theory of communication by M.I. Lisina. The study showed that a higher expression of communication skills and constructive self-affirmation is characteristic of adolescents with a high level of self-regulation.

**Key words:** communication skills, communicative competence, self-regulation, self-affirmation, teenagers.

**Введение.** Динамично развивающийся мир, социально-культурные и экономические условия его существования, расширение информационного пространства и международного сотрудничества в различных отраслях

In some cases, non-specific protection may be violated. For example, the maturity of enzyme systems depends on the biological age of the child, which does not always coincide with the passport age. Often, this so-called phenomenon of delayed enzymatic start is included in the phenotype of a child with diffuse connective tissue dysplasia. This phenotype may also include the following specific signs: abnormalities of the development of the auricle, "Gothic" palate, epicanthus, hypertelorism, joint hypermobility syndrome, small abnormalities of the heart, gallbladder, etc. The functional insufficiency of enzyme systems existing in such a child is combined with a change in the elasticity and strength of the gastrointestinal wall, forming a predisposition to the occurrence of functional disorders of the digestive organs. The conducted studies have proved that in children with the number of the above-mentioned small developmental abnormalities of more than 5, parasitic invasions are noted in 78% of cases, whereas in the control group the incidence of parasitosis was less than 45%. Separately, it should be noted that for a disease such as giardiasis, the predisposing factor of invasion is the irregular and insufficient separation of bile into the intestine with abnormalities in the development of the gallbladder (constrictions, kinks).

In children in the recovery period after acute intestinal infections, after massive antibiotic therapy, as well as in patients with chronic pathology of the digestive system, concomitant disorders of enzyme supply, normoflora and intestinal motility also make the gastrointestinal tract more vulnerable to parasites. The specific protection of the mucous membrane of the digestive organs depends on the age of the child and his maturity. The mechanism of specific immune protection is one of the most ancient systems of the body, since helminthiasis has accompanied mankind for many millennia. This mechanism is primarily represented by blood eosinophils and immunoglobulin E. The classic expanded antiparasitic response can be formed in a child no earlier than the age of 4 and is closely related to the quality and quantity of IgE maturing by this age. When the body comes into contact with the parasite, inflammatory mediators are primarily released: interleukin, leukotriene C4, D4, prostaglandins, thromboxanes. The number of lymphocytes producing IgM and IgG increases. In clinical blood analysis, an increase in the level of eosinophils and basophils is noted, associated with an increase in the content of these cells in the tissues of the invaded organ.



When meeting with the larvae of the parasite, tissue basophils secrete heparin and histamine, which, in combination with leukotrienes and other inflammatory mediators, cause common manifestations: itching, reactive edema, hyperemia, and can also provoke common manifestations: bronchospasm, manifestations of urticaria or diarrhea. Allergic inflammation in parasitosis develops along the classical path and is designed to create conditions leading to the death and / or elimination of the parasite. At the same time, eosinophils have a pronounced cytotoxic potential exceeding the capabilities of other blood cells, which explains the primary importance of eosinophils in antiparasitic reactions and their damaging role in allergies. The main effect of eosinophils is in barrier tissues. In the focus of invasion, they degranulate, exerting helminthotoxic and cytotoxic effects. Proteins of eosinophilic granules (large basic protein, eosinophilic peroxidase, eosinophilic cationic protein, eosinophil-derived neurotoxin) are toxic not only to the parasite, but also to the cells of the child's body. Another important cause of systemic and organ lesions associated with parasitosis is the formation of immune complexes.

The effect of parasites on the child's body is carried out with the involvement of many systems. Almost all of their species can cause a shift in the Th1/Th2 ratio of cells in a direction favorable for their survival. Cases have been described when the products of the parasite excretion had a hormone-like effect on the host body. The parasites exert a local effect by causing contact inflammation of the mucous membrane and stimulating vegetative reactions. At the same time, the processes of intestinal absorption, adequate gastrointestinal motility and its microbiocenosis are disrupted. The systemic effect is due to the parasite's use of the energy and plastic potential of food to the detriment of the child's body, the induction of allergies and autoimmune processes, targeted immunosuppression and endogenous intoxication. Studies have shown that allergic syndrome accompanies ascariasis and enterobiosis in 71.3% of cases. Among children with atopic dermatitis, parasitosis is detected in 69.1%, while giardiasis of all infestations is 78.5%. Toxocarosis forms a particularly recognizable clinical picture.

The clinical markers of this invasion are the leukemoid reaction of eosinophils (from 20% and higher of eosinophils in the blood formula), accompanying a pronounced and persistent allergic syndrome in the form of atopic dermatitis with severe itching and resistance to traditional therapy or severe bronchial asthma with frequent attacks. In 75.3% of cases, parasitosis is accompanied by a variety of

functional disorders of the gastrointestinal tract. A number of studies have proven that parasitic invasion can cause disorders of carbohydrate metabolism, as well as disaccharidase deficiency due to a decrease in lactase levels.

### **Conclusion:**

Parasitic infestations are usually accompanied by neurotic reactions of varying severity, in particular, giardia is not without reason called "parasites of longing and sadness." In most children, adaptation disorders are one of the important links in the pathogenetic process of parasitosis. It should be noted that the state of maladaptation primarily affects the lymphocytic link of immunogenesis, which cannot but affect the maturation and differentiation of specific immunity.

### **List of literature:**

1. Юсупов, Ш. Р., Аскарлова, Р. И., Машарипова, Ш. С., & Машарипова, Х. К. (2019). ЭПИДЕМИОЛОГИЯ ЛЁГЧНОГО ТУБЕРКУЛЕЗА В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ. In EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY (pp. 96-100).

2. Юсупов, Ш. Р., Ибрагимова, Х. Р., Машарипова, Ш. С., Якубова, У. Б., & Рахимбаев, М. Ш. (2015). Особенности этиологической структуры острых диарейных заболеваний в условиях Южного Приаралья. Вісник проблем біології і медицини, (3 (1)), 246-248.

3. Матякубова, О. У., Машарипова, Ш. С., Ибрахимова, Х. Р., & Нуруллаев, Р. Р. (2022). КЛИНИЧЕСКОЕ ТЕЧЕНИЕ ТУБЕРКУЛЕЗА У БОЛЬНЫХ ГЕПАТИТОМ В. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 565-568.

4. Юсупов, Ш. Р. (2020). Абдуллаева Дилфуза Кадамовна, Машарипова Шохиста Сабировна, Матякубова Ойша Уриновна Применение пектина в комплексной терапии при острых кишечных инфекциях. Вестник науки и образования, (5-2), 83.

5. Садуллаев, С. Е., Машарипова, Ш. С., & Машарипов, С. (2023). КЛИНИКО-ЛАБОРАТОРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ПНЕВМОНИИ, АССОЦИИРОВАННОЙ С COVID-19, У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА. Международный журнал образования, социальных и гуманитарных наук. Finland Academic Research Science Publishers, 11(9), 851-856.

6. Сабировна, Ш., & Машарипова, А. И. А. Садуллаев Сирож Эрназарович, и Абдуллаева Дилфуза Кадамовна. 2022. «ТЕЧЕНИЕ



КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ НА ФОНЕ ГЕПАТИТОВ». Новости образования: исследование в XXI веке 1 (5): 573-77. ТЕЧЕНИЕ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ НА ФОНЕ ГЕПАТИТОВ». Новости образования.

7.Sadullaev, M. S. S. M. S., & Sh, S. M. D. (2023). THE COURSE OF CORONAVIRUS AGAINST THE BACKGROUND OF CHRONIC HEPATITIS.

8.Masharipov, S., Sadullaev, S. E., & Sh, M. D. (2023). THE COURSE OF CORONAVIRUS AGAINST THE BACKGROUND OF CHRONIC HEPATITIS. Scientific Impulse, 2(15), 65-70.

9.Ibraximova, H. R., & Sadullayev, S. E. (2023). AHOLI ORASIDA O QTKIR ICHAK KASALLIKLARINING TARQALISHI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 115-119.

10.Artikov, I. A., Sadullaev, S. E., Ibrakhimova, H. R., & Abdullayeva, D. K. (2023). RELEVANCE OF VIRAL HEPATITIS EPIDEMIOLOGY. IMRAS, 6(7), 316-322.

11.Ibrakhimova, H. R., Matyakubova, O. U., Sadullaev, S. E., & Abdullayeva, D. K. (2023). HELMINTISES IN CHILDREN AMONG THE POPULATION IN UZBEKISTAN. IMRAS, 6(7), 323-327.

12.Ibrakhimova, H. R., Sadullaev, S. E., & Nurllayev, R. R. (2023). SPREAD OF MYOCARDIAL INFARCTION AMONG THE POPULATION OF THE KHOREZM REGION. IMRAS, 6(7), 328-332.

13.Nurullayev, R. R., & Sadullayev, S. E. (2023). DIAREYALI KASALLIKLARNING EPIDYEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI. World of Science, 6(9), 64-67.

14.Машарипова, Ш. С., Артиков, И. А., Садуллаев, С. Э., & Абдуллаева, Д. К. (2022). ТЕЧЕНИЕ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ НА ФОНЕ ГЕПАТИТОВ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 573-577.

15.CHARACTERISTICS OF PATHOMORPHOLOGICAL CHANGES IN LYMPHOCYTIC LEUKOSIS IN CHILDREN. (2023). *Western European Journal of Medicine and Medical Science*, 1(4), 21-26.

16.RESULTS OF STUDIES ON THE LEVEL OF POPULATION KNOWLEDGE ABOUT PARASITIC DISEASES AND ITS PREVENTION. (2023). *Western European Journal of Medicine and Medical Science*, 1(4), 15-20.

17. Masharipova Sh.S, Masharipov S, & Matyakubova D.Sh. (2023). UDC:616.36-005:75-642 TUBERCULOSIS AND ITS COURSE IN PATIENTS WITH HEPATITIS B.

18. Masharipova Shokhista Sabirovna, & Masharipov Sobir. (2023). UDC: 619:616.995.132.6 IMMUNE STATUS OF ADULTS AND CHILDREN WITH AN ALLERGIC BACKGROUND DIAGNOSED WITH ENTEROBIOSIS. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(14), 24–28.

19. Masharipova Sh.S, Masharipov S, Sadullaev S.E, & Matyakubova D.Sh. (2023). THE COURSE OF CORONAVIRUS AGAINST THE BACKGROUND OF CHRONIC HEPATITIS. *Scientific Impulse*, 2(15), 65–70. Retrieved from



---

Research Science and  
Innovation House



## ТАНБЕХНИНГ МИЛЛИЙЛИГИ

**Мадумаров Равшанжон Абдирахмонович**

Фарғона политехника институти катта ўқитувчиси, Фарғона, Ўзбекистон

E-mail: [ravshanbekmadumarov78@gmail.com](mailto:ravshanbekmadumarov78@gmail.com)

### Аннотация

Мақолада, мулоқот хулқининг танбех ва миллий характердаги асосий хусусиятларини муҳокама қилинди. Унда танбех муаммосини миллий характер миллат аҳолисининг урф-одатлари, қадриятлари ва анъаналари бир – бири билан боғлиқлиги, уларни ҳисобга олмасдан туриб ўрганиш мутлақо мумкин эмаслиги таъкидланади. Чунки мулоқат хулқи, миллат характерининг узвий бир қисми бўлиб, улар бир-бири билан чамбарчас боғлиқдир. Танбехнинг оммавий жойларда қўлланилган бир неча мисол билан бу мавзу ёритилди.

**Калит сўзлар:** Мулоқот хулқи, турмуш тарзи, миллий характер, танбех.

### Кириш

Мулоқот хулқи, жумладан, танбех муаммосини миллий характер миллат аҳолисининг ўзига хос урф-одатлари, қадрият ва анъаналарини

Миллий характер деганда, маълум ижтимоий гуруҳ ўртасида асрлар мобайнида авлоддан-авлодга ўтиб келган ўзига хосликлар мажмуи тушунилади. Миллий характерга мазкур миллат аҳолиси сиғинадиган дин, атроф-муқит ва ижтимоий турмуш тарзи жиддий таъсир кўрсатади ва бу таъсир ўз-ўзидан мулоқат хулқидада намоён бўлади [].

Нолисоний воситаларни қўллашда ҳам миллий ўзига хосликлар кузатилади. Жумладан, шундай имо-ишоралар борки, улар шартли характерга эга бўлиб, миллий хусусиятлар касб этиши мумкин. Чунки у жамоа томонидан маълум маънони ифодалаш белгисидир. Бошқа бир этник гуруҳда эса бу ишора ё ҳеч қандай коммуникатив вазифа бажармайди ёки бошқа маънони англатиши мумкин. Масалан, Америка, Англия, Австралия ва Янги Зеландияда бош бармоқни тепага қилиш, асосан, ўткинчи машинани тўхтатиш, тўсиш учун қўлланилса, Грецияда бу ишора “овозингни ўчир!”, “бас

кил!” маъносини англатади, бизда эса бу зўр, аъло даражада дейиш белгисидир [2-4].

Шуни фахр билан айта оламизки танбеҳнинг адолатли кўриниши бизнинг миллатга хос бўлган фазилатлардан биридир. Катталар томонидан уйда, кўча-кўйда, тўй-тамшаларда ўрни келганда ёшларга берилган танбеҳни ҳамма тўри қабул қилади ва дархол ўзини ўнглаб олади. Чунки, соғлом фикрловчи ва вазиятни тўғри баҳоловчи инсонлар томонидан ўринли танбеҳ берилганда рад этишга илож қолмайди. Ушбу ҳолатда танбеҳ тўғри маънода, фактларга асосланиб ётиги билан етказилади. Танбеҳ эшитувчи эса ўз хатоларини тушунган ҳолда ижобий хулосага келади.

Халқимизнинг қонига сингиб кетган “Бир болага-етти маҳалла ота-она” деган мақолни ғарб давлатлари аҳолиси ҳеч қачон тушуна олмайди. Фақатгина бизнинг минталитетимизга хос бўлган оила, маҳалла шаънини, орини асраш тушунчаси қон қонимизга сингиб кетган. Оммавий жойларда ноўрин ҳаракат қилган йигит ёки қизга “Кимнинг фарзандисан” “Қайси маҳалланинг қизисан” “Қайси қишлоқнинг йигитисан” деган саволдан оғирроқ танбеҳ бўлмаса керак [5-8].

Доно халқимиз танбеҳни нафақат жиддий сўзлар билан, балки кулиб туриб, кулги орқали, яни бирор кимсани турмушдаги, меҳнатдаги умуман ҳаётдаги камчиликларини кулги-яския орқали ҳам бера олганлар.

Масалан тўйда кўп ичган одамга:

- Абдурасул.
- Лаббай ака.
- Билганлар, кеча тўйда абдурасул ака кўп ичиб рақса даврани

бўшатмади дейишябди.

– Ҳа, билмаганларчи ?

Билмаганлар, айниқса узоқдан келган меҳмонлар, маҳаллани йигитлари жуда шум экан маймунга дўппи кийдириб, роса ўйнатишди дейишябди...

Дангасаларга, соч соқоли тартибсиз ўсиб кетган инсонларга, ўз аёлига зулм қилаётган эркакларга нисбатан мана шунда гўзал санъатимиз бўлган аския орқали камчиликлари юзларига айтилиб, танбеҳлар беришган [8-10].

Ёки маҳаллада бирор киши, айниқса бошида эркаги йўқ тул хотин уй кўтарганда, хашарга маҳалладан ҳар бир хонадондан бир эркак чиқиб қарашган



ва кун сўнгида кимнинг уйдан ёрдам чиқмаган бўлса маҳалла кексалари тамонидан танбех берилган.

Танбех фақат сўз ва гаплар воситасидагина эмас, имо-ишора, хатти-ҳаракатлар орқали ҳам берилиши мумкин. Абдулла Қаҳҳорнинг “Даҳшат” ҳикоясидан олинган куйидаги парча фикримизни тасдиқлайди: “Нодирмоҳбегим сандал ичидан оёғини узатиб Унсиннинг болдирини чимчилади, кўзи билан “хайрият тушунмади, бас қил, гапирма” деб ишора қилди...”


Кайковуснинг “Қобуснома” асарида куйидаги фикрларни ўқиймиз: “...сўралмаган сўзни айтмағил ва беҳуда сўздан парҳез қилғил, ҳар бир сўзни сўрасалар, рост айтғил. Сендан талаб қилмаса, кишига насиҳат қилмағил, панд бермағил, хусусан сени тингламағон кишига ҳеч сўз дема, чунки бундай кишилар пандни эшитмағайлар. Кўп кишилар орасида бир кишига панд-насиҳат қилмағил...”

Кўринадикки, танбех ким томонидан ва кимга берилиши жуда муҳимдир. Зеро, халқимиз “Гапни гапир укқанга, жонни жонга сукқанга, гап гапириб нетарсан онаси бевақт тукқанга” қабилидаги мақолларни бекорга яратмаган. Халқ юқоридаги мақоли билан: “Гапни уқадиган, жон қулоғи билан тинглайдиган одамга гапир. Ярамас, ахлоқларга гапириб ҳам ўтирма, барибир укдиrolмайсан, гапинг зое кетади”, демокчи бўлади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: zamin ziyo, 2015. Б.26.
2. Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – Б.32.
3. — Бегматов Э. Ўзбек нутқи маданияти масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1980, № 4. – Б. 54-59.
4. Мўминов С., Муқимжонова Д. Танбех ва нутқ маданияти // Қарши ДУ ахборотномаси, 2009. № 2. – Б. 37-39.
5. Alikulova, M. (2023). Raising preschool children through modeled values. Science and innovation, 2(B5), 304-307.
6. Kahhorova, G. (2024). Vael Hallaq islom huquqshunosligi sohasida yetakchi olim. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2(1), 80-84.

7. Alikulova, M. (2023). Aspects of developing students'basic knowledge of the family. Science and innovation, 2(B9), 255-257.
8. Sherovna, A. M. (2023). Education of preschool children in the family on the basis of national values. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 624-627.
9. Mominov S. Socio-linguistic features of Uzbek communication behavior6 Philol. science Dr. dis. autoref. Tashkent, 2000. P. 48.
10. Mominov S., Muqimjonova D. Food of rebuke. Fergana ziyasi plus, 2009. P. 8-9.



---

# Research Science and Innovation House





## Komil ijodida tasavvuf masalasi

Bo‘tayeov Akramjon Ochilovich

JDPU o‘qituvchisi

**Annotatsiya** Ushbu maqolada Komil Xorazmiy ijodida tasavvufiy qarashlar talqini yoritilgan bo‘lib, shu o‘rinda shoir ijodiga mansub bir necha g‘azallar tahlilga olingan.

**Kalit so‘zlar:** Oriflik, tasavvuf ilmi, lirika, muqaddima, an‘ana, oshiqona

**Аннотация** В данной статье освещается трактовка мистических взглядов в творчестве Камиля Хорезми, анализируются несколько газелей, принадлежащих творчеству поэта.

**Ключевые слова:** мистика, лирика, вступление, традиция, романс.

**Ann otation:** In this article, the interpretation of mystical views in the work of Kamil Khorezmi is highlighted, and several ghazals belonging to the poet's work are analyzed.

**Key words:** mysticism, lyrics, introduction, tradition, romance

### Kirish

Oriflik komil kishi erishishi lozim bo‘lgan sifatlarning eng go‘zalidir. Ana shunday ulug‘ daraja borki, bu-oshiqlikdir. Oshiqlik Allohning marhamatidir. Yaratganning ishqiga avvalo yaratilganlarga muhabbat qo‘yishlik bilan yetishiladi. Solix tariqat yo‘liga kirib, tasavvuf bosqichlaridan pog‘onama-pog‘ona ko‘tarilib borar ekan, u yuqori pog‘onadami yoki, quyi pog‘onami qalbida ishq bo‘lmasa, Haqqa oshiq bo‘lmasa, Yaratganning nazdida hech bir darajaga yetisha olmaydi. Chunki, shakldan ko‘ra mohiyat, mazmun muhimdir. Bu haqda ustoz olim N.Komilov quyidagicha fikr bildiradi: “Oshiqona tasavvuf ishqiy kechimalar, ishqiy-zavqiy irfonni birinchi o‘ringa qo‘yib, muhokama yuritadigan, to‘g‘rirog‘i muhokama-tafakkurdan ko‘ra his-hayajon, muhabbat shavq-zavqi toshqinini afzal ko‘radigan tasavvufdir”[1].

Komil Xorazmiy lirikasidan o‘rin olgan oshiqona mazmundagi g‘azallarda shoir majoz orqali Haqqa yetishishni niyat qiladi.



## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Komil Xorazmiyning adabiy merosi bizgacha bir necha qo‘lyozma va toshbosma variantlardan iborat bitta devoni yetib kelgan. Bu variantlar bir biridan farq qiladi. M. Yunusov o‘zining Komil Xorazmiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotida “Devoni Komil”ning tuzilishi va toshbosma variantlarini o‘rganar ekan: “Komil devonlarining variantlari ichida shoirning hamma asarlarini o‘z ichiga olgani, mukammal deb hisoblash mumkin bo‘lgani, O‘zSSR FA. Sharqshunoslik institutida 1025 va 1949 inventar raqamlari ostida saqlanayotgan devonlardir... Bizning taxminiy hisobga ko‘ra mazkur nusxadagi she‘rlar 3680 baytni tashkil qiladi deyish, haqiqatga to‘g‘ri keladi.”[5] Shoirning bizga qoldirgan adabiy merosining asosiy qismi g‘azallar, muxammas, musaddas, musabba‘, murabba‘, muammo, ruboiy, qasida va masnaviylardan iborat bo‘lib, bular orasida asosiy o‘rinni g‘azallar tashkil qiladi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Komil Xorazmiy lirikasi o‘zining shakliy va ma‘naviy rang-barangligi, oshiq holining original ifodasi, lirik qahramon tuyg‘ularining go‘zal namunasi bilan o‘zi bilan zamondosh bo‘lgan ijodkorlardan ajralib turadi. Shoir ijodida o‘rni kelganda mumtoz adabiyotdan ulgu oladi, o‘rni kelganda o‘z zamonasining lirik an‘analarini davom ettiradi va o‘rni bilan ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini akslantiradi. Shoirning har bir baytida Allohga(ilohiy) va uning yaratqilariga(majoziy) bo‘lgan muhabbati-ISHQ akslanib turadi. Buning isboti o‘laroq quyida shoir lirikasidan oshiqona ruhda yozilgan bir nechta g‘azallarini tahlilga tortdik.

Shoirning o‘zining “Xat” radifli g‘azalida oshiq holatini quyidagicha tahlil qiladi:

Jonfizo labingg‘a to chiqdi, ey sumanbar, xat,

Mashqu muhr uchun bo‘ldi husn elig‘a ul sarxat.

Aksi orazing qildi sabz xatlaring gulrang,

Ro‘yiyo yozdilar gulgun kog‘az uzra ahmar xat.[4]

Oshiq yorini ta‘riflar ekan, sening jonbaxsh lablaring uzra mayin xat chiqmish(xat-yangi chiqqan mo‘ylov), husn eli ishq dastxatini bitmoq uchun sening husningga, xatingga oshiq bo‘ladilar. Bu o‘rinda shoir xat so‘zini mohirlik bilan qo‘llaganiga guvoh bo‘lamiz. Ya‘ni, Sening lablaring ustidan chiqqan xatlar-mayin tuklar, yo‘q u tuklar ham emas, husn, ishq ahillarining mashq etishlari uchun chizib



berilgan sarxatdir, deydi. (Sarxat-ustoz tomonida to‘g‘ri yozish uchun yozib beriladigan xat na‘munasidir. “Navoiy asarlari lug‘ati”dan) Keyingi misrada shoir yorning jamolini tabiat bilan uyg‘un holda tasvirlaydi. Sening xatlaring maysadek (yashil) edi, chehrangdagi quvonch ketgach ular gulrang ya‘ni qizil bo‘ldi. Go‘yoki, oq qog‘oz yuziga qizil xat bitilgandek. Oshiq shoir qalb kechinmalarini ifodaashda tashbih san‘atidan mohirona foydalanadi.

Xat, netong, ziyod etsa gar malohati husning,  
Negakim erur mazmun shohidig‘a mazhar xat.  
La‘l ila zumurradmu bir niginda yer tutg‘on,  
Yo og‘izdamu gulgun la‘ling ila axzar xat.

Sening husningni va latofatingni oshirgan narsa ham xatingdir. La‘l, zumradlar bir yerda joylashganmi, yoki og‘zingdagi la‘l-qizil qimmatbaho toshlar, xatlaring yashil bo‘ldimi?!

Shoir bu ifodalar bilan yorning tishlari, lablari qizil yoqut-gul bo‘lsa, uning axzar xatlari yashil maysadir, demoqchi bo‘ladi. Shoir tashbih san‘atidan unumli foydalangan holda go‘yoki, yorning jamolini maysazor orasida o‘sgan qizil gulga qiyoslaydi.

Bor kitobi husnungda qoshlaring chu bismillo,  
Ismi haq bila bo‘lg‘ay o‘ylakim musaddar xat.

Bilamizki, kotiblar qo‘lyozmalar, kitoblarni ko‘chirar ekan, xat yozishning turli usullari va shakllaridan foydalanganlar. Komil ham mohir xattot bo‘lgan. Shoir yashagan davrda yozuv arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvi bo‘lgan. Ma‘lumki, arab xarflari juda go‘zal shaklga ega. Xattotlar esa ularni yanada go‘zalroq ifodalashga intilganlar. “Bismilloh” so‘zi ham arab harflarida va o‘ziga hos yozuv turida yozilganda qoshning shaklini yodga soladi. Shoir yuqoridagi misrada ustalik bilan so‘z o‘yini qiladi. Qoshlar yuz a‘zolarining eng yuqorisida joylashganligi sabab, yuzni ochib beruvchi fothiga qiyoslanadi. Ya‘ni, Yorning husni kitob bo‘lsa, qoshlari bismillohdir. Har qanday xat (shoir bu o‘rinda xat so‘zini maktub ma‘nosida qo‘llaydi), Haqning ismi bilan boshlanadi, deydi va bu o‘rinda ham tashbih san‘atidan unimli foydalanadi.

Kotibi qazo har kun onda mashq etar go‘yo,  
Safhai jamolingkim, bordurur sarosar xat.  
Qilsa ne ajab oxir husni kishvarin tasxir,



Mo‘rdin fuzun chekmish yuzi uzra lashkar xat.

Jamoling sahifasi boshdan oyoq go‘zaldir. Taqdir kotibi go‘yoki har kuni unda mashq qiladi. Bir kun kelib chumolidanda ko‘p xating lashkarlari husn mamlakatingni ishg‘ol qilsa ajabmas. Ushbu misralar orqali shoir yorning yuzidagi mayin tuklarga ishora qiladi va ularni lashkarlarga qiyoslaydi.

Xat ayon etib tong yo‘q qilsa husn elin tabe’,

Tig‘din qilur oson dahrni musaxxar xat.

Agar xatlaring sening husningga oshiqnlarni tobe’ qilsa, xatlaringni har biri o‘tkir tig‘ bo‘lib, dunyoni ishg‘ol etsa ajablanma. Shoir yor yuzidagi xat(tuk)larning kishilar qalbini ishg‘ol etishiga ishora qiladi.

Shoir bu g‘azalida so‘zlarni ustalik bilan qo‘llaydi. Komil Xorazmiy ijodida nafaqat, Navoiyning ta’siri, balki, Bobur Mirzoning ta’siri ham sezilib turadi. Bobur “Xating aro uzoring sabza ichinda lola” nomli g‘azalida yorning yuzini tabiatga uyg‘un holda tasvirlaydi:

Xating aro uzoring sabza ichinda lola,

Ul chashmi purxumoring loladag‘i g‘azola.[3]

Shoir aytadiki, yuzingdagi mayda tuklar orasida chehrang go‘yoki, maysalar orasida turgan lolaga o‘xshaydi. Suzilib turgan ko‘zlaring esa lolalar orasida yurgan kiyik kabidir. Yoki, lolaning ichida kiyik boshining shaklini eslatuvchi o‘simtasi bo‘ladi. Shoir yorning ko‘zlarini unga mingzaydi.

Yoki, shoir “Bog‘” radifli g‘azalida bahor fasli kirib kelishi bilan bog‘ning g‘o‘zalliklarga to‘lishi va bog‘ning go‘zalligiga go‘zallik qo‘shgan yorning jamoli ekanligi haqida so‘zlaydi:

Sayr etarda dema gulbargi uza shabnam xayol,

Ming ko‘z ila gulshani husningga hayron bo‘ldi bog‘.

Komil Xorazmiyning badiiy mahorati va badiiy didi nihoyatda baland ekanligining sababi, shoir so‘zlarni chertib-chertib ishlatadi. Jummalarni puxta va mukammal tuzadi. Badiiy tasvirni sof va haqiqat bilan chizadiki, o‘quvchi bunday tasvirlarni tasavvur qilishda qiynalmaydi. Yuqoridagi misralarda ham shoir, gulbargga qo‘ngan shabnamlarni shabnam dema, balki, ular sen sayrga chiqqaningda sening husningga hayron boqib turgan gulshanning ko‘zlaridir, deb shabnamni ko‘zga qiyoslaydi. Shoir go‘zal tashxislash orqali original qiyosga erishadi. Shoir ijodida bu kabi qiyoslarni ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Chunki tashrifi qudumimg‘a musharraf bo‘lmadi,



Lolau gular emas, boshdin-ayoq qon bo‘ldi bog‘...  
Chunki dohil bo‘lmadi ul husn shohi bazmig‘a,  
Komili bechorag‘a andoqki zindon bo‘ldi bog‘.[4]

Shoir g‘azalning muqaddima qismida bog‘ning go‘zalligi haqida so‘zlaydi. Va bu go‘zallikning sababchisi yorning husni ekanligini aytadi. Ammo g‘azalning oxirgi baytlarida shoir qalb sirini ochadi va bog‘dagi lola, gullarning qizilligi ularning uyalib turishidan emas, aksincha ular boshdan-oyoq qon bo‘ldi. Chunki, sening qadamingga, tashrifingga musharraf bo‘la olmadi, deydi. Shoir g‘azalning maqtasida o‘zining holi ham shu bog‘ning ahvolidan ekanligiga ishora qilib, menga ham sening husningni ko‘rish nasib etmadi. Shu sabab ham, bog‘ men uchun ham zindonga aylandi, deydi. Ushbu g‘azalda shoir o‘z taxallusini g‘azalning so‘nggi misrasida qo‘llaydi. Va bu hol g‘azalning asl ma‘nosiga va ifodasiga zinhor ta‘sir qilmaydi.

#### XULOSA

Komil Xorazmiy butun umri davomida murakkab siyosiy va ijtimoiy vaziyatlarning markazida bo‘lganligini hisobga olsak, shoir she‘riyatini nafaqat ilohiy ishq madhi, balki haqiqiy ma‘rifatparvarlik lirikasi deyishga arziydi.

Komil Xorazmiy ijod konsepsiyasida mumtoz lirik an‘analardan voz kechmagan holda, o‘ziga xos ijodiy yo‘lni topa olgan ijodkordir.

#### REFERENCES

1. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – Б.47
2. М.В.Алимқолова. Комил Хоразмий г‘азалnavisligining adabiy-estetik omillari. Academic research in educational sciences (787-791b)
3. К.Хоразмий. «Devon». –Т.: 1975
4. А.Найтметов. «Devon». –Т.: 1975 (14-b)
5. М.Ҳунусов. Комил Хоразмий.:Toshkent-1969 (91-b)
6. М.Ҳунусов. Asrlar nidosi [Majmua], Т.,1982 (56-b)

617.753.2

## Modern methods of treatment of patients with high-grade myopia

Andijan State Medical Institute

Abduraxmanova D.A.

**Annation.** This review article examines modern views on etiological factors, the pathogenesis of complications and the influence of climatogeographic conditions on the progression of myopia and modern methods of treatment.

**Key words:** Myopia, OCT, PZO, DZN.

## Современные методы лечения больных с миопией высокой степени

Андижанский государственный медицинский институт

Абдурахманова Д.А.

**Аннотация.** В данной обзорной статье рассматриваются современные взгляды на этиологические факторы, патогенез осложнений и влияние климатогеографических условий на прогрессирование миопии и современные методы лечения.

**Ключевые слова:** Близорукость, ОКТ, ПЗО, ДЗН.

## Юқори даражали миопияси бўлган беморларни даволашнинг замонавий усуллари

Андижон Давлат Тиббиёт Институти

Абдурахманова Д.А.

**Аннотация.** Ушбу мақолада этиологик омиллар, асоратларнинг патогенези ва климатогеографик шароитларнинг миопия ва даволашнинг замонавий усуллари га таъсири ҳақида замонавий қарашлар кўриб чиқилади.

**Калит сўзлар:** Миопия, ОКТ, ПЗО, ООЎ.

Myopia (myopia) is an anomaly of the refractive power of the eye (refraction), characterized by focusing the image of objects not on the retina of the eye but in front of it. Person does not distinguish distant objects well with myopia but sees



well up close: there are visual fatigue, headache, impaired vision at twilight, progressive deterioration of visual acuity. Diagnosis of myopia includes visometry, skiascopy, refractometry, ophthalmoscopy, biomicroscopy, ultrasound of the eye. Myopia of the general population is quite common: according to WHO 25-30% of the world's population suffers from myopia. Most often, myopia develop in childhood or puberty (from 7 to 15 years) and in the future either persists at the existing level or progresses. With myopia, light rays emanating from distant objects gather into focus not only the retina, as in a normal eye, but also in front of it, as a result of which the image turns out to be fuzzy, blurry, blurred. Today, myopia is a fairly common disease, since the percentage of nearsighted schoolchildren is at least 40%. During the student years, this indicator increases reaching 70%. Over the past 30 years, the incidence of myopia has increased by 1.7 times (from 25 to 45%). In countries, such as the USA (41.6%) and Asian countries (Taiwan 90%, Singapore 79.3%, China 95.5% among students). This problem occupies more minds. Myopia as a condition is characterized not only by a decrease in visual acuity, this is perhaps the most harmless, but also by retinal pathologies. Which develop due to an increase in the size of the eye and as a result - excessive tension of the mesh layer. A method of treating high-grade myopia has long been known, which medicinal substances are injected into the parabolbar. However, this method has a number of significant drawbacks: long treatment periods, the danger of the injection needle technique, damage to the eye tissues and a long time of absorption of the medicinal substance from the parabolbar. Correction and treatment of myopia can be carried out by conservative (drug therapy, eyeglass or contact correction), surgical or laser methods. Medication courses conducted 1-2 times a year can prevent the progression of myopia. It is recommended to observe visual hygiene, limit physical activity, take vitamins of group B and C, use mydriatics to relieve spasm of accommodation (trapticamide), tissue therapy (aloe, vitreous intramuscularly), taking nootropic drugs (piracetam,), physiotherapy, massage of the cervical-collar zone, orthoptic techniques are used: training of the ciliary muscle using negative lenses, hardware treatment. To correct myopia, contact lenses or glasses, with scattering (-) lenses are selected. To date, ophthalmology has developed more than twenty methods of refractive and laser surgery for the treatment of myopia. Excimer laser correction of myopia involves correcting vision by changing the shape of the cornea, giving it a normal refractive power. Laser correction of myopia is performed with myopia up



to -12-15 dptr and is performed on an outpatient basis. Among the methods of laser surgery for myopia, LASIK, SUPER, EPILASIK, FEMTO LASEK, photorefractive keratectomy (PRK) have become the most widespread. These methods are differ in the degree of exposure and the way the corneal surface is formed, however, they are essentially identical. Complications of laser treatment of myopia can be hypo- or hypercorrection, the development of corneal astigmatism, keratitis, conjunctivitis. dry eye syndrome. Refractive lens replacement (lensectomy) is resorted to with high degree of myopia (up to -20 dpt) and loss of natural accommodation of the eye. The method consists in removing the lens and placing an intraocular lens (artificial lens) inside the eye that has the necessary optical power.


**The purpose of the work:** To study the effectiveness of Retinalamine with parabolbar, cortexin 1.0 intramuscular use, tissue therapy (aloe, vitreous intramuscularly), taking nootropic drugs (piracetam,), physiotherapy, massage of the cervical-collar zone, orthoptic techniques are used: training of the ciliary muscle using negative lenses, hardware treatment and lymphotropic regional therapy in patients with high-grade myopia with fundus changes.

**Materials and methods:** Retinalamine with parabolbar, cortexin 1.0 intramuscularly, tissue therapy (aloe, vitreous intramuscularly), nootropic drugs (piracetam,), physiotherapy, massage of the cervical-collar zone, orthoptic techniques are used: training of the ciliary muscle using negative lenses, hardware treatment and lymphotropic regional therapy were used in the treatment of 26 patients (52 eyes) with high-grade myopia with fundus changes: myopia from 5.0 D to 7.0 D – 7 patients (14 eyes), myopia from 7.0 D to 10.0 D – 12 patients (24 eyes), myopia from 10.0 D to 15.0 D - 9 patients (18 eyes). All patients had high sciascopic refraction, decreased visual acuity, dystrophic changes and thinning of the fundus.

Research Science and  
Innovation House







**Results and discussion:** After complex treatment in patients with myopia from 5.0 D to 7.0 D, there was an increase in visual acuity by 0.2-0.3, myopia from 7.0 D to 10.0 D visual acuity by 0.1-0.2, the stability of the ocular PZO is noted. After Retinalamine with parabolbar, cortexin 1.0 intramuscular, tissue therapy (aloe, vitreous intramuscularly), taking nootropic drugs (piracetam), physiotherapy, massage of the cervical-collar zone, orthoptic techniques are used: training of the ciliary muscle using negative lenses, hardware treatment and lymphotropic regional therapy of treatment, patients are prescribed pills that improve microcirculation of the retina.

**Conclusion.** The positive effect of the lymphotropic treatment method on visual functions in patients with high-grade myopia with fundus changes has been clinically confirmed. With regular courses of treatment (2 courses per year), stable visual acuity and refraction of patients is observed in 94.1% of cases, increased visual acuity is observed in 58.1% of cases, the stability of PZO is 61.4% of cases, the stability of DZ is observed in 61.3% of cases. The use of lymphotropic therapy makes it possible to improve trophism and microcirculation in the vessels of the optic nerve, reduces the severity of pathological reactions caused by an etiological factor, the therapeutic concentration of the medicinal substance is rapidly achieved, the trauma risk of manipulation decreases, the volumes and concentrations of injected substances decrease.

### Literature:

1. Borodin Yu.I., Grigoriev V.N. Lymph node in circulatory disorders.- Novosibirsk: Nauka. Sib. otd.nie. 1986. -268 p.
2. Zhdanov D.A. General anatomy and physiology of the lymphatic system.L.:Medgiz, 1952.-336 p.
- 3.Efimenko N.A., Chernekhovskaya N.E., Vyrenkov Yu.E. Guidelines for clinical lymphology. - M.: Russian Medical Academy of Postgraduate Education, 2001. - 160 p.
4. Kupriyanov, V.V., Borodin Yu.I., Karaganov Ya.L., Vyrenkov Yu.E. Microlimphology. - M.: Medicine. - 1983.- 287 p.



---

# Research Science and Innovation House





## TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA HR-FAOLIYAT TRANSFORMATSIYASI IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Саидалиев Садамир Саидакбар ўғли

“Ўзбекистон темир йўллари” акциядорлик жамияти “Тошкент минтақавий темир йўл узели” УК Тошкент юк вагон депоси Меҳнатни ташкил этиш ва Иқтисодий режалаштириш, таҳлил бўлими етакчи ИҚТИСОДЧИСИ

E-mail: [saidamir7370@gmail.com](mailto:saidamir7370@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

O‘zbekistonning strategik rivojlanish rejasi raqamli iqtisodiyot dasturini o‘z ichiga olgan bo‘lib, uning maqsadi mamlakatda, shu jumladan temir yo‘l transportida raqamli muhitni yaratishdan iborat. Mamlakatimizga global raqobatbardoshlik va milliy xavfsizlik masalasini hal etish imkonini beruvchi iqtisodiyotni raqamlashtirish bugungi kunda ustuvor vazifaga aylanib kelmoqda. Shubhasiz, masofaviy ish rejimiga olib kelgan pandemiya bilan bog‘liq voqealar munosabati bilan temir yo‘l iqtisodiyotini raqamlashtirishning dolzarbligibir necha barobar ortdi va bugungi kunda bu dolzarb ehtiyojga aylandi.

**Kalit so‘zlar:** transformatsiya, temir yo‘l transporti, kognitiv, xulq-atvor, inson resurslari, kadrlar bo‘limi, digital, IT komponenti.

Ma‘lumki, transformatsiya butun mamlakat iqtisodiyoti faoliyatining samaradorligi va barqarorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida davlat ishtirokidagi turli tarmoqlarda qator korxonalarini isloh qilish va o‘zgartirish shartlari hamda muddatlari belgilandi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini isloh qilish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi Transport vazirligining 2021-yil 16-dekabrda 1/7875-sonli xati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritilgan.



Qaror loyihasida temir yo‘l transportida islohotlarning quyidagi asosiy yo‘nalishlariga muvofiq chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

- Temir yo‘l transporti sohasida raqobatni rivojlantirish, shu jumladan o‘zining harakatlanuvchi tarkibi, konteynerlariga ega bo‘lgan xususiy yuk tashish kompaniyalarini tashkil etish orqali ularni temir yo‘l transporti xizmatlari bozoriga kirishini ta‘minlash;

- “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tashkiliy tuzilmasini takomillashtirishga, korporativ boshqaruvning zamonaviy tamoyillarini joriy etishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy tadbirlarni amalga oshirish;

- Tarif siyosatini takomillashtirish, ya‘ni tariflarni tarif tarkibiy qismlarga ajratish va daromadlarni hisobga olishni tashkil etishni nazarda tutuvchi tarif siyosatini takomillashtirish;

- Yo‘lovchi tashish sifatini oshirish, shaharlararo harakatini rivojlantirish, yo‘lovchi tashishlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, ularni yuk tashish orqali o‘zaro subsidiyalash (kross-subsidiyalash) orqali bosqichma-bosqich amalga oshirish;

- Operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish darajasini oshirish, ish jarayonlari tezkorligini oshirishga qaratilgan Raqamli strategiya rivojlanish yo‘lidagi loyihalarni amalga oshirish;

- Harakat tarkiblarini, shuningdek, temir yo‘l infratuzilmasi obyektlarini yangilash borasida aniq maqsadli ishlarni davom ettirish;

- Tranzit salohiyatini oshirish, xalqaro transport yo‘laklarini rivojlantirishda O‘zbekistonning o‘rnini mustahkamlash;

- Temir yo‘l transportining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish va boshqa yo‘nalishlar.

Ma‘lumki, insonlar har qanday biznes-jarayonning eng muhim tarkibiy qismi va shuning uchun temir yo‘l korxonalarida raqamlashtirish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun eng yangi raqamli texnologiyalardan tashqari, yangi texnologiyalarga moslasha oluvchi yuqori malakali kadrlarga ega bo‘lish juda muhim. Shunday qilib, xodimlarning, ayniqsa boshqaruvning eng muhim xususiyati transformatsiya bo‘lib, uning kognitiv (fikrning o‘zgarishi), xulq-atvor (xulq-atvorning o‘zgarishi) va hissiy (vaziyatlarga va turli qiyinchiliklarga javoban o‘zgarish) turlari namoyon bo‘ladi. Birgalikda, ushbu uchta transformatsiyaning rivojlanish darajasi temir yo‘l korxonalariarning raqamli transformatsiyasi



qanchalik radikal bo‘lishini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, HR xizmatining (HR inglizcha human resources so‘zidan olingan bo‘lib, “Inson resurslari” degan ma‘noni anglatadi) o‘rni ortib borayotganiga shubha yo‘q, uning o‘zi raqamli bo‘lib, faqat raqamli formatda biror narsa bilan shug‘ullanmasdan, temir yo‘l tashkilotining raqamli bo‘lishiga yordam berishi kerak.

Xalqaro tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, raqamli HR yangi hodisa emas. 1960 va 1970-yillarda HR operatsiyalari, tranzaktsiyalarni avtomatlashtirish va xodimlarning aniq hisoblarini yuritish bilan shug‘ullangan. 1980-yillarda HR “Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot” sifatida sotildi. Xizmat ko‘rsatish markazlari shaxsiy ehtiyojlarni ko‘rib chiqdi va HR biznes hamkorlari biznesga kira boshladilar. 1990-yillar va 2000-yillarning boshlarida HR iqtidorlarni integratsiyalashgan boshqarishga qayta e‘tibor qaratildi, ko‘pincha yangi ishga yollash, o‘qitish, ish faoliyatini boshqarish va kompensatsiya tizimlarini joriy qilish bilan birga mujassam edi.

Afsuski, mamlakatimizda barcha tashkilotlarda ham HR xizmatlari mavjud emas. Respublika korxonalarida mavjud kadrlar bo‘limlari, qoida tariqasida, kadrlar bo‘yicha faoliyat bilan emas, balki kadrlar hisobini yuritish bilan shug‘ullanadi.

Shu bilan birga, ular “Kadrlar bo‘limi” kabi dasturlardan foydalanadilar, bu ma‘lumotnomalar orqali ma‘lumotlar kiritilgan paytdan boshlab va xodimlar to‘g‘risidagi hisobotlar olingunga qadar xodimlarning hisobini avtomatlashtiradi, “IC: Ish haqi va personalni boshqarish” dasturi esa bir vaqtning o‘zida kadrlar siyosatidagibir nechta muammolarni hal qilish imkonini beradi, masalan:

- tashkilotning barcha bo‘linmalari uchun elektron hujjatlarni yuritish (bir ish joyida, kadrlar hisobini to‘liq avtomatlashtirish, ish haqini hisoblash va qonun talablariga muvofiq zarur soliqlar va badallarni hisoblash);
- individual xodimning ham, umuman korxonaning ham turli ko‘rsatkichlaridan(KPI) foydalangan holda xodimlarni moliyaviy rag‘batlantirish sxemasini ishlab chiqish va qo‘llash;
- xodimlarning sifat tarkibini aniqlash, xodimlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni saqlash, xodimlarning harakatini belgilash;
- bir nechta rag‘batlantirish sxemalari bo‘yicha ish haqini hisoblash, maqbulini tanlash uchun olingan natijalarni taqqoslash;
- kadrlar xarajatlari byudjetini belgilash va byudjetdan chetlanishlarni

aniqlash;

- kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash, kadrlar malakasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni saqlash, kadrlar zaxirasini aniqlash.

Kuchli raqobat muhitida ishlaydigan sohalarda (masalan, bank, uyali aloqa va boshqalar) HR xizmatlari yaxshi ishlaydi va shu bilan birga o‘z faoliyatida dasturiy mahsulotlardan juda muvaffaqiyatli foydalanadi. Shunday qilib, bank sohasida kadrlar bo‘limi xodimlari “FIDO Business” MChJ tomonidan ishlab chiqilgan IABS (Integratsiyalashgan avtomatlashtirilgan bank tizimi)dagi “Kadrlar” modulidan foydalanish imkoniyatiga ega. Ushbu dastur sizga ko‘p sonli HR funksiyalarini bajarishga imkon beradi, ishga qabul qilish ko‘rsatkichlarini, xodimlar almashinuvini va biznes rahbarlariga tezroq qaror qabul qilishga yordam beradigan boshqa jihatlarini kuzatishga yordam beradi.

Shu bilan birga, sotuvchi va ularning dasturiy mahsulotlar bozorini kengaytirish zarurati shubhasizdir, ular HR qarorlarini qabul qilishga yordam beradi, ularning aksariyati mobil ilovalar, sun‘iy intellekt va iste‘molchilar tajribasiga asoslangan bo‘lishi kerak. Ushbu vositalar HR real vaqtda uzluksiz ishlashiga imkon beradi.

HR tashkilotga raqamli formatga o‘tishda yordam bera olishi uchun u birinchi navbatda o‘z missiyasini qayta ko‘rib chiqishi, o‘zini boshqaruv va xodimlarga raqamli fikrlash uslubini tezda o‘zgartirish va moslashishga yordam beradigan jamoa sifatida belgilashi kerak.

An‘anaviy o‘qitish, ishga olish va HR vositalarini xodimlar osongina foydalanishi mumkin bo‘lgan tizimlarga yangilash orqali mustahkam raqamli infratuzilmani yaratish ham muhim sanaladi.

Shubhasiz, iqtisodiyotni raqamlashtirish temir yo‘l transportida kadrlar strategiyasini jiddiy qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Innovatsiyalar HR doirasidagi asosiy strategiya bo‘lishi kerak. Dizayn sessiyalari va xakatonlar bunda katta foyda keltirishi mumkin, ulardan qiziqarli innovatsion HR yechimlari paydo bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, benchmarking, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va loyihalarda a‘zolik dasturlariga qo‘shilish haqida unutmaslik lozim. Shu munosabat bilan analitik ko‘nikmaga ega bo‘lgan shaxslarni HR kasbiga jalb qilish zarurati aniqlanmoqda, bu raqamlashtirish sharoitida HR funksiyalarini bajarish samaradorligini oshiradi. Shubhasiz, faqat HR Digital formatida birlashtirilgan yangi raqamli texnologiyalar, platformalar va ish usullarini qo‘llaydigan HR



menejerlari biznes natijalariga ta'sir qilish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo'ladi. Ma'lumki, Digital - bu kompaniya maqsadlariga erishish uchun raqamli resurslar, kanallardan foydalanishdir. HR Digital - bu xodimlarni boshqarish va HR brendingi sohasidagibir qator yangi yondashuvlarni birlashtirgan tadbir formatidir. Keling, ushbu yondashuvlardan ba'zilarini ko'rib chiqaylik:

- HR tahlili. HR mutaxassisi ishining mutlaqo barcha bosqichlarining samaradorligi o'lchanadi va oldindan aytib bo'ladi: ishga olish, xodimlarni rag'batlantirish, HR brendingi, iste'dodlarni boshqarish va boshqalar.

- Ma'lumotlar bilan ishlash. Ish samaradorligini to'g'ri hisoblash uchun siz ma'lumotlar bilan ishlashni bilishingiz kerak: muntazam ma'lumotlarni to'plash, ma'lumotlarni malakali qayta ishlash (ham kompaniyaning ichki "Iqlimi" haqida, hamumuman bozor haqida), shuningdek, ular bilan ishlash. katta ma'lumotlar (Big Data).

- Natijani hisoblash. Analytica sizga loyihani ishga tushirish bosqichida jarayonlarning samaradorligini boshqarish imkonini beradi, chunki u to'g'ri yoki noto'g'ri yoki boshqa birovning tajribasiga emas, balki raqamlarga asoslanadi.

- Jarayonlarni avtomatlashtirish. Ma'lumotlar bilan mohirona ishlash yordamida kadrlar bo'yicha mutaxassisning ishini avtomatlashtirish orqali imkon qadar soddalashtirish mumkin. Murakkab jarayon sodda va tushunarli bo'lishi kerak! HR vazifalarini jarayonlarga oson va tez taqsimlash, xavflarni baholash va ko'rinadigan natijalarga erishish imkoni paydo bo'ladi.

- Loyihaviy yondashuv. HR bo'yicha mutaxassisning ishi boshqaruvning yangi darajasiga kirmoqda: barcha ish jarayonlarini baholash; optimallashtirish zarur bo'lgan sohalarni aniqlash; muammolarni hal qilish uchun eng yaxshi vositalarni o'z vaqtida joriy etish, bularning barchasi ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslangan.

Shunday qilib, raqamlar davrida kadrlar faoliyatini o'zgartirish zarurati kadrlar bo'yicha mutaxassis oldiga yangi talablarni qo'yishiga aslo shubha yo'q. U nafaqat psixologiya, sotsiologiya, brending va kommunikatsiyalar sohasida bilimga ega bo'lishi, balki kadrlar bo'yicha loyihalarning malakali tahlilchisi va menejeri bo'lishi kerak, bu esa o'z navbatida, HR ishi uchun mutaxassislar tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqishda IT komponentini kuchaytirishni talab qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1-fevraldagi “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5647-sonli Farmoni.

2. Денисов А.Ф., Кардаш Д.С. Анализ практики цифровых технологий в подборе персонала // Экономика и управление. 2018. № 6 (152). С. 26-37.

3. Набижонов, О., Шавкатова, Ш. ., & Сатторова, С. . (2022). КОРХОНАЛАРДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРАЖАТЛАРИНИ МИНИМАЛЛАШТИРИШ СТРАТЕГИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(7), 27–29. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/1918>

4. Набижонов, О. ., Хужамкулов, З. ., & Юлдашева, С. . (2022). РЕЗУЛЬТАТИВНОСТЬ УПРАВЛЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННЫМИ ИЗМЕНЕНИЯМИ НА ТРАНСПОРТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(5), 239–246. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/3100>

5. Атаджанова, З., Муродов, А., & Набижонов, О. Г. (2022). ТРАНСПОРТ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИ САМАРАДОРЛИК . Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(4), 74–82. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/1356>

6. Otabek Ganiyevich Nabijonov, & Sh. A. Kholbutaeva (2022). THE ROLE OF CONSULTING IN THE MODERN MARKET ECONOMY. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (2), 5-8.

7. Ugli, A. S. O., Ganiyevich, N. O., Ugli, Y. S. Z., & Ugli, K. R. A. (2021). About how cheap (actually very expensive) loans may not enrich the poor. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2191-2193.

8. Набижонов, О. ., & Саидалиев, С. . (2023). ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА ИНВЕСТИЦИОН ЖАРАЁН ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИХАЛАР МАНБАЛАРИ. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(1), 244–247. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/9617>

9. Shavkatova, S. ., & Nabijonov, O. . (2022). INNOVATSIYA



FAOLIYATINING ANAMIYATI. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(11), 4–7. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/4088>

10. Отабек Ганиевич Набижонов, Зоҳиджон Раббимқул Ўғли Хужамқулов, & Ф. Б. Шакирова (2022). ИННОВАЦИЯЛАР НЕГИЗИДА БАРҚАРОР ИҚТИСОДИЙ ЎСИШНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (4), 326-334.

11. Nabijonov Otabek Ganiyevich, & Shavkatova Shakhnoza Pulot Qizi. (2021). THE ROLE OF UNIVERSITIES IN BUILDING A REGIONAL INNOVATION SYSTEM. Eurasian Journal of Academic Research, 1(8), 102–106. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5709174>



---

Research Science and  
Innovation House



617.753.2

**Определить роль измененного гормонального статуса у больных  
миопии высокой степени**

**Андижанский Государственный Медицинский институт  
Абдурахманова Д.А.**

**Аннотация.** Измененного гормонального статуса у больных миопия высокой степени- является осложнением прогрессирующей миопии высокой степени, сопровождающимся поражением периферических и центральных отделов склеры. Миопия высокой степени встречается у людей молодого и пожилого возраста, протекает очень медленно, но при прогрессирующей степени миопии изменения глазного дна протекает быстро, без явных признаков, часто приводит к инвалидизации или необратимой потере зрения.

**To determine the role of altered hormonal status in patients  
with high-grade myopia.**

**Andijan State Medical Institute  
Abdurakhmanova D.A.**

**Annotation.** Altered hormonal status in patients with high-grade myopia is a complication of progressive high-grade myopia, accompanied by damage to the peripheral and central parts of the sclera. High-grade myopia occurs in young and elderly people, proceeds very slowly, but with a progressive degree of myopia, changes in the fundus proceed quickly, without obvious signs, often leading to disability or irreversible loss of vision. The rillic is accurate

shape of the nuclei is irregular, invaginations of the karyolemma deep into the nucleus are frequent, some of them very deep. Heterochromatin granules are mainly located under the karyolemma, with a smaller number in the karyoplasm. The location, size and number of heterochromatin granules are characteristic of differentiated cells. Endocrine granules are characterised by high electron density. The location of granules in different endocrinocytes is not uniform. Most often they are localised in the basal and lateral parts of cells, in some cells they are abundant in the apical part. This arrangement, apparently, reflects the fact that endocrinocytes are at different stages of the secretory cycle. Morphometric parameters of endocrinocytes are as follows: the base of the cells is  $152.15 \mu\text{m}$ , in the apical part the cell narrows to  $2.75 \pm 0.48 \mu\text{m}$ . Consequently, the base of cells is 5.5 times wider than their apical part. The difference in the size of the basal and apical parts of the cells reflects polar differentiation. Cells with such morphology are attributed to the receptor role of the apical part, while the basal part provides hormone release in response to stimulation of the receptor part. The nuclear-cytoplasmic ratio in NET endocrine cells is  $0.71 \pm 0.03$ , which reflects the prevalence of the cytoplasmic volume over the nucleus volume. This confirms the above mentioned that endocrinocytes of NET are highly differentiated cells. Single apudocytes of the open type of bronchial epithelium have a similar structure. Apparently, apudocytes and NET cells jointly perform a regulatory function in the lungs in response to changes in air composition.

**Conclusions.** Cytological and morphological parameters of NET cells in the bronchial epithelium of rabbits show a high degree of their receptor-endocrine differentiation and similarity with the structure of apudocytes. NET endocrinocytes together with apudocytes perform regulatory function in the lungs, forming their endocrine apparatus.

#### Список литературы.

1. Cheburkin A.V., Cheburkin A.A. Constitutional (congenital) bronchial hyperreactivity - a factor of predisposition to bronchoobstructive diseases in children // Paediatrica. 2008. № 4 (87). - С. 116-119.
2. Filippova L.V., Nozdrachev A.D. Bronchopulmonary nerve-receptor apparatus // Vestnik of St. Petersburg University. 2010. Ser.3. Vyp. 3. -С.54-77.
3. Oripov F.S., Dehkanov T.D., Blinova S.A. Pre- and perinatal ontogenesis of tissue and immune structures of the mucous membrane of the small

intestine of rabbits // Bulletin of Science and Education. - 2020. № 12(90). Part 3. С.97-102.

4. Блинова С.А., Орипов Ф.С., Дехканов Т.Д. Морфофункциональные особенности нейроэпителиальных телец в респираторном отделе легких // Вестник науки и образования. - 2020. № 10 (88). Часть 3. - С. 82-85.

5. Блинова С.А., Хамидова Ф.М., Юлдашева Н.Б. Структурные и молекулярные особенности эндотелия кровеносных сосудов легких//Проблемы биологии и медицины. - 2021. №2. - С. 251-255.

6. Блинова С.А., Юлдашева Н.Б., Хотамова Г.Б., Морфофункциональные свойства сосудов легких при бронхоэктатической болезни у детей // Вопросы науки и образования. - 2021. № 10 (135). -С.60-65

7. Блинова, С. ., Хамидова, Ф. ., & Рахмонова Х. (2022). Возрастные роли фундаментальных исследований в пульмонологии при коронавирусной пандемии. Журнал кардиореспираторных исследований, 1(SI-1), 51–52. <https://doi.org/10.26739.2181-0974-2020-SI-1-11>

8. Блинова, С. А., Орипов, Ф. С., Рахмонова, Х. Н., & Юлдашева, Н. Б. (2020). Морфофункциональные свойства нейроэпителиальных телец респираторного отдела легких. Проблемы биологии и медицины, 1, 181-183.

---

# Research Science and Innovation House



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SAVOD O‘RGATISH DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI O‘QISH KO‘NIKMA VA MALAKALARNI EGALLASHGA TAYYORLASH

**Sh.F.Daminova** – Jizzax davlat pedagogika universiteti Sirtqi bo‘lim  
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishlarida masofaviy ta‘lim” kafedrası  
katta o‘qituvchisi

**G.B.Xalimova** – Sirtqi bo‘lim Boshlang‘ich ta‘lim va STI 4-kurs talabasi

**Annotatsiya:** shbu maqolada boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish davrida  
“Alifbe” darsligi asosidagi o‘qish darslari ta‘limning keyingi davrida  
o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikma va malakalarini egallashlariga tayyorlovchi o‘qish  
usullari xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** savod o‘rgatish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish, til birliklarini  
(tovush, bo‘g‘in, so‘z, gap) farqlash.

**Аннотация:** в данной статье рассказывается об уроках чтения по  
учебнику «Алифбе» в период обучения грамоте в начальных классах, а также  
о методах чтения, готовящих учащихся к приобретению навыков и  
квалификации чтения в более позднем периоде обучения.

**Ключевые слова:** обучение грамоте, правильное, осознанное,  
выразительное чтение, различение языковых единиц (звук, слог, слово,  
предложение).

**Abstract:** In this article, reading lessons on the basis of the textbook  
“Alphabet” in the period of teaching literacy in primary classes are mentioned about  
the methods of reading that prepare students for the acquisition of reading skills and  
skills in the later period of Education.

**Key words:** teaching literacy, correct, conscious, expressive reading,  
distinguish Language units (sound, syllable, word, sentence).

Ma‘lumki, savod o‘rgatish jarayonidagi o‘qish darslarining asosiy vazifasi  
o‘quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to‘g‘ri talaffuzini o‘rgatish



orqali bolalarda to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o‘quvchilar lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, bilimni boyitish, mantiqiy tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o‘stirishda ham bu davr mas‘uliyatligi bilan alohida o‘rin tutadi.

Savod o‘rgatish tayyorlov davri o‘qishga o‘rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o‘zgarlar nutqini eshitish, diqqatni to‘plash, til birliklarini (tovush, bo‘g‘in, so‘z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllantiriladi. Bular o‘quvchilarning o‘qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi.

O‘qishga o‘rgatish uchun, avvalo, o‘quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo‘g‘indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi. Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo‘nalishda amalga oshirilishi mumkin:

1. Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog‘lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so‘ng kerakli so‘z ajratib olinadi, so‘ngra so‘z ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiriladi.

2. So‘z asos qilinib, analitik mashqlar yordamida o‘rganiladigan tovush ajratib olinadi. Masalan: **oy**. O‘qituvchi **oy** rasmini ko‘rsatadi, o‘quvchilar uning nomini - so‘zni aytadi. O‘qituvchi **o** tovushini cho‘zib (**o-o-o-y**) aytadi va qaysi tovushni cho‘zib aytayotganini o‘quvchilardan so‘raydi. O‘quvchilar **o** tovushini aytgach, uning xususiyatlari haqida savol-javob o‘tkaziladi. **O** tovushli so‘zlar o‘ylab toptiriladi. SHundan so‘ng **o** harfi kesma harfdan yoki rasmlil alifbodan ko‘rsatiladi. Bunda **o** harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e‘tibor qaratiladi.

3. O‘rganilgan harflar ichiga bugun o‘rganiladigan harf aralashtirib qo‘yiladi, bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so‘ng o‘qituvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadi. O‘quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. SHu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmlil alifbodan ko‘rsatadilar. Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o‘qishga o‘rgatish ustida ishlanadi.

O‘qishga o‘rgatishda bo‘g‘in asos qilib olinadi. Buning uchun o‘qituvchida bo‘g‘in jadvali bo‘lishi lozim. Bo‘g‘in jadvali asosida o‘qish namunasi ko‘rsatiladi, ya‘ni harflab emas, ichida, birinchi harfni ko‘z bilan ko‘rib, uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko‘rish va ikkalasini bog‘lab, unlini mo‘ljallab ulab aytish



tushuntiriladi. Bo‘g‘in o‘qish o‘qituvchining namunasi asosida doimiy ravishda har bir darsda izchil olib boriladi. Bunda chizmalar asosida bo‘g‘inlab o‘qitish, kesma bo‘g‘inlar asosida o‘qitish, kesma bo‘g‘inlarni boshqasi bilan almashtirib o‘qitish, bo‘g‘indagi bir tovushni almashtirib o‘qitish (“Kun va tun” o‘yinidan foydalanib: bol xal – ta) usullaridan foydalanish mumkin. Uch tovushdan tuzilgan bo‘g‘inlarning oxirgi tovushini punktirlar (nuqtalar) bilan ajratib o‘qitish (ti:l, no:n, la:b, cho:y), o‘qishni yengillashtirish usullari orqali o‘qishni mashq qildirish samarali natija beradi.

Shuningdek, alifbe multimediasi asosida tovush-harf bilan tanishtirish, harflarni, bo‘g‘inlarni qo‘shib o‘qishni mashq qildirish o‘quvchilarning o‘qishni o‘rganishlarini tezlashtiradi. Multimedia orqali bola o‘ynab turib o‘qishni mashq qiladi. Uning ko‘z o‘ngida jonli jarayon namoyon bo‘ladi. Mavhum narsalar uning ko‘z o‘ngida aniq gavdalanadi. Multimedia qahramonlariga ergashib, o‘qishni mashq qiladi, fikrlashi tezlashadi. Bunda “Alifbe” sahifalaridagi so‘zlarning oldin bo‘g‘in tarkibini o‘qish, so‘ng so‘zni yaxlit o‘qishlari o‘qish sifati samaradorligini oshiradi.

O‘qituvchining namunali o‘qishidan so‘ng birgalikda ovoz chiqarib o‘qitish, yakka-yakka o‘qitish, shivirlab o‘qitishdan foydalaniladi. Ayniqsa, sekin o‘qiydigan o‘quvchilar bo‘lgan sinflarda xor bilan o‘qitish o‘qishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf o‘quvchilarining o‘qish ko‘nikmalaridan kelib chiqib, matndagi so‘zlarni xattaxtada bo‘g‘inlarga bo‘lib yozish, o‘rganilgan harflarni hisobga olgan holda qo‘shimcha so‘z birikmalari, gaplar tuzib yozish va o‘qitish usuli o‘quvchilarning tushunib o‘qishlarini ta‘minlaydi.

Ma‘lumki, “Alifbe” sahifalarida bo‘g‘in tuzilishi murakkablashib boradi. SHuning uchun o‘qituvchi har bir bo‘g‘in tuzilishining murakkabligiga qarab ish usullarini belgilab olishi zarur. Masalan, uch tovushdan tuzilgan, to‘rt tovushdan tuzilgan bo‘g‘inlarni o‘qishga o‘rgatish ham o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda o-lov, Man-non tipidagi bo‘g‘inlarda **o-lo:v**, **Ma:n-no:n** tarzidagi qo‘shimcha chiziqdan, bodring, do‘st tipidagi bo‘g‘inlarda **bo:d-ri:ng**, **do‘:s:t** tarzidagi qo‘shimcha chiziqlardan foydalaniladi. So‘zlarni o‘qishga o‘rgatishda jadvallar ham yaxshi samara beradi:



uk	ki		
tul	ki	lar	
lay	lak	lar	n i

Umuman olganda, har bir o‘qish darsida albatta bo‘g‘in tuzilishi murakkab bo‘lgan so‘zlarni o‘qish mashqi o‘tkazilishi lozim. Bu usul o‘quvchilarda o‘qish malakasining takomillashuviga yordam beradi.

O‘qishga o‘rgatishda so‘zlarni va gaplarni to‘ldirib o‘qish ko‘nikmalarini hosil qilish o‘quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo‘naltiradi. O‘quvchi tushirib qoldirilgan harf yoki so‘zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e‘tibor beradi, o‘rtoqlariga nisbatan tez topib, o‘qituvchining rag‘batiga sazovor bo‘lishga intiladi.

“Alifbe” darsligidagi matnlarda turli tinish belgilari ishlatilgan. O‘quvchilar shularga mos ohang tanlashni, to‘xtam (pauza) qilish o‘rinlarini belgilab olishi zarur. Bunda ham o‘qituvchining tushuntirishi (birinchi uchragan tinish belgini izohlashi) va ifodali o‘qish namunasini ko‘rsatishi katta ahamiyat kasb etadi. Ifodali o‘qilgan matn mazmuni tushunarli bo‘ladi.

Har bir predmetda bo‘lgani kabi o‘qish darslarida ham ta‘lim-tarbiya birligiga e‘tibor beriladi. O‘qish darslarida tarbiya o‘qilgan matnning ongli o‘zlashtirilishiga bog‘liq. Birinchidan, o‘quvchi matnda fikr nima haqida borayotganini anglasagina, o‘zida shunday xislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan, yaxshi inson bo‘lish uchun o‘qishning zarurligini anglaydi. SHuning uchun ongli o‘qishni ta‘minlashda matn bilan unga ishlangan mazmunli rasmlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqatni qaratish lozim. Bunda quyidagicha savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Rasmni kuzating, matnda nima haqida gap boradi?
2. Rasmda nima tasvirlangan? Rasm bilan matn orasida bog‘lanish bormi?
3. Matn mazmunini rasmga qarab so‘zlab bering.
4. Bolalar qayerga bordilar? Qizning ismi nima? Bolaning ismi-chi?
5. Ali, Lola nima qildi? Ular qanday lolalar terdilar?

Demak, o‘qish o‘qilganlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim,





shundagina matndagi asosiy fikr, ilgari surilayotgan g'oya o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi, so'z va matnlar yod olingan taqdirda ham o'quvchiniki bo'lib qoladi.

Savod o'rgatishning birinchi kunlaridanoq o'qish ongli bo'lishi, bolalarni ongli o'qishga o'rgatish juda muhim. So'roqlar yordamida o'qilganlarni bola qanday tushungani aniqlanadi, tekshiriladi. O'qishdan oldin o'tkazilgan tayyorlov suhbat ham, o'qilgan matn yuzasidan o'tkazilgan suhbat ham shu maqsadga - ongli o'qishga xizmat qiladi. SHaraitga qarab, bolalarga nimanidir o'qishni talab qiladigan muammoli holatni yaratish zarur. Bunday holat “Alifbe” dan yoki harf terish matosidan o'qiladigan topishmoqdan foydalanib yoki muammoli savolni keltirib chiqaradigan taxminiy suhbat yordamida hosil qilinishi mumkin. Masalan, “Qishda qushlar qayerga uchib ketadi?” (harf terish matosida: “Qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi”). Bu kabi tayyorlov mashg'ulotlari o'qishning yuqori darajada ongli bo'lishini ta'minlaydi.

Ongli o'qishni ifodali o'qishdan ajratib bo'lmaydi. Ammo analitik o'qishning birinchi bosqichida ifodali o'qish mumkin emas, chunki bolalar so'zda urg'uli bo'g'inni ajrata olmaydilar, tugallangan intonatsiyani, so'roq ohangini, hatto, orfoepik to'g'ri o'qishni bilmaydilar. O'quvchilar so'zning harfiy shaklidan aynan nusxa ko'chirib, orfografik o'qiydilar. O'quvchilar orfografik o'qishdan asta-sekin orfoepik o'qishga o'tkaziladi. Orfoepik o'qishga o'rgatishda qayta o'qitish usulidan foydalaniladi. Shuning uchun analitik o'qish bosqichida so'zni yaxlit, orfoepik qayta o'qish tavsiya qilinadi. Bunday qayta o'qish to'g'ri intonatsiyaga, ifodalilikka rioya qilib o'qishga o'rgatibgina qolmay, o'qishning ongli bo'lishiga ham yordam beradi.

Savod o'rgatishning birinchi darslaridayoq o'quvchilarga tabaqalashtirib (differensial) yondashish (bunda o'quvchilarning o'qish imkoniyati hisobga olinadi) amalga oshiriladi.

O'qishning ongliligini va ta'sirchanligini ta'minlash uchun matn mazmunini o'quvchilarning ko'rgan-kechirganlari, taassurotlari bilan bog'lash lozim. SHunda o'quvchida o'qishga, o'rganishga qiziqish ortadi.

Ongli o'zlashtirishni amalga oshirishda lug'at ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlarning ma'nosi bilan tanishtirish, birinchidan, fikrni oydinlashtirsa, ikkinchi tomondan matnni tushunishga yordam beradi.

She'r, tez aytish, topishmoq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish, yod



oldirish ham o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishini oshiradi, o‘qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarining uchdan ikki qismi o‘qishni mashq qilishga ajratilishi lozim.

Yangi tovush va harf o‘rganiladigan **o‘qish darsida** asosiy ish turlari quyidagilar:

1. O‘rganiladigan yangi tovushli so‘zni (shu tovush so‘z boshida, o‘rtasida, oxirida kelgan so‘zni) bo‘g‘in-tovush tomonidan tahlil qilish bilan ajratish. Bunda yangi tovush ajratiladigan so‘zni o‘quvchilar rasm asosida o‘zlari tuzgan gaplar ichidan tahlil orqali ajratib oladilar. Tovushni ajratishda shu so‘zning chizmasi-modeliga asoslanadilar. Tovushlarni eshitish, talaffuz qilish, ularning artikulyatsiyasi - nutq organlarining tovush chiqarishdagi holati aniqlanadi va talaffuzi mashq qilinadi.

2. Kichik va bosh harflar bilan tanishtiriladi. Bo‘g‘inlar jadvali o‘qitiladi.

3. So‘zlarni avval xattaxtadan, keyin “Alifbe”dan o‘qitish. Harf va bo‘g‘inlaridan harf terish kartonida so‘z va gap tuzish va ularni o‘qish, so‘z ma‘nosi ustida ishlash.

4. Matnni o‘qish va tahlil qilish, uni qayta o‘qitish, rasmning matn mazmuni bilan bog‘liqligini aniqlash.

5. Savollar va rasm asosida matn mazmunini qayta hikoyalatish, rasm asosida matn mazmunini to‘ldirish, mantiqiy mashqlar yordamida lug‘atini boyitish, ulardan nutqida foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish. Kesma bo‘g‘inlar asosida o‘qilgan va ma‘nosi izohlangan so‘zlarni tuzdirish.

6. Umumlashtirish: yangi harfni jadvalga qo‘yish, yangi o‘rganilgan tovushning unli yoki undosh ekanligini aniqlash, yangi harfni ilgari o‘rganilganlar bilan qiyoslash, tovush va harfni o‘rganishning ahamiyatini izohlash va hokazo.

7. O‘rganilganlarni mustahkamlash darsida yangi tovush va harf bilan tanishtirish mashqidan tashqari barcha ish turlari amalga oshiriladi, shuningdek, qo‘shimcha so‘zlar va matnlar bilan ishlanadi; matnni o‘qish va tahlil qilishga, ko‘rgazma vositalar bilan ishlashga (harfni terish kartoni, magnit doskasi, sirli mato, rasmlar va boshq.) nutq o‘stirishga, o‘yinlar va qiziqarli materiallarga, ilgari o‘rganilgan tovushlar va harflarni takrorlab mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladi, tarqatma materiallardan keng foydalaniladi.

8. Birinchi uchragan so‘zlar bilan ishlash: ochiq bo‘g‘inda dastlab undosh,



keyin esa unli o‘qiladi, yopiq bo‘g‘inda esa unli bilan tugagan ochiq bo‘g‘inni o‘qib, keyingi undosh o‘qiladi va so‘zni yaxlit o‘qishga o‘rgatiladi. Yangi so‘z urg‘usi qo‘yilgan holda beriladi, bu uni o‘qishga, bo‘g‘inlab o‘qishdek sintetik o‘qishga (so‘zni butunligicha o‘qishga) yordam beradi. Bunda yangi so‘zni xattaxtada katta bosma harflar bilan yozish, o‘quvchilarga o‘qitish tavsiya qilinadi. So‘z shivirlash bilan o‘qiladi, kesma harf bo‘g‘inlar yordamida yoziladi.

9. Darslikdagi sujetli rasm mazmunini o‘qituvchi yo‘llovchi savollari asosida so‘zlatish, hikoya tuzish, undan asosiy fikrni ifodalovchi gapni ajratish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.

Yangi bo‘g‘in, so‘z tuzishda harf terish matosi, magnit doskasi, sirli mato kabilarning va yangi so‘zni xattaxtada va daftarda “yasash”ning ahamiyati juda katta. O‘qish uchun xilma-xil bosma materiallardan qanchalik ko‘p bo‘lsa, ulardan turli xil mashqlar tuzishda foydalanilsa, o‘qish shunchalik ongli, qiziqarli bo‘ladi, malaka puxta shakllantiriladi.

Bola endigina o‘qishni boshlagan davrda qatorni yo‘qotmasliklarini, shuningdek, so‘zdagi birorta harfni yoki so‘zni tushirib qoldirmaslik uchun xatcho‘pdan (o‘qiyotgan betni belgilab qo‘yish uchun kitob ichiga solib qo‘yiladigan qog‘oz yoki lentacha) foydalanishga o‘rgatish juda muhimdir. O‘qilayotgan qatorni kuzatib borish ko‘nikmasi sinf o‘quvchilaridan o‘rtog‘ining xatosini to‘g‘rilashni talab qilish yo‘li bilan hosil qilinadi. O‘quvchilar bu talabni qiziqib bajaradilar, shu yo‘l bilan ularning o‘qishga e‘tibori ortib boradi.

Demak, o‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatish, ularning o‘qish sur‘atini oshirish, ifodali va ongli o‘qish elementlarini shakllantirish o‘quvchilarni o‘qishning keying bosqichiga muvaffaqiyatli tayyorlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matchonov S., Bakiyeva H., Gulyamova X. va b. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Ishonchli hamkor. 2021.
2. М.П. Воюшина, С.А.Кислинская, Е.В. Лебедева. Методика обучения литературе в начальной школе. –М.: -Академия. – 2010.
3. Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X. va b. O‘qish kitobi. 4- sinf uchun darslik. –T.: Yangiyo‘l poligraf servis. 2020.
4. Гуломова Х. Ўқувчиларнинг матн устида ишлаши.// Тил ва

адабиёт таълими. 1994. №2-3.

5. Bakiyeva H. Boshlang`ich sinflarda so‘z ustida ishlash metodikasi. –T.: Istiqlol. 2013.

6. X.Gulyamova. Umumiy o‘rta ta`lim maktablarining boshlang`ich sinflarida o‘qish metodikasi. –T.: Xalq ta`limi. 2021. 2-son.

7. X.G`ulomova. Boshlang`ich sinf o‘qish darslarida maqollar estetikasi. Mu`allim ham uzluksiz bilimlendiuriy. 2021. 1- son.

5. Наримбетова, З. А., Сытина, Н. (2021). Учитель-нравственный пример для ученика. Academic research in educational sciences, 2(1), 1153-1159.

6. Eshkaraev, K., Norimbetova, Z. (2020). Methodological recommendations for organizing and holding mathematical circles. European Scientific Conference, 248-250.

7. Norimbetova, Z. A. (2020). Axborot kommunikatsion texnologiyalari yordamida geometriya fanini o‘qitish metodikasi (10-11-sinflar misolida). Science and Education, 1(7).

8. Narimbetova, Z. A. (2020). Matematika fanida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilar tafakkurining rivojlantiruvchi omil. Academic research in educational sciences, 1(3), 1253-1261.

9. Narimbetova, Z., Makhmudova, D. (2020). Developing creative competence through the formation of scientific generalization in students. International Journal of Psychosocial Rehabilitation ISSN, 1475-7192.

---

# Research Science and Innovation House



## OILADA BOLA TARBIYASINING O‘RNI

**Musurmonova Navro‘zoy G‘ofur qizi**-Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi [navrozoymusurmonova@gmail.com](mailto:navrozoymusurmonova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oilada bola tarbiyasida nimalarga muhim e‘tibor qaratish yoki aksincha, tarbiya jarayonidagi kamchiliklar hamda muammolar haqida va ularni bartaraf qilish to‘g‘risida fikrlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Oila, ota-ona, farzand, tarbiya, kelajak, kamchilik, kitob, ijtimoiy birlik, ma’suliyat, muammo, bola, me‘yor, vazifa.

### Роль воспитания ребенка в семье.

**Аннотация:** В данной статье подчеркивается важность акцентирования внимания на том, что важно в воспитании ребенка в семье или, наоборот, на недостатках и проблемах в воспитательном процессе и их устранении.

**Ключевые слова:** Семья, родители, ребенок, образование, будущее, дефицит, книга, социальное единство, ответственность, проблема, ребенок, норма, задача.

### The role of child education in the family

**Annotation:** This article highlights the importance of focusing on what is important in the upbringing of a child in the family or, on the contrary, about the shortcomings and problems in the upbringing process and their elimination.

**Key words:** Family, parents, child, education, future, deficiency, book, social unity, responsibility, problem, child, norm, task.

Mamlakatimizda yoshlarning ma’naviy qiyofasini mustaqillik mafkurasi, uning insoniy tamoyillari asosida shakillantirishga bosh vazifa sifatida qaralayotgani bejiz emas. Eng quvonarlisi shundaki, davlatimiz rahbari yoshlarning ma’naviy tarbiyasiga, ularning bilim va kasb mahoratini oshirish masalalariga alohida e‘tibor berib kelmoqdalar. Chunki mustaqilligimizning uch tayanchi – mustaqil siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma’naviyati bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘un rivoji ta’minlansagina O‘zbekiston buyuk yurt sifatida jahon hamjamiyatida o‘z munosib o‘rni egallay oladi.

Oila - o‘ziga xos ijtimoiy birlik. Uning asosida er-xotin ittifoqi, qarindoshlik munosabatlari, maishiy hayot birligi, axloqiy va huquqiy ma’suliyat hamda eng asosiysi ota-onalarning bolalarini tarbiyalash majburiyatlari turadi.

Oila deganda ko‘z oldimizga birinchi navbatda ota-ona va bolalar keladi. Oiladagi eng katta vazifa ham ota-ona zimmasida bo‘lishini barchamiz bilamiz. Inson umri o‘tib borar ekan, o‘z davomchisi bo‘lishini, keksayganda unga g‘amxo‘rlik qiladigan insoni bo‘lishini va albatta faxrlanib yuradigan farzandlari bo‘lishini istaydi. Buning uchun esa yillar davomidagi mehnat-mashaqqat, kuchli berilgan tarbiya, shuningdek, e‘tibor juda katta ahamiyat kasb etadi. Qachonki, ota-ona o‘z farzandidan natija kutsa, avvalambor, bergan tarbiyasiga bir nazar solishi lozim. Xalqimizda shunday bir maqol bor: "Nima eksang-shuni o‘rasan." Shunday ekan, farzandga ham qanday tarbiya berilsa shuning natijasini ko‘rish mumkin.

Bola tarbiyasi bu hayotdagi eng muhim masalalardan biri sanaladi. Xatto, buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz ham farzand tarbiyasini davlat boshqaruvidanda qiyin masala ekanligini ta‘kidlaganlar. Shuning uchun ham ayni shu jarayonga jiddiy e‘tibor qaratish lozim.

Oilada bola tarbiyasi bilan otadan ko‘ra ona ko‘proq shug‘ullanishi barchamizga ma‘lum. Ammo shunday onalarimiz ham borki, avvalo, tarbiyani o‘zlaridan boshlashi kerak. Misol uchun, kitob o‘qigan ota yoki onani ko‘rib farzand ham kitob o‘qiy boshlaydi, agar, qiziqmasa birgalashib o‘qing yoki o‘zingiz o‘qib bering, farzandga kitob o‘qishni o‘rgattingizmi, katta tarbiyani kitobning o‘zi beradi. Kitob o‘qib ulg‘aygan farzanddan yomonlik chiqmaydi. Demak, kitob farzand hayotida va tarbiyasida muhim omil hisoblanadi.

Agar oilada farzandga to‘g‘ri tarbiya berilmasa, farzand bilan to‘g‘ri munosabat qilinmasa, u bola kelajakda barkamol shaxs bo‘lib kamolga yetolmaydi. Ota-ona o‘z farzandiga qanchalik e‘tiborsiz bo‘lsa bola ruhan eziladi, o‘zini baxtli va kerakli inson deb his qilmaydi. Hayotda har bir bola baxtli yashashga haqli. Chunki ular dunyodagi eng begunoh insonlardir. Shu o‘rinda psixolog olim V.I.Selivanov fikrlarini keltirib o‘tsak - “baxtli bolalik bu oiladagi quvonchni, hamjihatlikni hamda ota-onalarning bolalariga g‘amxo‘rligining samarasidir”.

Farzand tarbiyasida ota-ona yo‘l qo‘yadigan eng katta xatolardan biri bu-bolani urish. Oilada bolaga turli xil tazyiqlar o‘tkazilsa, ular ham atrofdagilarga tazyiq, ziyon yetkazishi mumkin. Bunday hollarda bolalar muammoni kuch bilan hal qilish mumkin degan fikrda bo‘ladi. Ular turli xil tazyiqlar orasida o‘sganligi sababli, ulg‘ayib o‘z oilasini qurganda ham xuddi shunday zo‘ravonliklarni amalga oshiradi. Bu kabi xatoliklar avloddan-avlodga o‘tib borsa, butun bir kelajak yovuzlik to‘riga tushib qoladi. Shu sababli butun jamiyat





aziyat chekmasligi uchun oilada turli xil munosabatlarni, muammolarni murosa yo‘li bilan hal qiling. Shu bilan birga farzandiningiz oldida boshqalar bilan urish qilmang, boshqa insonlar to‘g‘risida yomonlab gapirmang. U bu kabi holatlarni ko‘rsa dunyoda yomon odamlar ko‘p ekan degan xulosaga kelib qoladi.

Farzand tarbiyasida barcha narsa o‘z me‘yorida bo‘lishi kerak. Bolani haddan tashqari qo‘rqitish, haddan ziyod erkalash ham kerak emas. Tarbiya jarayonida bolaning o‘z fikrlarini ham inobatga olish kerak. Turli xil muammolarga duch kelganda uning fikrini to‘liq eshita olish lozim. Unga muammoning tayyor yechimini o‘zingiz bermasligingiz kerak. Agar muammolarni o‘zingiz hal qilsangiz, u bunga o‘rganib qoladi. O‘z muammolarini o‘zi hal qilishga urinmaydi, o‘zining shaxsiy fikriga ham ega bo‘lmaydi. Agar farzandiningiz mustaqil inson bo‘lishini xoxlasangiz va barkamol inson bo‘lib ulg‘ayishini istasangiz, o‘z xatolaringiz ustida ishleng. Chunki, kichik xatolar yig‘ilib katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Oila, odob-axloq va ta‘lim-tarbiyaga e‘tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona” degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o‘zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog‘lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko‘chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o‘tib ketmagan, shu zahotiy oq tanbeh berib to‘g‘ri yo‘lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go‘zal xulqli bo‘lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o‘zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo‘ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o‘z odatlari bilan ba‘zan o‘zlari sezmaganda holda ularga ta‘sir qiladilar. Oiladagi qo‘pol munosabatlar, ko‘p yolg‘on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta‘sir qiladigan nosog‘lom muhitni keltirib chiqaradi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o‘rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo‘pol, dag‘al so‘zlar eshitib, kaltak yeb katta bo‘lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta‘sir qiladi. Bu esa o‘z navbatida oiladagi nosog‘lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan “ma‘naviy kasal” insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma‘naviyatiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Oilada ota-onalar “ommaviy madaniyat”



ta'siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.

Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi.

Bolalarni intizomga o'rgatish oila mustahkamligiga asos bo'ladi. Islom shu ma'noda ota-onalarni o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berishga rag'batlantiradi. Hadisi sharifda “Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring” deb ta'kidlangan.

Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: “...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi”. Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lish lozim. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go'zal axloqning inson kamolotiga sabab bo'luvchi yuksak fazilat ekanini ta'kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning “al-Adab al-mufrad hadislar to'plami, Abu Lays Samarqandiyning “Tanbehul g'ofiliyn” asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan.

Yurtimiz ulamolari o'z asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota-ona, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo'lgan muomala quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta'kidlaganlar:

-farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso'z, muloyim, bosiq va kamtar bo'lishiga e'tibor qarating;

-odamlar xursandchiligini baham ko'rish, g'am-anduhidan qayg'urish, mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalari xos fazilatlardandir. Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo'ling;





-farzandingizga o‘zgalari bilan muomala chog‘ida boshqalarni g‘iybat qilish, o‘zgalarni mensimaslik, obro‘si, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko‘rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;

-yoshi ulug‘ kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko‘ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga e‘tibor bering.

Odatda onalar o‘z bolalarining xato va kamchiliklarini otasidan yashirishga harakat qiladilar. Aytsam urishadi, bolamga qattiq tegadi deb, yo‘l qo‘ygan xatolari, qo‘l urgan yomon ishlarini otaga aytmaydilar. Oqibatda bola o‘z vaqtida tanbeh olmaganidan keyin bora-bora kattaroq jinoyatlarni ham qo‘rqmasdan qilaverishi mumkin.

Mehr-muhabbat berishda ham me‘yorni saqlay bilish kerak. bolaning barcha aytganlarini qilish, barcha to‘g‘ri-noto‘g‘ri xatti-harakatlarini ma‘qullash yoki xatto indamaslik farzandning umuman tarbiyasiz bo‘lib o‘shishiga olib keladi.

Bularning barchasidan xulosa qilgan holda, farzandni go‘zal xulqli qilib voyaga yetkazishda ota-bobolarimizning fikrlarini, yoshi ulug‘ insonlarning o‘gitlarini, shu jumladan, o‘zimizning tarbiyamizni ham inobatga olishimiz zarur. Zero buyuk mutafakkirlarimizdan Abdulla Avloniy aytganlaridek" Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir."

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi . –T.: O‘zbekiston, 2017.

2..Qodirova F.R. va boshq. Maktabgacha pedagogika. Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo‘nalishi talabalari uchun G` Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2019, 685 b.

3. Mukhiddinova, M. (2023). ABOUT THE PRAGMATICS OF DEACTIVE PRONOUNS IN THE KOREAN LANGUAGE. SPAST Abstracts, 2(02).

4. Mukhiddinova, M. (2021). A question about pronouns in a Korean sentence. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 208-211.

5. Dek-Khenovna, K. N., & Batirovna, M. M. (2019). To the study of the role of pronouns and pronominal words in Korean language (on elementary level teaching material). Вестник науки и образования, (19-1 (73)), 47-52.

6. Mukhiddinova, M. PRONOUNS IN COMMUNICATIVE SENTENCES IN KOREAN. TOШКЕНТ-2021, 52.

7. Ergashevna, A. D. (2023). TARBIYALANUVCHILARDA MOSLASHUVCHANLIK MEHANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. Journal of new century innovations, 23(2), 169-173.

8. Ergashevna, A. D. (2023). TALABALARDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MOSLASHUVCHANLIK MEHANIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH TEHNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH BUGUNGI MUOMMO SIFATIDA. PEDAGOGS jurnali, 26(1), 13-17.

9. Akramova, D. (2022). Bo‘lajak pedagog-psixologlarning maktabgacha ta’lim tizimidagi faoliyati. Science and innovation, 1(B8), 322-326.

10. Akramova, D. (2022). Oliy ta’lim muassalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. Science and innovation, 1(B8), 2150-2153.

11. Akramova, D. (2022). THE ESSENCE OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FLEXIBILITY IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Science and Innovation, 1(8), 2150-2153.

12. Akramova, D. (2022). ACTIVITIES OF FUTURE TEACHERS-PSYCHOLOGISTS IN THE SYSTEM OF PRESCHOOL EDUCATION. Science and Innovation, 1(8), 322-326.

13. Акрамова, Д. Э. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГИБКОСТИ У СТУДЕНТОВ КАК ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОСТИ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 13(8), 19-23.

Research Science and  
Innovation House



**Катаракта факоэмульсификациясидан кейинги экссудатив шишда  
макула дегенерациясининг клиник ҳолати**

**Андижон Давлат Тиббиёт Институтининг  
Машрапова Зарнигор Мухаммадравшан кизи**

**Аннотация.** Ушбу илмий мақола кўз гавхари касалликлари факоэмульсификация ташриҳини бажариш давомидаги тўр парда макуласида келтириб чиқарадиган асоратлар, уларни олдини олиш ва даволаш чора тадбирлари тўғрисида кенг ёритилган

**Ключ сўзлар.**МД, ОКТ,ЖССТ,ФЭК.

**Clinical case of macular degeneration in exudative tumor after cataract  
phacoemulsification of iridocyclitis**

**Andijan State Medical Institute  
Mashrapova Zarnigor Mukhammadravshan kizi**

**Annotation:** This scientific article is widely covered about the complications, prevention and treatment measures that can cause eye gouache diseases in the mesh curtain macula during the implementation of the Phacoemulsification procedure.

**Клинический случай дегенерации желтого пятна экссудативной  
отёке после операции факоэмульсификации катаракты**

**Андижанский государственный медицинский институт  
Машрапова Зарнигор Мухаммадравшан кизи**

**Аннотация.** В этой научной статье широко освещаются осложнения, меры профилактики и лечения, которые могут вызвать глазные заболевания в сетчатой оболочке желтого пятна во время проведения процедуры факоэмульсификации

**Ключевые слова.**МД, ОКТ,ЖССТ,ФЭК.

Макуляр дегенерация -МД энг кенг тарқалган кўз касалликларидан бири бўлиб, 40 ёшдан ошган одамларда кўриш қобилятини йўқотишнинг асосий сабабидир. ЖССТ маълумотларига кўра, дунёда 161 миллион киши кўз касалликларидан азият чекмоқда, шу жумладан МД томонидан таъсирланган 25-30 миллион киши.МД хавф омиллари: ёш, чекиш, семириш, куёш нурига таъсир қилиш, бундан ташқари, катарактни жарроҳлик йўли билан олиб ташлаш макула соҳасида олдиндан мавжуд бўлган дастлабки ўзгаришлар бўлган беморларда касалликнинг ривожланишига ҳисса қўшиши мумкин. Ультратовушли катаракта факоемульсификация (ФЭК) ҳозирги вақтда беморларнинг тез ва тўлиқ реабилитациясини таъминлайдиган объектив жарроҳлик стандарти ҳисобланади. Замонавий ультратовушли ФЭК нинг имкониятлари ҳар қандай зичликдаги линзаларни жароҳатларсиз олиб ташлаш, шунингдек, бошқа офтальмологик касалликлар билан бирлаштирилган катаракталарни муваффақиятли олиб ташлаш имконини беради. Бироқ, ультратовушли ФЭК ривожланишининг дастлабки босқичларида унинг камчиликлари аниқланди, бу паст частотали ультратовушнинг кўз тўқималарига салбий таъсири, кавитация ва иссиқлик энергиясининг чиқиши билан боғлиқ бўлиб, улар маълум даражада сақланиб қолади.Замонавий ультратовуш технологияларини такомиллаштиради. Кўплаб тадқиқотлар таъсир қилиш ва ультратовуш кучи ва орқа шох парда эпителиясининг шикастланиш даражаси ўртасидаги яқин боғлиқликни аниқлади ва исботлади. Ультратовушли энергия таъсирининг параметрларига ҳам боғлиқ бўлган ирис ва цилиар танадаги ўзгаришлар етарлича батафсил ўрганилган. Ультратовуш ФЭК нинг тўр пардага салбий таъсири, биринчи навбатда, унинг марказий минтақасининг морфофункционал ҳолатининг бузилишида ётади.

Мақсад ФЭКдан кейин беморда ёшга боғлиқ макула дегенерациясининг экссудатив шакли ривожланишининг клиник ҳолатини тавсифлашдир.

Материаллар ва усуллар. 1963 йилда туғилган (61 ёш) бемор Л. ўнг кўзининг кўриш қобиляти пастлигидан шикоят қилиб, текшириш учун офтальмология хонасига мурожаат қилди. Даволаш пайтида офтальмологик ҳолат: Визус: ОД — қўлнинг юз яқинидаги ҳаракати; ОС=0,5 к.б ( + ) 0.75 д= 0.9. Рефрактометрия: ОД — аниқланмаган. ОС-к.б +0,75 Д + 0,75 Д ах 40 д ах. КИБ ОД / ОС = 16/16 ммхг Биомикроскопияси: ОД тинч, шох парда шаффоф,



олд камераси ўртача чуқурликда, гавхар хиралашган. Кўз туби офтальмоскопия қилинмади. ОС тинч, шох парда шаффоф. Ультратовуш текшируви: а — сканерлаш: ОД-кўзнинг олд-орқа ўқининг катталиги 23,90 мм, олд камераси 3,26 мм, линзалари 3,50 мм. Гавхарда қўшимча хиралик ва шишасимон танадаги деструкция қайд этилган. ОС-кўзнинг олд-орқа ўқининг катталиги 23,88 мм, олд камераси 3,75 мм ва линзалари 4,02 мм. Б-сканерлаш: ОД — гавхар хиралиги кузатилади. Ўтказилган клиник текширув асосида ташхис қўйилди: ОД — сенил ядро катарактаси; ОС — бошланғич катаракт. Текширувдан бир ҳафта ўтгач, бемор ўнг кўзига ИОЛ имплантацияси билан амбулатор ФЭК операциясини ўтказди. ИОЛни ҳисоблаш а-сканерлаш ёрдамида амалга оширилди. Натижалар ва муҳокама. Операция ва операциядан кейинги эрта давр асоратларсиз ўтди. Жарроҳликдан кейинги 2-куни кўриш кескинлиги ОД 0,9-1,0 эди. Кўриш кескинлиги ОД = 0,9; ОС = 0,5 к.б. ( + ) 0.75 д = 0.9. Биомикроскопик: ОД тинч, оптик муҳит шаффоф, олд камера ўртача чуқурликда, қорачиғ мунтазам шаклда, орқа камерадаги ИОЛ марказлаштирилган, у яхши туради. Кўз туби: КНД оч пушти, чегаралари аниқ, артериялар тенг равишда торайган, томирлар кенгайган. Тўр парда оч пушти, макула бузилмаган, макула рефлекси сақланиб қолган, патологик ўчоқлар йўқ. Беморни бир ой давомида динамик равишда кузатиб бориш тавсия этилади. Бир ойдан кейин беморни текширгандан сўнг, кўзнинг тинч ҳолати, визуал функцияларнинг барқарорлиги қайд этилди: Визус ОД/ОС = 0,9/0,5. Текширувда: кўриш кескинлиги ОД = 0,08 н / А; ОС = 0,5 с . ( + ) 0.75 д = 0.9. КИБ / ОС = 16/17 мм сим уст. Компютер периметриясининг натижалари: од-макула соҳасида тшр парданинг ёруғлик сезгирлигининг пасайиши аниқланади. Марказда нисбий скотомалар жойлашган. Периферик кўриш майдони нормалдир. Амслернинг тести ижобий. Биомикроскопик: ОД тинч, шох парда шаффоф, олд камераси ўртача чуқурликда, орқа камерадаги ИОЛ марказлаштирилган, шаффоф. Кўзнинг туби оч пушти, чегаралари аниқ, артериялари тенг торайган, томирлари кенгайган, буришган. Тўр парда оч пушти, тўр парданинг бир қисми макулада аниқланган, тўр парда пигмент эпителийси билан бирга кўтаришган, шишасимон танага бироз кириб борадиган, кичик нуқта қон кетиши. Ўнг кўзнинг оптик когерент томография маълумотлари: вертикал сканерлашда тўр парданинг хориоид устидаги баландлиги 460 микрон баландликдаги юмшоқ қияликлар билан мунтазам

гумбаз шаклида аниқланади. Хориокапилляр қатламда ўзгаришлар йўқ. Қатламларнинг архитектурони минимал даражада бузилган. Ажратиш устидаги тўр парданинг қалинлиги: фовеада — 205 микрон, парафовеал — 300 микрон. Шикастланиш даражаси 2158 микрон. Оқт нақшлари тўр парда пигмент эпителийси остида трансудация билан хороидал неоваскуляризациянинг дастлабки кўринишлари сифатида қаралади. Текширув натижаларига кўра ташхис қўйилди: ОД — артифакция, МД экссудатив шакли; ОС — бошланғич катаракта. Бемор ўнг кўзга 0,5 мг (0,05 мл) дозада Лусентисни (Ранибизумаб) интравитреал юбориш билан даволанди. Айти пайтда бемор кузатув остида. Битта клиник ҳолат асосида аниқ хулосалар чиқариш мумкин эмас. Бундай клиник ҳолатларни, уларнинг пайдо бўлиш сабаблари ва қонуниятларини, шунингдек, ушбу жиддий касалликнинг бошқа мумкин бўлган предраспозиция қилувчи механизмларини ўрганиш зарур.

Хулоса. Жарроҳ беморда катаракта жарроҳлиги билан ультратовуш таъсирини ва операция вақтида операция вақтини минималлаштириши мумкин бўлган предраспозиция қилувчи патологиянинг яширин кўринишлари мавжудлигини ҳисобга олиши керак. Бундай беморларни МДни эрта ташхислаш учун ФЭКдан кейин бир йил давомида офтальмолог томонидан назорат қилиш тавсия этилади. Клиник тадқиқотлар шуни кўрсатдики, илгари профилактика чоралари бошланса, кўришни сақлаб қолиш имконияти шунчалик юқори бўлади. Амслер тармоғидан фойдаланган ҳолда беморларнинг ўзини ўзи кузатиши муҳим аҳамиятга эга. Даволовчи шифокор, беморларнинг ёшини ҳисобга олган ҳолда, уларга мукамал бажарилган катаракта операциясидан кейин ҳам кеч бўлиши мумкин бўлган МД ривожланиши эҳтимоли ҳақида хабар бериши керак.

Research Science and  
Innovation House





## DIDAKTIK O‘YINLARNING BOLALARNING RIVOJLANISHIDAGI FOYDASI

**Xusanova Sadoqat Akmaljon qizi**

Namangan Davlat Pedagogika Instituti  
Maktabgacha talim yonalish Talabasi.

**E-mail:** [sadoqatxusanova2@gmail.com](mailto:sadoqatxusanova2@gmail.com)

**Tel:** +998914750258

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada didaktik o‘yinlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarni yangi sharoitlarda o‘z bilimlarini qo‘llashga o‘rgatishlari, hissiy tajribasini boyitishlari, lug‘atni to‘ldirish va faollashtirish, bolaning nutqini rivojlantirishga hissa qo‘shish, izchil nutqni rivojlantirish tog‘risida yozilgan.

**Kalit so‘zlar.** Didaktika, o‘yinlar, dunyo qarash, nutq, diqqat, idrok.

## ПОЛЬЗА ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР ДЛЯ РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ.

**Хусанова Садокат Акмалжон кизи**

Студентка Наманганского Государственного Педагогического  
Института по направлению Дошкольная Образование

**E-mail:** [sadoqatxusanova2@gmail.com](mailto:sadoqatxusanova2@gmail.com)

**Tel:** +998914750258

**Аннотация:** В данной статье написано о том, как с помощью дидактических игр научить дошкольников применять свои знания в новых условиях, обогатить сенсорный опыт, пополнить и активизировать словарный запас, способствовать развитию речи ребенка, развивать связную речь.

**Ключевые слова.** Дидактика, игры, мировоззрение, речь, внимание, восприятие.

## THE BENEFITS OF DIDACTIC GAMES FOR THE DEVELOPMENT OF CHILDREN.

**Khusanova Sadokat Akmaljon kizi**

Student of Namangan State Pedagogical Institute in the direction of Preschool  
Education

**E-mail:** [sadoqatxusanova2@gmail.com](mailto:sadoqatxusanova2@gmail.com)

**Tel:** +998914750258

**Annotation:** This article describes how to use didactic games to teach preschoolers to apply their knowledge in new conditions, enrich sensory experience, replenish and activate vocabulary, promote the development of a child's speech, develop coherent speech.

**Keywords.** Didactics, games, worldview, speech, attention, perception.

**Kirish.** Didaktik o‘yinlarni foydali taraflarini sanab o‘tishimizdan oldin uni aslida nima ekanligini bilib olishimiz zarur demak, «Didaktika (qadimgi yunoncha: διδακτικός, didaktikos — „o‘rgatuvchi“, „ta‘lim beruvchi“) — pedagogikaning tarmog‘i. Ta‘lim nazariyasi bilan shug‘ullanadi. „Didaktika“ atamasi ilk bor Yevropada 17-asrda o‘qitish va ta‘lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo‘llanila boshlagan. Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o‘zining „Buyuk didaktika“ asarida (1657) bolalar va o‘smirlarni ma‘lumotli qilish va ularga ta‘lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Nemis pedagogi Adolph Diesterweg o‘zining „Nemis o‘qituvchilarini o‘qitish uchun yo‘riqnoma“ (1834—35) asarida didaktikaning pedagogikada ta‘lim nazariyasini bayon etuvchi alohida qism ekanligini ta‘kidlagan. Shundan keyin didaktikaga ta‘lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi. 19-yuzyillikning so‘ngi va 20-yuzyillikning boshlarida didaktikaga oid maxsus monografiyalar yaratila boshlandi.»[3]

Bolalar nima uchun o‘ynashni yaxshi ko‘rishlari haqida hech o‘ylab ko‘rganmisiz? O‘yin bolaga nima beradi? Bolaligingizda nima o‘ynaganingizni eslaysizmi?

Har bir bola kichik kashfiyotchi bo‘lib, atrofdagi dunyoni quvonch va hayrat bilan kashf etadi. Kattalar, ota-onalar va o‘qituvchilarning vazifasi unga bilim olish istagini saqlab qolish, bolalarning faol faoliyatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, unga aql uchun ovqat berishdir. O‘yin-bu bolalarning erkin faoliyati bo‘lib, u “haqiqiy emas” deb tan olinadi, ammo hech qanday moddiy foyda bilan belgilanmaydigan o‘yinchini to‘liq egallab olishga qodir. O‘yin nafaqat bolalar, balki kattalar hayotining bir qismiga aylanadi, hayotni to‘ldiradi va bezatadi. Didaktik o‘yinlar bolalar nutqining rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Bolalarni doimiy ravishda bir-biri bilan muloqot qilishga va ularning harakatlariga izoh berishga undash kerak-bu tashabbuskor nutqdan foydalanish ko‘nikmalarini mustahkamlashga, og‘zaki nutqni takomillashtirishga, lug‘atni boyitishga, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishga yordam beradi. Didaktik o‘yin o‘quv vazifasining mavjudligi bilan



tavsiflanadi. U kattalar tomonidan boshqariladi, u yoki bu o'yinni yaratadi, lekin uni bolalar uchun qiziqarli shaklga aylantiradi. Bolani o'yinda o'ziga xos bo'lgan o'quv vazifasi emas, balki faol bo'lish, o'yin harakatlarini bajarish, natijaga erishish va g'alaba qozonish qobiliyati o'ziga jalb qiladi.

Agar o'yin ishtirokchisi o'quv vazifasi bilan belgilanadigan bilimlarni, aqliy operatsiyalarni o'zlashtirmasa, u o'yin harakatlarini muvaffaqiyatli bajara olmaydi va natijaga erisha olmaydi. Shuning uchun, faol ishtirok etish, ayniqsa didaktik o'yinda g'alaba qozonish, bolaning o'quv vazifasi bilan belgilanadigan bilim va ko'nikmalarni qanchalik egallashiga bog'liq. Bu bolani diqqatli bo'lishga, yodlashga, taqqoslashga, tasniflashga, bilimlarini takomillashtirishga undaydi.

Xozirgi kunda maktabgacha yoshdagi ko'pchilikda nutqni kechikib rivijlanishi, umuman rivojlanmasligi yoki tovush talafuzida turli xil kamchiliklar uchraydi. Bunday kamchiliklar bilan savodga o'rganishga va maktabga tayorlanishini qiyinlashtiradi. Didaktik o'yinlar yordamida esa maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqida uchraydigan turli xil nuqsonlarni bartaraf etib ularni rivojlantiradi. «Bir qator olimlarning tadqiqotlarida, o'yin bolaning motivatsiyon talablari, bilish faoliyatini, xarakatini va nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan. Bolaning nutqini ostirish jarayonida qo'l matorikasini rivojlantirish ham ijobiy tasir ko'rsatadi. M.I.Koltsova, E.I.Isenina, A.V.Antakova, N.S.Jukova, E.M.Mastyukova va bo'shqalarning adabiyotlarida mayda qo'l matorikasini rivojlantirish orqali nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini tog'ri hsakillantirishga oid usullar berilgan. Shuningdek didaktik o'yinlar nafaqat qo'lning oddiy xarakatlari xamda lab, yuz mushaklari zo'riqishlarini susaytiradi, aqliy faoliyatni rivojlantirishda va tovushlar talaffuzini shakillantiradi.»[3]

Didaktik o'yinlar nafaqat nutqni balki bolalarning fikirlashini rivojlantiradi uning aqliy rivojlanishini oshiradi va didaktik o'yinlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda didaktik o'yinlar yordamida mayda matorikani rivojlantirsa ham boladi bunga qol matorikasi kiradi. didaktik o'yinlar yordami bolalar uchun zerikarli tuyilgan mashg'ulotlar ham juda qiziqarli tarzda o'tadi va bu mashg'ulotning organilish foyizlari bir necha barobarga oshadi. Misol uchun «To'rtinchi ortiqcha o'yini»

**O'yin nima beradi:** ob'ektlar va hodisalarni xususiyatlariga ko'ra tasniflash qobiliyatini rivojlantirish.



**Qanday o‘ynash kerak:** Taqdimotchi o‘yinchilarga to‘rta so‘zni aytadi (yoki to‘rta kartani ko‘rsatadi), ulardan biri ortiqcha. **Masalan siz** ushbu soz‘alrni aytishingiz mumkun: Quyon,bo‘ri, kapalak, ayiq.

Bu o‘yin bolalarda fikirlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Shunga oxshash Didaktik bir nechta o‘yinlar bo‘r bolalaring rivojlanishiga qaratilgan.Muntazam Didaktik o‘yinlar yordamida olib borilgan mashg‘ulot jarayonlari oddiy mashg‘ulotlardan ajralib turadi va bolalarning qabul qilish jarayoni ham oddiy mashg‘ulotga qaragada bir necha barobar yuqori bo‘ladi.

Bolalarning **fikirlash** qobilaytlarini rivojlantirishga qaratilgan Didaktik o‘yinlar:

- 1.To‘rtichi ortiqcha.
- 2.Guruhlarga bo‘ling.
- 3.Bu sodir bo‘ladi bu sodir bo‘lmaydi.
4. tezda javob beramiz.
- 5.Menga aytib bering

Bolalarning **diqqatni** rivojlantirishga qaratilgan didaktik o‘yinlar.

- 1.Farqlarni toping.
- 2.Qarsaklarni tinglang.
- 3.Ohshashini shu rasmni toping.
- 4.Skautlar.
- 5.Tayoqlardan joylashtiring.

Bolalarning **Idrokini** rivojlantirishga qaratilgan didaktik o‘yinlar.

- 1.Mavzuga siluetni tanlang.
- 2.uchar sharlar.
- 3.Suv ranglari.
- 4.Kimning kiyimi yaxshiroq.
- 5.Rang berish sahifalari.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сергеева Н. Ю. Арт-педагогика как ресурс гуманитаризации школы нового века // Проблемы искусства в XXI веке: Задачи школы: Сборник статей по материалам Международной научно-практической конференции (Санкт-Петербург, 22—23 ноября 2010 г.) / Под научн. ред. О. Б. Островского. — СПб.: Полторак, 2010. — 450 с. — С. 132—133.
2. Sergeeva N. Yu. Art-pedagogika kak resurs gumanitarizatsii shkoly novogo veka // Problemy iskusstva v XXI veke: Zadachi shkoly: Sbornik statey po materialam Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii (Sankt-Peterburg, 22—23 noyabrya 2010 g.) / Pod nauchn. red. O. B. Ostrovskogo. — SPb.: Poltorak, 2010. — 450 s. — S. 132—133.
3. Tvorchestvo: Teoriya, diagnostika, texnologii: Slovar-spravochnik dlya spetsialistov v oblasti obrazovaniya, innovatsiy i gumanitarnykh texnologiy v sotsialnoy sfere. — SPb.: Kniznyy dom, 2008. — 296 s.
4. Qodirova F.R, Toshpo'latova Sh.Q, Qayumova N.M., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. T.: “Tafakkur” nashriyoti. 2019. – 685 b.

---

# Research Science and Innovation House

## SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA ODDIY ROZMARIN (ROSMARINUM OFFICINALIS L.) NI KO'PAYTIRISH TEXNOLOGIYASI

**Xomidov Xasan Fayzulloevich**

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

**Annotatsiya:** Dorivor rozmarin o'simligini tabiiy tarqalgan xududlari Yevropada (Italiya, Fransiya va Ispaniya, shuningdek, Shimoliy Afrika xududlarida, Amerika, Osiyo. Qirim, Kavkaz, Moldova, hamda O'rta Osiyo mamlakatlarida manzarali va dorivor o'simlik sifatida yetishtiriladi.

**Abstract:** Medicinal rosemary plant is grown as an ornamental and medicinal plant in Europe (Italy, France and Spain, as well as North Africa, America, Asia, Crimea, Caucasus, Moldavia, and Central Asian countries).

**Аннотация:** Розмарин лекарственный выращивают как декоративное и лекарственное растение в Европе (Италия, Франция и Испания, а также Северная Африка, Америка, Азия, Крым, Кавказ, Молдавия, страны Средней Азии).

**Kalit so'zlar:** Rosmarinun officinalis L., dorivor, yetishtirish, urug' soni, chala buta, dala sharoitida.

**Keywords:** Rosmarinun officinalis L., medicinal, cultivation, number of seeds, immature bush, field conditions.

**Ключевые слова:** Rosmarinun officinalis L., лекарственный, выращивание, количество семян, незрелый куст, полевые условия.

Ma'lumki, dunyo miqyosida farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining taxminan 50% dorivor o'simliklar xom-ashyosidan tayyorlanmoqda. Ayniqsa yurak-qon tomir kasalliklarining davolashda va profilaktikasi uchun foydalaniladigan dorivor preparatlarning 77%, jigar va oshqozon-ichak kasalliklarini profilaktikasi va davolashda foydalaniladigan dorivor preparatlarning 74%, balg'am ko'chiruvchi dorilarning 73%, qon to'xtatuvchi dorilarning 60% dorivor o'simliklar xom-ashyosi asosida ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi paytda MDH mamlakatlarida 20000 ga yaqin o'simlik turlari o'sadi, ularning 30% O'zbekiston florasida uchraydi.



Respublikamizda ro‘yxatda o‘tgan va biokimyoviy tarkibi o‘rganilgan 600 turga yaqin yovvoyi holda o‘sadigan dorivor o‘simliklar mavjuddir. Ularning aksariyati tog‘ o‘rmonlarida tarqalgan. Ushbu dorivor o‘simliklarning 230 turining xom-ashyosi farmatsevtika sanoati ehtiyojlari uchun tayyorlanadi, ko‘pchiligi madaniylashtirilgan holda yetishtiriladi va ularning xom-ashyosi asosida 254 xilga yaqin dorivor preparatlar tayyorlanadi.

Hozirgi paytda Respublikamizda yiliga o‘rtacha 850 tonna dorivor o‘simliklar xom-ashyosi tayyorlanmoqda, uning 51% dorivor preparatlar ishlab chiqarish uchun, 42 % oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun va 7% texnik xom-ashyo olish uchun ishlatiladi.

Dorivor rozmarin – *Rosmarinun officinalis* L.o‘simligi – Labguldoshlar (*Lamiaceae*) oilasiga mansub. O‘tkir hidli, ko‘p yillik, bo‘yi 80 sm.dan toki 2m. gacha o‘sadigan, doimiy yashil chala buta o‘simlik. Ildizi o‘q ildiz, poyasining asosiy qismi yog‘ochlangan, shoxlangan 4 qirrali. Barglari qmarama-qarshi joylashgan, bandsiz yoki kalta bandli lansentsimon yoki chiziqsimon, chetlari bir oz pastga qayrilgan. Aprel-may oylari gullaydi. Uning gullari siyoh rang, pushti rang, barglari oralarida 3–7 tadan xalqa hosil qilib to‘plangan. Xalqadagi gullar boshosqimon, uzunligi 20–22 santimetrga yetadigan soyabonlarni tashkil qiladi. Urug‘lari avgust oylaridan yetiladi. Ular uch kirralli-tuxumsimon yong‘oqchadan iborat. Uzunligi 2,5–3 mm bo‘lib, yong‘oqchalarining usti notekis uch kirralli, rangi tuq jigarrangda yoki qo‘ng‘ir qora rangda bo‘lib, 1000 dona urug‘ og‘irligi 0.9–1.2gr.ni tashkil etadi.

Ilmiy tadqiqotlar davomida laboratoriya sharoitlari va tajriba maydonchasida quyidagi bioekologik ko‘zatuvarlar, o‘lchashlar va hisoblashlar olib boriladi hamda tahlil qilinadi:

1. Tajriba maydoni tuprog‘ini adabiyotlardan o‘rganish
2. Ko‘paytirish usullarini o‘rganish
3. O‘simlikni o‘sish va rivojlanishini variantlar asosida kuzatish
4. O‘simlik mahsuldorligini o‘rganish
5. O‘simlikni yetishtirish agrotexnikasini ishlab chiqish
6. Urug‘ yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini belgilash

Dala tajribalari Samarqand viloyati Samarqand tumanining tajriba yer maydoni olib borildi. Tajribadagi o‘simlikning yetishtirish agrotexnologiyasi o‘rganiladi.

Tajriba variantlari quyidagicha rejalashtirildi.

## 1-jadval

### Tajriba tizimi

Variant	Variant nomi
1	Urug‘dan ekish
2	Urug‘larni ekish vaqti, meyori va chuqurligi bo‘yicha
3	Vegetativ ko‘paytirish
4	Sugorish meyori bo‘yicha
5	Agrotexnik chora tadbirlari bo‘yicha

**Urug‘ning unuvchanligi.** Dorivor rozmarin o‘simligi urug‘lari uch kirrali-tuxumsimon yong‘oqchadan iborat. Uzunligi 2,5–3 mm bo‘lib, yong‘oqchalarining usti notekis uch kirrali, rangi tuq jigarrangda yoki qo‘ng‘ir qora rangda bo‘lib, 1000 dona urug‘ og‘irligi 0.9-1.2gr.ni tashkil etadi.




### 1-rasm. Dorivor rozmarin mevasi va urug‘lari

Urug‘larni laboratoriya sharoitlarida unuvchanligini o‘rganish maqsadida, tajribalar Petri likobchasiga filtr qog‘oz to‘shalib, 100 tadan urug‘ ekilib, 4 qaytarilish asosida olib borildi va sinab ko‘rildi. Sinov uchun Petri likobchasiga ekilgan urug‘larda unuvchanlik 6-10 kundan so‘ng ko‘zatila boshlaydi va 35-40 kun davom etdi. Tajribalarning ko‘rsatilishicha, rozmarin o‘simligining urug‘ining unuvchanligi qoniqarli bo‘lib, laboratoriya sharoitda [18-20°C ] o‘rtacha 60-65% ni tashkil etadi. Shunday qilib, laboratoriya sharoitida o‘simlik urug‘larining unuvchanligi yuqori bulib, bu ko‘rsatkichlar barcha variantlarda 60-65% gacha qayd etildi.







**2-rasm. Urug‘larning laboratoriya sharoitida unuvchanligi**

Dala sharoitlarida o‘simlik urug‘larining optimal ekish muddatini aniqlash maqsadida, tajribalar laboratoriya sharoitida urug‘ unuvchanligini e‘tiborga olgan holda ekish mavsumlari [bahor va kuz] oylarida olib borildi.

Aniq ma‘lumotlarga ega bo‘lish uchun urug‘lar yilning mart -aprel va noyabr-dekabr oylari e kib sinab ko‘rildi.

Tajribalarning ko‘rsatishicha, barcha ekilgan variantlarda ham ekilgan urug‘lar unuvchanligi 60-65% atrofida kuzatildi. Ammo, kuzda oktabr oyining oxiri va noyabr oyining dastlabki kunlarida ekilgan urug‘larda unuvchanlik nisbatan yuqori bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar laboratoriya sharoitlarida kuzutilgan unuvchanlik miqdori nisbatan biroz baland darajada [65-70%] qayd etildi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Isomov, E. E., & Nomozova, Z. B. (2022). ARTISHOK NAVLARINING O‘SISH VA RIVOJLANISH FAZALARI. Academic research in educational sciences, (Conference), 244-248.
2. ——— Makhammadiev, J. (2020). Mikro kapsulasyonda emulsifiye damlaciklarin korunmasında kullanicak polimerlerin sentezi (Master's thesis).
3. Djumayeva, G. R., & Isomov, E. E. (2023). BUXORO VILOYATIDA O‘STIRILGAN ARTISHOK “VIOLETTA” NAVINING ONTOGENEZI. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA‘LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 1(9), 83-87.
4. Yoqubov, M., Mahammadiyev, J., & Eshonqulova, A. (2023). SABZI VA OLMADAN TAYYORLANGAN MAHSULOTLARNING TARKIBINI O

‘RGANISH. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 872-876.

5. Boboqandov, N. F., & Nomozova, Z. B. (2023). Leontice turkum turlarining bioekologik xususiyatlari va ahamiyati. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 679-683.

6. Nurmanova, I., & Mahammadiyev, J. (2023). APPLICATION OF MICROENCAPSULATION TECHNOLOGY IN THE FIELD OF TEXTILES. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 712-715.

7. Bobokandov, N., Nomozova, Z. B., & Oltiboyeva, M. G. (2017). Fodder quality of cynara scolymus L. in the condition of Samarkand region in Uzbekistan. Respublika ilmiy-nazariy anjumani: Nukus, 364-366.

8. Raxmonov, V., & Xamroyev, A. (2023). O ‘TXO ‘R BALIQLAR UCHUN RYASKA (LIMNA) O ‘SIMLIGIDAN EKOLOGIK TOZA, ARZON VA TO ‘YIMLI OZUQA TAYYORLASH. Science and innovation in the education system, 2(12), 167-171.

9. Nusratovich, R. D., Nusratovich, R. V., Zoirovich, Q. B., & Abdirazakovich, D. S. (2022). ANTHROPOMETRIC AND FUNCTIONAL CHANGES AND THEIR RELATIONSHIP AFTER TWO-YEAR AEROBIC GYMNASTICS TRAINING. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(9), 115-118.

10. Isomov, E. E., Djumayeva, G., & Qurasheva, S. N. (2023). ARTISHOK (CYNARA SCOLYMUS L.) NAVLARNING TURLI TUPROQ SHAROITLARIDAGI MAKRO BA MIKROELEMENTLAR TARKIBI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(19), 196-201.

Research Science and  
Innovation House





## AXBOROT TEXNOLOGIYASIGA OID BO‘LGAN SO‘ZLARINING GRAMMATIK TAHLILI

**Shahrisabz State Pedagogical Institute Department of Uzbek language  
and Literature teacher Rizayev Khairullo electronic teacher Rizayev**

**Khairullo electronic postal: rizayevxayrullo21@gmail.com,**

**phone number: +998976742477**

**Abstract:** In this article, we will consider the words related to the field of information technology that are often used in our speech today. Also, the units related to this branch, which is rapidly developing today, are analyzed grammatically and the methods of their formation are revealed through several examples.

**Key words:** information technology, word formation, method of composition, method of affixation, new meaning.

We know that every word has a base, that is, every language is based on words. Words that we use a lot all the time have their own way of being formed. The methods of word formation are studied in the topic of word formation given in linguistics and modern Uzbek literary language. Through this statement, we will learn more about the formation of information technology words that can be used in our constant speech.

It is no exaggeration to say that in our society, where science and technology are developed, information and computer technology departments are the concepts most often used in everyday life. Because, no matter what sphere of life we take, no matter what actions we perform, we certainly work with information. Nowadays, information technology is an important factor affecting the rapid development of society.

Word formation means creating a word with a new meaning. Word formation occurs through the change of the lexical meaning, and the formed word often moves from one category to another category. Word formation is done in two ways: 1. Affixation and 2. Composition.

The method of affixation is the formation of a new lexical unit by adding a word-forming suffix to the root. The same method of affixation, that is, word



formation, is called derivation in the book "Current Uzbek Literary Language" by R. Saifullayeva. has been studied. In Hamrayev's book "Mother Tongue" word formation was not taken as a specific topic. It is also mentioned in the phonetics section of the word formation topic, as well as in the noun formation section of the noun topic. But even so, if we compare the two books, Hamrayev's book is explained through examples and this topic is covered more widely. In Sayfullayeva, the topic is briefly given and explained in scientific terms. In this article, based on the books and sources of Saifullayeva and Hamrayev, brief information is given about the formation of words related to information technologies, which are often used in our speech today. The internal capabilities of the Uzbek language play a key role in the formation and development of terminological systems. As in all fields, artificial terms in the terminology of information technologies are one of the main sources in the formation and development of the terminology of this field. Word formation means creating a new word.

\*Examples of the phenomenon of word formation by the method of affixation:

- affix -cha. In the Uzbek language, the main function of the affix -cha is to make a word that means to make small, caress. Based on the suffix -cha, terms were also created in the field of information technologies. For example: mouse, asterisk, button, baskets, etc. These terms are the hardware names of the computer device. (control with the mouse, press the computer key, create an asterisk)

affix -li. In the field of information technology, terms are formed using the suffix -li. The affix -li serves as an adjective-forming affix in our language and creates a new word (lexeme). For example: laser printer, system block, etc. (A laser printer prints data using dots.) like affix. The affix - is one of the most active affixes. The -like affix is also a word-forming affix and forms an adjective from a noun. For example: modernity, simplicity, freedom. (information technologies based on modernity).

-la affix. For example: code

-a affix. For example: technique

-on affix. For example, an electron

The method of composition is the creation of a new word by joining two or more words. Compound words are formed in this way. Word formation consists of two parts. The first is the forming base, the second is the forming tool (adverb), and the composition of the formation is called the formation (formative word). In



addition, the phenomenon of creating words from one word group to another word group is a source of enrichment of the lexicon in the language.

The phenomenon of word formation in the method of composition:

Infrastructure» infra+ structure is made in the form of noun + noun.

Technopark» in the form of horse+horse

Archive file» in ot+ot format

Trumpet» is in the form of adjective + noun

Electronic communication is in noun + noun form

We will consider the syntactic method of forming terms using modern communication and information technology terms. 1. Combined terms. 2. Combined terms. It can also be said that compound terms are made by the method of composition.

Compound terms are also actively used in the field of information technology terms. When referring to the current terminological systems of science and technology or professions, it is known that compound terms are quantitatively more than single terms. The field of information technology is characterized by a large number of terms consisting of two or three components. For example: automatic system, mathematical model, feedback, etc.

In conclusion, it can be said that nowadays new words are coming in a lot through information technology. We use these words a lot, but we don't know how they are made and in what form. At this point, it should be said that in the creation of terms of modern communication and information technologies, internal sources, that is, methods of word formation, sources other than the vocabulary of the language are widely used.

#### **List of used literature**

1. Mirzayev M, Usmanov S, Rasulov I, The Uzbek language. T.: Teacher.
2. Hajiyev A. System of word formation in the Uzbek language. T.: Teacher, 2007.
3. Rahmatullayev Sh. Contemporary literary Uzbek language. - Tashkent, 2006.
4. Rahmatullayev Sh. Modern literary Uzbek language. T., 2006.
5. Sayfullayeva R. Modern Uzbek literary language. T., 2009.

## PEDAGOGICAL IDEA OF THEORY BASICS

FarDU pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi  
**Najmiddinova Saodat Abduvohid qizi**

### Abstract

This article provides information about the word jadid, the theoretical foundations of jadidism and pedagogical aspects of jadidism, as well as the thoughts and ideas of our scholars who contributed greatly to the idea of jadidism. Also, thoughts and comments about how attention is being paid to the idea of Jadidism in our country today.

**Key words:** Jadid, educational system, religious education, protectorate, socialist dictatorship, bigot, feudal backwardness, Council of Enlightenment, Jadidist movement, ideology, ideological-ideological field, ideological-political pressure, national pride.

### INTRODUCTION

The Jadidist movement in Turkestan was formed at the end of the 19th and the beginning of the 20th century and rose to its highest heights in a short period of time. Before talking about Jadidism, we need to know what the word “jadid” is. “Jadid” means “new” in Arabic. The Jadids considered it necessary to improve the education system of the peoples who were colonized by the Russian Empire, to reform the education sector, and to teach secular sciences to young people along with religious knowledge. They put forward the idea that young people should be taught religious education, Arabic, Persian languages, medicine, and chemistry in schools and madrasas of Muslim nations.

Changes in every society appear based on the historical conditions of its time. Historical figures, especially intellectuals, play a big role in these changes, and each of them puts forward unique advanced ideas. Intellectuals try to find ways to solve socio-economic problems in society. A similar process took place in Crimea, Caucasus, Turkestan, Bukhara Emirate and Khiva Khanate, which became part of the Russian Empire in the second half of the 19th century. In the second half of the 19th century, the intellectuals under colonial oppression started efforts aimed at enlightening their people and raising their level of development. Jadidism is a social



movement that managed to maintain its position and direction even after the Bolshevik coup of 1917 until the establishment of the socialist dictatorship.

It can be said about the Jadidism movement that the political, social and cultural problems that arose during this period did not escape their attention. The main goal of the members of Jadidlik movement was the issue of the nation and the Motherland. At the same time, this movement was educating the nation. As they realize that the country will be free, they pay great attention to the awakening and education of the country's citizens. Towards this goal, first of all, they started with the reform of school education, and then the national press was launched. They founded the theater as a new way to influence the thinking of ordinary people. New literature was formed, in a word, a new way of thinking appeared.

Ismail Gaspirali, a Crimean-Tatar enlightener, is considered the founder of the Jadidism movement that spread among all Turkic peoples. He acquired deep religious and worldly knowledge, was closely acquainted with world development, studied several foreign languages, and the culture of different peoples. In Turkestan, progressive forces thinking about the nation's perspective existed among almost all classes of the people - artisans, farmers, merchants, landowners, scholars. “Tarjimon” newspaper plays an important role in the wide spread of the ideas of Jadidism. Ismail Gaspirali's visit to Tashkent, Samarkand and Bukhara in 1893 stimulated the further development of enlightenment ideas. In 1893, the first new method school began to operate in the Emirate of Bukhara. Later, such schools spread widely in other regions.

Modernists of Central Asia studied the experiences of the Crimean intellectuals in the path of enlightenment and used the advanced ideas of the progressives of other countries. The age of the participants of the Central Asian development movement was different from the modern representatives of other countries. In 1910, the youngest of them was Abdulhamid Cholpan - 13 years old, the eldest - Mahmudhoja Behbudi - 36 years old. The development of the progressive movement took place in two stages. By 1917, this movement, which started as enlightenment in the first stage, turned into its second stage - a political movement. The national development in Central Asia is divided into Turkestan, Bukhara and Khiva regions according to their territorial characteristics. Intellectuals formed the main structure of Turkestan Jadidism, and they stood at the forefront of the struggle against the colonial policy of the Russian Empire. They dreamed of

seeing the future of Turkestan, which was turned into a raw material source of the tsar's government, as an independent, developed country. The forces of development formed at the beginning of the 20th century deeply understood that the state management system does not meet the requirements of the time, that the standard of living of the people is low and that it should be changed.

The spread of the Enlightenment movement in Turkestan was opposed by the colonial government and its officials, as well as by local bigoted and ignorant priests. Nevertheless, the Jadids continued their activities in the fields of press, publishing and theater. In 1898, teacher Salahiddin opened the second Jadid school in the city of Koqan. In 1899, Domla Shamsiddin opened a school in Andijan and Mannon Qori Jadid in Tashkent, and many students received a new education. The main ideas and goals of Jadidism include liberating Turkestan from medievalism, feudal backwardness, superstitions, taking the country, the people, the nation on the path of development, denying the “Ancient Method”, building a national state, constitutional, parliamentary It includes building a free and prosperous society in the office system, giving Turkish language the status of a state language, creating a national currency and a national army. In their publications, Jadids provided information about the events happening in the world and in the territory of Turkestan. Through this, they showed the content of their ideas and the need to spread them widely.

The progressive investors of Turkestan sent young people abroad and supported the young people who would get the necessary professions and serve the people and the young people who cared for them. Mirkomil Mirmo'minbayev from Andijan allocated a large amount of money for this work from his own account. In 1910, Mudarris Haji Rafi, Mirza Abduvahid, Hamidkhoja Mehri, Usmankhoja, and Muhammaddin Makhdum founded the “Tarbiyai Aftol” (“Children's Education”) society in Bukhara, and in 1911, 15 students, and in 1912, 30 students. Those sent to study in Turkey.

### LITERATURE ANALYSIS AND METHODS

By the beginning of the 20th century, dozens of modern schools were opened in the cities of Tashkent, Samarkand, Bukhara, Fergana Valley. Jadids brought up educated and enlightened young people in schools and through them put forward the ideas of national statehood to establish an independent state in Turkestan. By the beginning of the 20th century, a whole generation of modern intellectuals appeared



in Turkestan, representatives who greatly contributed to the development of the country's spiritual and educational sphere and the development of national culture. These are Mahmudhoja Behbudi, Abduqadir Shakuri, Saidahmad Siddiqi-Ajzi in Samarkand, Munavvargari Abdurashidkhanov, Abdulla Avloni, Ubaidullahhoja Asadullohojayev in Tashkent, Hamza Hakimzada Niyoz, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cholpon, Ishaqkhan Ibrat in the Ferghana Valley. Abdurauf Fitrat, Sadridin Ainiy, Faizulla Khojayev, Khivada Bobohun Salimov, Polvonniyoz Haji Yusupov and others were in Bukhara. They are patriots, enlighteners, founders and leaders of the Jadidist movement in Turkestan.

The services of Mahmudhoja Behbudi, who was recognized as “the father of Central Asian jadids” in uniting Turkestan jadids, were great. He was born on January 19, 1875 in the village of Bakhshitepa near Samarkand. First, he studied in Samarkand and then Bukhara madrasas, and rose to the rank of imam-khatib, qazi, and then mufti. Behbudi was the founder and leader of the Central Asian Jadidist movement. He is a person who made a great contribution to the development of the enlightenment movement in Turkestan. On Behbudi's initiative, a library called “Behbudi Library” was established in honor of his father.

Munavvarqori Abdurashidkhanov is an enlightened political figure who fought for freedom and the future of the nation in Turkestan, one of the major representatives of the Jadidism movement. Since 1904, he has been an active participant in socio-political and educational movements in the country. He was the initiator and practitioner of the opening of Jadid schools, the founder and editor of national newspapers and magazines, and the promoter of Jadid theater. Munavvarqori created textbooks such as “Adibi avval”, “Adibi soni”, “Yer yuzi” for schools.

Abdulla Avloni, one of the active participants of the reform movement, which acquired a cultural-educational and later political-social character at the beginning, was born in 1878 in the city of Tashkent in a family of craftsmen. He studied at a school and a madrasa and became an enlightened and profound scholar of his time. Abdulla Avloni made a great contribution to the development of the fields of education, press, and theater in the country, and in 1907 he founded the newspaper “Shuhrat”. He created textbooks such as “The First Teacher”, “The Second Teacher”, “Turkish Gulistan or Ethics” for the new method school he founded. Other national progressives, such as Behbudi, Munavvargori, Abdulla Avloni, also carried

out educational activities and opened new schools, charitable societies, libraries and bookstores. “Abdullah Avloni's words: “Education is a matter of life or death, or salvation or destruction, or happiness or disaster” must be written in every school building,” says Shavkat Mirziyoyev.

Jadids also founded the theater. In 1913, on the initiative of Abdulla Avloni, Munavvarqori Abdurashidkhanov, and Tavallolar, the first theater troupe in Central Asia “Turon” National Theater was created. They began to write dramatic works. Behbudi's work “Padarkush or the case of an uneducated child” was the first attempt at bubora. The play was performed for the first time on February 27, 1914 in the building of the Coliseum Theater in Tashkent by the actors of the “Turon” Theater. This day is the official opening day of the first national theater in our history. About the theater, Behbudi writes in the article “The theater is not a place”. The theater is a pulpit. The theater is a mirror, in which common situations are seen by the eyes in an embodied and manifested form, and the deaf and deaf are heard by them.” Developed nations consider theaters to be a school of manners and lessons for the great. They said that theater is one of the first causes and factors of development.

At the meeting of the Council of Spirituality and Enlightenment, the President asked “Is Uzbekistan ready for competition in the ideological sphere?” asked the question. He said that the country will strengthen cultural diplomacy. It was also emphasized that the Uzbek people should not deviate from the path shown by the ancients. The president asked the following question: “Are we ready to compete in the ideological and ideological sphere in today's tense situation?” Does the education of our young generation meet the requirements of complex times?” “These are not simple questions, but questions that make people seriously think and worry. If we want to live in this bright world with the names “Uzbek”, “Uzbekistan” and “Uzbekistan”, we must find answers to these questions today and start practical actions to solve them today. . Tomorrow will be late,” said Shavkat Mirziyoyev.

## RESULTS AND DISCUSSIONS

The foundation of Jadidism, the cornerstone was the school of “Usuli Jadid”. This is natural, since the goal is to renew the society, it could only be done by the new generation. It is necessary to raise a new generation. It is difficult to do this in the old traditional way. Because times have changed. It requires speed. Secondly, today's student should know modern sciences such as history, geography, economics, physics, chemistry, mathematics. The achievements of science and





technology in the last three to four centuries changed the fate of the world and brought Europe forward. Now it is impossible to live on par with the world without mastering European science. To learn this science, you need to know European languages. At the same time, it is necessary to preserve the identity. Religion is also necessary. So, in order to live, it is necessary to grasp all three aspects. You should not abuse any of them even if you catch them. Otherwise, the balance will be disturbed. Disturbance of balance leads to bad consequences. For example, if only religion is caught, the world will be lost. If we only say identity, nation, we will be separated from the world again. No one will have business with us. If we Europeanize, identity will be lost. This is also a tragedy. Behbudi shows this tragedy in “Padarkush”. In order to go out into the world, you need to know the language. This demand has not fallen from the agenda for Uzbekistan, which is moving towards independent development. The foundations of the national idea and national ideology that we are facing today were put on the agenda and discussed intensively by our fighters a hundred years ago.

### CONCLUSION

To sum up, our ancestors tried to create opportunities for the spiritual growth of the nation despite material difficulties and ideological and political pressures. They undertook all the work in this regard because they realized that raising the consciousness of the nation and strengthening the sense of national pride is one of the first-level tasks during the complex and responsible turn of history. We focused on the emergence of the current of modernism in the territory of our country and its activities in the field of enlightenment. The socio-political views of the Jadidism movement, the ideas of national independence and statehood, practical actions and struggles in this regard are a separate big topic. President Sh. As Mirziyoyev said in his Addresses to the Oliy Majlis, we must deeply study the heritage of the revolutionary movement and the enlightened grandfathers. The more we study this spiritual treasure, the more we will find the correct answers to many questions that still concern us today. The more actively we promote this priceless wealth, the more our people, especially our youth, will understand the value of today's peaceful and free life.



### References:

1. A. Avloni “Biography. Selected works”. 1998.
2. A. Munavvarqori “Red Uzbekistan”. 1927.
3. B. Kasimov “National Awakening”, T., “Sharq”. 2004.
4. S. Tillaboyev, A. Zamonov “History of Uzbekistan”. 2019.
5. O. Hashim “About Jadid literature”. 1929.
6. National awakening: courage, enlightenment, dedication. Tashkent. “Spirituality” 2002.



---

# Research Science and Innovation House





## O‘ZBEK VA FRANSUZ ADABIYOTI TARJIMALARIDA XALQ QAHRAMONLARINING TASVIRI

**Suyarova Mahliyo Muradxon qizi**

BuxDU Xorijiy tillar fekuliteti 4-bosqich talabasi

[suyarovamohi@gmail.com](mailto:suyarovamohi@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbek va Fransuz tili adabiyoti tarjimalarida xalq qahramonlarining ifodalanishi har ikki tilning qahramonlariga o‘ziga xoslikni ko‘rsatish va bu mavzuni qanday tarzda ko‘rishimiz mumkinligi haqida gaplashamiz. Fransuz adabiyoti, romanlar, dostonlar, teatr asarlari va boshqa adabiy yaratmalari orqali xalq qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlari va qobiliyatlari ko‘rsatiladi.

Bu mavzuda o‘zbek va fransuz tili adabiyoti tarjimalaridagi o‘ziga xosliklar, o‘zaro o‘xshashliklar va farqliliklar haqida muhokamalar olib boramiz. Bu tarz muhokamalar, har bir tilning adabiy yaratmalari va adabiyot tarixi asosida o‘ziga xosliklarni va o‘zaro ta’sir va almashtirishlarni ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi.

**Kalit so‘zlar.** Til, tarjima, qahramon, xalq, roman, adabiyot, badiiy, asar, maqola.

Ushbu maqolada biz fransuz adabiyotlarining o‘zbek tiliga qilingan tarjimalari bilan tanishib o‘tamiz. Fransuz taniqli yozuvchisi **Jules Verne** ning 1873 yilda chop etilgan “**Le Tour du monde en quatre-vingts jours**“ asari juda mashhur bo‘lgan. Bu roman o‘zbek tiliga tarjima qilganda "**Dunyo bo‘ylab sakson kun**" nomi bilan mashhurdir. Bu asarning kino va multfilmlari ham mavjud. Asarda asosiy qahramon **Phileas Fogg**, o‘ziga xos, isyonkor, va vaqt bilan juda aniq bo‘lgan bir shaxsdir. Uning hayotida dunyo bo‘ylab sayohat qilish uchun 80 kun ketishga imkoniyat beriladi. Uning yordamchisi va do‘sti **Passepartout**, o‘zining do‘stlik va jasorat bilan tanishgan Fransuz xodimi bo‘lib, Foggga yordam beradi. Fogg va Passepartout dunyo bo‘ylab sayohat qilish uchun bir necha mushkulotlarni, xavfli voqealarni va qiyinchiliklarni qabul qilishlari kerak bo‘ladi. Ular boshqa mamlakatlarda, qatnashuvchilar bilan uchrashishlarda, tashqi va ichki muammo va xavfli situatsiyalarda qarshi keladilar.



“Dunyo bo‘ylab 80 kun” asari, sayohat, jasorat, va xavfsizlikning muhimligini aks ettiradi. U qahramonlarning vaqtda qarshi kelish, yomonliklarni orqaga qo‘yish, va do‘stlikning kuchli guvohi bo‘lishga oid muhim xabarlar beradi. Bu asar, Jules Verne ning mashhur asarlaridan biri hisoblanadi va dunyo bo‘ylab sayohatning romantik va qahramonlik tomoshabinligini namoyish etadi.

Keyingi asarimiz bo‘lsa frantsuz yozuvchisi **Aleksandr Dyuma** ning “**Le Comte de Monte-Cristo**” romanidir. O‘zbek tiliga tarjima qilganda “**Graf Monte-Kristo**” nomi bilan o‘zbek xalqiga mashhur.

Roman birinchi marta 1844 yildan 1846 yilgacha seriallashtirilgan va jahon adabiyotining eng buyuk asarlaridan biri hisoblanadi. Unda soxta xiyonatda ayblanib, 14 yilga qamalgan yosh dengizchi **Edmond Dantes** haqida hikoya qilinadi. Qochib ketgach, Dantes o‘ziga xiyonat qilganlardan o‘ch olishga intiladi va boy va sirli graf Monte-Kristoning kimligini o‘z zimmasiga oladi. Roman o‘zining murakkab syujeti, boy xarakter rivojlanishi va qasos, adolat va qutqarish kabi mavzularni o‘rganishi bilan mashhur.

**Edmon Dantes** — asarning bosh qahramoni, dengizchi. Adolatsizlik bilan qamaladi. Keyinchalik Graf Monte- Kristo nomi ostida taniladi.

Abbat Faria — Edmon Dantesning do‘sti. Olim va rohib. Dantesga xazina sirini ochadi.

Uchinchi frantsuz tilida o‘zbek tiliga tarjima qilingan romanimiz ham aynan **Aleksandr Dyuma** tomonidan yozilgan klassik sarguzasht roman bu “**Les Trois Mousquetaires**” o‘zbek tilida tarjimasi “**Uch mushketyor**” nomi bilan xalqimizga mashhur hisoblanadi. 1844-yilda nashr etilgan bu asar qirolning mushketyori bo‘lish uchun Parijga borgan **D'Artagnan** ismli yigit haqida hikoya qiladi. U Athos, Porthos va Aramis bilan do‘stlashadi va ularning matonatli kurashi aql-zakovati va uddaburonligi bilan birgalikda turli fitnalar, va duellarda qatnashadilar. Roman harakat, romantika, burilishlar va burilishlar va unutilmas qahramonlar bilan to‘ldirilgan. U bir necha bor kino, televidenie va sahna uchun moslashtirilgan va sarguzasht adabiyotining eng buyuk klassiklaridan biri hisoblanadi.

Yana bir barchamizga tanish bo‘lgan asar **Guy de Maupassant** ning eng mashhur asarlardan biri frantsuz tilida “**Bel Ami**” nomi bilan o‘zbek tilida esa “**Azizim**” nomlari bilan tanilgan bu roman 1885-yilda yozilgan. Ushbu roman yuqori martabaga ko‘tarilishni orzu qiluvchi qahramonning sarguzashtlari haqida



hikoya qiladi. Asar bosh qahramoni hech qanday alohida iste'dodga ega bo'lmasada, birgina kelishgan tashqi ko'rinishi orqali har qanday xonimning qalbini zabt eta oladi va uning vijdoni har qanday yomonlikni kechira oladi. U bu dunyoda kuchli bo'lish uchun shuning o'zi yetarli deb hisoblaydi. Romanni bosh qahramon **Jorj Dyurua**, juda kelishgan yigit, ammo u Parijda juda muhtojlikda hayot kechiradi. Bir kuni u Afrikada u bilan birga xizmat qilgan eski askar sherigi Charlz Foresteni uchratadi. Allaqachon muvaffaqiyatli jurnalistga aylangan do'sti Charlz ayni damda kechki ovqat ziyofatini uyushtirishni rejalashtirayotgan bo'ladi va bu ziyofatga Jorjni ham taklif qiladi. Shu bilan birga Foreste Dyuruaga o'zini jurnalistikada sinab ko'rish taklifini beradi.

**Jorj Dyurua** — bosh qahramon, sobiq askar. U o'zini jurnalistikada sinab ko'radi va butun roman davomida boy va nufuzli ayollarning turmush o'rtog'iga aylanib, shu orqali yuqori martabaga erishadi. Bora-bora badavlat insonga aylangach, zodagonlik unvonini sotib oladi. Iste'dodi yo'q, axloqsiz yigit.

**Charlz Forestye** — Dyuruaning armiyadagi safdoshi, unga ish bergan jurnalist.

**Madlena Forestye** — Charlz Forestyening, keyinchalik Dyuruaning rafiqasi, vazir Larosh-Matyening ma'shuqasi. U o'zining o'rta tabaqali erlari uchun maqolalar yozishda yordam beradi, shuningdek, ularga oshiqlardan oladigan eksklyuziv ma'lumotlarni taqdim etadi.

**Klotilda de Marel** — Jorjning doimiy sevgilisi bo'lib, u bilan doimo ajrashib va yana yarashib yuradi.

**Lorina de Marel** — Klotildaning qizi bo'lib, u Jorjga „Azizim” laqabini beradi.

**Janob Valter** — „Fransiya hayoti” gazetasining egasi, boy va yirik tadbirkor.

**Virjiniya Uolter** — uning xotini, Jorjning ma'shuqasi.

Ana endi o'zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilingan asarkar qahramonlari bilan tanishishni boshlasak bu asarimiz biz yuqoridagi qahramonlari bilan tanishib o'tgan asarlarimiz qatorida juda ham mashhur o'zbek xalqida bu asarni o'qimagan kishi juda ham kam bo'lsa kerak navbatdagi asarimiz o'zbek yozuvchisi **Abdulla Qodiriy** qalamiga mansub o'zbek adabiyotidagi birinchi roman « **O'tkan kunlar** » romani fransuz tiliga tarjimasi esa « **Les Jours Passent** » deb nomlanadi. Roman XIX asr voqealarini o'z ichiga olgan. Murakkab tarixiy hodisalar romanning bosh

qahramonlari **Otabek va Kumushbibining** fojiviy sevgi qissasi atrofida ifodalangan. Voqealar rivoji mahalliy hukmdorlarning hokimiyat uchun qonli kurashlari muhitida kechadi. Boshqa yirik epik asarlardagi kabi „O‘tkan kunlar“da ham hikoyanavislikning ko‘p planiligi, ikkilamchi sujetlar mavjudligi, ketma-ket avj oluvchi va fojiali yakun topuvchi voqealar bilan mavjud. Roman bosh qahramonlari bilan tanishamiz.

**Otabek** – ”Og‘ir tabiatlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit” – romanning bosh qahramoni, savdogar, Yusufbek hojining o‘g‘li, bir muddat Toshkentdagi Beklarbegi madrasasida tahsil olgan, yigirma to‘rt yoshda.

**Kumush** – “Quyuq jinggila kiprak”lari ostidan “timqora ko‘zlari” boqib turguvchi, “qop-qora kamon, o‘tib ketkan nafis, qiyiq qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi ko‘ringuvchi, “to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzlik o‘n yetti-o‘n sakkiz yoshlardagi, marg‘ilonlik Mirzakarim qutidor qizi, Otabekning ma‘shuqasi; roman oxirida kundoshi Zaynabning taomga qo‘shib bergan zaharidan o‘ladi.

**Zaynab** – Toshkentlik Olim ponsadboshining qizi, “o‘n yetti yoshlar chamaliq, kulchalik yuzlik, oppoqqina, o‘rtacha husnlik”, O‘zbek oyimning o‘g‘li Otabek uchun tanlagan kelini, Kumushning kundoshi: roman oxirida Otabek taloq qo‘yadi va u jinni bo‘lib qoladi.

**Yusufbek hoji** – Toshkent hokimining mushovir-maslahatchisi, Toshkentning mashhur a‘yonlaridan biri; Otabekning otasi, xalq, el-yurt manfaatini o‘ylaydigan fidoyi shaxs.

**O‘zbek oyim** – Yusufbek hojining xotini, ellik besh yoshlarda; chala-dumbul tabiatlik, ammo eriga o‘tkirligi bilan mashhur xotin, uncha-muncha to‘y va azalarga “kavshim ko‘chada qolgan emas” deb bormaydi.

**Hasanali** – Otabekning “ma‘naviy otasi”, hoji xonadonining quli, oltmish yoshlar chamasida; o‘ziga xos ma‘naviy qiyofaga ega qahramonlardan biri.

Nihoyat yana bir barchamizga taniqli bo‘lgan o‘zbek romani bosh qahramonlari bilan tanishamiz bu roman 2009 yili fransuz tarjimoni **Stefan Dyuduanon** tomonidan o‘zbek tilidan bevosita fransuzchaga tarjima qilingan Cho‘lponning «**Kecha va kunduz**» nomli fransuz tilida (“**Nuit**” — “**Tun**”) romani ilmiy tadqiqotim uchun bebaho manba bo‘lib xizmat qildi. **Abdulhamid Sulaymon Cho‘lponning** “Kecha va kunduz” romani yaratilganiga 80 yildan oshgan bo‘lsa-da,



hamon o‘zbek kitobxonlarining mehriга sazovor bo‘layotgani, mazkur asarga fransuz kitobxonlarining ham qiziqishi borligi qalbimni g‘urur va iftixorga to‘ldirdi.

Fransuz tarjimoni ba‘zi urf-odatlarimiz sharhiga oid kontekstlarni quyidagicha tarjima qilgan. “O‘zbeklarda erkak kishi ayolini hech qachon o‘zining haqiqiy ismi bilan chaqirmaydi, u o‘zining qizi yoki o‘g‘lining ismini aytib chaqiradi. Agar ayolining haqiqiy ismini aytib chaqirsa, bu uning uchun kamsitish hisoblanadi. Masalan, ayolining ismi Maryam, qizining ismi Xadicha bo‘lsa, haqiqiy musulmon erkagi ayolini “**Xadicha**” deb chaqiradi. Bu ayolning oldidagi or-nomusliligi yuzasidanmi yoki boshqa sirli sababi bormikin? Mobodo ikkisi bir joyda bo‘lganda chaqirsa, ikkalasi birvarakayga yugurib borishsa, oila boshlig‘i bo‘lgan ota kichkinasiga qarab “*Oyingni chaqirdim, oyingni*” deb, qizini qaytaradi. Shunday holatlarda ham “**Maryam**” deb chaqirishdan o‘zini olib qochadi”.

Ushbu parchaning fransuz tiliga tarjimasi: “Chez les Ouzbeks, le mari n’appelle jamais sa femme par son vyritable prynom mais seulement par celui d’une fille, voire, d’un fils qu’il a eus d’elle. Elle considyrera mkme dygradant pour lui de prononcer le nom de son ypouse lygitime. Si par exemple une femme prénommé **Mariam** a donny a son mari une petite Khadidja, celui-ci, s’il est un authentique musulman, appellera son ypouse “**Khadidja**”. Est-ce par pudeur devant elle ou pour autre raison mystyrieuse? Toujours est-il si les deux, la femme et la fille, accourent ensemble a son appel, ce qui n’est pas rare, le veritable chef de famille qu’est le pire renverra la plus jeune en lui criant: “C’est a ta mire que j’en ai, a ta mire!” jusque dans cette situation, on ne le surprendra pas a laisser échapper un “**Mariam**” Asardagi asosiy ijobiy qahramonlardan biri bo‘lgan go‘zal va xushovoz, sodda va huquqsiz Zebi timsoli fikrimizni dalillaydi Muallif **Zebi** taqdirida, **Razzoq so‘fi** va **Qurbonbibi** taqdirida butun bir xalqning davrga xos fojeali hayotini yaqqol ko‘rsatib beradi.

Research Science and  
Innovation House



### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Rahima Shirinova, O‘zMU dotsenti «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2013 yil 46-sonidan olindi.
2. (Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”, Birinchi kitob, “Kecha”, “Akademnashr”, 2012, 10-bet).
3. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati toshkent - 2007.
4. (Tchulpan.Nuit.-France: Bleu autour, 2009. P.18.)
5. A.Qodiriy. O‘tkan kunlar roman “Abadiy barhayot asarlar” turkumi/Nashiga tayyorlovchi: Xondamir QODIRIY- T.: “Navro‘z”, 2019.400 b.
6. La Bibliothèque électronique du Québec Collection À tous les vents Volume 113 : version 1.04
7. . Дюма Александр. Граф Монте-Кристо. (Иф қатъасининг маҳбуси). Роман. Русчадан Т.Рустамов тарж. Биринчи китоб. -Т.: “Янги аср авлоди”, 2011. – 748 бб.
8. Boltayevna, Ikromova Lola. “CULTURAL SIGNIFICANCE OF UZBEK FOLK PROVERBS AND SAYINGS.” INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS. Vol. 1. No. 1. 2024.
9. Ikromova, Lola. “Scientific and theoretical views about the description of the notion Frame in Linguistics.” ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz) 1.1 (2020).
10. Boltayevna, Ikromova Lola. “USE OF PROVERBS IN THE EDUCATIONAL PROCESS.” American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 462-466.
11. Nasimova, Fotima. “FRANSUZ TILIDA ZONIMLAR BILAN IFODALANGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING GRAMMATIK O‘ZIGA XOSLIGI.” ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz) 44.44 (2023).
12. Ikromova, Lola. “MAQOL VA MATALLARNING QIYOSIY CHO‘G‘ISHTIRMA TAHLILI (FRANSUZ VA O‘ZBEK MAQOL VA MATALLARI MISOLIDA).” ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz) 45.45 (2024).
13. Davronovna, Kholova Shahnoza. “Linguistic Analysis of Phrases Associated With Negative Human Feelings in the Short Story” Mateo Falcone”.” Miasto Przyszłości 33 (2023): 239-243.



## O‘zbek epistolyar nasrining shakllanishi va taraqqiyot tamoyillari

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**  
**O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi**  
**Dusmuratov Qahromon**

### **Annotatsiya**

O‘zbek zamonaviy nasrida faqat maktubga asoslangan epistolyar janr namunalari ham yaratildi. Ushbu asarlar sirasida Maqsud Qorievning “Oydin kechalar”, Abduqahhor Ibrohimovning “Uyqu kelmas kechalar”, O‘lmas Umarbekvoning “Qizinga maktublar”, Xurshid Do‘stmuhammadning “Hijronim mingdir mening”, Benazir Muhammadning “Yobondan gulxonaga maktublar” asarlarini sanab o‘tish mumkin. O‘lmas Umarbekov asarini istisno qilganda, sanab o‘tilganlarning barchasi o‘zbek nomachiligi va jahon adabiyotida bo‘lgani kabi ishqiy maktub yoki yozishmalardan iborat.

**Kalit so‘zlar:** maktublar, buyuk, shoir, chuqur lirizmi, realistik kuchi, roman, kompozitsion unsur

O‘tmish ma’naviy-ma’rifiy hayotimizda maktub bilan bog‘liq ikkita janr farqlanadi: munshaot va noma. Munshaot – biror kimsaning hayotiy xatlari majmuasidir. Munshaot – arabcha, insho etilgan, yozilgan degan ma’noni anglatadi. Spesifik ma’noda esa xatlar to‘plami degani. Albatta, har qanday kishining emas, tarixda muhim rol o‘ynagan, davlatchilik, san’at va adabiyot, ilm-fan, madaniyat sohalarida iz qoldirgan kishilarning maktublari nazarda tutiladi. Bunda mutafakkir shaxslar, ulug‘ san’atkorlar, davlat va jamoat arboblarning yozishmalarini o‘zi yoki boshqalar tomonidan to‘planib, majmua holiga keltirilishi dunyoning barcha xalqlari tarixida uchraydi. O‘zbek madaniyati tarixida “Munshaot” ko‘proq Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq ekanligi mutaxassislar tomonidan qayd etilgan. O‘zbekiston Qahramoni I.G‘afurov bu haqda shunday yozadi: “Navoiy davri va Navoiy nomi bilan bog‘liq hamda Navoiyning o‘z qalamiga mansub maktublarini o‘rgangan A.O‘rinboev, Yu.Tursunov, M.Hasanov singari olimlarning qimmatli tadqiqotlariga qaraganda, Navoiy umrining ikkinchi yarmida o‘z zamondoshlari bilan ko‘p yozishmalar olib borgan. 1485 –1499 yillar orasida temuriy shahzodalar va podshohlar, o‘z yaqinlariga yozgan maktublarini to‘plab, “Munshaot” nomida asar

yaratgan. Asar deganimizning boisi shuki, Navoiy barcha maktublarda mukotablar(maktub yozilgan shaxslar)ning nomlari va maktublarning qayerda, qachon, nima munosabat bilan yozilganligini olib tashlagan. Natijada muayyan kishilarga jo‘natilgan maktublar shaxsiy voqelik doirasidan chiqib, umuman, badiiy va chuqur insoniy qimmatga ega badiiy asar turlariga aylangan... O‘zbek tilida yaratilgan ilk munshaot kitobi esa Navoiy qalamiga mansubdir”. Buni Alisher Navoiyning o‘zi ham “Munshaot” muqaddimasida qayd etadi. U fors tilida maktublar san‘atkorlik bilan yozilganini, ularda maktublarni jamlab kitob tuzish an‘anasi borligini va o‘zi ham o‘sha an‘anaga ergashib bu ishga qo‘l urganini ta’kidlaydi: “...atrok inshosida va bu ahli idrok bayon-u adosidakim, birovdin birovga ruq‘a yozg‘ay, yo ul kishi ul ruq‘ag‘a javob bitgay, dag‘i ruq‘a kelturgan qosidni qaytarg‘an – alfozi latofatdin muarro va tarokibi balog‘atdin mubarro erdi va adosi rangin fiqarotdin namoyishsiz va mazmuni rangin abyotdin oroyishsiz va muqobalada forsiy alfozning insholari dilpisand va makotibu imlolari arjumand erdi, xayolg‘a andoq keldikim, turk alfozining dag‘irug‘alari hamul misol bila bitilgay va bu tilning nomalarini ham o‘shul minval bilan sabbetilgay. Oz fursatda bu ruq‘alar jam‘ bo‘lib va nomalar yig‘ilib erdikim, bu avroq zimmida sabbt bo‘ldi”. Aslida Alisher Navoiyning “Munshaot”i ustoz Abdurahmon Jomiyga ergashib tuzilgan. Jahon adabiyotida bo‘lgani kabi, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotida ham maktublarni muayyan janrdagi asarlar tarkibiga kiritish usuli ham bor. Bu, avvalo, xalq og‘zaki ijodi dostonlarida qo‘llangan. “Alpomish” dostonida Barchinning yozgan xati doston syujetidagi hal qiluvchi momentlardan biridir. O‘zbek adabiyoti mulkining sultoni bo‘lmish Alisher Navoiy ham o‘z dostonlarida epistolyar usuldan unumli foydalandi. Sevishganlarning o‘zaro yozishmalari “Farhod va Shirin” hamda “Layli va Majnun” dostonlarida uchraydi. Bu maktublar buyuk shoir tomonidan katta mahorat bilan yaratilgan, chuqur lirizmi, realistik kuchi bilan ajralib turadi. Masalan, Layli sevgilisiga maktub bitar ekan, Navfalning qiziga unustirilish munosabati bilan Majnunga ta’na-malomat yog‘dirishdan o‘zini tiya olmaydi: Yovar sanga haq taborak o‘lsun, Yod ayla gahi bu xastani ham. Bu xayr ishing muborak o‘lsun. Insofg‘a ham kanora tutma, Bo‘lsang necha oning ila xurram, Bizni dag‘i bir yo‘li unutma. O‘zbek zamonaviy adabiyotida ham syujetda maktubdan foydalanish usuli keng istifoda etilgan. Buning eng yorqin namunasi “O‘tkan kunlar” romanidir. Bu romanda xat kompozitsion unsur sifatida asar syujetida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Deylik, Yusufbek hoji tomonidan o‘g‘liga yozilgan



maktub Otabek va Mirzakarim qutidorning o‘limdan qutulishiga sabab bo‘ladi. Homid tomonidan uyushtirilgan soxta maktublar esa Otabek va Kumush hayotini keskin boshqa o‘zanga burib yuboradi. O‘zbek mumtoz adabiyotida epistolyar janr noma shaklida alohida hodisa sifatida taraqqiy etdi. Biz bu yerda “Shohnoma”, “Zafarnoma”, “Boburnoma”, “Shayboniynoma” kabi asarlarni nazarda tutmaymiz, chunki bu nomalar tarkibidagi “noma” so‘zi “shu haqda yozilgan” degan ma’noda qo‘llanadi. O.Roginskaya Yevropa adabiyotidagi ilk epistolyar romanning maydonga kelishini real hayotiy voqelik bilan bog‘laydi. U D.Urnov lug‘atiga asoslanib aytadiki, XVIII asrda pochtdan foydalanishning rivojlanishi tufayli tufayli xat ommaviy axborot vositasiga hamda bekorchilikda zerikib qolmaslik vositasiga aylanadi. O‘sha davrda turli xil xatlar to‘plami (“pismovnik”)lar tartib berilar, bundan maqsad xat yozishga no‘noqroq bo‘lgan odamlarga yordam berish edi. 1739 yilda ikki nashriyot Richardsonga London nashriyot gildiyasi rahbari sifatida qishloq odamlariga mo‘ljallangan shunday pismovnik tuzishni taklif qiladi. Richardson 186 esa namuna-xatlar to‘plami o‘rniga epistolyar roman yaratadi. “Real hayotdan, maishiy yozishmalardan tasavvur dunyosiga, badiiy matnga o‘tish xuddi shu taxlit sodir bo‘ldi”. O‘zbek adabiyotidagi ilk noma ham shunga o‘xshashroq hayotiy vaziyat natijasida – hukmdor Muhammad Xo‘jabek iltimosi bilan yoziladi. Xorazmiy nomalar matnidan oldin Muhammad Xo‘jabek vasfini keltiradi, unga bo‘lgan mehr-muhabbatini izhor qiladi. Xullas, XVIII asrda paydo bo‘lgan va shu asrda taraqqiyotining yuqori cho‘qqisiga chiqqan Yevropa epistolyar romaniga xos tipologik o‘xshashliklarni o‘zbek adabiyotidagi noma-dostonda ham ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘xshashliklar muayyan janr qachon va qaerda paydo bo‘lgan bo‘lishiga qaramasdan, umumiy qonuniyatlar asosida shakllanishi va rivojlanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Zamonaviy o‘zbek nasrida epistolyar usul dastlab Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”ida muvaffaqiyat bilan qo‘llandi. Adib kerakli o‘rinlarda maktublarning matnini to‘liq keltirgan. Romanda maktub syujetning muhim momentlarida hal qiluvchi komponent o‘laroq maydonga chiqadi. Syujet rivojining asosiy harakatlantiruvchi epizodlari bo‘lmish Otabek va Mirzakarim qutidorning dordan omon qolishi, Otabek va Kumush munosabatlaridagi murakkabliklar bevosita maktub bilan bog‘langan. Abdulla Qodiriy bu borada xalq og‘zaki ijodi, o‘zbek mumtoz adabiyoti va jahon nasri an‘analaridan ta’sirlangani shubhasiz. O‘zbek zamonaviy nasrida faqat maktubga asoslangan epistolyar janr namunalari ham yaratildi. Bu sirada Maqsud Qorievning “Oydin kechalar”,



Abduqahhor Ibrohimovning “Uyqu kelmas kechalar”, O‘lmas Umarbekvoning “Qizimga maktublar”, Xurshid Do‘stmuhammadning “Hijronim mingdir mening”, Benazir Muhammadning “Yobondan gulxonaga maktublar” asarlarini sanab o‘tish mumkin. O‘lmas Umarbekov asarini istisno qilganda, sanab o‘tilganlarning barchasi o‘zbek nomachiligi va jahon adabiyotida bo‘lgani kabi ishqiy maktub yoki yozishmalardan iborat. Milliy adabiyotimizdagi ilk maktub-roman 2001 yilda nashr etilgan “Uyqu kelmas kechalar” asaridir. Ushbu epistolyar roman sof ishqiy mazmunda bitilgan. Iqbol Mirzo qalamiga mansub “Bonu” ijtimoiy-psixologik romani milliy adabiyotshunoslikda bu boradagi ikkinchi tajribadir. Roman strukturasi o‘ziga xos: u bosh qahramon tomonidan noma’lum yozuvchiga telegram ijtimoiy tarmog‘i orqali yozilgan xatlardan iborat. Adib bir ayolning taqdiri orqali muayyan ijtimoiy-tarixiy davrga oid, milliy-maishiy hayotga oid juda ko‘p haqiqatlarni qalamga olgan. Jahon adabiyotida yaratilgan aksariyat epistolyar romanlardan farqli ravishda o‘zbek adibi voqealarga umuman aralashmaydi, syujet zanjirini tashkil qilgan voqealar Bonu tarafidan hikoya qilinadi. Mumtoz adabiyotdagi nomalarda ham, jahon adabiyotidagi epistolyar asarlarda ham ko‘pincha ishqiy motiv ustuvorligi ko‘zga tashlanadi. “Bonu”da sevgi-muhabbat bilan bog‘liq voqealar keng o‘rin tutsa-da, umumiy mazmun-g‘oyasiga ko‘ra uni ijtimoiy roman deyish to‘g‘ri bo‘ladi. Iqbol Mirzo milliy tariximizning murakkab bir davrini katta mahorat bilan epistolyar janrda badiiy gavdalantirdi. Turli tadqiqotlarga ko‘ra, epistolyar asarlar yozish XVIII asrda o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan, keyin esa epik janrning bu ko‘rinishi ko‘proq ijtimoiy, psixologik asarlarga o‘z o‘rnini bo‘shatib bergan. Ayni vaqtda, atoqli rus olimi Ya.Lyubarskiy fikricha, “Badiiy adabiyotning boshqa ko‘pgina turlaridan farqli ravishda, epistolografiyaning real asoslari hech qachon hayotiy praktikadan yo‘qolib ketmaydi. Har qanday davrda odatdagi maktub badiiy asar belgilariga ega bo‘lishi mumkin”.

Professor N.Rahmonovning yozishicha, miloddan oldingi III asrda Markaziy Osiyoda hukmdorlik qilgan Botir tangriqutning Xitoy malikasiga yozgan maktublari va malikaning Botir tangriqutga yozgan maktublari ma’lum. Olim yozadiki: “Noma eski o‘zbek tilida bildirgulik so‘zi bilan ham ifodalangan. “O‘g‘uznoma” dostonida O‘g‘uz xoqon barcha ellarning hukmdorlariga bildirgulik, ya’ni noma yuborib, bo‘ysunishni va o‘lpon to‘lashni talab etadi. Shu tariqa ma’lum ehtiyojlar tufayli paydo bo‘lgan xabarni ifodalash shakllari ham nomaning shakllanishiga asos



bo‘lgan bo‘lishi mumkin”. Xuddi shunday qarash boshqa adabiyotshunoslarda ham bor. D.Urnovga ko‘ra, epistolyar badiiy adabiyot hayotiy maktublar asosida shakllangan, bunda xabar mazmuni –hikoyaga, maktub yozuvchilar –adabiy qahramonlarga aylangan, xat adabiy shartlilikka muvofiqlashtirilgan.

Milliy romanchiligimiz poetikasiga qator yangiliklarni olib kirishga muvaffaq bo‘lgan. Lekin yozuvchining tarixiy romanlari poetikasiga xos jihatlar, uslubiy izlanishlari maxsus tadqiq etilmaganligi bois, tarixiy asarlarini san‘at hodisasi sifatida ilmiy-estetik tahlil qilish zaruriyati yuzaga kelgan. Chunki yangi davr badiiy-estetik qarashlari asosida, o‘zbek tarixiy romanlari poetikasi bir ijodkor misolida yaxlit holda o‘rganish maqsad qilib olingan. Ana shu jarayonda tarixiy roman sujetini yaratishda epistolyar texnologiyaning badiiy funksiyalari yanada teranlashadi. Bu essa adibning sujet yaratishdagi noan‘anaviy talqinlariga zamin bo‘lgan ifoda shakllartini yuzaga chiqarishdagi mahoratiga munosabat bildirish imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Roginskaya O. Epistolyarniy roman: poetika janra i yego transformatsiya v russkoy literature: Diss.na soisk.... kand.nauk. – Moskva, 2002. – Str. 65.
2. Navoiy A. MAT. 20 jildlik. 14-jild. – T., Fan, 1998. – 136-b.
3. Urnov D. Epistolyarnaya literatura // Kratkaya literaturnaya ensiklopediya. Tom 8. – Moskva, 1975. – Str. 918.
4. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. II jild (XIV – XU asrning boshlari). Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmon. – T.: O‘zR FA “FAN” nashriyoti, 2007. – 94-b.
5. Lyubarskiy Ya. Epistolyarnyy janr v antichnoy literature // Voprosy literatury, 1969, № 3. // <https://voplit.ru/article/epistolyarnyj-zhanr-v-antichnoj-literature/>
6. Ashurov, shaxobiddin, and farida shukurova. "ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar etimologiyasiga oid ayrim mulohazalar." mejdunarodnyy jurnal iskusstvo slova 3.2 (2020).

## VIRUSLI GEPATIT VA JIGARNING SURUNKALI KASALLIKLARI BILAN OG‘RIGAN BEMORLARDA OVQATLANISH

IBRAXIMOVA H.R., MO‘MINOV I.X., ABDUSHARIPOVA N.B.  
TTA URGANCH FILIALI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada virusli gepatit va jigarning surunkali kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarda kasallik davrini hisobga olib ovqatlanish to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

**Annotatsiya.** V state predstavlena informatsiya o pitanii bolnyx virusnymi gepatitami i xronicheskimi zabolevaniyami pecheni s uchetom perioda zabolevaniya.

**Annotation:** There are given information about patients nutrition who had steady liver illnesses and viral hepatitis at their diseased time in this article.

**Kalit so‘zlar:** Virusli gepatit, parhez, sutli bo‘tqa, meva va sabzavotlar, sharbatlar, yog‘siz go‘sht, jigar hujayrasi.

**Klyuchivye slova:** Virusnyy gepatit, diyeta, molochnaya kasha, frukty i ovoцы, soki, obezjirenoye myaso, kletka pecheni.

**Key words:** Viral hepatitis, diet, milky porridge, fruits and vegetables, juices, ungreasy meat, liver cellar.

Virusli gepatit va jigarning surunkali kasalliklarida diyetoterapiya asosiy vazifasi distrofik o‘zgarishlarning kamayishiga imkon beradi. Surunkali virusli gepatitlar bilan og‘rigan bemorlar to‘g‘ri ovqatlanishlari, imkoni boricha uy taomlaridan iste’mol qilish, ko‘proq xo‘l mevalar tavsiya etiladi. Ovqatlanish 4 marta, oz-ozdan bo‘lishi kerak. Ovqat tayinlashda kasallik davrini hisobga olish zarur. [1,2,3,4].

Qand bola gavdasi og‘irligining 1 kg ga 5 g, mevalar 300—500 g hisobidan tayyorlanadi. Suyuqlikni yetarlicha berish, u 5% glyukoza, suv, choy, suyuldirilgan meva sharbatlari ko‘rinishida bo‘lishi kerak. [9,11]. So‘ngra bola ovqatiga sabzavot qaynatmasi, kisel, sutli bo‘tqa, sabzavot, meva sharbatlarini kiritish mumkin. Ishtaxa yaxshilangan sayin ovkat xajmi oshirib boriladi. Toksikoz kamayganda, umumiy ahvol va ishtaha yaxshilanganda maxsulotlar va taomlar xili kengaytiriladi, ovqatga sabzavot va go‘sht pyuresi, bo‘tqa, kefir, kisel kabilar kiritiladi. Meva va



sabzavotlar sharbatlar ko‘rinishida beriladi. Keyinroq 5-parhezga o‘tkaziladi. Unda tvorog va sut maxsulotlari xisobiga lipotrop moddalar miqdori birmuncha oshiriladi. Taomlar qaynatilgan va qirilgan xolda tayyorlangani tufayli me‘da va ichakning mexanik ta’sirlanishi kamayadi, ovqat xazmi yaxshilinadi. Bir kun avval yopilgan bug‘doy non beriladi, yog‘siz go‘sht va baliq pyure ko‘rinishida bug‘da tayyorlab beriladi. Dag‘al kletchatkali va ichni dam qiladigan sabzavotlar (karam, turp, rediska) chiqariladi. Tuxum asosan bug‘da pishgan omlet ko‘rinishida beriladi. Nordonmas mevalar pechda pishirilib yoki qaynatib beriladi. Kasallikning o‘tkir davri o‘tib bo‘lgach bolaning axvoli qoniqarli bo‘lganda mexanik extiyotlash darajasini kamaytirish mumkin. U stasionardan chiqqandan keyin 6 oygacha parhez qiladi, bu muddat ba‘zan 1 yilgacha uzaytirilishi mumkin. Bu parhez organizmdagi metabolik jarayonlarga va organ parenximasiga ta’sir ko‘rsatadigan tadbirlar yig‘indisini qo‘llanishdan iborat. Jigarining surunkali kasalliklarida (surunkali gepatit, tsirroz) xam 5-sonli parhez ayrim o‘zgarishlar bilan tayinlanadi. Virusli gepatitlarda belgilanadigan parhezning asosini tashkil qiladigan uglevodlar miqdori keskin kamaytiriladi, chunki uglevodlarning ortiqcha buyurilishi lipogenez jarayonini kuchaytirib, jigarda yog‘ to‘planishiga sabab bo‘lishi mumkin. Jigar to‘qimasini tiklash jarayonlarini quvvatlash uchun patogenetik asoslangan diyetoterapiya qo‘llanish kerak bo‘ladi. [5,6,7,8]. Jarayonning faol davrida yog‘siz go‘sht va yog‘sizlantirilgan oqsilli enpitdan qo‘shimcha foydalanish xisobiga parhezda xayvonot oqsilini yosh normasiga nisbatan 15 foizga ko‘paytirish kerak. Oqsilga boy parhez yuqori lipotrop xossalarga ega. Bundan tashqari ko‘p miqdorda qand iste’moli o‘t ajralish funksiyasini bo‘g‘ib, og‘irlik davrining cho‘zilishiga olib keladi. Glyukokortikoid terapiya o‘tkazishda parhezdagi oqsil yosh normasiga nisbatan 30% va xatto 50% ga ko‘paytirilishi mumkin. [10,11,12]. Bunday bemorlar ovqatida oqsilning ko‘payishi oshgan ishtaxani qoniqtiradi, teri osti yog‘ kletchatkasida ortiqcha yog‘ to‘planishiga qisman to‘sqinlik qiladi. Bunda parhezga kaliy tuzlariga boy maxsulotlarni (pechda pishgan kartoshka, mayiz, o‘rik, va b.) kiritish lozim. [13,14,15]. Jigar sirrozining aktiv va aktivmas formasi bo‘lgan kupchilik bemorlarda ovqatda yog‘ chegaralanmaydi va ratsionga yosh normasi atrofida kiritiladi, bunda o‘simlik moyi miqdori ratsiondagi umumiy yog‘ miqdoridan 15 foizni tashkil qiladi. Jigar yetishmovchiligi yaqqol bo‘lganda ratsionda oqsil miqdori kamaytiriladi, jigar komasida esa uni batamom chiqarilib, keyin tegishli bioximiyaviy ko‘rsatkichlar nazorati ostida asta-sekin oshirib

boriladi. Jarayonning aktiv va aktivmas fazasida yog‘ni o‘simlik moyidan qo‘shimcha foydalanish xisobiga yosh normasiga nisbatan 15 foizga oshirish kerak. Parxezda yog‘ning oshirilishi taomlarning ta‘mini yaxshilaydi va ularning xilini ko‘paytiradi[15,16]

So‘nggi yillardagi tadqiqotlarda jarayonning aktiv fazasidagi bolalarda o‘simlik yog‘ining fiziologik normaga nisbatan 15 foizga ko‘paytirilishi jarayon aktivligining so‘nishiga olib kelganligi isbotlandi. Gepatobiliar sistemaning xronik kasalliklari vitaminlar yetishmasligi bilan o‘tadi. [17,18]. Shu maqsadda bolaga olma, limon va sabzi sharbati, har xil meva sharbatlari beriladi. So‘ngi yillarda bunday kasallikka uchragan bolalarga arpa, bug‘doy va makkajo‘xorining unib chiqqan donlarining polisolid ekstraktidan tayyorlangan yangi davo mahsulotlari qo‘llanilyapti, ular tarkibida biologik aktiv moddalar (mikroelementlar, vitaminlar, fitogormonlar) bo‘ladi. [19,20]. O‘t haydovchi giyohlar qo‘shib tayyorlangan xolesol shunday mahsulotlardan hisoblanadi. Xolesal biliar yo‘llarining funksional buzilishlari klinik kechishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, lipidlar metabolizmini normaga soladi. Xolesol 5-10 yoshgacha bolalarga bir desert qoshiqdan kuniga 3 marta, 10-14 yoshgacha bir oshqoshiqdan kuniga 3 marta ovqatdan oldin tayinlanadi. Davolash kursi 3-4 hafta.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yusupov Sh. R. i dr. Osobennosti etiologicheskoy struktury ostryx diareynyx zabolevaniy v usloviyax Yujnogo Priaralya //Visnik problem biologii i meditsini. – 2015. – №. 3 (1). – S. 246-248.

2. Artikov I.A, Sadullaev S.E, Ibrakhimova H.R, & Abdullayeva D.K. (2023). RELEVANCE OF VIRAL HEPATITIS EPIDEMIOLOGY. IMRAS, 6(7), 316–322. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/520>

3. Ibrakhimova H.R., ., & Oblokulov A.R., . (2020). Pathogenetic Bases And Prevalence Of Parasitic Infections In Children: Literature Review. The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research, 2(10), 87–95. <https://doi.org/10.37547/TAJMSPR/Volume02Issue10-14>

4. Ibraximova, X. R., and A. R. Oblokulov. "Sovremennyy vzglyad na rasprostranennost i patogeneticheskiye aspekty parazitarnyx zabolevaniy u



detey." *Novyy den v meditsine* 1.25 (2019): 30-34.

5. Masharipova Sh.S, Ibraximova H.R, & Sadullayev S.E. (2023). AHOLI ORASIDA O‘TKIR ICHAK KASALLIKLARINING TARQALISHI. *Novosti obrazovaniya: issledovaniye v XXI veke*, 2(15), 115–119. izvlecheno ot <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/12429>

6.Oblokulov, A., et al. "Clinical and laboratory characteristics of giardiasis in adults." *New day in medicine. Scientific and practical journal* 1.25/1 (2019).

7. Hamida Rustamovna Ibraximova PARAZITAR KASALLIKLAR TASHHISLANGAN TURLI YoShDAGI ODAMLARDA IMMUN STATUSIGA TAVSIF // *Academic research in educational sciences*. 2022. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/parazitar-kasalliklar-tash-islangan-turli-yoshdagi-odamlarda-immun-statusiga-tavsif> (data obraшeniya: 12.02.2024).

8. Oysha Urinovna, M. ., Shoxista Sabirovna, . M. ., Xamida Rustamovna, . I., & Ruslan Rustambekovich, N. . (2022). KLINICHYeSKOYE TYeChYeNIYE TUBYeRKULYeZA U BOLNYX GYePATITOM V. *Novosti obrazovaniya: issledovaniye v XXI veke*, 1(5), 565–568. izvlecheno ot <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/2405>

9. Ibrakhimova Hamida Rustamovna. (2022). DEGREE OF CLINICAL SYMPTOMS IN CHILDREN WITH PARASITIC DISEASES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 273–277. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/2822>

10. Bakiyev B.R, & Ibrakhimova Kh.R. (2023). THE SPECIALITY OF PATHOGENETIC BASES AND PREVALENCE OF PARASITIC INFECTIONS IN CHILDREN: REVIEW . *Scientific Impulse*, 1(9), 1161–1168. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/8093>

11. Masharipova Sh.S, Ibrakhimova H.R, & Nurllayev R.R. (2023). A METHOD FOR OBTAINING PRECIPITATING SERUMS FOR THE DETECTION OF HUMAN SEMINAL FLUID USED IN THE STUDY OF PHYSICAL EVIDENCE IN FORENSIC BIOLOGICAL LABORATORIES. *World Bulletin of Management and Law*, 19, 42-44.

Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2119>  
12.H.R., I. (2022). CLINICAL AND EPIDEMIOLOGICAL FEATURES OF THE TREATMENT OF HYMENOLEPIDOSIS AND TENIARYNCHOSIS IN CHILDREN. Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA), 379–382. Retrieved from <https://www.openconference.us/index.php/ysc/article/view/254>

13.Ibraximova Xamida Rustamovna, Masharipova Shoxista Sobirovna, Matyakubova Aysha Urinovna, Artikov Ikrom Axmedjanovich INFISIROVANIYE BOLNYX TUBYeRKULYeZOM OT JIVOTNYX V NYeBLAGOPOLUChNYX PO TUBYeRKULYeZU XOZYaYSTVAX // Problemy Nauki. 2023. №7 (185). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/infitsirovanie-bolnyh-tuberkulezom-ot-zhivotnyh-v-neblagopoluchnyh-po-tuberkulezu-hozyaystvah> (data obrasheniya: 12.02.2024).: 12.02.2024).

14. Artikov I.A, Sadullaev S.E, Ibrakhimova H.R, & Abdullayeva D.K. (2023). RELEVANCE OF VIRAL HEPATITIS EPIDEMIOLOGY. IMRAS, 6(7), 316–322. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/520>

15. Ibrakhimova H.R, Matyakubova O.U, Sadullaev S.E., & Abdullayeva D.K. (2023). HELMINTISES IN CHILDREN AMONG THE POPULATION IN UZBEKISTAN. IMRAS, 6(7), 323–327. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/521>

16. Yusupov Sh.Sh, Ibrakhimova H.R, & Masharipova Sh.S. (2023). IMMUNOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PATIENTS WHOSE BODY IS INFECTED WITH CATTLE SOLITAIRE. Novosti obrazovaniya: issledovaniye v XXI veke, 2(15), 120–124. izvlecheno ot <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/12430>

17. Ibrakhimova H.R, Yusupov Sh.Sh, & Artikov I.A. (2023). PARAZITAR KASALLIKLAR NATIJASIDA INSON ORGANIZMIDA KUZATILADAIGAN ALLERGIK HOLATLAR. Novosti obrazovaniya: issledovaniye v XXI veke, 2(15), 97–102. izvlecheno ot <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/12420>

18. Ibrakhimova H.R, Masharipova Sh.S, & Artikov I.A. (2023). CHANGES IN THE IMMUNE STATUS OF PATIENTS WITH



PARASITIC DISEASE. Novosti obrazovaniya: issledovaniye v XXI veke, 2(15), 103–108. izvlecheno ot <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/12427>

19. Ibraximova Xamida Rustamovna, Nurllayev Ruslon Rustambekovich, Artikov Ikrom Axmedjanovich Vliyanie parazitarnyx bolezney na osobennosti razvitiya tuberkuleza u detey, proživayushix v Xorezmskoy oblasti // Nauka, texnika i obrazovaniye. 2019. №9 (62). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-parazitarnyh-bolezney-na-osobennosti-razvitiya-tuberkuleza-u-detey-prozhivayuschih-v-horezmskoy-oblasti> (data obrasheniya: 12.02.2024).

20. Askarova R.I. Analiz prichin razvitiya tuberkuleza u detey i podrostkov. Jurnal Problemy biologii i meditsiny. 2020 god. №4.1(121). str 22-27; ISSN 2181-5674; <https://doi.org/10.38096/2181-5674.2020.4.1>; <https://www.sammu.uz/upload/d-file/files/617061495c866-617061495c867-617061495c868-617061495c869.pdf>

---

# Research Science and Innovation House

## Yosh avlod tarbiyasida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati

**Matkarimova Nodira Egamberganovna-**

**Xiva pedagogika kolleji o'qituvchisi**

**Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna-**

**Xiva pedagogika kolleji**

**“Pedagogika va Psixologiya” kafedrasini mudiri**

**Yusupova Iroda Narimonovna**

**Xiva pedagogika kolleji o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yosh avlod tarbiyasida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati xususida qimmatli fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlari:** Oila, inson, ilk bolalik, ong, insoniy fazilatlar, ezgu niyatlar, qadriyatlar, sog'lom e'tiqod

**Kirish.** Oila - insonning ilk bolaligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyatlar, qadriyatlar takomil topadigan va sog'lom e'tiqodlar shakllanadigan muqaddas dargohdir.

Ta'kidlash joizki, Prezidentimiz fikrlarida oilaning eng avvalo, e'tiqod va sog'lom dunyoqarash tarbiyasidagi benazir roli ta'kidlangandir. Shu sababli oila hamda mahalla tizimida bola tarbiyasi bilan bog'liq barcha tarbiyaviy ishlarning asosida xalq an'analarning, xususan, oilaviy o'zaro munosabatlarda saqlanib qolgan milliy qadriyatlarning tub mohiyatiga aloqador qonuniyatlarni o'rganish vazifasi turibdiki, ularning ijtimoiy psixologik shart-sharoitlarini tadqiq etish, qo'lga kiritilgan natijalarni amaliyotga tadbiiq etishni davrning o'zi taqozo etib turibdi. Chunki barqaror va mustahkam oilani shakllantirish, unda ma'rifatlilik an'analarni kuchaytirish, oilaviy urf-odatlarini zamon talablari asosida qayta o'rganib chiqib, eng nodirlariga nisbatan yoshlarimizda, ayniqsa, o'smirlik va o'spirinlik yoshidagi farzandlarimizda e'tiqodni tarbiyalashning ta'sirchan vositalarini ishlab chiqish jamiyat ma'naviyatini barqarorlashtirishni ta'minlaydigan omillardandir. Bugungi kunda oiladay ta'sirchan ijtimoiy institut orqali bolalarda aynan shunday qadriyatlarga nisbatan e'tiqodni shakllantirish, va shu orqali oilaga nisbatan ijobii ijtimoiy ustanovkalarni hosil qilish **dolzarb masalalardandir**[1].

Shu muqaddas dargohda ma'naviy-ahloqiy muhitni vujudga keltirish va u orqali shaxsni sog'lom e'tiqodli, yangicha fikrlaydigan, komil inson qilib





tarbiyalash bugungi islohotlar davrida O‘zbekiston uchun davlat ahamiyatiga molik masaladir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Har qanday mafkura kabi O‘zbekiston Respublikasi milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalardan biri ham jamiyatda ma’naviy-axloqiy qarashlarning ustuvorligiga erishish sanaladi.

Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma’naviy-axloqiy tarbiya asosini ham ilg‘or milliy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g‘oyalari tashkil etadi.

Ma’naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollari belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir.

Ma’naviyat (arabcha «ma’naviyat» - ma’nolar majmui) mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir o‘tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g‘oyalar majmui hisoblanadi.

Madaniyat («cultura» so‘zidan olingan bo‘lib, parvarish qilish, ishlov berish ma’nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo‘lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma’naviy boyliklar tizimi.

Ma’rifat shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me’yorlarni singdirish, ta’lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish, ularni targ‘ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Mafkura (arabcha «mafkura» - naqtai nazar va e’tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy yuksaklik, ma’rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta’minlovchi, ularning maqsad va yo‘nalishlarini aniqlashda etakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalar tizimi[2].

Har uchala sohaning uzviy birligi asosida jamiyat ma’naviyati yuksaladi.

**Tadqiqot ishining metodologik asosi (Research methodology).** Ma’naviyat sohasida ijobiy echimini ta’minlash zarur bo‘lgan asosiy vazifani ko‘rsatar ekan, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta’kidlaydi: «Bu sohadagi asosiy vazifamiz – milliy qadriyatlarimizni tiklash, o‘zligimizni



anglash, milliy g‘oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma’naviy hayotimizdagi o‘rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko‘tarish va ta’sirchanligini kuchaytirishdir. ... Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymon-e’tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirishdir. Ya’ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat». [3]

Demak, ma’naviyatli inson bilimli, ma’lum kasb-hunar sohibi, o‘z Vatanning sodiq fuqarosidir. O‘z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g‘ururlana oladigan inson. O‘z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go‘zalliklaridan bahramand bo‘ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarashi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Axloq esa shaxsning xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi.

Axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma’naviy-ruhiy hayotida o‘ziga xos o‘rin tutadi.

«Axloq» (lotincha – xulq-atvor ma’nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir.

Axloq - ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. [4 ]

Zero, axloq, axloqiy me’yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan etukligining mezoni bo‘lgan ma’naviy kamolotga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ma’naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo‘lib, shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

**Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni.** Ma’naviy-axloqiy tarbiya va unga qo‘yiladigan talablar bu jamiyatda ma’lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida farzandlar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta’sir etishdir.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish.
2. Ularda ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash va rivojlantirish.



3. Bolalarda ma'naviy-axloqiy xulq-atvor ko'nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimliliigi, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, farzandlar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab etilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo'yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan tub o'zgarishlar yuz berdi[5].

Eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Hayot insonga bir marta beriladi, Shuning uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o'zgarlar va o'zining hayoti ma'nosini anglagan holda o'tkazish kerakligi haqida ko'plab rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar mavjud.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir[6]. Ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida farzand shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanparvarlik, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik, mas'uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Shuningdek, oilada farzandning ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo'lishi shart. Demak, oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa farzand tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab etishdan iboratdir.

Oilada xatti-harakatlar tizimi ma'naviy-axloqiy odatlarni tarkib toptiradi. Bu borada quyidagi talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ma'naviy-axloqiy tarbiya axloqsizlikka qarshi kurashdagi «kompaniya»ga aylanmay, maqsadga muvofiq, uzluksiz, tizimli va izchil amalga oshirilishi zarur;

- bolalarda ma'naviy-axloqiy xislatlar va fazilatlarni tarbiyalash faol hayotiy vaziyatlar, axloqiy me'yorlar buzilgan holatlarda farzandlarning o'z nuqati nazarlarini ifodalashlari bilan amalga oshirilishi;

- shaxsda o'z idealiga intilishiga bo'lgan his-tuyg'ularini uyg'otishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni tashkil etish borasidagi ko'nikmalarni tarbiyalash;

- ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir ishlarni farzandlarning tajribasi, tarbiya qoidalarini qabul qilishlari va bunga tayyorliklari, yaxshi va yomon xatti-harakatlarning mohiyatini tushunishlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;

- farzandlarda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar – insoniylik, insonga hurmat, mehr-saxovat, xushmuomalalik, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda muomala madaniyati va axloq qoidalariga rioya qilish kabi holatlarni tarkib toptirish;

- fuqarolik madaniyati, ongli intizom, jamoani hurmat qilish va boshqa juda ko'p ma'naviy-axloqiy sifatlar – boshqalarga g'amxo'rlik qilish, odamlarning g'am-tashvishi, quvonchini tushuna olish, o'z manfaatidan o'zgalar manfaatlarini ustun qo'yish, axloqiy me'yorlar hamda mavjud qonunlarga zid xatti-harakatlarni to'xtata olish, ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishda jamoa a'zolarining fikri bilan o'rtoqlashish, mas'uliyatni his etish kabilarga asoslanishi kerak.

Shu jihatdan olganda barcha farzandlarimiz qalbida mehr-muruvvat va rahmdillik tuyg'ularini shakllantirish va kamol toptirish tuyg'ularini shakllantirish va kamol toptirish printsiptial mohiyatga ega bo'lib, bu vazifaning izchil amalga oshirilishi ota-ona zimmasidir. Zero ota-onaning burchlaridan eng oliysi ana shu ma'naviy tarbiya riqali, qadriyatlar orqali, vatanga sodiq farzandlarning tarbiyalash va ularda vataniga, o'z xalqiga nisbatan faxrlanish tuyg'usini uyg'otishdir.





### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. Oila. - T.: “Ma’naviyat” 2000. -112 b.
2. Davletshin M.G., Shoumarov G‘.B. Zamonaviy o‘zbek oilasi va uning psixologik xususiyatlari. / O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Resp. Ilm. amal. anj. ma’ruza qisqacha bayoni. -T., 1993. 5 b.
3. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: 2006 – 142 b.
4. Umarova M.M. O‘smirlarda oilaviy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari: Dis.... psixol.fan.nomzodi: 19.00.05. – T.: 2004. – 166 b.
5. Razakova R. S., Mohida Q., Shahzoda Q. Bog ‘cha yoshi bolalarda nutq taraqqiyoti //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 73-79.
6. Saylaubekovna R. R. Fertil atamasi va fertil yoshdagi insonlarning psixologik xususiyatlari //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 21-24.

---

# Research Science and Innovation House

## TURLI YOSHDAGI ODAMLARDA PARAZITAR KASALLIKLAR TASNIFI, TARQALISHI VA KECHISH XUSUSIYATLARI

Ibrahimova H.R., Ibodullayeva S.S., Matyokubov D.B, Niyazmetov T.O.

TTA Urganch filiali

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqotning maqsadi bolalarda parazitlar infeksiyalar bilan kasallanish darajasi va patogenetik asoslari bo'yicha so'nggi yillardagi adabiyot manbalarini tahlil qilish edi. Bundan tashqari, dunyoning turli mamlakatlarida nematodalar, cestodalar va trematodalarni aniqlash xususiyatlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** parazitlar infeksiyalar, gelmintozlar, bolalar, kasallanish darajasi, patogenez va parazitlar infeksiyalarning oldini olish.

**Аннотация.** Целью данного исследования было проведение анализа литературных источников последних лет посвященных степени встречаемости, структуре заболеваемости и патогенетическим основам паразитарных инфекций встречающихся у детей. Кроме того, приведены особенности выявляемости нематодозов, цестодозов и трематодозов в разных странах мира.

**Ключевые слова:** паразитарные инфекции, гельминтозы, дети, степень встречаемости, патогенез и профилактика паразитарных инфекций.

**Annotation.** The purpose of this study was to analyze the literature sources of recent years on the incidence rate, morbidity structure and pathogenetic basis of parasitic infections occurring in children. In addition, the features of the detection of nematodes, cestodes and trematodes in different countries of the world are given..

**Key words:** parasitic infections, helminthiasis, children, incidence rate, pathogenesis and prevention of parasitic infections.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra hozirgi vaqtda parazitlar hayot tarzi olib boradigan 50 ming turdagi organizmlar mavjud, shulardan 342 turdan ortiq gelmintlar va 18 turdan ortiq Protozoa vakillari bo'lgan bir



hujayrali hayvonlar odamlarda parazitlar kasalliklar keltirib chiqaradi, shu kasalliklar bilan aholining zararlanishi 2 mlrd. kishiga etgan. Aholining salomatlik holatini belgilovchi omillardan biri ijtimoiy jihatlar bilan bog‘liq kasalliklar, jumladan protozoonoz va gelmintlar bo‘lib, ularning barchasi parazitlar kasalliklarining 99% ini tashkil etadi. Bolalikda parazitlar invaziyasi ovqatlanishning surunkali buzilishi, oshqozon-ichak disfunktsiyasi, intoksikatsiya, organizm sensibilizatsiyasi va immun tizimining zaiflashuviga olib keladi [1,2,3,4].

Jahon miqyosida barcha parazitlarning patologik xususiyati odam immun tizimiga modulyatsion ta‘siri bilan ifodalanadi. Eozinofiliya, IgE giperproduksiyasi, semiz hujayralar tomonidan mediatorlar chiqarilishi, shilliq gipersekretsiyasi, interleykinlar sintezi parazitlarga qarshi kurashda organizm himoya reaksiyasining bir ko‘rinishi bo‘lib hisoblanadi. Parazitlar invaziyasi mavjudligi va allergik kasalliklarda yallig‘lanish jarayonining faolligi o‘rtasidagi teskari bog‘liqlik aniqlangan. Boshqa tomondan, parazitlar va ularning ajratmalari allergen ko‘rinishida bo‘lib, organizmdagi yallig‘lanishli o‘zgarishga olib keladi, sezuvchanlikni oshiradi, bu odamlarda allergik kasalliklar shakllanishiga olib keladi. [6,8,9] Turli mamlakatlarda gelmintozlarning oshishi chiqindi suv oqimi natijasida gelmint tuxumlari bilan atrof muhitning ifloslanishi, aholi migratsiyasi, hayvonlar bilan odamlar orasidagi muloqotning ortishi, past ijtimoiy-iqtisodiy hayot darajasi, aholi immun tizimining zaiflashuvi natijasidir. Vatandosh va xorijiy ilmiy manbalarda keltirilishicha, parazitlar - gelmintlar va chuvalchanglar sabab bo‘ladi, ular “xo‘jayin” organizmi hisobiga yashaydi va o‘zining hayotiy faoliyatini o‘sha organizm fiziologiyasi bilan muvofiqlashtiradi [5,10,11,12].

Eng muhimi, bu holat bolalar populyatsiyasiga tegishli, chunki kasallanishlar bolalar orasida 80% dan ortiqni tashkil etadi. Maktab o‘quvchilari va maktabgacha yoshdagi bolalar barcha enterobiozli bemorlarning 90-95%, askaridozli bemorlarning 65,1% ini tashkil qiladi. Bugungi kunda eng ko‘p tarqalgan parazitlar kasalliklar enterobioz, gimenolepidoz, lyamblioz askaridoz va trixosefalyozdir. [7, 13,15].

So‘nggi o‘n yilliklarda mutaxassislar dunyoning turli mamlakatlarida gelmintoz bilan kasallanish ko‘payganligini ta‘kidlaydilar. Dunyoning turli mamlakatlarida gelmintoz kasalliklarining oshishi chiqindi suv oqimi natijasida gelmint tuxumlari bilan atrof muhitning ifloslanishi, aholi migratsiyasi, hayvonlar

bilan odamlar orasidagi muloqotning ortishi, past ijtimoiy-iqtisodiy hayot darajasi, aholi immun tizimining zaiflashuvi natijasidir [14,16,18].

Gelmintozlar qo‘zg‘atuvchilarining biologik xususiyatlariga ko‘ra 3 ta asosiy sinfga bo‘linadi

nematodalar (yumaloq gelmintlar bilan zararlanishlar): askaridoz, enterobioz, trixosefalyoz, ankilostomidoz (ankilostomoz, nekatoroz), trixinellyoz va boshqalar;

sestodozlar (tasmasimon chuvalchanglar bilan zararlanish): teniarinxoz, tenioz, difillobotrioz, gimenolepidoz, exinokokkoz va boshqalar;

trematodozlar (so‘rg‘ichlilar orqali kelib chiqqan): opistorxoz, klonorxoz, fassiolyoz va boshqalar.

Inson tanasida joylashuviga ko‘ra gelmintlar ichak va ichakdan tashqari, shu jumladan to‘qima gelmintozlariga bo‘linadi.

Parazitar va transmissiv yo‘llar bilan yuqadigan kasalliklar inson parazitologiyasida muhim o‘rin tutishda davom etmoqda. Bo‘g‘im oyoqlilar (Artropoda turi) hasharotlarni (Insecta turi) o‘z ichiga oluvchi hayvonot guruhlaridan biridir.

Ba’zi bo‘g‘im oyoqlilar bilan kontaktda bo‘lish bilan bir qator kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Jumladan, chivin lichinkalari bilan zararlanish miyazning rivojlanishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida, shu jumladan Rossiya Federatsiyasida (RF) bo‘g‘im oyoqlilar keltirib chiqaradigan kasalliklar kamdan kam uchraydi, bu ularning tashhisi va o‘z vaqtida davolanishini murakkablashtiradi. Adabiyotlarda keltirilishicha, miyaz (yunoncha, myia-chivin) odam va hayvonlarda qon so‘rmaydigan ikki qanotli hasharot chivini lichinkasi tomonidan kelib chiqadigan kasallikdir.

Tadqiqotlar davomida olingan natijalar asosida noma’lum etiologiyali o‘ng qovurg‘a osti sindromida kamdan kam hollarda jigar trematodalari aniqlangan. Instrumental tekshirish usullari gepatobiliar tizim a’zolariga bilvosita zararini aniqlashga yordam bergan Serologik va parazitologik tadqiqotlar ma’lumotlari, RF ning Omsk viloyatida rasmiy statistik hisobotga ko‘ra gelmintoz va protozooz bilan kasallanish ko‘rsatkichlari tahlilini taqdim etgan. Viloyat aholisida opistorxoz bilan kasallanishning kamayish tendensiyasi yo‘qligi, barcha yosh guruhlarida toksokaroz serologik ko‘rsatkichlarining oshishi va qishloq aholisi orasida aralash parazitozlar paydo bo‘lish xavfi yuqori ekanligini ko‘rsatilgan.



Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, najas tekshiruvi natijasida ko‘p aniqlangan parazitlar kasalliklar lyamblioz ( $53,95 \pm 1,21\%$ ,  $n=670$ ) va gimenolepidoz bo‘lib, jami 390 holatda ( $31,40 \pm 1,42\%$ ) aniqlandi. Shu sababli ushbu parazitlar kasallikni yana-da chuqurroq o‘rganish zarur, chunki ularning parazitlar kasalliklar orasida uchrash darajasi bo‘yicha o‘rni beqiyos ekanligi aniqlandi [17,19,20].

IFA yordamida lyamblioz kasalligining eng ko‘p aniqlanganini inobatga olsak, ushbu patologiya davosi va profilaktikasiga munosabat butkul boshqacha bo‘lishi lozimligini ko‘rsatdi, ayniqsa bizning issiq iqlimli mintaqamizda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Artikov I.A, Sadullaev S.E, Ibrakhimova H.R, & Abdullayeva D.K. (2023). RELEVANCE OF VIRAL HEPATITIS EPIDEMIOLOGY. IMRAS, 6(7), 316–322. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/520>
2. Ibrakhimova H.R, Matyakubova O.U, Sadullaev S.E., & Abdullayeva D.K. (2023). HELMINTISES IN CHILDREN AMONG THE POPULATION IN UZBEKISTAN. IMRAS, 6(7), 323–327. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/521>
3. Masharipova Sh.S., Ibrakhimova H.R, Sadullaev S.E., & Nurllayev R.R. (2023). SPREAD OF MYOCARDIAL INFARCTION AMONG THE POPULATION OF THE KHOREZM REGION. IMRAS, 6(7), 328–332. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/523>
4. Ibrakhimova H.R., ., & Oblokulov A.R., . (2020). Pathogenetic Bases And Prevalence Of Parasitic Infections In Children: Literature Review. The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research, 2(10), 87–95. <https://doi.org/10.37547/TAJMSPR/Volume02Issue10-14>
5. Ибрахимова, Х. Р., and А. Р. Облокулов. "Современный взгляд на распространенность и патогенетические аспекты паразитарных заболеваний у детей." Новый день в медицине 1.25 (2019): 30-34.
6. Masharipova Sh.S, Ibraximova H.R, & Sadullayev S.E. (2023). AHOLI ORASIDA O‘TKIR ICHAK KASALLIKLARINING TARQALISHI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 115–119. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/12429>

7. Ibrakhimova, H. R., & Abdullayeva, D. Q. (2023). THE PREVALENCE OF PARASITES IN THE CHILD POPULATION WITH THE DEVELOPMENT OF FUNCTIONAL PATHOLOGY OF ORGANS. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1-5.
8. Ибрахимова Х. Р. Нурллаев Руслон Рустамбекович, Артиков Икром Ахмеджанович Влияние паразитарных болезней на особенности развития туберкулеза у детей, проживающих в Хорезмской области //Наука, техника и образование. – 2019. – Т. 9. – С. 62.
9. Oblokulov, A., et al. "Clinical and laboratory characteristics of giardiasis in adults." New day in medicine. Scientific and practical journal 1.25/1 (2019).
10. Ҳамида Рустамовна Ибрахимова ПАРАЗИТАР КАСАЛЛИКЛАР ТАШҲИСЛАНГАН ТУРЛИ ЁШДАГИ ОДАМЛАРДА ИММУН СТАТУСИГА ТАВСИФ // Academic research in educational sciences. 2022. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/parazitar-kasalliklar-tash-islangan-turli-yoshdagi-odamlarda-immun-statusiga-tavsif> (дата обращения: 13.02.2024).
11. H.R., I. (2022). CLINICAL AND EPIDEMIOLOGICAL FEATURES OF THE TREATMENT OF HYMENOLEPIDOSIS AND TENIARYNCHOSIS IN CHILDREN. Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA), 379–382. Retrieved from <https://www.openconference.us/index.php/ysc/article/view/254>
12. Ibrakhimova Hamida Rustamovna. (2022). DEGREE OF CLINICAL SYMPTOMS IN CHILDREN WITH PARASITIC DISEASES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(10), 273–277. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/2822>
13. Bakiyev B.R, & Ibrakhimova Kh.R. (2023). THE SPECIALITY OF PATHOGENETIC BASES AND PREVALENCE OF PARASITIC INFECTIONS IN CHILDREN: REVIEW . Scientific Impulse, 1(9), 1161–1168. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/8093>
14. Ibrakhimova H.R, Masharipova Sh.S, & Artikov I.A. (2023). CHANGES IN THE IMMUNE STATUS OF PATIENTS WITH PARASITIC DISEASE. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 103–108. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/12427>



15. Ibrakhimova H.R, Yusupov Sh.Sh, & Artikov I.A. (2023). PARAZITAR KASALLIKLAR NATIJASIDA INSON ORGANIZMIDA KUZATILADAIGAN ALLERGIK HOLATLAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 97–102. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/12420>

16. Yusupov Sh.Sh, Ibrakhimova H.R, & Masharipova Sh.S. (2023). IMMUNOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PATIENTS WHOSE BODY IS INFECTED WITH CATTLE SOLITAIRE. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 120–124. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/12430>

17. Ibraximova H.R, Nurllayev R.R, & Matyaqubova O.U. (2023). KICHIK YOSHDAGI BOLALAR ORASIDA ICHAK PARAZITAR KASALLIKLARINING EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 109–114. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/12428>

18. Ибрахимова Хамида Рустамовна, Нурллаев Руслон Рустамбекович, Артиков Икром Ахмеджанович ВЫЯВЛЕНИЕ ТУБЕРКУЛЕЗА В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ // Наука и образование сегодня. 2020. №6-1 (53). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vyavlenie-tuberkuleza-v-horezmskoj-oblasti> (дата обращения: 13.02.2024).

19. Ойша Уриновна, М. ., Шохиста Сабировна, . М. ., Хамида Рустамовна, . И., & Руслан Рустамбекович, Н. . (2022). КЛИНИЧЕСКОЕ ТЕЧЕНИЕ ТУБЕРКУЛЕЗА У БОЛЬНЫХ ГЕПАТИТОМ В. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 565–568. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/2405>

20. Masharipova Sh.S, Ibrakhimova H.R, & Nurllayev R.R. (2023). A METHOD FOR OBTAINING PRECIPITATING SERUMS FOR THE DETECTION OF HUMAN SEMINAL FLUID USED IN THE STUDY OF PHYSICAL EVIDENCE IN FORENSIC BIOLOGICAL LABORATORIES. World Bulletin of Management and Law, 19, 42-44. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2119>

## Структура, функции и метаболизм липидов.

Сандмуродова З.А., Мухаммадиева Ф.Ж  
Самаркандский государственный медицинский

Липиды - весьма разнородные по своему химическим свойствам вещества, характеризующаяся различной растворимостью. Они играют важную биологическую роль в жизнедеятельности организмов. В частности, участвуют в передаче нервного импульса, создании межклеточных контактов.

ЛИПИДЫ - это жиры и жироподобные вещества. Для своевременного выявления таких патологий и оценки риска развития сердечно-сосудистых заболеваний проводится анализ крови на липидный спектр.

Другие функции липидов - образование энергетического резерва, создание защитных водоотталкивающих и теплоизоляционных покровов у животных и растений, защита органов и тканей от механических воздействий.

Жиры — это разновидность липидов, категория молекул, которых связывает свойство нерастворимости в воде. Липиды, как правило, гидрофобные, неполярные и состоят в основном из углеводородных цепочек, хотя есть и различные вариации, которые мы рассмотрим ниже.

В норме липидная прослойка состоит на 50% из церамидов, на 30% — из холестерина, 20% составляют свободные жирные кислоты (в том числе омега-3, -6 и -9), а также ферменты и белки.

### Классификация и виды липидов .

Простые липиды состоят из спирта, жирных кислот, сложных — из спирта, высокомолекулярных жирных кислот, возможны остатки фосфорной кислоты, углеводов, азотистых оснований и др. Строение липидов зависит в первую очередь от пути их биосинтеза.

Сложные липиды - сложные эфиры жирных кислот со спиртами, дополнительно содержащие и другие группы. Фосфолипиды — сложные эфиры многоатомных спиртов и высших жирных кислот, содержащие остаток фосфорной кислоты и соединённую с ней добавочную группу атомов различной химической природы.



Все липиды делятся на 2 группы: омыляемые и неомыляемые. Различают два класса омыляемых липидов: простые и сложные липиды. Простые липиды получили свое название вследствие того, что состоят только из атомов С, Н и О. К ним относятся две группы соединений: нейтральные жиры и воски.

#### Биохимические функции липидов

Основные функции липидов:

- структурная — образуют два слоя молекул в любой биологической мембране;
- энергетическая — при окислении одного грамма жира выделяется почти 40 Кдж энергии (при этом воды выделяется 1,1г);
- защитная — защищают клетку и организм от потери тепла.

Энергетическая функция — одна из важнейших функций жиров. Окисление жиров сопровождается выделением большого количества энергии (энергетический эффект в два раза больше, чем для углеводов и белков). 2. Фосфолипиды выполняют структурную функцию — они образуют все плазматические мембраны в клетке.

Снабжают энергией клеточные процессы, формируют клеточные мембраны, участвуют в межклеточной и внутриклеточной сигнализации.

Строительная (состав биологических мембран), энергетическая (расщепление липидов дает вдвое больше энергии, чем расщепление углеводов), запасующая (в виде липидов хранится значительная часть энергетических запасов организма), участие в метаболизме (витамин Д).

Липиды – соединения, укрепляющие кожу и защищающие от факторов окружающей среды. Они широко используются в косметике, так как обладают питательным и регенерирующим действием, предохраняя от высыхания, поддерживая его в хорошем состоянии. Средства с липидами очень важны при уходе за сухой кожей.

**В заключение:** Липиды — один из важнейших классов сложных молекул, присутствующих в клетках и тканях животных. Липиды выполняют самые разнообразные функции: снабжают энергией клеточные процессы, формируют клеточные мембраны, участвуют в межклеточной и внутриклеточной сигнализации. Будучи одним из основных компонентов биологических мембран, липиды влияют на их проницаемость, участвуют в передаче нервного импульса, создании межклеточных контактов. Жир служит

в организме весьма эффективным источником энергии либо при непосредственном использовании, либо потенциально – в форме запасов жировой ткани.

#### Литературы.

1.Saidmurodova Z. A., Nazarova M. E., Keldiyorova S. E. DNK TUZILISHI GENETIK TRANSFORMATSIYA JARAYONI, TADQIQOTLAR TAXLILI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 121-124.

2.Саидмуродова З. А., Бурхонович Б. Х., Муинжоновна Ф. Н. МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ БИОХИМИИ //Intent Research Scientific Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 57-64.

3.Azamatovna S. Z., Komiljonovna M. N. BIOKIMYO FANINING RIVOJLANISH TARIXI, BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 134-137.

4.Saidmurodova Z. A. et al. GLIKOGENNING BIOSINTEZI VA PARCHALANISHI UNING FIZIOLOGIK AXAMIYATI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 343-344.

---

# Research Science and Innovation House



## “DIFFERENSIAL TENGLAMALAR FANIGA KIRISH” MAVZUSINI O‘QITISHDA IQ TESTLARDAN FOYDALANISH

Mamajonov Sanjarbek Mirzayevich  
Qo‘qon Universiteti dotsenti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Differensial tenglamalar fanining bir mavzusi misolida IQ testlardan foydalanib, dars o‘tishning foydali tomonlari haqida so‘z boradi. O‘qituvchi an’anaviy dars berishdan ko‘ra talabalarni zerikib qolmasliklari, e‘tiborlarini o‘ziga jalb qilib olishida matematikaga oid test va o‘yinlardan foydalanish zarur deb hisoblayman.

**Kalit so‘zlar:** noma‘lum funksiya, oddiy differensial tenglama, xususiy hosilali differensial tenglama, pedagogik o‘yinlar, IQ testlar.

**Annotatsiya:** Transport yo‘nalishlarini rivojlantirishda strategik rejalashtirish tabiiy yashash joylari va madaniy ob'ektlarni saqlashni ko‘rib chiqadi. Transport infratuzilmasida barqaror integratsiyalashuvi O‘zbekistonni o‘zining tarixiy hazinalari va ekotizimlarining nozik muvozanatini qadrlaydigan manzil sifatida belgilaydi va O‘zbekiston transporti rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, uning tarixiy sharoiti, hozirgi holati va kelajak istiqbollari o‘rganilib, bu o‘zgarishlarning turizm landshaftiga qanday ta’sir qilganiga alohida e’tibor qaratiladi.

**Kalit so‘zlar:** Transport infratuzilmasi, turizm sanoati, aloqadorlik, qulaylik, barqaror turizm, tarixiy kontekst, iqtisodiy ta’sir, madaniy almashinuv, kelajak istiqbollari

**Аннотация:** Стратегическое планирование при развитии транспортных маршрутов учитывает сохранение естественной среды обитания и культурных объектов. Устойчивая интеграция в транспортную инфраструктуру определяет Узбекистан как место, где ценится хрупкий баланс его исторических сокровищ и экосистем, и изучаются особенности развития транспорта Узбекистана, его исторические условия, текущее состояние и перспективы на будущее, уделяя особое внимание тому, как эти изменения повлияли на туристический ландшафт.

**Ключевые слова:** Транспортная инфраструктура, индустрия туризма, взаимосвязь, удобство, Устойчивый туризм, исторический контекст, экономическое влияние, культурный обмен, перспективы на будущее

**Abstract:** Strategic planning in the development of transport routes takes into account the preservation of natural habitat and cultural sites. Sustainable integration into the transport infrastructure defines Uzbekistan as a place where the delicate balance of its historical treasures and ecosystems is appreciated, and the peculiarities of Uzbekistan's transport development, its historical conditions, current state and prospects for the future are studied, paying special attention to how these changes have affected the tourist landscape.

**Keywords:** Transport infrastructure, tourism industry, interconnection, convenience, Sustainable tourism, historical context, economic impact, cultural exchange, prospects for the future

Turizm sohasi hozirda dunyo iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Ushbu sohani to‘g‘ri tashkillashtirgan holda rivojlanishi uchun maqbul sharoitlar yaratilsa mamlakat uchun katta daromad olib kelishi mumkin bo‘ladi.

BMT ning Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotlariga ko‘ra 2018 yilda dunyo bo‘ylab sayyohlar soni 1,4 milliarddan oshgan va sayyohlik orqali keladigan daromad butun dunyo daromadini 30 foizini tashkil etmoqda yekan. Ushbu raqamlar ham sayyohlikni naqadar salmoqli soha ekanligini ko‘rsatib turibdi. O‘zbekistonda ham hozirda turizm sohasiga davlat miqiyosida, alohida ye'tibor qaratilmoda. 2018-yil 22-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlamentga Murojaatida barcha sohalar qatorida turizm sanoati borasida quyidagi fikrlarni bildirgan yedi:“ Hozirgi kunda milliy itisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri — bu turizmdir.

O‘zbekiston turizm sohasida dunyo bo‘yicha ulkan salohiyatga yega bo‘lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros ob'ektlari mavjud va ularni qariyb 200 tasi YuNESKO ro‘yhatiga kiritilgan. Shu bilan birgalikda mamlakatimiz betakror tabiati, go‘zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo‘nalishlarni ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb yetgan holda, biz ziyorat turizmi, yekologik, ma'rifiy, yetnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmolarini rivojlantirishga alohida ye'tibor aratishimiz zarur.

Shuningdek davlatimiz rahbariyati 2016-yil 2-dekabdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora tadbirlari to‘risida”gi Farmoni sohada uchrayotgan hato va kamchiliklarni bartaraf etib, uni izchil rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Mana shu ishlarni natijasi o‘laroq o‘tgan 2018 yil hisobida O‘zbekistonga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni 2,6 milliondan 5,3 millionga oshgan, bu yesa 100 foizga o‘shish demakdir. Ammo barcha yutuqlarga qaramay, sohada uchrayotgan muammolar ham talaygina. Hozirda O‘zbekistonga keluvchi sayyohlarni qiynovchi muammolardan biri sifatida aeroportlardagi chamadonlarni olishda uzoq vaqt kutishlarni, yoki sayyoh aeroportdan chiqqandan so‘ng u mahalliy taksi haydovchilari orqali





mehmonxonalarga yetib olish istagida bo'lsayu, ammo haydovchilarni chettillarini bilmasligi. Shuningdek, aeroport hududida, sayyoh o'zi bilan olib kelayotgan chet el valyutasini, mahalliy valyutaga almashtirib olishi uchun mahsus bankomatlar tashkillashtirilmaganligi va valyutani almashtirganidan so'ng esa o'sha yerning o'zida, o'ziga qulay mahalliy transport vositasi uchun (bu avtobus, marshrutli taksi yoki metro xizmatlari bo'lishi mumkin) chipta sotib olish imkoniyati yaratilmaganligini aytib o'tish joizdir. Bu yerda sayyohlarga noqulaylik tug'diradigan eng katta muammolardan yana biri — bu shahar ko'chalarida sanitariya — gigiena shahobchalarining yo'qligidir. Aksari holatlarda O'zbekistonga kelayotgan sayyohlar birinchi navbatda poytaxt Toshkent bo'ylab sayohat qiladi va shundan so'ng boshqa viloyatlarga tashrif buyuradi. Toshkentdan so'ng asosiy tashrif buyuriladigan shaharlardan biri bu — Samarqand shahridir. Sayyohlar Toshkentdan Samarqandga samolyot, poezd yoki avto transport vositasi orqali yetib olishlari mumkin. Bularning ichida yeng arzoni va ko'pincha sayhyolar tomonidan afzal ko'riladigan turi bu avto transport vositasidan foydalanishdir.

Endi e'tiborimizni Toshkent — Samarqand yo'nalishi bo'yicha yo'lga chiqqan sayyoh uchrashi mumkin bo'lgan muammolarga qaratsak. Birinchi navbatta Samarqandga avtobusda yetib olish uchun o'tracha 3–4 soat vaqt sarflanadi. Bunda tabiiyki avtobusda ketayotgan sayyohlarda bir nechta ehtiyojlar paydo bo'lishi mumkin. Masalan sanitariya-gigiena shahobchasiga bo'lgan yoki tamaddi qilib olishga bo'lgan ehtiyoj. Bu masalalarda ham o'ziga yarasha muammolar mavjud. Toshkentdan yo'l olgan avto transport vositasi albatta Jizzax shahrida yoqilg'i quyib olish uchun to'xtab o'tadi. Yoqilg'i quyish shahobchasida o'ziga yarasha sanitariya — gigiena va tamaddi shahobchalari mavjud ammo ular talab darajasida yemas. Shuningdek Jizzax shahri mana shu qatnov qismining o'zida ekologik, ziyorat va gastronomik turizm tashkillashtirish salohiyati ega. Misol uchun ekologik turizm salohiyatiga e'tibor qaratsak. Jizzaxda qaysidir ma'noda qizqarli va hayratga soluvchi Sangzor daryosi oqib o'tgan, uning noyobligi yesa yer sharidagi daryolarga nisbatan teskari shimolga tomon oqishida. Viloyat ekoturizmi salohiyatlaridan yana biri tabiat manzaralarining juda go'zalligida.

Ayniqsa O'zbekistonga turistlarni bahor va kuz fasllarida kuproq kelishini hisobga olgan holda Jizzax viloyatining qir, adirlarining ulkan qismida joylashgan 1928 yilda tashkil etilgan Zomin davlat qo'riqxonasi tashrif buyurish ham sayyohlarni qiziqтира oladigan o'ziga hos tabiat manzarasidir. Yo'lning qatnov



qismida gastronomik turizmni rivojlantirish uchun gigiena va sanitariya koidalariga mos keladigan milliy taomlar tayyorlovchi tamaddixonalarni tashkillashtirilishi va bu yerda tamaddi qilayotgan sayyoh wi-fi zonalaridan bepul foydalana olishligi kerakligidir. Ziyorat turizmi uchun esa, voha qatnov qismida Amir Temur darvozasi nomi bilan mashhur bo‘lgan yodgorlik mavjud. Mazkur qoyalar Amir Temur bobomizning anchadan-ancha zafarli yurishlariga, masrur, quvonchli onlariga guvoh bo‘lgan. Shuning uchun ham, manguga zanjirlangan bu ikki tog‘ ajraladigan manzil tarixiy timsolga aylangan. Bundan tashqari turizm sohani jadal rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-sonli “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda PQ-4095-sonli “Turizm tarmog‘ini rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorini keltirib o‘tish mumkin. Ushbu qarorda 2019–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida mehmonxonalar qurishning maqsadli parametrlari, istiqbolli investitsiya loyihalari, zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etiladigan madaniyat ob'ektlari va muassasalari belgilab berildi. Demak, bu sohada amalga oshiriladigan ishlar juda ko‘p bo‘lib, ularni rivojlantirishda barcha imkoniyatlardan to‘liq foydalanish zarur. Xulosa qilib olib borilgan chora tadbirlar asosida respublikamizda turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish muhim deb hisoblaymiz:

- turizmda mavsumiy davrni uzaytirish, ko‘rsatiladigan xizmat turlarini ko‘paytirish va turizm infratuzilmasini yaxshilash;
- mehmonxonalarni ko‘paytirish, shu bilan birga, bu yo‘nalishda xususiy joylashtirish ob'ektlari va mehmon uylari tashkil etish;
- sayyohlar tashrif buyuradigan maskanlar va avtomagistral yo‘llar bo‘yida sanitariya-gigiena shoxobchalarini ko‘paytirish suvenirlar ishlab chiqarish va ularni maxsus kiosklarda sotish, aeroportlarda faoliyat yuritadigan «Dyuti fri», «Taks fri» tizimidagi savdo shoxobchalarini turistik shaharlarda ham ochish, tadbirkorlik sub'ektlarini jalb qilgan holda avtomobil' ijarasi markazlari va Wi-Fi zonalar tashkil etish.

Bu masalalar mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda mavjud imkoniyatlarimizdan keng foydalanish mamlakatimizga xorijiy turistlar oqimi ko‘payishiga olib keladi.





### Adabiyot:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. 2018 yil 28 dekabr' Toshkent sh. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistik qo‘mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi Toshkent-2019 yil [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. Yusupxodjaeva, G. B. O‘zbekistonda turizm sohasida mavjud yutuq va muammolar / G. B. Yusupxodjaeva, Sh. T. Ergashev. — Tekst : neposredstvenniy // Molodoy ucheniy. — 2019. — № 45 (283). — S. 401-403. — URL: <https://moluch.ru/archive/283/63670/> (data obrasheniya: 07.12.2023).
4. Kalenov, K. (2021). AGRAR SOHADA SUG‘URTA XIZMATLARINI YULGA QUYISHNING JAHON TAJRIBASIDAN FOYDALANISH. Iqtisodiyot va ta'lim, (4), 343–347. [https://doi.org/10.55439/ECED/vol\\_iss4/a184](https://doi.org/10.55439/ECED/vol_iss4/a184)
5. Kalenov Kuzbergen Tlegenovich, Rustamov Narzillo Istamovich, & Utemuratova Rayxan Baxadirovna. (2024). Modern Trends and Factors of Financial Development of the Agricultural Sector in the Republic of Karakalpakstan, Taking Into Account Agricultural Insurance. Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777), 2(1), 97–101. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/AJLISI/article/view/2622>.
6. Каленов К. Т. ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ НОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В ОБЛАСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО СТРАХОВАНИЯ //The Way of Science. – 2014. – С. 51.

---

# Research Science and Innovation House

## РАЗВИТИЯ ГАСТРОНОМИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В АСПЕКТЕ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ

Тлеуов Н.Р. Каракалпакский государственный университет имени  
Бердаха, доцент PhD

Аширханова А. Каракалпакский государственный университет  
имени Бердаха, магистрант

Абдимуратова Э. Каракалпакский государственный университет  
имени Бердаха, магистрант

**Аннотация.** Ушбу мақолада минтақавий иқтисодиёт нуктай назаридан гастронимик туризмни ривожлантириш асослари куриб чиқилган.

**Калит сўзлар:** гастронимик туризм, пазандалик туризм, шарк таомлари, минтақавий ошхона, туризмни ривожлантириш режаси

**Аннотация.** В статье рассмотрены основы развития гастрономического туризма в аспекте региональной экономики.

**Ключевые слова:** гастрономический туризм, кулинарный туризм, восточная кухня, региональная кухня, план развития туризма.

**Abstract.** The article studies the foundations of the development of gastronomic tourism in the aspect of the regional economy.

**Keywords:** gastronomic tourism, culinary tourism, Far Eastern cuisine, regional cuisine, strategic tourism development plan.

Увеличение количества кулинарных путешествий сопровождается повышением внимания к еде во всем мире. Сегодняшний турист лучше информирован, более культурен, чаще путешествует и ищет новых впечатлений. В рамках настоящей статьи автор рассматривает питание как ключевую часть культуры, важный элемент нематериального наследия и одну из важнейших достопримечательностей для потребителя туристских услуг. Определены факторы, влияющие на развитие гастрономического туризма, и эффект гастрономического туризма на экономическую и социальную отрасли региона.

Ввиду высокой восприимчивости туризма к изменениям геополитической обстановки в мире и запросов потребителей происходят переориентация, увеличение и снижение туристских потоков. Сдвиг потребительского спроса



в сторону нематериальной культуры открывает возможности для новых туристских направлений и брендинга. Еда, будучи физической необходимостью, олицетворяет культурную самобытность и индивидуальность. Гастрономический туризм, в свою очередь, позволяет удовлетворить туристский спрос в получении новых впечатлений, экзотики, необычности и более глубокого понимания места [1].

Потенциал гастрономии как объекта исследования трудно недооценивать. Она всегда была частью туристской отрасли, однако давно перестала рассматриваться только в качестве основной базовой туристской услуги. На сегодняшний день гастрономия выступает фактором, определяющим внутренние и въездные туристские потоки.

Растущий интерес к пищевым привычкам, аутентичным продуктам, культурным традициям и ритуалам, связанным с едой, породил новый сегмент экономики впечатлений – гастрономический туризм. Гастрономический туризм неразрывно связан с развитием территорий, является неотъемлемой частью истории, культуры, экономики региона и ее жителей. Имея в себе природный потенциал и аккумулируя конкурентные преимущества, многие направления могут занять нишу в индустрии гастрономического туризма, продвигая свою региональную идентичность и самобытное культурное наследие [2].

Актуальность темы исследования определяется тем, что гастрономический туризм ввиду повышенного спроса и возрастающей популярности имеет прямое воздействие на экономику региона и сопутствующие секторы. Правильное планирование развития гастрономического туризма позволит повысить конкурентоспособность региона, переориентировать предложения под туристский спрос, урегулировать проблему сезонности и максимизировать положительное влияние туризма на имидж территории.

Для разработки плана развития гастрономического туризма потребуются решения группы взаимосвязанных теоретических, методологических и практических задач: – исследовать теоретические аспекты развития гастрономического туризма; – рассмотреть факторы, влияющие на развитие отрасли; – выделить преимущества развития гастрономического туризма в регионе; – предложить план развития гастрономического туризма в регионе.

Вопросы глубинной взаимосвязи гастрономии и туризма отмечают многие исследователи: Е. М. Зеленская, В. Д. Иванов, В. И. Хоменко, Е. Д. Буценко, называя гастрономию ключевым аспектом туристской деятельности территории.

Авторами Джемсом Х. Гилмором и Б. Джозефом Пайном II были выделены участники, получавшие ряд выгод от развития гастрономического туризма, а именно: сама дестинация, жители региона, ресторанный бизнес. Однако, на наш взгляд, восприятие гастрономического туризма давно вышло за рамки только ресторанного бизнеса. Туристская отрасль в целом признана комплексным феноменом, включающим множество отраслей [2], поэтому влияет на ряд сопутствующих секторов экономики: – транспорт; – сфера размещения; – общественное питание и торговля; – индустрия развлечений и аттракции; – страхование; – банковские и финансовые услуги; – услуги связи и информационные услуги [3].

Туризм вносит существенный вклад в обеспечение устойчивого социальноэкономического развития и социальной стабильности, развивает субъекты малого и среднего предпринимательства, создает рабочие места, способствует самозанятости населения. Создание одного рабочего места в сфере туризма влечет создание до 5 рабочих мест в смежных отраслях [3].

Мощным инструментом развития региона как туристской дестинации является брендинг территории. Современные подходы к разработке брендов туристских дестинаций рассмотрены в работах С. А. Туменова, Е. К. Леонидовой, А. Б. Жеруковой. Так, С. А. Туменов исследует модель стратегического бренд-менеджмента, который предполагает не только формирование туристского продукта и использование маркетинговых инструментов, но и организационную философию, отвечающую за культурные ценности [3], что, по нашему мнению, является наиболее рациональной стратегией развития регионального бренда. Следует отметить, что особый научный интерес вызывают вопросы именно гастрономического брендинга (как основного направления конкурентоспособности туристского бизнеса на современном этапе), которые раскрыты в работах таких исследователей, как Ю. М. Лагусев, К. А. Балынин, Ю. Г. Трабская, Е. В. Чернова, И. В. Гончарова, Д. С. Гончаров.





Гастрономические бренды наряду с природно-ресурсным потенциалом, благоприятными экономическими условиями и культурно-историческим наследием занимают важное место среди факторов, формирующих имидж дестинации и повышающих ее узнаваемость на туристском рынке.

В результате анализа источниковой базы исследования можно прийти к выводу, что проблема развития гастрономического туризма и формирования гастрономического продукта вызывает наибольший интерес среди остальных видов туризма. К тому же, уже сегодня мы вправе говорить о гастрономическом туризме как самостоятельной, перспективной и быстроразвивающейся туристской отрасли.

Согласно результатам опроса среди действующих членов организации (156 стран), проведенного Всемирной туристской организацией (UNWTO) о значении гастрономии, выявлено, что 88,2% респондентов считают гастрономию стратегическим элементом в определении бренда и имиджа региона, 11,8% – маловажным аспектом [2]. Около 96% респондентов-экспертов положительно оценивают рост индустрии гастрономических путешествий в ближайшие два года [4]. Нематериальные активы быстро становятся основой региональной экономической конкурентоспособности [5], а туристская привлекательность регионов обуславливает их финансовую успешность.

Выделено три основных стратегических направления: 1) формирование регионального турпродукта, маркетинговой и инвестиционной стратегии; 2) повышение качества обслуживания и человеческих ресурсов региона; 3) ускорение и упрощение перевозок.

Гастропутешествие может принести существенную пользу туристам и жителям региона, однако необходимо уделять больше внимания поиску способов достижения этих преимуществ. С этой целью социальные и образовательные льготы должны стать частью целей и планов действий предприятий и дестинации.

Research Science and  
Innovation House

### Литература

1. Рекомендации по развитию гастрономического туризма. – Текст: электронный // UNWTO: [сайт]. – URL: [www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284420957](http://www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284420957) (дата обращения: 4.08.2020).

2. Зеленская Е. М. Гастрономический компонент в индустрии туризма // Вестник Северного (Арктического) федерального университета. – 2015. – №3. – С. 110–117.

3. Иванов В. Д. Гастрономический туризм как популярное направление в туристической индустрии // Физическая культура. Спорт. Туризм. Двигательная рекреация. – 2018. – №2. – С. 105–113.

4. Леонидова Е. Г. Повышение эффективности региональных туристических брендов // Современные проблемы сервиса и туризма. – 2018. – №4. – С. 77–85.

5. Тлеуов Н., Торешов М. Актуальные проблемы современного развития экономики и общества в решении проблемы продовольственной безопасности. // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. Ижтимоий – иқтисодий ва ижтимоий маконда ёшлар масалалари - Нукус.- 2019.- Б..

---

# Research Science and Innovation House



## O‘ZBEK ROMANLARIDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIY TALQINI

Jo‘rayeva Nargiza Qurbanovna  
Termiz davlat pedagogika instituti  
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi  
Magistranti

**Annotatsiya:** Xalqimizning adabiy-estetik ehtiyojini qondirishga intilib kelayotgan nosirlarimizdan biri Muhammad Ali tarixiy haqiqatlarni badiiy talqin qilishga, nasrimiz imkoniyatlarini yanada kengaytirishga barakali hissa qo‘shmoqda. Bugungacha Amir Temur haqida ko‘plab asarlar va “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasini o‘quvchilar hukmiga havola etgan yozuvchining asarlarida goh tarixiy, goh romantik, gohida esa o‘tkir psixologizm ruhi ustunlik qiladi.

**Kalit so‘zlar:** psixologizm, musharraf, ikir-chikiri, etnografiya, urf-odatlar, marosimlar, o‘sha davr geografiyasi, shaharlar, qishloqlar, yo‘llar, tog‘lar, sahrolar, daryolar, muomala madaniyati, taomlar, kiyim-kechaklar, hayvonot olami

Davr va qahramon har doim biri ikkinchisini taqozo qiladigan tushunchalar bo‘lib, til, qadriyat, an‘ana, mentalitet kabilar bilan uzviy bog‘liq.

Tarixiy buyuk shaxslar hayotini o‘rganish ya‘ni o‘tmish-moziy mavzuda yozuvchi bo‘lish–ikki karra yozuvchi bo‘lish, deganidir. Unda yozuvchilikdan boshqa yozilayotgan mavzuning ipidan-ignasigacha, ikir-chikiri (etnografiya, urf-odatlar, marosimlar, o‘sha davr geografiyasi, shaharlar, qishloqlar, yo‘llar, tog‘lar, sahrolar, daryolar, muomala madaniyati, taomlar, kiyim-kechaklar, hayvonot olami va hokazolar)gacha erinmay o‘rganib chiqilganligi, zamon ob-havosini anglay olish, davr tomir urishini sezish tadqiqotchilik talab etganligi va yozuvchining bu jarayonni yuksak mahorat bilan egallaganligini asar davomida sezishimiz mumkin.

B.Nazarov “Ulug‘ saltanat” epopeyasining yaratilishi haqida to‘xtalar ekan: “Bu deyarli olti yuz yildan buyon tarix fani ham, badiiy adabiyot ham amalga oshirmay (yoki amalga oshira olmay) kelayotgan ishni uddalash lozim, degan gap edi”<sup>1</sup>, – deb yozadi.

<sup>1</sup> Назаров Б. Юксак тарихий эътиқодга муносиб бадий самара. Шохрух Мирзо. Тетралогиянинг тўртинчи китобига ёзилган сўнгсўз. – Т.: Шарқ. 2013. –Б. 418.

Tetralogiyada Amir Temur oddiy beklididan ulug‘ sarkardalikkacha ko‘tarilgan, Sohibqironlik rutbasiga musharraf bo‘lgan, hurriyatga tashna inson obrazi sifatida keng ko‘lamda ifoda etildi. Amir Temur-ruhan yengilmaydigan o‘ktam inson. U xalq musibatini shaxsiy mayllaridan ustun qo‘ya oladi. Yozuvchi uning nafaqat jismoniy, balki ruhiy qudratini ham ko‘rsata bilgan. Bunday holni romanning To‘xtamishxon, Boyazid Yildirim bilan to‘qnashuv tasvirlangan o‘rinlarida ham uchratamiz. Yozuvchi tuyg‘ularni tasvirlashda qahramonlar ruhiyatidagi tebranishlarga e‘tibor qaratadi. Amir Temur bilan Boyazid Yildirimni qarama-qarshi qo‘yib tasvirlash orqali iymon pokligi va ruh musaffoligi haqidagi konsepsiyani tasdiqlaydi, kitobxon tuyg‘ular olamini larzaga solib, goh g‘urur, goh entikish, gohida esa achinish, iztirobga tushish hislarining o‘rnini almashtiribboradi.

A.Oripov tomonidan yozilgan “Sohibqiron” dramasida ham Boyazidning Amir Temurga yozgan xatidagi haqoratlar uni urushga kirishishga majbur etishi ishonarli tasvirlangan. Muallif esa hech bir inson chidashi mumkin bo‘lmagan bunday odobsizlikka Temurning jang bilan javob qaytarishi tabiiyligini tarixiy haqiqatga ham mos holda tasvirlaydi.

Asarda yozilishicha, Amir Temur va Yildirim Boyazid-o‘z zamonasining yengilmas sarkardalari. Ular o‘rtasidagi munosabatlar turlicha talqinlarga ega. Zamoni lol qoldirgan narsa yaxshi gapga ko‘nmagan Boyazidga yaqin bo‘lish maqsadida Amir Temur tomonidan qarindoshlik rishtasining bog‘lanishi ya‘ni “qiz olib, qiz berish” taklifi berilganligidir. Lekin Boyazidning Amir Temurga yozgan xatidagi haqoratlar uni urushga kirishishga majbur etishi bu asarda ham yoritiladi. Jang bo‘lib o‘tadi, Boyazid yengilib qo‘lga tushadi... Sohibqiron Boyazidga shohchodirlar tiktiradi, rum qaysari bola-chaqasi bilan bir yarim yilcha yashaydi, uning burnini ham qonatmaydilar, Sohibqiron unga sultonday munosabatda bo‘ladi, hatto o‘zining taxtini qaytarmoqchi ekanini aytadi, biroq taqdiri azal hukmi o‘zgacha bo‘ladi – u iztiroblar inqiroziga dosh bera olmay olamdan o‘tadi.

Jahongir Mirzo va do‘stlarining ajoyib topqirliklari natijasida Temurbek muxoliflarining qing‘ir rejasi ham barbod bo‘ladi, Xonzoda xonim Sohibqiron xonadonining suyuqli keliniga aylanadi.

Romanning eng kuchli jihatlaridan biri personajlarning murakkab holatlardagi xatti-harakatlari, chigal masalalarda muayyan to‘xtamga kelishlari mantiqan puxta asoslanib, ishonarli psixologik tahlil etilganligidir.



Andijonni Qamariddin zo‘ravonlik bilan bosib olgani, u yerda ne-ne beboshliklar qilayotgani haqidagi xabarni eshitganida Temurbek uch o‘t orasida qoladi: bir tomondan xiyonatkor Qamariddinni yengib, fuqaroni zulm iskanjasidan ozod qilish, ikkinchi tomondan, qattiq bemorligi tufayli hayoti qil ustida turgan sevimli farzandi Jahongir Mirzo yonida qolib, uning dardiga malham bo‘lish, uchinchi esa bugun-erta dunyoga kelay deb turgan bosh nevarasini kutib olish—uni qattiq o‘ylatardi. Yozuvchi bu chigal muammoni Temurbek xarakteri mantiqidan kelib chiqib hal etadi. Vatanparvarlik tuyg‘usi yuksak bo‘lgan Sohibqiron bu o‘rinda yagona to‘g‘ri to‘xtanga kelishini muallif quyidagicha ifodalaydi:

“U Jahongir Mirzoga qaradi - amirzoda o‘shanday bir maromda nafas olib yotardi. Shu palla ko‘z oldida Qamariddin odamlarining Andijonda kayfu safo qilib yurganliklari gavdalandi... favqulodda kelgan g‘azabdan ko‘zlariga qon quyula boshladi! Yot oyoqlar ona tuproqni toptab yuribdi... Vatan baridan muqaddas!..

Chorshanba kuni Turon sultoni Amir Temur Ko‘ragon hazrati oliylari betob Jahongir Mirzoni tabiblarga, tabiblarni esa Oллоhga topshirib, katta qo‘shin boshida Samarqanddan jo‘nab ketdi...”<sup>2</sup>.

Andijondan zafar bilan qaytayotgan Amir Temur Samarqandga yaqinlashganida, o‘zi tomon kelayotgan, boshdan oyoq qora motam ridosiga burkangan xaloyiqni ko‘rib, dastlab hayron bo‘ladi.

“Keyin anglab yetdiyu... yuragiga muz yugurdi!” - Nahotki, o‘g‘lim, jigarporamdan ayrilib qolgan bo‘lsam?

“Borliqni jilovsiz fig‘onu faryod tutdi. Amir Temur yaqin kelganda ko‘rdi: ana egachisi Qutlug‘ Turkon oqa, Saroymulkxonim, Ulus oqa, boshqalar. Hammasi bosh- yalang, oyoqlari chok, ko‘zlarida yosh... hech kachon oq ridoni tashlamagan piri murshid ham qoraga burkanib olibdi”<sup>3</sup>.

O‘z farzandidan, eng aziz yaqinidan ajralib qolish inson ruhiyatiga kuchli ta’sir qilishi tabiiy. Biroq qahramon har qanday og‘irlikni sabot bilan qarshilashga odatlangan. U achchiq qismat oldida ham, dushmanlari oldida ham, hatto farzandlarining xiyonati oldida ham esankirab qolmaydi. Aql bilan ish tutadi, o‘z vaqtida aniq bir xulosaga keladi va shunga yarasha hukm chiqaradi. Asarda farzand

<sup>2</sup>Юсупов Ш. Олмос кирралар. “Улуғ салтанат васфи”. -Т.: “Mashhur press”. 2017. –Б. 34.

<sup>3</sup>Муҳаммад Али. “Улуғ салтанат”. Жаҳонгир Мирзо. 1- китоб. “Наврўз”-Т.: 2019. –Б.413.



va nevaralarga nisbatan yasoq, hibslarining qo'llanishi, Sulton Husayn, To'xtamishxon kabi g'animlarning bir emas, bir necha marta kechirilishi Amir Temurning kamdan-kam uchraydigan noyob fe'l-atvor egasi ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun, ehtimol, unga atoqli shoir A.Oripov aytganidek “Zabtga olib keng Osiyoni, zir titratgan buyuk jahongir”<sup>4</sup>ik nasib etgandir.

“Muhammad Ali o'z tetralogiyasida-deb yozadi taniqli olim A.Saidov;

b

o

b

o'yi zaminni tuzatmoqchi, olam ahliga o'z hukmini o'tkazmoqchi bo'ladi-yu,

g

k

k

tn

Mustamlaka zamonida, o'zbek adabiyotida tarixiy mavzuning ishlanishi juda cho'choq ahvolda edi. Boy va betakror tariximiz bo'lishiga qaramay, bu mavzuda bitilgan asarlar barmoq bilan sanarli edi. Eng achinarlisi, buyuk bobomiz Amir Temur haqida badiiy asarlar deyarli yo'q bo'lib, tabu qo'yilgan bu mavzu adabiyotdan chetda qolib keldi. To'g'ri, bu yerda Oybekning (garchi o'z vaqtida e'lon qilish imkoni bo'lmagan bo'lsa ham) “Temur”, Muhammad Alining “Gumbazdagi nur” (1967) dostonlarini eslab o'tishimiz joiz. Umuman olganda, adabiyotdagi bu kemptiklik mustaqillikka erishgunimizgacha saqlanib turdi<sup>6</sup>.

Xalqimizning adabiy-estetik ehtiyojini qondirishga intilib kelayotgan nosirlarimizdan biri Muhammad Ali tarixiy haqiqatlarni badiiy talqin qilishga, hasrimiz imkoniyatlarini yanada kengaytirishga barakali hissa qo'shmoqda.

Bugungacha Amir Temur haqida ko'plab asarlar va “Ulug' saltanat” tetralogiyasini o'quvchilar hukmiga havola etgan yozuvchining asarlarida goh tarixiy, goh romantik, gohida esa o'tkir psixologizm ruhi ustunlik qiladi. Bu esa u o'z qalamini tinimsiz charxlanayotganini, mudom intilish va izlanishda ekanligini ko'rsatadi. M.Ali katta ijodiy o'rganish bosqichidan keyingina bu tetralogiyaga qo'l urdi. Uning

‘

o

<sup>4</sup>Oripov A. Saylanma.-T.: Tafaqkur qanoti. 2018.-B.3.

<sup>5</sup> Saidov A. Ulug' saltanat va ulug'vor ajdodlarimiz tarannum etilgan asar.

<sup>6</sup>Uvatov U. “Ulug' saltanat” tarixiy epopeyasiga bir nazar. “Ulug' saltanat vasfi”.-T.: Mashhur press. 2018. –B. 154.

‘

o

‘



“Sarbadorlar”, “Gumbazdagi nur” va ko‘plab katta-kichik turli janrdagi asarlarida Amir Temur obrazi yaratildi.

Yozuvchi “Gumbazdagi nur” dostonini yozganida Amir Temurga tabu qo‘yilgan davrlar bo‘lganini, lekin ijodning sirli usullari borligini, doston Amir Temur xaqida emas, me‘morlar haqida ekanligi, maqbara qurilishiga bag‘ishlanganligi, lekin uning ichida chin ma‘noda Amir Temur siymosi aks etganligini e‘tirof etadi va asarni o‘qish davomida buning yaqqol guvohi bo‘lamiz.

Adibning “Sarbadorlar” nomli romani aslida “Ulug‘ saltanat”ga ruhiy-ijodiy tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, milliy istiqloldan ancha ilgari, o‘tgan asrning 70-yillarida boshlangan edi. Romanga material to‘plash jarayonida yozuvchi adabiyotimizda mazkur mavzuda yozilgan asarlarni sinchiklab o‘rganganligi aniq. Maqsad esa millatning otasi haqida –uning ibratli fazilatlarini, namuna bo‘ladigan hayotiy lavhalarni o‘quvchiga yozuvchi tomonidan yetkazilishidir.

Asar tasviriy yo‘nalishdagi falsafiy mushohadakorlik, adib g‘oyaviy konsepsiyasidagi teran hayotiy umumlashmalar o‘quvchi ongida olam va odam haqida teran mulohazalar uyg‘otadi, o‘sha davr ruhini kitobxon qalbiga joylaydi. Asar markazida jaholat va yovuzlik, xiyonat va qabohatning inkori orqali e‘tiqod butligi, iymon musaffoligi, erk sog‘inchi, yurtga sadoqat singari ardoqli tuyg‘ularni ulug‘lash turadi. Adib sohibqironni ideallashtirmaydi. Butun umri dahshatli yo‘qotishlar ichida kechgan sarkardaning dard-alamlari, iztiroblari haqqoniy tasvirlanadi. U muqarrar fojiasini anglagan holda katta maqsadlar yo‘lida muhorabagakirgani bilan ulug‘vorlik kasb etsa, atrofni qurshaganlarning ruhiy olamini bilib ulgurmaganligi jihatidan ojizligini ham namoyon etadiki, u adabiy qahramongina emas, jonli odam, banda sifatida qabul qilinadi.

Ma‘lumki, muayyan qabila va cheklangan zamin doirasidan yorib chiqqan Yangi Shaxs voyaga yetganidan keyin endigina tetapoya bo‘layotgan “Yaxlit Dunyo” chinakamiga oyoqqa turadi. Bunday “Yangi Shaxs” o‘zini butun insoniyatning farzandi, olamning fuqarosi deb biladi, o‘zini biron-bir millat yoki elatga emas, ularning jamuljami hisoblanmish butun insoniyatga sadoqatli bo‘ladi; u butun insoniyatni sevgani uchun ham o‘z mamlakatini sevadi; qabilaga nisbatan cheklangan sadoqat bunday insonning yuksak fikr-mulohazalariga putur yetkaza olmaydi”<sup>7</sup>.

<sup>7</sup> Фромм Э. Менинг эътиқодим. Жаҳон адабиёти. –Тошкент. 2003. - № 10. –Б.147.

Muallifning bu asardan ko‘zlagan bosh maqsadi ham “Chingiz qilichi” yaralab, tiz cho‘ktirishga uringan, buyuk “Yaso qonunlari” xo‘rlagan islomiy yurt Turonda ertangi kun qayg‘usi bilan yashayotgan, Vatan tuprog‘ini muqaddas biluvchi botirlar ko‘pligini ko‘rsatishdan iborat edi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 1 tom. –Toshkent: Fan, 1979. –416 b.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 2 tom. –Toshkent: Fan, 1979.– 448 b.
3. Adabiyot. Badiiyat. Abadiyat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 234 b.
4. Adabiy turlar va janrlar. 1 jild. Epos. –Toshkent: Fan, 1991. –347 b.
5. Ali, Muhammad. Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida. –T: O‘qituvchi, 1996. -310 b.
6. Ali, Muhammad. O‘z-o‘zingni anglab yet. Toshkent: Sharq, 2013. 381 b
7. Alimbekov A. Tarixiy romanchiligimizga bir nazar. Ozod Vatan saodati. Adabiy tanqid. –Toshkent: Adib, 2013. –313 b.
8. Alimbekov A. Yulduzning besh qirrasida. Toshkent, “O‘qituvchi” NMIU. 2020. 390 b.
9. Alimov R. A. Sohibqiron Amir Temur (metodik tavsiyanoma), T., 1995.
10. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2023). Temuriy malikalarning fojiviy taqdirlari tasviri. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 1291–1298.
11. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, 46(1), 67–69.
12. Majidova Shahnoza Komilovna, Ne‘matova Jahonbibi Davron qizi. (2024). FEATURES OF THE USE AND EXPRESSION OF THE WATER LAXEM IN THE WORKS OF M. KOSHGARI, Y.H.KHAJIB, Z.M.BABUR. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(01).

### VII. Internet saytlari

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://adab.uz/>



**G‘o‘zada ZELLEK AGRO 10,4 % em. k.**  
**(“Awiner Agro” MCHJ QK, O‘zbekiston) gerbitsidini bir va ko‘p yillik boshqili**  
**begona o‘tlarga qarshi samaradorligi**

**Isroilov Dostonbek Rustam o‘g‘li**

O‘simliklar karantini va himoyasi ITI Farg‘ona filiali kichik ilmiy xodimi

O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Farg‘ona filiali

**Mamarajabov Davronbek Mamarajab o‘g‘li**

Jizzax politexnika instituti assistenti

**Annotatsiya: GERBITSIDLAR** (lot. herba – o‘t, o‘simlik va caedo — o‘ldiraman) — begona o‘tlarni yo‘qotishda qo‘llaniladigan kimyoviy moddalar. Qishloq xo‘jaligida dala, bedazor, bog‘ va tokzorlar, o‘tloqlardagi, yo‘l yoqalaridagi begona o‘tlarga qarshi qo‘llaniladi. Gerbitsidlarning bir necha xil preparat ko‘rinishlari mavjud: suvda eriydigan kukunlar (dalapon va b.), suv bilan aralashib suspenziya hosil qiluvchi kukunlar (Paxton, kotoran, kotofor, prometrin, gezagard, atrazin, agelon va b.), suv bilan aralashib emulsiya hosil qiluvchi konsentratlar (treflan, dual, banol va b.) va boshqalar.

**Kalit so‘zlar:** g‘oza, bir va ko‘p yillik begona o‘t, *Echinochloa crus galle*, *Setaria glauca* L., *Setaria viridis*, *Cynodon dactylon* L, *Sorghum holepense*, traktor, OVX, qo‘l apparati, suv, dala, begona o‘t, sepish, qarshi kurash, gerbisid, urug‘, kimyo, tajriba, sinov.

**Abstract: HERBICIDES** (lat. herba - grass, plant and caedo - kill) are chemical substances used to eliminate weeds. In agriculture, it is used against weeds in fields, meadows, orchards and vineyards, meadows, roadsides. There are several different types of herbicides: powders that dissolve in water (dalapon, etc.), powders that mix with water to form a suspension (Paxton, kuttar, kotofor, promethrin, gezagard, atrazine, agelon, etc.), emulsion mixed with water forming concentrates (treflan, dual, banol, etc.) and others.

**Key words:** cotton, annual and perennial weed, *Echinochloa crus galle*, *Setaria glauca* L., *Setaria viridis*, *Cynodon dactylon* L, *Sorghum holepense*, traktor,



OVX, manual equipment, water, field, weed, spraying, control, herbicide, seed, chemistry, experiment, test.

**Аннотация: ГЕРБИЦИДЫ** (лат. herba — трава, растение и caedo — убиваю) — химические вещества, применяемые для уничтожения сорняков. В сельском хозяйстве применяется против сорняков на полях, лугах, садах и виноградниках, лугах, обочинах дорог. Существует несколько форм гербицидов: порошки, растворяющиеся в воде (далапон и др.), порошки, смешивающиеся с водой с образованием суспензии (пахтон, кухтар, котофор, прометрин, гезагард, атразин, агелон и др.), эмульсия, смешанная с водообразующие концентраты (трефлан, дуал, банол и др.) и другие.

**Ключевые слова:** хлопчатник, однолетний и многолетний сорняк, *Echinochloa crusgalle*, *Setaria glauca* L., *Setaria virudis*, *Cynodon dactylon* L, *Sorghum hololepense*, трактор, ОВХ, ручное оборудование, вода, поле, сорняк, опрыскивание, борьба, гербицид, семена, химия, эксперимент, испытание.

**Kirish.** Paxta dalalarida turli xil begona oʻtlar uchraydi. Qulay iqlim va tuproq sharoiti bu begona oʻtlarning gʻoʻza maydonlarida unib chiqishiga turtki boʻladi. Bu yerlarda bir yillik va koʻp yillik oʻtlar koʻproq uchraydi. Bir yillik begona oʻtlardan qorakurmak, semizoʻt, shoʻra, ituzum bor. Koʻp yillik oʻtlardan esa ajriq, gʻumay, salomalaykum, qoʻyechaklar mavjud.

Bu begona oʻtlar organik va mineral moddalar, suv va yorugʻlikni oʻzlashtirishda ularga raqobatchi boʻlib, gʻoʻza ekinlariga katta zarar yetkazadi. Yuqorida aytilganlarning barchasi paxta xomashyosi hosildorligida sezilarli yoʻqotishlarga olib keladi. Buning oldini olish uchun begona oʻtlar bilan qoplangan dalalarda doimiy ravishda begona oʻtlarga qarshi kurashish kerak. Yovvoyi oʻtlar bilan agrotexnik usullar amaliyot koʻrsatganidek, begona oʻtlarni yoʻq qilishni toʻliq taʼminlamaydi. Shuning uchun, ayniqsa, qishloq xoʻjaligi amaliyotlari bilan birgalikda, begona oʻtlarni yanada toʻliq yoʻq qilishga erishiladigan samarali gerbitsidlar va ularni qoʻllash texnologiyalarini topishga shoshilinch ehtiyoj bor.

Keyingi yillarda paxtachilikda gerbitsidlardan foydalanish texnologiyaning ajralmas qismiga aylandi.



Shularni hisobga olgan holda O'KvaH ITI bir yillik va ko'p yillik boshqoli begona o'tlarga qarshi eng samarali, tejamkor va atrof-muhit uchun xavfsiz ishlab chiqarish tajribasini o'rgandi.

### **Bir yillik va ko'p yillik begona o'tlarning qisqacha tavsifi.**

#### **1. Qorakurmak** - *Echinochloa crus galle*.

Bir yillik boshqoli o'simlik. O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarda keng tarqalgan. Hosildorligi yuqori – bitta o'simlik butasi unib chiqish joyiga qarab, 5 mingdan 13 minggacha urug' berishi mumkin. Bu begona o't g'ozaga rivojlanishning dastlabki fazalarida eng katta zarar keltiradi, 1 m<sup>2</sup> ga 15 – 20 o'simlik to'g'ri keladi.

#### **2. Itqo'noq** – *Setaria glauka* L .

Poyasi bir yoki ko'p bo'lib, silliq, balandligi 40-50 sm gacha, barglari chiziqli-lansetsimon. Mevasi oval tuxumsimon, aprel, iyun va avgust oylarida o'sib chiqadi. Itqo'noqlar barcha sug'oriladigan yerlarda keng tarqalgan. Yozning ikkinchi yarmida gullaydi va meva beradi. Dastlab, u tezda 1,5 m gacha chuqurlashgan kuchli ildiz tizimini rivojlantiradi.

#### **3. Ko'k itqo'noq** - *Setaria virudis*.

Bir yillik o't, poyasining bo'yi 20-100 sm. Popuk ildiz, tuproqqa 75-170 sm singib ketadi. Iyul-sentyabr oylarida gullaydi, boshqochalar tuxumsimon-oval, mevasi oval-tuxumsimon. Iyul-oktyabr oylarida urug'lari pishib yetiladi. Bitta o'simlikning hosildorligi 2300 dona. Urug'i 4 yildan ortiq hayotiylikini saqlab qoladi. Barcha sug'oriladigan yerlarda o'sadi, janubiy viloyatlarda tarqalgan

**4. Ajriq** - *Cynodon dactylon* L - ko'p yillik o't o'simligi, ko'p yillik ildizpoyasimonlar oilasi. Ildiz tizimi vegetativ kurtaklari bilan 1,5 m chuqurlashgan yer osti poya shaklida. Poyasi ko'tarilgan shoxlangan, balandligi 10-50 sm. Barglari chiziqsimon lansetsimon tukli, tili kalta kipriksimon shaklda. . Palma shaklida gullaydi. Mevasi 2,25-2,75 mm uzunlikdagi sarg'ish-yashil-binafsha rangli pardasimon.

#### **5. G'umay** - *Sorghum holepense*.

Boshqodoshlar oilasiga mansub ildiz poyali ko'p yillik o'simlik. Bog'larda sug'orish kanallari qirg'oqlaridagi dalalarda o'sadi. Yarim nam tuproqlarni afzal ko'radi. Vegetativ nuqtalari va lateral shoxlari bilan ajralib turadi. Ildiz tizimi shakli o'zgargan yer osti poyasi shaklida. Ildizlari tuproqqa 80-100 sm gacha kirib boradi. Urug'larning unib chiqishi uchun minimal harorat +10-12°C. Ildizpoyasida kurtaklar mart-may oylarida paydo bo'ladi, iyul-avgustda gullaydi. Avgust-sentyabr



oylarida urug‘lar pishib yetiladi. Bitta o‘simlikning maksimal hosildorligi 8000 dongacha, urug‘larning hayotiyliigi 4 yil davom etadi.

### **Tadqiqot o‘tkazish joyi hamda usuli.**

Tajriba sinovlari 2023 yil Farg‘ona viloyati sharoitida o‘tkazildi.

**ZELLEK AGRO** 10,4 % em. k. (“Awiner Agro” MCHJ QK, O‘zbekiston) gerbitsididan foydalanish bo‘yicha ishlab chiqarish sinovlari "O‘simliklarda gerbitsidlarni davlat sinovidan o‘tkazish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar" (2007) bo‘yicha amalga oshirildi. Tajriba ishining umumiy masalalari bo‘yicha ekinlar hosildorligi bo‘yicha olingan ma‘lumotlarning ishonchliligi B.A.Dospexov (1985) metodologiyasi bo‘yicha aniqlandi. Tasdiqlangan ishchi dasturga muvofiq va buyurtmachi bilan kelishilgan holda, tajribalar quyidagi sxema bo‘yicha o‘tkazildi:

1. Nazorat - gerbitsid yo‘q.
2. **ZELLEK SUPER**, 10,4 g/1 k.e. – 1,0 l/ga (andoza)
3. **ZELLEK AGRO** 10,4 % em. k. – 0,6 l/ga k.em.

### **Sinov natijalari**

Gerbitsidlarni qo‘llashdan asosiy maqsad vegetatsiya davrida bir yillik va ko‘p yillik o‘tlarini hosilga zarar yetkazmasdan maksimal darajada yo‘q qilishga erishishdir.

Bu o‘simlik rivojlanishining dastlabki davrida, begona o‘tlar o‘sishda undan sezilarli darajada oldinda bo‘lgan va uning rivojlanishini kechiktirishi mumkin bo‘lgan davrda katta ahamiyatga ega.

Gerbitsid ta’sirining birinchi belgilari **ZELLEK AGRO** 10,4 % em. k. begona o‘tlarni ishlovdan so‘ng 10 kun o‘tgach kuzatila boshladi. Ular porloq bo‘lib, bargning rangi quyuq yashil rangdan o‘zgaradi, ular yashil rangini yo‘qotadi, turgorlik holati yo‘qoladi. Yovvoyi o‘tlarda asosiy o‘sish nuqtasi burishadi va o‘sishdan to‘xtaydi, barglarning rangi qizil-sariq bo‘ladi.

**ZELLEK AGRO** 10,4 % em. k. bir yillik va ko‘p yillik boshhoqli begona o‘tlarini, ayniqsa g‘umay turini butunlay yo‘q qiladi. Ishlovdan so‘ng, **ZELLEK AGRO** 10,4 % em. k. o‘simlikda juda tez harakat qiladi. O‘sish nuqtalarida to‘planib, ularni yo‘q qiladi. Ushbu muhim tizimli harakat kurtaklar va ildizpoyalarning o‘limiga olib keladi, ular ichiga gerbitsid ham kiradi. Bu shuni anglatadiki, ko‘p yillik o‘tlarining qayta o‘sishi bo‘lmaydi.



Sinov natijalari jadvalda keltirilgan. Ular shuni ko'rsatadiki, ZELLEK AGRO 10,4 % em. k. gerbitsidi, 1,0 l/ga iste'mol darajasida u asosan g'o'za ekinidagi bir yillik va ko'p yillik boshqoli begona o'tlarning o'suv nuqtalariga samarali ta'sir ko'rsatadi va ularning sonini deyarli sezilmaydigan miqdorgacha kamaytiradi. Buni paxta ekinlariga sepilgandan keyin 30-kuni o'tkazilgan hisob-kitoblarda ham ko'rish mumkin.

Bu yerda ZELLEK AGRO 10,4 % em. k. suspenziya holatida purkashdan 15 kundan keyin 1 kv m uchun nazorat qilish variantlari bilan solishtirganda. 1,0 l/ga iste'mol darajasida 1,2 dona bor edi. Purkalgandan 30-60 kun o'tgach esa 1 kv.m ga 0,9 ta, ko'p yillik o'simliklar esa 0,6 dona begona o'tlar aniqlandi.

ZELLEK AGRO 10,4 % em. k. gerbitsidining biologik samaradorligi, tajribada o'rtacha 3 ta hisob-kitobga ko'ra bir yilliklarda 94,6% va ko'p yillik o'tlarda 94% ni tashkil etdi.

jadvalda Zellek super, 104 g/l k.e. gerbitsidining ta'siri ham ko'rsatilgan, bir yillik va ko'p yillik boshqoli o'tlarning har bir turi uchun 1,0 l/ga iste'mol meyorida foizda ifodalangan.

ZELLEK AGRO 10,4 % em. k. bir yillik boshqoli begona o'tlarga juda yaxshi ta'sir qiladi, avval barglari va poyasi sarg'ayadi, keyin esa quriydi.

ZELLEK AGRO 10,4 % em. k. gerbitsidi, 1,0 l/ga bir yillik o'tlari qoniqarli ta'sir ko'rsatadi, lekin ko'p yillik o'tlari sekin ta'sir qiladi – dastlab barglari va poyalari sarg'ayadi, keyin asta-sekin quriydi.

ZELLEK AGRO 10,4 % em. k. gerbitsidining o'tlar paydo bo'lishidan keyin purkalganda, 1,0 l / ga ta'sir qilish darajasida, ko'p yillik boshqoli begona o'tlarni (ajriq va g'umay) yo'q qilish uchun samarali tayyorgarlik hisoblanadi.

Shunday qilib, begona o't paydo bo'lgandan keyin gerbitsid ZELLEK AGRO 10,4 % em. k. 1,0 l/ga iste'mol darajasida samarali bo'lib, uning ta'siridan g'o'za o'simliklarining o'sishi, rivojlanishi va shakllanishidagi kechikishiga salbiy ta'sir ko'rsatmadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ZELLEK AGRO 10,4 % em. k. gerbitsidi, sinovdan o'tgan iste'mol me'yorlariga bir yillik va ko'p yillik boshqoli begona o'tlarga nisbatan 1,0 l/ga iste'mol meyorida qo'llash tavsiya qilinadi.

Go'zada ZELLEK AGRO 10,4 % em. k. gerbitsidining bir yillik va ko'p yillik begona o'tlarga qarshi biologik samaradorligi.

№	Begona o‘tlar nomi	Ishlovdan oldin dona 1m <sup>2</sup>	Nazorat (dorisiz) 1m <sup>2</sup>	ZELLEK SUPER, 104 g/1 k.e. – 1,0 l/ga (andoza)		ZELLEK AGRO 10,4 % em.k. -1,0 l/ga	
				Dona/m <sup>2</sup>	%	Dona/m <sup>2</sup>	%
Ishlovdan 15 kun keyin							
Bir yillik begona o‘tlar							
1	Qorakurmak	11,4	10,0	0,9	92,1	0,7	93,8
2	Itqo‘noq	6,1	7,2	1,0	83,6	0,6	90,2
3	Ko‘k itqo‘noq	6,5	7,0	1,2	81,5	0,5	92,3
4	Yovvoyi arpa	7,5	9,3	0,9	88,0	0,6	92,0
	<b>O‘rtacha</b>	<b>7,9</b>	<b>8,4</b>	<b>1,0</b>	<b>86,3</b>	<b>0,6</b>	<b>92,1</b>
Ko‘p yillik begona o‘tlar							
5	Ajriq	6,1	8,3	0,8	86,9	0,6	90,2
6	G‘umay	4,8	7,8	0,8	83,3	0,4	91,7
	<b>O‘rtacha</b>	<b>5,5</b>	<b>8,1</b>	<b>0,8</b>	<b>85,1</b>	<b>0,5</b>	<b>91,0</b>
Ishlovdan 30 kun keyin							
Bir yillik begona o‘tlar							
1	Qorakurmak	11,4	10,2	0,7	93,9	0,3	97,4
2	Itqo‘noq	6,1	7,5	0,9	85,3	0,4	93,4
3	Ko‘k itqo‘noq	6,5	7,3	1,0	84,6	0,3	95,4
4	Yovvoyi arpa	7,5	9,5	0,6	92,0	0,5	93,3
	<b>O‘rtacha</b>	<b>7,9</b>	<b>8,6</b>	<b>0,8</b>	<b>89,0</b>	<b>0,75</b>	<b>94,9</b>
Ko‘p yillik begona o‘tlar							
5	Ajriq	6,1	8,8	0,6	90,2	0,4	93,4
6	G‘umay	4,8	8,1	0,5	89,6	0,2	95,8
	<b>O‘rtacha</b>	<b>5,5</b>	<b>8,45</b>	<b>0,55</b>	<b>89,9</b>	<b>0,3</b>	<b>94,6</b>
Ishlovdan 60 kun keyin							
Bir yillik begona o‘tlar							
1	Qorakurmak	11,4	10,6	0,5	95,6	0,1	99,1
2	Itqo‘noq	6,1	7,8	0,7	88,5	0,1	98,4
3	Ko‘k itqo‘noq	6,5	7,6	0,8	87,7	0,2	96,9
4	Yovvoyi arpa	7,5	9,7	0,4	94,7	0,3	96,0





	O‘rtacha	7,9	8,9	0,6	91,6	0,35	96,8
Ko‘p yillik begona o‘tlar							
5	Ajriq	6,1	9,1	0,4	93,4	0,3	95,1
6	G‘umay	4,8	8,3	0,3	93,8	0,1	97,9
	<b>O‘rtacha</b>	<b>5,5</b>	<b>8,7</b>	<b>0,35</b>	<b>93,6</b>	<b>0,2</b>	<b>96,5</b>
	<b>3 ta kuzatuvno o‘rtachasi</b>						
	<b>Bir yillik</b>	<b>7,9</b>	<b>8,6</b>	<b>0,8</b>	<b>89,0</b>	<b>0,56</b>	<b>94,6</b>
	<b>Ko‘p yillik</b>	<b>5,5</b>	<b>8,5</b>	<b>0,57</b>	<b>89,5</b>	<b>0,33</b>	<b>94,0</b>

## 6. XULOSA VA TAKLIFLAR

1. ZELLEK AGRO 10,4 % em. k. Gerbitsidi g‘o‘zada bir va ko‘p yillik boshqoli begona o‘tlarga qarshi 1,0 l/ga sepilganda nazoratga nisbatan samarali bo‘lib, bir va ko‘p yillik boshqoli begona o‘tlarni o‘rtacha 3 ta kuzatuv natijalariga ko‘ra bir yillik 94,6% va ko‘p yillik 94,0% ni yo‘q qildi.

2. Ko‘rsatilgan sarf me‘yorida ZELLEK AGRO 10,4% em. k. g‘o‘za ekini o‘sishi va rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmadi.

3. . Ishlab chiqarish tajribasi natijalariga ko‘ra “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida o‘simlik zararkunandalari, kasalliklariga va begona o‘tlarga qarshi foydalanish uchun ruxsat etilgan kimyoviy va biologic himoya vositalar RO‘YXATI”ga ZELLEK AGRO 10,4% em. k.ni kiritish g‘o‘za ekinlarida bir va ko‘p yillik boshqoli o‘tlarga qarshi uzluksiz ravishda 1,0 l/ga sarf me‘yorida tavsiya etamiz.

## 7. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Alxasyants E.L. Pestidsidlarning samaradorligi va paxtachilikda qo‘llanilishi. Axborot varaqasi, Toshkent 1985 yil.
2. Xasanov T.K. va boshqalar Gezagard 50% w.p. gerbitsidini sinash, g‘o‘za ekinlarida bir yillik ikki pallali va boshqoli begona o‘tlarga qarshi. O‘zMIIZR ma‘ruza tezislari, Toshkent, 2001 y.
3. Yusupova M.N., Xodjayev Sh.T. Plyonka ostida g‘o‘za ekinlarida bir yillik begona o‘tlarga qarshi gerbitsidlardan foydalanish. O‘zMIIZR ma‘ruzasi tezislari, Toshkent, 2001 y.

4. Ochilov R.O., Yo‘ldoshev A. Dachlarning paxta ekinlarida bir yillik, ikki pallali va boshqali begona o‘tlarga qarshi ishlab chiqarish sinovlari. Tavsiyalar, 2005 yil.
5. Yuldashev A. va boshqalar 2010. Paxta ekish bilan bir vaqtda Kotoran gerbitsidi bir yillik begona o‘tlarga qarshi qo‘llaniladi. Tavsiya, Toshkent, 2005 yil.
6. Yuldashev A. va boshqalar 2010. Kotoran va Stomp gerbitsidlari aralashmasi paxta ekinlarida bir yillik, ikki pallali va boshqali begona o‘tlarga qarshi sinovdan o‘tkazildi. J. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, Toshkent, 2010 y.
7. Yuldashev A. va boshqalar 2010. Bir yillik begona o‘tlarga qarshi Samuray gerbitsidi paxta ekinlarida sinovdan o‘tkazildi. J. Agroilm, Toshkent, 2010 y.
8. Yuldashev A. va boshqalar 2010. Qishloq xo‘jaligida begona o‘tlarning rivojlanishi va ko‘payishini prognozlash. “Andijon nashtiot-matbaa”, Er. 2010 yil.
9. Yuldashev A. va boshqalar. O‘simliklarda gerbitsidlarni davlat sinovidan o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalar. Qo‘llanma, Toshkent, 2007 y.
10. Zirh B.A. Eksperimental ishlarning umumiy masalalari, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosili bo‘yicha olingan ma‘lumotlarning ishonchliligi. Metodik ko‘rsatmalar. Moskva, 1985 yil.

---

# Research Science and Innovation House



## МЕДИКО-СОЦИАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Касимова Дильфуза Абраровна,  
Доцент, к.м.н. Школы общественного здравоохранения,  
Ташкентской медицинской академии, г.Ташкента, Узбекистан

Toʻqimalarda kislorod etishmasligi ham qon oqimining etarli emasligi, ham qondagi kislorod miqdori (gipoksemiya) tufayli yuzaga kelishi mumkin

**Gipoksiya turlari.** Gipoksiyani tasniflash bir nechta mezonlarga koʻra amalga oshiriladi: patologiya turli darajadagi zoʻravonliklarga ega boʻlishi mumkin, uning kursi shaklida farqlanadi, alohida organlarga yoki butun tanaga taʼsir qiladi va eng muhimi, turli sabablarga ega. Gipoksiya turini aniqlash muhim vazifa boʻlib, shifokorga tekshiruv rejasini va davolash strategiyasini belgilash imkonini beradi.





### **Jiddiyligi bo'yicha gipoksiya turlari:**

- Oson. U asemptomatik tarzda rivojlanadi, kompensatsion mexanizmlar to'qimalar va organlarga kerakli miqdordagi kislorodni etkazib berishga imkon beradi.

- O'rtacha. Hujayralarda qaytariladigan o'zgarishlar kuzatiladi: metabolik jarayonlarning buzilishi, kislota-baz muvozanati. Ushbu bosqich sezilarli noqulaylik bilan birga keladi: uyquchanlik, letargiya va tinnitus paydo bo'ladi va tanish vazifalarga diqqatni jamlash qobiliyati pasayadi.

- Og'ir. Qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishlar ro'y beradi, ko'pincha hayot bilan mos kelmaydi. Sog'lik holati keskin yomonlashadi, nutq va ongning buzilishi paydo bo'ladi, majburiy siyish va defekatsiya mumkin.

### **Oqim shakliga ko'ra gipoksiya turlari:**

- Chaqmoq gipoksiyasi. Hayotiy organlarning shikastlanishi, bo'g'ilishi yoki ishlamay qolishi natijasida o'nlab soniyalarda rivojlanadi. Bu holat hayot uchun xavflidir va shoshilinch tibbiy yordamni talab qiladi.

- O'tkir gipoksiya. To'g'ridan-to'g'ri provokatsion omil ta'siri ostida rivojlanadi, masalan, yallig'lanish yoki spazm tufayli havo yo'llari sezilarli darajada toraysa. Uzoq muddatli o'tkir gipoksiya tizimlar va organlarda qaytarilmas jarayonlarga olib kelishi mumkin.

- Surunkali gipoksiya. U kamroq aniq shaklga ega va yillar davomida rivojlanishi mumkin. Kamroq aniq belgilarga qaramasdan, kasallik tanadagi xavfli o'zgarishlarga ham olib kelishi mumkin.

### **Vaziyatga ko'ra gipoksiya turlari:**

- Gipobarik. Yuqori balandliklarda, masalan, tog'larda, kam uchraydigan, kislorodsiz havo tufayli paydo bo'ladi.

- Nafas olish. O'pkaning etarli darajada kislorod bilan to'yinganligini ta'minlay olmasligi bilan bog'liq.

- Qon aylanishi. Yurak-qon tomir tizimining etarli qon oqimini ta'minlay olmasligi bilan bog'liq.

- Gemik. Gemoglobinning kamayishi tufayli qonning to'qimalar va organlarga kislorod etkazib berish qobiliyatining yomonlashishi bilan bog'liq.

- Histotoksik (to'qimalar). Hujayralarning kisloroddan samarali foydalana olmasligi bilan bog'liq.

- Aralashgan.[6,5]

### **Xulosa**

Kislarodning bu biokimyoviy jarayonlarda katta ahamyatga ega ekanligi bilan qolgan boshqa elementlardan ajrab turishi, biosfera qobig‘ini yani hayot qobig‘ini tashkil etishi jihatdan katta ahamyatlarga ega. Biz oz bo‘lsada kislarodning hayotdagi ahamyatini o‘rganib sizlarga yetkazish.

### **Foydanilgan adabiyotlar:**

1. O. FAYZULLAYEV ANALITIK KIMYO TOSHKENT «YANGI ASR AVLODI» 2006 YIL
2. S.X.Sulliyeva, Q.G‘.Zokirov BOKIMYO VA MOLEKULAR BIOLOGIYA (2-QISM. MOLEKULAR BIOLOGIYA) TERMIZ 2022 Y.
3. Tojiboyev M., Kurbonov A. Botirov M. «QAYIN SHARBATINING FOYDALIK HAMDA ZARARLIK XUSUSIYATLARI VA TIBIIYOTGA TADBIG‘I» 2023 y
4. <https://scienceon.kisti.re.kr/srch/selectPORSrchTrend.do?cn=SCTM00125296>
5. <https://fayllar.org/reja-energiya-aylanishi-geologik-aylanma-harakat-biokimyoviy-a.html?page=5>
6. <https://www.turito.com/blog/physics/oxygen-molecule>

---

# Research Science and Innovation House



## НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ И ФОРМИРОВАНИЕ ХЛОПКОВО-ТЕКСТИЛЬНЫХ КЛАСТЕРОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Жамолова Феруза Эркиновна**

Магистрант 2 курс специальности «Экономика» КГУ имени Бердаха

**Annotatsya.** Maqolada paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish va shakllantirishning ilmiy asoslari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyati tahlil qilindi

**Kalit so‘zlar.** Klaster, xom paxta, qayta ishlash, klaster usuli, to‘qimachilik va tikuvchilik sanoati

**Аннотация.** В статье рассматривается научные основы развития и формирование хлопково-текстильных кластеров. А также проанализировано деятельности хлопково-текстильных кластеров Республики Узбекистан

**Ключевые слова.** кластер, хлопок-сырец, переработка, кластерный метод, текстильно-швейная промышленность

**Annotation.** The article discusses the scientific foundations of the development and formation of cotton clusters. The activities of cotton and textile clusters of the Republic of Uzbekistan were also analyzed.

**Keywords.** Cluster, raw cotton, processing, cluster method, textile and clothing industry

Широко используемая в настоящее время кластерная форма организации сельского хозяйства предусмотрена во многих законодательных, нормативно-правовых и программных документов, среди которых «Стратегия развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», где одним из стратегических приоритетов является создание благоприятного агропромышленного климата и формирование цепочек добавленной стоимости.

Хлопковые кластеры представляют собой расположенные в областях прибыльные производственные цепочки, где хлопок-сырец проходит обработку и превращается в продукт текстильного производства для реализации на внутреннем и внешнем рынках. Каждый кластер находится под управлением одной или нескольких частных компаний.

В 2022 году в системе Ассоциации хлопково-текстильных кластеров Узбекистана действовало 134 кластера. В деятельности хлопково-текстильных кластеров применяются интенсивные и инновационные агротехнологии, благодаря чему в хлопководстве с каждым годом улучшаются показатели урожайности и качество. Только в текущем году многие кластеры собрали по 35-40 центнеров хлопка с гектара. Как сообщил Ш. Мирзиёев, благодаря этому переработка хлопковолокна увеличилась в 2,5 раза и достигла 100%. Производство пряжи увеличилось вдвое, готовой продукции - втрое, их экспорт к концу года достигнет \$3 млрд<sup>1</sup>. Хлопково-текстильная промышленность является одной из важнейших отраслей отечественной экономики, выступает локомотивом развития регионов, создания производственных мощностей в сельской местности, обеспечения занятости населения, а также увеличения объемов экспорта. Поэтому по инициативе главы нашего государства на новом этапе реформ был коренным образом обновлен хлопково-текстильный фронт и внедрена кластерная система.

Следует отметить, что этот инновационный метод, объединяющий сельское хозяйство и промышленность, быстро оправдал себя. По мере увеличения объемов производства важного промышленного сырья и улучшения его качества была достигнута полная переработка волокна в пределах страны. При этом основной силой стали 134 кластера, действующие в системе Ассоциации хлопково-текстильных кластеров Узбекистана. В настоящее время кластеры активно занимаются выращиванием, уборкой, первичной и глубокой переработкой сырца, экспортом хлопка.

Действительно, на основе кластерного метода было введено в эксплуатацию около 350 крупных заводов. В результате степень вторичной переработки пряжи была увеличена до 45 процентов. В ближайшее время ожидается, что этот показатель достигнет 100 процентов. Потому что глава нашего государства поставил перед кластерами задачу экспортировать готовую продукцию с добавленной стоимостью, а не полуфабрикаты. Вышеупомянутый указ Президента, безусловно, послужит важным руководством к действию для достижения этой цели.

---

<sup>1</sup> Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана <https://president.uz/ru/lists/view/5774>



В районах Узбекистана, где действуют кластеры, наблюдается повышенная урожайность хлопка-сырца по сравнению с районами без кластеров. Особенно впечатляющий результат достигнут в 40 районах, в которых кластерам были переданы полномочия, поскольку средняя урожайность хлопка оказалась выше, чем за последние 10 лет. Этот рост урожайности стал возможным благодаря значительным инвестициям не только со стороны государства, но и со стороны частных инвесторов, которые вложили средства в внедрение современных технологий и применение передовых методов в сельском хозяйстве.

Создание и эффективное функционирование хлопково-текстильных кластеров обладает рядом очевидных преимуществ для производителей хлопка и его переработчиков. Производители хлопка в кластерах получают гарантированный доступ к готовому рынку сбыта, а также получают поддержку в форме консультаций и доступ к передовым технологиям, что способствует повышению их конкурентоспособности. В свою очередь, текстильные предприятия, входящие в кластер, имеют стабильный и качественный источник хлопка-сырца, обеспечивающий им непрерывную работу и высокое качество производства. Таким образом, создание хлопково-текстильных кластеров способствует сотрудничеству и взаимовыгодному сотрудничеству между различными участниками цепочки производства, что в итоге способствует развитию хлопково-текстильной отрасли в целом.

Сегодня наша текстильная продукция в основном импортируется в страны Содружества, Турцию и Китай, но число наших партнеров будет расширяться за счет европейских стран. Потому что после отмены глобального бойкота узбекского хлопка, страны «древнего континента», а также международные бренды, наладив торговые и инвестиционные отношения в этом направлении, стали размещать свои заказы в Узбекистане. Предприятия легкой промышленности составляют основу текстильных кластеров в Швейцарии, Австрии, Италии, Индии, что свидетельствует о значительном потенциале развития хлопково-текстильных кластеров Узбекистана.

В Узбекистане имеется достаточно развитая текстильно-швейная промышленность, в которой работают около двухсот тысяч человек, и имеющая высокий потенциал для создания новых рабочих мест и значительного увеличения экспортных доходов. На хлопково-текстильные



кластеры призваны ускорить научно-технический прогресс в Узбекистане и, за счет повышения урожайности, уменьшить посевные площади под хлопком. В связи с этим кластер можно рассматривать как центр инвестиций и инноваций, призванный стимулировать развитие отечественной экономики.

Конкурентоспособность каждого предприятия, входящего в состав кластера, повышается благодаря интеграции предприятий между собой, эффекту масштаба и корпоративным выгодам (выгодам от совместного функционирования предприятий внутри кластера).

Узбекское правительство стремится создавать рабочие места в текстильной промышленности в непосредственной близости от небольших городов и сельских районов. Одной из главных целей является избежание проблем, которым подвергаются другие азиатские страны с высокой концентрацией текстильных предприятий вокруг крупных городов. Такая концентрация может сопровождаться многочисленными проблемами для рабочих, связанными с недостаточностью рабочих мест и социальными условиями. Правительство Узбекистана признает, что создание текстильных кластеров по всей стране, а не только в столице или крупных городах, будет способствовать привлечению инвестиций и развитию текстильной отрасли во всей стране. Такой подход позволит равномерно распределить экономические выгоды от развития текстильного сектора и способствовать стимулированию роста и развития местной экономики.

Одной из проблем предприятий текстильной и швейно-трикотажной промышленности является нехватка квалифицированных кадров, что обусловлено низкой средней зарплатой на предприятиях отрасли, которая объясняется высокими налогами и прочими обязательными платежами на труд, которые увеличивают издержки предприятий по выплате заработной платы. Это существенно повышает себестоимость производимой продукции и снижает конкурентоспособность узбекской текстильной отрасли.

В связи с принятыми Правительством Узбекистана документами о развитии хлопково-текстильных кластеров, в состав которых входят предприятия текстильной и швейно-трикотажной промышленности, вопрос о повышении заработной платы в отрасли имеет тенденции к улучшению.



Привлеченные в отрасль инвестиции в 2018-2020 гг. способствовали созданию 11000 новых рабочих мест<sup>2</sup>.

Несмотря на усиление конкуренции на мировом текстильном рынке, спрос на узбекскую продукцию растет. Дело в том, что наша продукция привлекает покупателей своей натуральностью, высоким качеством и приемлемой ценой. В 2022 году было экспортировано текстильной и швейно-трикотажной продукции на 3 миллиарда 229,2 миллиона долларов, темп роста увеличился на 10,2 процента по сравнению с предыдущим годом.

Отрадно, что доля готовой продукции в экспорте составила 41,5 процента. Это означает рост на 44 процента по сравнению с 2021 годом. Важным фактором достижения такого положительного результата стало увеличение количества предприятий-экспортеров, число которых сейчас достигло 1503.

#### Использованные литературы

1. Постановление Президента Узбекистана от 26.01.2023 г. №ПП-23 «О дополнительных мерах по поддержке деятельности производителей хлопкового сырья». [https://www.norma.uz/novoe\\_v\\_zakonodatelstve/hlopkovo-tekstilnye\\_klastery\\_podderjit\\_gosudarstvo](https://www.norma.uz/novoe_v_zakonodatelstve/hlopkovo-tekstilnye_klastery_podderjit_gosudarstvo)
2. Абдуллоева Х.Р. Формирование стратегии кластера для развития текстильной отрасли в Согдийской области // Экономика и социум. 2018. №6 (49) С.34-39
3. Джурабаев О.Д. “Эффективность хлопково-текстильных кластеров в Узбекистане на современном этапе” Бизнес эксперт, №3, 2023
4. Джурабаев О.Д. “Методологические основы кластеризации экономики” Бизнес эксперт, №2, 2023
5. Kalmuratov, B. S. (2021). Development strategy of an innovative management of the industrial complex of the Republic of Karakalpakstan. ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (93), 379-387. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-01-93-66> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2021.01.93.66>

<sup>2</sup> Данные группы Всемирного банка  
<https://documents1.worldbank.org/curated/en/527551601272645417/pdf/Policy-Dialogue-on-Agriculture-Modernization-in-Uzbekistan-Cotton-Textile-Clusters-in-Uzbekistan-Status-and-Outlook.pdf>

## Raqamli ta'lim muxitida axborot kompetentligi atamasining mohiyati va tuzilmasini o'rganish

Azimova Shohista Saloxiddinovna  
Toshkent moliya instituti, Katta o'qituvchi  
E-mail: shohistaazimova1212@gmail.com

• Maqolada “kompetensiya (vakolat)”, “kompetentlik”, “axborot kompetentligi”, professional kompetentlik” tushunchalari, kompetensiyalar (vakolatlar) va kompetentlik klassifikatsiyasi, axborot kompetensiyasi tuzilmalariga asosiy yondashuvlar ko'rib chiqilgan.

• В статье рассмотрены основные подходы к терминам «компетенция», «компетентность», «информационная компетенция», «профессиональная компетентность» и «информационная компетентность», классификации компетенций и компетентностей, структура информационной компетентности.

• The article deals with the main approaches to the terms "competence", "competence", "information competence", "professional competence" and "information competence", classification of competencies and competencies, information competence structure.

**Kalit so'zlar:** pedagog, professional, axborot, kompetensiya, ta'lim, muassasasi, talabalar, imkoniyat, zamonaviy.

**Ключевые слова:** педагоги, профессия, информация, компетентность, образование, учреждение, студенты, возможность, современный.

**Key words:** pedagogues, profession, information, competence, education, institution, students, opportunity, modern.

Ta'lim sohasini rivojlantirishning zamonaviy boschqichi aniq kelajakka mo'ljallangan kompetentlik yondashuvni izchil tadbiiq etishi bilan ajaralib turibdi. Har bir inson ta'lim olish imkoniyatlari muvaffaqiyatli, professional va shaxsiy faoliyati inobatga olishida va aniq vaziyatlarda o'zining imkoniyatlariga odil baho berish orqali tanlash qobiliyatida nomoyon bo'ladi. Umumiy olinganda





kompetentlik yondashuv quyidagi shartdan kelib chiqmoqda, xayotda muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun ta’lim olish jarayonida har bir inson aniq amaliyotga asoslangan bilim olishi, ijtimoiy va professional muhim sifatlarini rivojlantirishi lozim.

XXI asr pedagogi o‘zining professional faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilimga ega bo‘lishidan tashqari ulardan o‘quv jarayonlarida ijodiy foydalana olishi ham lozim, ya’ni: bilim o‘zlashtirish faoliyatida maqsadlarni aniqlash; qo‘yilgan maqsadlarga yetishda samarali usullarni topish; turli hil axborot manbalaridan foydalanish; zarur ma’lumotlarni izlash va topish, olingan ma’lumotlarni baholash; talabalar bilan hamkorlik o‘rnatish.

Ta’limning yuqori texnologiyali sohaga o‘zgarishi pedagogik izlanish va kelajak mutaxassislarining axborot kompetensiyasini (vakolatlarini) shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni aniqlash masalalarini aktuallashtirmoqda. Axborot kompetensiyasiga (vakolatiga) ega pedagogni shakllantirishda oliy ta’lim muassasasida o‘zlashtirilgan, amaliy bilimlarga va o‘zini bilimini yangi pedagogik sharoitlarda va vaziyatlarda ishlatish qobiliyatiga asoslangan bilim muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu yondashuvda pedagogik oliy ta’lim muassasalarida talabalari uchun ham umummatematik, tabiiy-ilmiy ham kompyuter texnologiyalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan umumprofessional ta’lim yo‘nalishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayonlarida va alohida ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bilim berilishida kompyuter texnologiyalarining ishlatilishi talabalarning professional imkoniyatlarini oshiradi. Kelajakdagi o‘qituvchining pedagogik madaniyati professional bilim, yuqori imkoniyatlar va tajribalarni o‘z ichiga olgan “axborot kompetensiyasi”ga ega bo‘lishi lozim. Ushbu mavzuda asosiy atamalar “kompetensiya (vakolat)”, kompetentlik”, axborot kompetensiyasi”, “professional kompetentlik” va “axborot kompetentligi”dir.

Ushbu atamalar ilmiy va o‘quv adabiyotlarida, normativ va har kunlik leksikada faol ishlatilishi bilan, ularning mazmun-mohiyati bugungi kunga qadar har hil talqin qilinmoqda. “Axborot kompetentligi” tushunchasiga aniqlik kiritishdan oldin “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining mazmun mohiyatini aniqlash lozim. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari keng yoritilgan. Yetakchi olimlarning izlanishlari



tahlil qilinishi “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalariga yangi yondashuvlarni aniqlash imkoniyatlarini yaratmoqda.

Ushbu fikrlarini umumlashtirgan holda kompetensiya mutaxassisning har xil bilim va ko‘nikmalari yig‘indisi, kompetentlik esa umumiy bilimlarilari va ularning faoliyatga tayyorligida nomoyon bo‘ladigan shaxsning integral sifati deb qabul qilishimiz mumkin. Ta‘lim natijasiga va kompetensiyani belgilangan maqsadga erishish uchun sub'ektning o‘z resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish masalalari olimlar asarlarida o‘z aksini topgan. Umuman olganda tarkibiy, maqsadli va faoliyati jihatidan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari ta‘lim sohasida ishlatishda mohiyatini aniq belgilash imkoniyatlarini yaratadi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarning tahlili “kompetensiya” tushunchasi umumlashtirilgan ko‘rinishini aniqlash imkoniyatlarini yaratadi, ya‘ni o‘zini samalari professional nomoyon etishga yo‘naltirilgan oliy ta‘lim muassasalarida olingan bilim va ko‘nikmalar jamlanmasi degan xulosa kelib chiqadi. “Kompetentlik” esa ta‘lim va professional masalalarini hal qilish uchun oliy ta‘lim muassasalarida olingan va rivojlantirilgan kompetensiyalarni ishlatish qobiliyatidir. Axborot kompetensiyasini professional masalalarni hal qilish uchun axborot texnologiyalari sohasida olingan bilim va usullar yig‘indisi sifati qabul qiladi. Ilmiy va metodik adabiyotlar tahlili natijasida axborot kompetensiyasini professional maqsadlarga erishish uchun kompyuter texnologiyalari yordamida olingan bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi deb hulosa qilishimiz mumkin.

Oliy ta‘lim muassasasi me‘yoriy xujjatlari va amaliyotiga “professional kompetentlik” degan tushuncha kirib kelgan. Tadqiqotchilar ushbu atama bo‘yicha ham har xil yondashuvga ega. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda “professional kompetentlik” ga) ish samaradorligini aniqlaydigan bilimlar yig‘indisi mehnatga amaliy va nazariy jixatdan tayyorgarlik birligi professional shaxsiy fazilatlar va bilimlar kompleksi keltirilgan va boshqa izohlar har xil bo‘lganligi bilan ularda leksik umumiy kognitiv va xissiy elementlar mavjud.

Ushbu izohlarni umumlashtirib, “professinal kompetentlik”ni pedagog professional faoliyatini olib borishda samalari loyihalashtirish uchun lozim bo‘lgan integratsiyalashgan bilim, ko‘nikma va tajribalar yig‘indisi deb tushinamiz.

Shunday qilib pedagogika va ta‘limning doimiy tushunchaviy yangilanishi yangi xar xil ko‘rinishda talqin qilinayotgan “kompetensiya”, “kompetentlik”, axborot kmpotentlik” kabi tushunchalarning mohiyatini tushinib yetish bilan



birgalikda amalga oshirilishi ta'kidlab o'tishimiz lozim. Shuning uchun zamonaviy pedagogika fanida kompetensiya va kompetentlikni tasniflash masalasi muammo bo'lib qolmoqda. Bugungi kunga qadar kompetensiyaning yagona tasnifi mavjud emas. Talabada oliy pedagogik ta'limni olayotganda qancha va qanaqa kompetensiyalar shakllanishi to'g'risida yagona fikr yo'q. Ilmiy adabiyotlarda kompetensiya quyidagi guruxlarga ajratiladi:

**Professional kompetensiya.** Chet el adabiyotida bilim va ko'nikmalar asosida metodik to'g'ri va vaziyatni to'g'ri baholagan holda vazifa va muammolarni maqsadli yechishga tayyorgarlik holati deb qayd etilgan. Olimlar ta'lim olish sohasida professional ko'nikmalar, texnologiyalar va metodlar deb tushiniladi.

**Asosiy (bazaviy kompetensiyalar.** Abstrakt mavzularda fikrlash, analiz va sintez qilish, lider bo'lish, vazifa va muammolarni yechish, moslashish, jamoada va alohida ishdash deb tushiniladi. Umuman olganda bu xamma odamlar uzining professional darajasidan qat'iy nazar ega bo'lishi lozim bo'lgan kompetensiyalar.

**Ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalar.** Shaxsning o'ziga, boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda, jamiyatda tegishli bo'lgan kompetensiyalar yig'indisidir.

**Axborot kompetensiyasi.** Kompyuter texnologiyalari yordamida professional faoliyatida samarali ish yuritishga yo'naltirilgan bilim, ko'nikmalar va faoliyat turlari yig'indisi sifatida tushiniladi.

Shuni aytib o'tish joizki, ushbu kompetensiya guruxlariga xar hil asoslar keltirilgan. Birinchidan, xamma shaxslarga tegishli bo'lgan hamda aniq tavsifiga (sifatlari) yo'naltirilgan. Ikkinchidan, bu kompetensiya guruxlari asosida amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv mavjud va bunga axborot kompetensiyasi ham kiradi.

Axborot kompetentligining asosiylariga quyidagilar ajratiladi:

**Rag'batlantiruvchi, qiymatli** (talabaga qiymatni tushinib yetish sharoitlarini yaratish). Asosiy qiymatli yo'nalishlarni tanlashga yordam beruvchi, o'z ishiga va xayotiga ta'sir ko'rsatuvchi shaxsning rag'batlantiruvchi xissiyotlarini tavsiflaydi.

**Professional faoliyat.** Axborotni ishlatish, ta'limiy ma'lumotlarni izlashning zamonaviy metod va usullariga egalik qilish, xar xil manbalardan ma'lumot topish qobiliyati, ma'lumotlarni umumlashtirish va guruhlarga ajratish qobiliyati, olingan ma'lumotlarni professional pedagogik faoliyatida ishlata olish qobiliyati.

**Texnik-texnologik.** Ma'lumotlarni izlashni avtomatlashtirish va ma'lumotlarni qayta ishlashda texnik vositalarni ishlash prinsipini, imkoniyatlari va cheklovlarni



tushinish, ularning asosiy tasnifiga ko‘ra klassifikatsiyalash va uni yechish uchun texnik vosita turini tanlash.

Kommunikativ. Ikkinchi shaxsga ma’lumotlarni berishda (verbal, noverbal), rasmiy va tabiiy tillarni bilishda texnik vositalarni ishlata bilish, tushinish va ishlatish.

Operatsion (tezkor). Kommunikativ, metodik, tashkiliy va konstruktiv faoliyatida aks etadigan.

Bizning fikrimizcha, keltirilgan elementlardan umumlashtirgan holda foydalanish kelajakdagi talabalarning axborot kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga olib keladi. Axborot kompetentligi barcha elementlarini maqsadli shakllantirish pedagogika oliy ta’limi muassasalarida yetuk professional mutaxassislarini tayyorlashda yordam beradi. Shunday qilib, axborot kompetentligi mohiyati va tuzilmasini o‘rganish, nazariy yondashuv tahlili plyuralizm fikrlari mavjudligini, “kompetensiya”, “kompetentlik”, “axborot kompetensiyasi”, “professional kompetentlik”, “axborot kompetentligi” atamalarining turlicha izohi borligini va ushbu yangi atamalar pedagogika ta’limida tadqiqot predmeti hamda ta’lim amaliyoti ko‘p qirrali dastur sifatida qabul qilinishini ko‘rishimiz mumkin.

Biz “kompetensiya” atamasini pedagogik ta’lim muassasalarida o‘qish davrida olingan, o‘zining samarali professional faoliyatiga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va faoliyat usullari sifatida qabul qilamiz. Kompetentlik esa oliy ta’lim muassasalarida ta’lim va professional vazifalarni yechish uchun olingan kompetensiyalarni ishlatish qobiliyati sifatida tushinamiz.

Professional kompetentlik atamasini biz pedagogga professional faoliyatini samarali loyihalashtirish va amalga oshirishga yo‘naltirilgan integratsiyalashgan bilim, ko‘nikma, tajriba va shaxsiy sifatlar yig‘indisidir.

“Kompetensiya”, “kompetentlik” va “professional kompetentlik” atamalarini tushinib yetish pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining axborot kompetentligi atamasini tushinishga olib keladi. U integrativ sifat ko‘rinishida axborot texnologiyalari sohasida yuqori darajadagi nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar, ularni asosiy oliy ta’lim dasturini o‘zlashtirishda foydalanish va ishlatish qobiliyatida, o‘quv tarbiyaviy jarayonlarda axborot texnologiyalaridan foydalanishga tayyorgarligida o‘z aksini topadi.

Ushbu izohdan kelib chiqib, pedagogika oliy ta’lim muassasasida talabanning axborot kompetentligi tuzilmasida o‘zlashtiriladigan axborot kompetentligi



jamlanmasini ajratishimiz mumkin. Terminologik kompetensiya, ma'lumotlarni qayta ishlash, standart vositalarga egalik qilish kompetensiyasi, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv ishlarini tashkil etish sohasidagi kompetensiya.

Axborot kompetentligi tuzilmasini aniqlash bo'yicha yondashuvlarga sistematsiyalash, ularning asosiy qismlarini, rag'batlantiruvchi-qiymatli, professional faoliyatli, texnik-texnologik, kommunikativ va tezkorlik komponentlarini ajratishga imkon beradi.

Ta'lim amaliyotiga kompetentlik yondashuvning joriy etilishi jaxon tendensiyalariga mos keladi va ta'limni innovatsion rivojlantirish talablariga javob beradi va “bilim-ko'nikma-tajriba” instrumental-pedagogik usul bilan yetarli darajada moslashadi.

Ta'lim standartlarining yangi avlodiga “kompetensiya” normativ talabini joriy etish talabalarning kompetensiyalarini bilish, ishlatish va rivojlantirishga urg'u berilishini anglatadi hamda o'quv, professional faoliyatida shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy, professional vazifalarni hal etishga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. S.S. Kosimov Axborot texnologiyalari. Toshkent – “Aloqachi”-2006
3. Begimqulov.U.Sh.Pedagogik ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari va istiqbollari // “Info. Kom Uz” jur. № 3, 2006.- 64-65 betlar.
4. Н.Н. Азизходжаева Педагогические технологии в подготовке учителя. Ташкент, 2000.
5. И.А. Аллаёров Дидактические основы активного обучения управленческим дисциплинам. — Ташкент: Фан, 1994.
6. С.С. Косимов Ахборот технологиялари. Тошкент – “Алоқачи”-2006.
7. Б.Ю.Ходиев, Б.А.Бегалов и др. Введение в базы данных и знаний. Тошкент.- 2003
8. Даутова О.Б. Современные педагогические технологии в профильном обучении [Текст]: учеб.метод. пособие для учителей / О.Б. Даутова О.Н. Крылова; под ред. А.П. Тряпицыной. СПб. КАРО, 2006 — 176 с.

## Kapital eksporti-xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ilg‘or shakli sifatida

**Yaxshimuratova Xasiyat**  
**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**  
**To‘rtko‘l fakulteti assistant-o‘qituvchisi**  
**Razzaqberganov Asrorbek**  
**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**  
**To‘rtko‘l fakulteti talabasi**

**Annotatsiya:** Kapitalni xorijga chiqarish, uning davlatlar orasida faol migratsiyasi zamonaviy jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng muhim ajratib turuvchi tomoniga aylandi.

Kapital olib chiqish jahon xo‘jaligining chuqur rivojlanishi davrida tovar olib chiqish monopoliyasini sindirdi. Tovar olib chiqishni to‘ldiruvchisi va uning vositachisi bo‘lib, kapital olib chiqish xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida aniqlovchi omilga aylanib bormoqda. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (IHRT) baholashiga qaraganda, 80-yillardan boshlab to‘g‘ridanto‘g‘ri yo‘natirilgan investitsiyalarning yillik o‘sishi taxminan 34-35% ni tashkil etib, xalqaro savdo o‘shidan qariyb 5 marta ko‘proqdir. Kapital olib chiqish ma‘lum bir milliy davlat o‘z aylanmasidan bir qism kapitalni olib, uni boshqa bir davlatning ishlab chiqarish jarayoniga va aylanmasiga tovar yoki pul formasida joylashtirishida namoyon bo‘ladi. Dastlabki yillarda kapital olib chiqish jahon xo‘jaligi preferiyasiga kapitalni eksport qiladigan kam sonli sanoati rivojlangan davlatlarga xos bo‘lgan xolos edi. Jahon xo‘jaligining rivojlanishi esa bu jarayon doirasini sezilarli ravishda kengaytirdi, natijada kapital chiqarish har qanday muvaffaqiyatli, dinamik rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotning funktsiyasi bo‘lib qoldi. Hozirgi kunda kapitalni ilg‘or sanoati rivojlangan davlatlar ham, o‘rtacha rivojlangan davlatlar ham, rivojlanayotgan, ayniqsa “yangi industrial” davlatlar ham chiqarmoqdalar.

**Kalit so‘zlar;** Kapital, kapital bozor, xalqaro kapital migratsiya, Xalqaro sanoat kooperatsiyasi, aksionerlik kapitali, milliy moliya bozori, kapitalning importyori ba eksportyori.





**Asosiy qism:** Kapital olib chiqishning asosiy sababi uning ma'lum bir davlatlarda "nisbatan" ortiqcha bo'lib qolishligidir. Ishbilarmonlik foydasi yoki foiz olish maqsadida kapital chet elga chiqariladi. Kapital eksporti ichki investitsiya uchun kapital yetishmagan holda ham amalga oshirilishi mumkin. 90-yillarda umumjahon bo'yicha ortiqcha kapital 180-200 mlrd. dollarga teng deb baholangan edi. XX asrning ikkinchi yarmidan so'ng chetga kapital chiqarish tinimsiz o'sib bordi. Kapital eksporti hozirgi kunda o'sish sur'atlari bo'yicha tovar eksportini ham, sanoati rivojlangan davlatlarda yalpi ichki mahsulotning o'sish darajasini ham orqada qoldirmoqda. Kapital olib chiqish masshtabining keskin kengayishi xalqaro migratsiyaning kuchayishiga olib kelmoqda. Xalqaro kapital migratsiyasi- kapital egasi uchun foyda keltiruvchi, davlatlar orasidagi qarama-qarshi harakatdir. Har bir davlat bir vaqtning o'zida kapitalning importyori va eksportyori bo'lib hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida katta foyda uchun kapital olib chiqishning eng muhim sabablari quyidagilardan iboratdir:

- kapital olib chiqilayotgan davlatda uning ortiqcha to'planganligi jahon xo'jaligining turli zvenolarida kapital talabi va taklifining mos kelmasligi;

- mahalliy bozorni monopolizatsiya qilish imkoniyati mavjudligi; kapital eksport qilinadigan davlatda arzonroq xom-ashyo va ishchi kuchining mavjudligi;

- barqaror siyosiy holat va umuman qulay investitsion muhitning mavjudligi. Amaliy hayotda investitsiya qilish zaruriyati o'zida investitsion muhitning barcha qismlarini mujassamlashtirgan sabablar kompleksi va shuningdek ayrim bozorlarning nisbiy ustunligi tamoyillari bilan belgilanadi. Kapital olib chiqishga sabab bo'luvchi va uni rag'batlantiruvchi omillar quyidagilardir:

1. Kapital olib chiqishni faollashtiruvchi, harakatlantiruvchi kuch bo'lib milliy iqtisodiyotlarning o'sib borayotgan o'zaro bog'liqligi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning baynalminallashuvi xalqaro kapital harakatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kapital eksportining bosh omili bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalar ishlab chiqarishni xalqaro ishlab chiqarishga aylanishi va huningdek xalqaro mahsulot yaratishidir. Xalqaro mahsulot-global xalqaro bozorda otiladigan mahsulotdir. U unifikatsiya qilingan va geografik joylashishi, milliy yoki boshqa o'ziga xosliklardan qat'iy nazar sotiladi (avtomobillar, samolyotlar, radioelektronika, komp'yuterlar, asbob-uskunalar va h.k.lar).

2. Xalqaro sanoat kooperatsiyasi, transmilliy korporatsiyalarning sho'ba korxonalariga qo'yiladigan qo'yilmalari.

3. Sanoati rivojlangan davlatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlarini ushlab turish, sanoatning ilg'or sohalarini rivojlantirish, bandlik darajasini saqlash uchun sezilarli hajmda kapital jalb qilishga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosati.

4. Xorijiy kapital jalb qilish yordamida o'z iqtisodiy rivoji uchun sezilarli turtki berish, “kambag'allik doirasidan” chiqib ketishga harakat qilayotgan rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy o'z-o'zini tutishi.

5. Ekologiya omillari sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro korporatsiyalar qattiqlashayotgan ekologik normalar tufayli ishlab chiqarishni sanoati rivojlangan davlatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirishi.

6. Kapital oqimini yo'naltiruvchi va tartibga soluvchi xalqaro moliyaviy tashkilotlar muhim rol o'ynashi.

Jahon ho'jaligida kapital olib chiqish asosan quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- sanoat, savdo va boshqa korxonalariga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalar;
- portfel investitsiyalar (xorijiy obligatsiyalar, aktsiya, qimmatbaho qog'ozlar);
- suda kapitalining sanoat va savdo korporatsiyalari, bank va boshqa moliyaviy tashkilotlariga o'rta va uzoq muddatli kreditlari yoki zayomlari;
- iqtisodiy yordam- tekinga va imtiyozli kreditlar shaklida (foizsiz, kam foizli).

Jahon iqtisodiyotida kapital ko'chishi va xorijiy investitsiyalar o'rtasida aniq farq belgilangan. Kapital ko'chishi quyidagilarni o'z ichiga oladi: xorijiy hamkorlar bilan operatsiyalar bo'yicha to'lovlar, zayomlar berish (5 yildan ortiq bo'lmagan muddatda), faqat kapital joylashtirish maqsadida xorijiy kompaniyalarning aktsiya, obligatsiya va qimmatbaho qog'ozlarini sotib olish, qimmatbaho qog'ozlar Portfelini diversifikatsiya qilish va x.k.lar. Xorijiy investitsiyalar bu kapital qabul qiluvchi davlatda kompaniya ustidan nazorat o'rnatish va uni boshqarishda ishtirok etish maqsadida kapital ko'chirishdir.

To'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalar shaklida kapital olib chiqish bu kapital qabul qiluvchi davlat xududida kapital eksportyori tomonidan ishlab chiqarishni tashkil etishini bildiradi. Bu shuningdek, kadrlarni tayyorlash va o'qitish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga raqobatchilik ta'siridir. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar xalqaro korporatsiyalarning jahon xo'jaligidagi xukmronligining





asosini tashkil qiladi. Ular korporatsiyalarning xorijiy korxonalariga to‘liq egalik qilishi yoki aksionerlik kapitalining amalda egalik qilishiga imkoniyat beradi. Odatda, bu shunday investitsiyalarki bunda xorijiy investor kompaniyaning aksionerlik kapitalining 25% dan kam bo‘lmagan miqdoriga egalik qiladi. AQSH, GFR, Yaponiyaning statistika boshqarmalari aksionerlik kapitalining 10% i va undan ko‘prog‘ini o‘ziga olgan investitsiyalarni To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar deb hisoblaydi. P.X.Lindertning fikricha, “To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va portfel investitsiyalari orasidagi farq avvalambor kapital qo‘yiladigan firma ustidan nazorat qilish muammosiga borib taqaladi”.

Portfel investitsiyalari yirik korporatsiyalar, markaziy va xususiy banklar tomonidan chiqariladigan obligatsiya zayomlarini moliyalashtirish uchun xorijiy kapitalni jalb qiluvchi muhim manbadir. Xorijiy portfel investitsiyalarini jalb qilishda odatda yirik investitsion banklar vositachilik qiladi. Portfel investitsiyalarning harakatiga ko‘p jihatdan alohida davlatlarda obligatsiyalar uchun to‘lanadigan foiz stavkalaridagi farq ta‘sir qiladi. Jahon iqtisodiyotida 50-yillardan keyingi davrda kapital eksporti strukturasi sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berib jahon xo‘jaligi rivojlanishining o‘ziga xos tomonlarini namoyon qildi. Ulardan eng muhimi 70-80-yillarda xalqaro kreditlarning o‘sishi va kapitalning kredit-moliya sohasini paydo bo‘lganligidir. Iqtisodiyotda ssuda kapitalining roli keskin oshdi. Xalqaro ssuda kapitali bozori: a) pul bozori; b) kapital bozoriga bo‘linadi. Pul bozori – bu asosan qisqa muddatli kreditlar (1 yilgacha) bozoridir. Bunday kreditlar odatda aylanma mablag‘lar yetishmovchiligini qoplash uchun ishlatiladi. Kapital bozori esa o‘zida bank kreditlari va uzoq muddatli kreditlarni namoyon qiladi. Ular asosan obligatsiyalar chiqarish va sotib olishda namoyon bo‘ladilar.

Sanoati rivojlangan davlatlar tomonidan tekin yoki imtiyozli kreditlar shaklida ko‘rsatiladigan iqtisodiy yordamni biz jahon davlatlariga yordam berish bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda (Yaponiyadan keyin) turadigan AQSH misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Masalan, “Xorijiy davlatlarga yordam xaqidagi” qonunga muvofiq, AQSH 1998 moliyaviy yilda yordam uchun 13 mlrd. dollardan ortiq assignatsiya qilgan edi (uning 76% iqtisodiy va 24% harbiy maqsadlarga ajratilgan). Bu davrda kredit oluvchilar ro‘yxatida birinchi o‘rinda Isroil (3 mlrd. doll.) turgan bo‘lsa, ikkinchi o‘rinda Misr (2,1 mlrd.doll.) turgan. Ko‘rsatilgan ushbu yordamning 65% ni tekin va 35% ni imtiyozli ko‘rinishdagi kreditlar). Xorijiy mamlakatlarga iqtisodiy yordamning ko‘rsatishdan maqsad AQSH milliy



xavsizligini ta'minlash, davlatlarga ochiq bozor iqtisodiyoti tizimini o'rnatish va shuningdek demokratiyani rivojlanishiga yordam berishdir.

Jahon iqtisodida kapital olib chiqish asosan sanoati rivojlangan davlatlardan olib chiqiladi. Sanoati rivojlangan davlatlar o'rtasida ham kapitalning faol migratsiyasi ro'y bermoqda. Sanoati rivojlangan davlatlar doirasida ro'y berayotgan kapital migratsiyasini bir necha xolatlarida ko'rib chiqishimiz lozim:

“Uchlik” davlatlar o'rtasidagi kapital migratsiyasi (AQSH - G'arbiy Yevropa-Yaponiya) o'rtasida. Alohida sanoati rivojlangan davlatlar o'rtasidagi kapital migratsiyasi. Sanoati rivojlangan davlatlarning bir xil sohalari o'rtasida ro'y berayotgan kapital migratsiyasi. Kapital migratsiya o'z sub'ektlari nuqtai nazaridan makro va mikro darajalar bilan farqlanadi. Makro daraja- bu, kapitalning davlatlararo oqimi bo'lib, statistikada u davlatlarning to'lov balansida tasvirlanadi. Mikro daraja – bu, kapitalning xalqaro monopoliyalarda ichida korporatsiyalar ichki kanallari orqali ro'y berayotgan harakatidir. Jahon tasnifida eng yirik kapital “donorlari” bo'lib Yaponiya (53%), Shveysariya va Tayvan hisoblanasa, eng yirik “zayomchilar” esa – AQSH (27%), Buyuk Britaniya, Meksika va Saudiya Arabistoni hisoblanadi. Kapital olib chiqishning zamonaviy alomatlari orasida ishlab chiqarish kapitali eksportining o'sib borayotgan ahamiyatini ajratib ko'rsatish lozim. Ishbilarmonlik faoliyatida portfel investitsiyalar qatnashishdan to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarga o'tdi. 50-yillardan boshlab to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalarni qazib chiqarish sanoatidan qayta ishlash sanoatiga, shuningdek hozirgi kunda yillik hajmining 50%dan ortig'i to'g'ri kelayotgan xizmat sohasiga yo'naltirishi ro'y bermoqda. To'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarning tendentsiyasida sezilarli o'zgarishlar ro'y bera boshladi: 1990 yilda bank zayomlari summasi 468 mlrd. doll.ni tashkil etdi, qimmatli qog'ozlar bozorida esa investitsiyalar 756 mlrd. dollarni tashkil etib, 1993 yil oxirida bu nisbat xususiy kapital to'plangan fond bozori hisobiga keskin o'zgarib, 2.3 trln. doll. kapital bozorini tashkil etdi.

90-yillarda kapital bozorlarini baynalminallashuvi jarayonining asosiy xususiyati namoyon bo'ldi. Agar 70-80- yillarda baynalminallashuv jarayoni asosan rivojlangan bozor iqtisodiyotidagi davlatlarni qamrab olgan bo'lsa, 90-yillarda u rivojlanayotgan davlatlarni ham birinchi navbatda Osiyo-Tinch okeani mintaqisi va shuningdek, Lotin Amerikasi davlatlariga ham tarqaldi. Bu esa albatta ushbu davlatlarning moliyaviy salohiyati, valyuta ahvolidan mustahkamlanishi va



ularning kreditga layoqatligini o‘shishi, milliy moliyaviy bozorlarining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan edi. Jahon iqtisodiyoti va XIMda 80-90 yillarning muhim tomonlaridan biri rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasida va ayniqsa “yangi industrial davlatlar” o‘rtasida kapital migratsiyasining faollashuvidir. Kapitallar bozorida hamon neft eksportyor

- davlatlari tashkiloti (OPEK) faoldir. Masalan, Quvayt xususiy sektorining xorijdagi investitsiyalari 1995-yilda 100 mlrd. doll.ni tashkil etib, o‘z navbatida davlat qo‘yilmalari 30 mlrd. doll.ga yetgan. 90-yillarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirayotgan investitsiyalarning hajmlari asosan rivojlanayotgan davlatlarga to‘g‘ri kelib 1993-yilda 65 mlrd. doll.ni, 1994 yilda 74 mlrd. doll.ni tashkil etgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Чеботарев Н.Ф. Мировая экономика и международные экономические отношения. Учебник для бакалавров / Н.Ф.Чеботарев.- М.:Дашков и К, 2013.

2. Мороз И.И. Мировая экономика и международные экономические отношения (для бакалавров) / И.И.Мороз.-М.: КноРус, 2013.

3. Nazarova G.G., Xaydarov N.X. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2007.

4.www.globfin.ru - Jahon moliya bozori bo‘yicha taxliliy materiallar, maqolalar va yangiliklar portali.

5.Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2015

---

# Research Science and Innovation House

## Особенности курсового обучения русскому языку

Кариева Марина

Преподаватель Ташкентский государственный экономический  
университет

Джуманазаров Азизбек

Ташкентский государственный  
экономический университет

**Аннотация:** Общая характеристика основных особенностей курсового обучения; социальный заказ общества как основа типологии курсов РКИ; коммуникативная, практическая направленность обучения; узкая целевая установка, обусловленная устойчивой мотивацией учащихся; определение содержания и организации материала обучения; неофициальный стиль общения учитель-ученик, ученик-учитель.

**Ключевые слова:** Цель и задачи обучения на курсах общего типа определялись достаточно широко: поддержание владения языком, достигнутого в предшествующем этапе обучения; умение объясняться с российскими (советскими) гражданами и носителями русского языка; чтение газетных, журнальных текстов; знакомство с литературой по специальности.

Методы и приемы, используемые в курсовом обучении; суггестивный метод и современные методы курсового обучения; метод активизации резервных возможностей личности учащегося в процессе курсового обучения.

-Коллективные формы обучения РКИ; способы активизации пассивного владения языком; элементы проблемного обучения на курсах, тематичность и ситуативность курсового обучения.

-Интенсивность и интенсификация учебного процесса на курсах; психологические, лингвистические и психолингвистические, социологические и социолингвистические, дидактические и методические основы курсового обучения.

-Урок-занятие в курсовом обучении; достижение на каждом занятии осязаемого для учащихся продвижения в овладении русской речью; этапы овладения материалом; повторение; введение нового материала; первичное



закрепление как начальная активизация; собственно активизация; обобщающий этап, творческий этап.

Модель поведения преподавателя в курсовом обучении; неофициальный стиль общения; организация и режиссура речевого общения на занятии с учетом ситуации и личности учащегося; приемы и формы подачи, контроля текущего и итогового материала; модель поведения учащегося в курсовом обучении.

Основы практического курса русского языка. Психологические основы обучения РКИ; место психологии в обучении иностранному языку; деятельностный подход к обучению иностранному языку; теория поэтапного формирования умственных действий в обучении иностранному языку; управление усвоением языка; речевой навык и речевое умение; прогнозирование различных типов интерференции. Обучение аудированию русской речи как виду речевой деятельности; психологическая, психолингвистическая характеристика аудирования; лингвистическая характеристика аудирования как пассивный аспект речевой деятельности; роль и место аудирования на начальном и продвинутом этапах; основные принципы построения системы упражнений для обучения аудированию на разных этапах обучения; контроль навыков и умений аудирования. Психологическая, психолингвистическая модель говорения как вида речевой деятельности; лингвистическая модель как активный аспект речевой деятельности; модель порождения высказывания; формы устной речи: монолог и диалог; основные принципы системы упражнений по обучению монологической и диалогической речи на разных этапах обучения; контроль навыков и умений диалогической и монологической речи в курсовом обучении. Обучение чтению как виду речевой деятельности; психологические характеристики чтения на иностранном языке; типология видов чтения; система упражнений для обучения различным видам чтения; требования к текстовому материалу для обучения чтению на разных этапах обучения; контроль навыков и умения чтения.

Обучение письму как виду речевой деятельности; психологические характеристики письма; роль письма на разных этапах овладения языком; формы письменной речи на разных этапах обучения; система упражнений по обучению письму; контроль навыков и умений письма. Усвоение системы

языка в процессе речевой практики; механизмы языка и речи как основа овладения языком; синтаксическая основа всего языкового материала в практическом курсе и ее понимание на разных этапах обучения; соотношение языковых и речевых навыков и умений в усвоении речи на иностранном языке; языковая и речевая компетенция при обучении РКИ.

#### Список литературы:

1. Изаренков Д.И. Обучение диалогической речи. – М., 1981.
2. Кузьменко О.Д. Система упражнений учебного чтения //ИЯШ, 5, 1973.
3. Леонтьев А.А. Теория речевой деятельности на современном этапе //РЯЗР, 3, 1984
4. Яковчук, В. Н. Экономическая социология / В. Н. Яковчук. – Минск : МИТСО, 2005.
5. Экономико-социологический словарь / НАН Беларуси, Институт социологии; науч. ред. Г. Н. Соколова; [сост.: Г. Н. Соколова, О. В. Кобяк]. – Минск : Беларуская навука, 2013.

---

# Research Science and Innovation House



**“Qirq qizlar” hovlisidagi hasratlar ifodasi  
(“Mehrobdan chayon” romani misolida)**

**Madirimov Baxrom**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Tortko‘l fakulteti**

Abdulla Qodiriy ellik yetti faslli “Mehrobdan chayon” romanining har bir faslini o‘zgacha mahorat, jasorat va albatta o‘z halqiga qolaversa, kelajak avlodga yetkazishni niyat qilib, xonlik davri voqealarini bir –biridan mazmunli nomlagan fasllari orqali yetkazib berishni o‘z oldiga maqsad qilgan desak xato bo‘lmas. Fasllarni o‘qir ekansiz, voqealar rivojida og‘ir o‘yga, tushkunlikka, turli - tuman hasratlarning turfa xil ifodasiga, hasratlarni berkitish uchungina ishlatilgan hazillarni, turfa xarakterlarni, adolatni suyuvchi, aksincha adolat desa “nima u” deydigan din peshvolarini, asosiysi asarda yuz berayotgan voqealarning aniq sodir bo‘lganligiga shubha qoldirmaydigan bir-biridan qiziqarli va oqu-qorani ajratishga ko‘maklashuvchi voqealar bilan tanishasiz. Bir fasllar bor, faqat qayg‘u hukmronlik qiladi, yana birlari bor kayfiyatni chog‘laydi. Ammo romanda bir faslning o‘zida ham hasrat hamda hasrat berkitib turuvchi hazillarni o‘z ichiga olgan fasl bu “Qirq qizlar” faslidir.

Bu faslning hajmi kichkina bo‘lishiga qaramasdan unda umrining oxirigacha tanasiga yopishib qolgan dardda, soxta tabassumda, boshqalar uchun, o‘zi uchun hayotidan mamnun qiyofada, agar imkon bo‘lsa, kimsasiz joyda qashqirdan ham battar uvillashga tayyor bag‘ri qon qizlar hayotini ko‘rishimiz mumkin. Bu faslda aytilgan baytlar orqali Qirq qizlar hovlisida yashayotgan qizlarning tutqinlikdan dimiqqan hasratlari o‘zgacha yumorga aralashgan holda silliqqina berilgandek ko‘rinish kasb etadi. Biroq, diqqat bilan qaralsa, fikr qilinsa, bu faslda qizlarni holini faqat hasratda yashayotganini tasvirlayotgan adib ham xuddi kitobxonim ham bu hasratlardan bezor bo‘lmasin degandek shu faslda yumorga murojaat qilgan bo‘lsa ajabmas. Bu hovlida qizlar uchun barcha sharoitlar mavjud. Ularning ichida husnda ham ashulada va so‘zda ham zo‘rlari bor edi. Ammo bu hislatlarning xon uchun zarracha ahamiyati yo‘q, bu qizlar sovib qolgan oshdek bo‘lib qolaveradi.

“ Cho‘ri ismi bilan haramga kelgan kunlari har birlari ham xonning «iltifotiga»ga bir-ikki martabagina «loyiq» ko‘rilib, so‘ngra «qirq qizlar» ichiga havola qilingan edilar”. Ushbu satrlardan xonning bu qiliqlari ayol-qizlarga bo‘lgan

barcha turdagi tahqirlarning cho‘qqisi ekanligini anglab olish qiyin emas. Biroq ushbu jihatlarni bugungi kun tarozisida tortib ko‘rsak aniqki, bu o‘sha davr uchun oddiy holat deb qaralishi mumkin. Mayli, bugungi kunda oddiy hol bo‘lgan bu holat o‘sha davr odamlari, «qirq qiz»da yashayotgan biron qizning oilasi, ota-onasi, yaqinlari, mahalla ko‘y oldida qanchalik mudhishligini anglash juda ahamiyatli jihatlardan deb hisoblaymiz. Axir bu jarayonning muttasil davom etishi eng avvalo xalq uchun, qolaversa, xonlik boshqaruviga bo‘lgan ishonchsizlikning ortishiga, alaloqibat esa xonlikning parokandaligiga olib borishini gumon qilish uchun juda ilmi bo‘lish shart bo‘lmasa kerak.

Qirq qizlar hovlisida yashayotgan qizlarning o‘z hasratlari kamdek ayrim bazmlarda Nazmi ismli qizni eslab xatto uni qumsab ko‘z yoshlari bilan faryodlari, fig‘onlari ikki karra oshib ham turardi.

“ Keyingi baytlar og‘ir bir foji’ani tasvir qildilar: oylar yillar yig‘lagan, hasratidan hushsiz yiqilgan baxtsiz bir qizning jon-so‘z faryodini gavalantirib ko‘rsatdilar. Bu o‘runda sho‘x kuy lobargina qilib bir hasratka tarjimonliq etdi. Yuqoridan boshlab o‘ynoqi ruhda kuylab kelgan qizlar va doim nozu karashmada bo‘lg‘an o‘rtadag‘i o‘yunchi ham bundagi og‘ir ma‘noni o‘zicha olishqa tirishdilar...

Oy-u yillar yig‘lag‘an, bag‘ri har dam tig‘lag‘an,

Hasratidan big‘lag‘an, baxtsiz bir qiz Nazmidir!

Baxtsiz bir qiz Nazmidir!

Ushbu satrlardan bu qizlar baxtsiz Nazmining holiga achinib yig‘layotgandek, insoniylik hislatlari mavj urganligidan deb ham o‘ylash mumkin. Ammo inson o‘z kelajagini oz bo‘lsada tahmin qilsagina yashashdan umidini uzmasligi mumkin. Ko‘rinadiki, xon bu qizlarning kelajak hayotlariga ham bolta urganligini payqash mumkin.

“Qirq qizlar” fasli aslida sho‘x hazillar tasviri bilan boshlanadi. Ammo o‘sha hazillar ostida nimalar borligini ishimizni boshida berishni joiz topdik.

Bu fasl dastlab hovlining nomi, unda yashovchilarning kasb-korlari, kanizlarning umumiy soni haqidagi ma‘lumotlar bilan boshlanadi:

“Gulshanlar kirgan xavli «Qirq qizlar» deb atalar edi. Bunda xonning ko‘ngil ochishiga xizmat qilg‘uchi «Qirq qizlar» turar edilar. Bu havli undagi o‘yunchi, sozanda va navozanda hofizlarning sonidan olib «qirq qizlar» atalg‘an edi.

Xudoyorning haram kanizlari soni bir yuz elliy besh nafar bo‘lib, bulardan o‘n to‘rt nafar oq saroyda, sakkiz nafar O‘rmonbekka qarag‘uchi, o‘n nafar doyalar





huzurida, yigirma besh nafar shu «qirq qizlar»da va qolgʻanlari har qaysi xonimoyimlarning xizmatida edilar”.

Koʻrinadiki, kanizlar uchun qilingan shuncha shart –sharoitlar ularga oʻzlarining oddiy gʻaribona kulbasidagidek sharoitlar roxatini bera olmas edi. Negaki, ular tutqin, ammo kimning qoʻlida? kuyovini yoki dushmanini, fikrimizcha eng ogʻriqli nuqta ham mana shu savolga javob topish. Bu faslda deyarli Gulshanning kelishidan qizlarning shoʻx savollaridan kitobxon bu faslda maroq bilan hazil eshitar ekanmiz deb ham oʻylab qoʻyadi:

“ Havli yuzida toʻp (koptok) oʻynagʻuchi «qirq qizlar»dan yeti-sakkizi Gulshan oldigʻa yugurdilar.

-Esonmisiz!

-Yelib yugurib hormang!

-Eringiz oʻlmadimi!

-Shahar yigitlari omonmi!...

Ushbu savollarning oʻziyoq, qizlarning naqadar hajvga oʻch boʻlib qolganliklarini, oʻzlaridan katta bilan ham shunday hazillasha olishlarini oʻzi ularning hayotidan juda baxtiyordek tasavvur paydo qilishga undaydi. Ammo bora-bora bu hazillar shunchalik zil boʻlib ketadiki, bunga ishonishni ham bilmay qolasan. Axir inson oʻz ichki figʻonlarini yutib – yutib albatta bir kun ado boʻlishini, bu baxti qarolar ham bilgan boʻlsa ajabmas, negaki ularning oralarida katta yoshlilari ham bor edi. Biroq bu faslda Gulshan ular uchun oz boʻlsada erkaliklarini koʻtaradigan kishisidek tasvir qilinadi. Gulshan ular bilan koptoʻk ham oʻynay ketadi, eshak mindiga ham aralashib ketaveradi. Aslida uning oʻzi ham goʻyo gaʻm-hasratlarini koʻptokka qoʻshib tepib-tepib xumordan chiqqan. Axir bu qizlarning bu yerga kelishida birinchi aybdor Gulshanning oʻzi boʻladi. Shu sabab, Gulshan qizlar uni hazillashib ne koʻyga solsalar ham chidashga ozʻini-oʻzi mahkum qilgan edi. Fasldagi dialoglar asosan uchta joyda kelgan boʻlib ularning hammasi hazilga yoʻgʻrilgan. Biroq barcha hazilomuz tasvirlarga, Gulshanning qizlar bilan hazillariga Nazmidan keltirilgan ikki bayt yakun yasaydi, keyin hamma qizlar oʻz yotish joyiga keta boshlaydilar.

Bu tasvir faslning oxirgi koʻrinishi boʻlgani bilan adib oʻsha zamonning nodir qizlari haramda ado boʻlayotganini, qolaversa, hozirda ozodlikda yurgan Raʼnoga ham urgʻu berayotgandek. Adib ushbu bobdagi personajlarning tabiatini, ruhiyatini hamda dard-faryodlarini hazil-mutoyiba, oʻyin-kulguga oʻragan holda ochib bergan.

Biroq, asarni o‘qish chog‘ida hazil bo‘lib tuyulgan tasvirlarning zamirida jiddiy ziddiyatlarga boy insoniy xarakterlar olami va shavqatsiz haqiqat yotadi.



Research Science and  
Innovation House





**ЎСМИРЛАРДА МИОПИЯНИ ЮКОРИ ДАРАЖАСИДА  
СКЛЕРОМАЛЯЦИЯНИ КЕЛТИРИБ ЧИКАРУВЧИ  
ХАВФ ОМИЛЛАРИНИ АНИҚЛАШ**

**Андижон Давлат Тиббиёт Институти**

**Д.Л. Жалолиддинов, Усманова Т.Ж. Икромов А.Ф**

**Аннотация.** Ушбу илмий мақолада ўсмирларда ривожланиб боровчи миопияни юкори даражасида склеромальяцияни ривожланишига таъсир кўрсатувчи хавф омиллари, уларни келиб чиқиши, этиологияси, патогенези, клиникаси, диагностикаси, асоратлари ва уларни бартараф этиш ҳамда даволаш усуллари кенг замонавий йўналишда таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** миопия, стафилома, конус, Фундус камера.

**ОПРЕДЕЛЕНИЕ ФАКТОРОВ РИСКА СКЛЕРОМАЛЯЦИЮ У  
ПОДРОСТКОВ С ВЫСОКИМ БЛИЗОРУКОСТИ**

**Андижанский Государственный Медицинский Институт**

**Д.Л. Жалолиддинов, Усманова Т.Ж. Икромов А.Ф**

**Аннотация.** Факторы риска, влияющие на развитие склеромалиции на уровне юкори, развивающейся близорукости у подростков в этой научной мақоле, их происхождение, этиология, патогенез, клиника, диагностика, осложнения и методы их устранения при лечении в ветчине были сведены в широком современном направлении.

**Ключевые слова:** близорукость, стафилома, шишка, камера глазного дна.

Research Science and  
Innovation House

## CAUSING SCLEROMALACIA IN ADOLESCENTS WITH HIGH LEVELS OF MYOPIA DETERMINATION OF RISK FACTORS

Andijan State Medical Institute  
Jaloliddinov D.L. Usmanova T.J. Ikramov A.F


**Annation.** Risk factors affecting the development of scleromalacia at the Yukori level, developing myopia in adolescents in this scientific field, their origin, etiology, pathogenesis, clinic, diagnosis, complications and methods of their elimination in the treatment of ham have been summarized in a broad modern direction.

**Key words:** myopia, staphyloma, lump, fundus chamber.

Миопия это нарушения рефракции в любом возрасте. Высокая миопия это (myopia alta) — близорукость, которой степень превышает более 6,0 диоптрий; Термин миопия происходит от греческого «myops» — щурящий глаза. Заболевание считается болезням 21 века. С каждым годом все большее количество людей вынуждены прибегать носить очки, контактные линзы и лазерной коррекции зрения или ласэктомии. Заметно возросло количество близоруких в людей особенно высокогорных районах. В Сеуле, столице Южной Кореи, близорукость у 96,5 % 19-летних молодых людей. 60 лет назад у 10–20 % населения Китая была близорукость, на сегодняшний день уже у 90 % подростков и молодых взрослых наблюдается склеромальция при миопия высокой степени. Рост заболеваемости склеромальция при миопия высокой степени есть и в других странах. По некоторым оценкам к концу текущего десятилетия с склеромальцией миопия высокой степеней будут страдать треть населения планеты. Наиболее распространенным в детском и подростковом, больных болеющим колитом, ревматизмом и. В настоящее время проблемы со зрением людей превышает до 43 %. А именно близорукость наблюдается у 80 % людей. Практически каждый третий нашей огромной планеты страдает близорукостью. Близорукие люди видят предметы, находящиеся вблизи, а объекты, расположенные на расстоянии видят нечетко. Предметы «расплываются».




**Целью** данного исследования явилось изучение факторы риска склеромальгии при миопия высокой степени. По срокам появления миопической рефракции глаз различают близорукость врожденную и приобретенную. Причем процент последний в несколько раз выше первой. Выделяют 3 степени миопии по силе нарушения: слабую — до 3.0 дптр, среднюю — 6.0 дптр, высокую — свыше 6.0 дптр. Различают миопию непрогрессирующую и прогрессирующую. Иногда миопия прогрессирует непрерывно, достигает высоких степеней (до 30.0–40.0 дптр.). Близорукость может прогрессировать медленными темпами и закончиться с завершением роста организма. Непрогрессирующая миопия хорошо корригируется, лечение не обязательно. Миопия, которая прогрессирует постоянно является причиной инвалидности. При миопии выше 6.0 дптр постоянное напряжение конвергенции, обусловленное близким расположением дальнейшей точки ясного зрения, является большой нагрузкой для внутренних прямых мышц, в результате чего возникает зрительное утомление — мышечная астигматизация. Растяжение заднего сегмента глазного яблока приводит к анатомическим и физиологическим изменениям. Происходят изменения глазного дна. Начальной стадии наблюдается миопический конус. Затем дистрофия сосудистой и сетчатой оболочек может перейти на всю окружность диска зрительного нерва, формируется ложная задняя стафилома, она способна распространяться на желтое пятно, приводит к резкому снижению зрения.



При склеромальгии миопия высокой степени в результате растяжения глаза в длину происходит истончение и уменьшение прочности оболочек глаза. Это приводит к помутнению стекловидного тела и образованию хориоретинальных очагов на глазном дне. Имеет значение образование



грубого пигментного очага, которое снижает остроту зрения. Кроме того, при этом также растягиваются кровеносные сосуды, проходящие через эти оболочки и питающие их. В результате нарушения циркуляции крови ухудшается доставка кислорода и питательных веществ в ткани глаза, что может привести к различным периферическим дистрофиям сетчатки. Самой опасной формой склеромальгация при миопия высокой степени оболочки глаза является отслойка сетчатки.



Симптомы отслойки сетчатки глаза - резкое и внезапное снижение зрения, появление искр и ощущение занавески перед глазами. Лечат отслойку сетчатки хирургическим путем с помощью лазера или криотерапией. Однако восстановить потерянное зрение редко удается, лечение в основном направлено на предотвращение полной потери зрения и прогрессирование заболевания. Кроме отслойки сетчатки и истончения сосудов, высокая близорукость опасна повышением внутриглазного давления, что часто приводит к повреждению зрительного нерва и развитию глаукомы.

Медикаментозные курсы направлены на предотвращение склеромальгации и отслойки при близорукости. Диагностика включает следующие действия: проведение визометрия, авторефрактометрия, осмотр глазного дна с помощью гониолинзы, проведение А-В сканирование глаза.



Проводят ОКТ сетчатки глаза.

**Материал и методы.** Под нашим наблюдением на протяжении 2 года находилось 175 больных (95 женщины и 80 мужчины) в возрасте 14-56 лет. Больные были разделены на 2 группы. Первая группа - контрольная - 80 человек с различной этиологии дистрофии сетчатки миопии высокой степени, которые по различным причинам в течение 6 месяцев не получали никакой специфической терапии. Вторую группу составили 55 человек, которые имеют общесоматическое заболевания.

**Результаты** проведенного исследования. Среди исследуемых показателей функционального состояния органа зрения наибольшая динамика отмечена со стороны остроты и поля зрения. О динамике со стороны сетчатки судили на основании данных А- сканирование, рефрактомерии и визометрии. У больных 1-2 групп выявлено выпадение поля зрения на  $32\pm 6\%$ . У пациентов первой (контрольной) группы отмечено прогрессивное ухудшение показателей поля зрения (центральной и парацентральной скотомы) на протяжении всего периода исследования. У пациентов второй группы после проведения курса лечения выявлялось незначительное уменьшение дистрофических очагов и центральных скотом. В течение всего периода исследования у большинства пациентов отмечалась стабилизация рефракции и поля зрения, а у части больных отмечено уменьшение рефракции и повышения остроты зрения.

#### **Выводы:**

Сегодня во многих странах разрабатываются вопросы лечения склеромальгия при миопии высокой степени глаза. Ученые активно изучают генетические предрасположенности, функциональную анатомию и биологию органов зрения, климатогеографические факторы, обмениваются достижениями в области рефракционной офтальмологии. Все это делает перспективу успешного лечения склеромальгия при миопии высокой степени.

1. Снижение концентрации суммарного белка в СЖ детей и подростков, повышение (относительно уровня общего белка) уровня лактоферрина и суммарного содержания иммуноглобулинов являются биохимическими маркерами прогрессирующей близорукости.

2. Кроме средовых факторов, многие отечественные и зарубежные авторы выделяют возможные локальные факторы риска развития миопии: - зрительно-напряженная работа на близком расстоянии; - транзиторная миопия при

рождении; - гиперметропия менее +0,5 диоптрий при поступлении в школу; - эзофория; - низкий запас относительной аккомодации; - рефракция роговицы выше средней; - высокий коэффициент ПЗО рефракция роговицы; - обратный астигматизм. Наиболее широкое признание получила трехфакторная теория патогенеза миопии Э.С. Аветисова, которая включает три ключевых звена:

- ослабление аккомодации, не справляющейся с чрезмерной зрительной работой на близком расстоянии, что является пусковым механизмом развития миопии;
- наследственную предрасположенность;
- ослабленную соединительно-тканную оболочку глаза – склеру, которая теряет свои нормальные опорные свойства и растягивается под воздействием внутриглазного давления.

#### Литературе

1. Журнал «Вестник офтальмологии». Москва, 2016
2. Нестеров А.П. Глаукома. Москва, 2008
3. Офтальмология. Системали ёндошиш. Жек Канский. 2005
4. Даниличев В.Ф. Современная офтальмология. Москва 2009

---

# Research Science and Innovation House



## Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni shakllantirishda mehnat faoliyatining amaliy ahamiyati

**Xusainova Feruza Kuronboyevna,  
Yuldasheva Nasiba Azadovna,  
Abdullayeva Yulduz Rustamovna  
Xiva pedagogika kolleji katta o‘qituvchilari**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni shakllantirishda mehnat faoliyatining amaliy ahamiyati xususida qimmatli fikrlar yuritilgan.

**Kalit so‘zlari:** Oila, ilk bolalik, ong, qadriyatlar, maktabgacha yoshdagi bolalar, ijodkorlik, mehnat, faoliyat, sog‘lom e‘tiqod

**Kirish.** Bolalarning mehnat faoliyatlarini o‘zida qamragan mashg‘ulotlar asosan Maktabgacha yoshidagi davrdan boshlanadi. Bu yoshda bolalarning mehnatlari juda soda va elementar bo‘lsa ham ularning psixik taraqqiyotlarida juda katta ahamiyatga egadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladigan suxbatlar natijasida bolalarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat, mehnat qilish dastavval bolalarning o‘yinlarida namoyon bo‘ladi[1].

Bolalar kattalarning mehnat faoliyatlarini o‘zlarining o‘yinlarida taqlidan takrorlash bilan cheklanib qolmay, balki kattalar mehnatida bevosita qatnashish uchun harakat qila boshlaydilar. Masalan, qiz bolalar onalari kir yuvayotganda suv tashish, ayrim kichikroq narsalarni (dastro‘molchalarni) chayishda qatnashadilar, uy va xovlilarni yig‘ishtirib supurishga, ug‘il bolalar esa otasi bajarayotgan ishga qatnashishga intila boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar mehnatining natijasi emas, balki mehnat jarayonining o‘ziga qiziqishi psixologik jihatdan xarakterlidir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Maktabgacha yoshdagi bolalarning ishiga baho berib borish ularda mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi. Bolalar kuchlari etadigan ishlarni bajarayotganlarida ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yishlari turgan gap. Lekin bunda bolalarni mehnatga jalb qilmaslik kerak, bolalarning bajariladigan ishlarini kattalarning o‘zlari bir pasda qilib qo‘yishlari mumkin, degan ma‘no kelib chiqadi. Sharq

xalqlarida bir maqol bor: “Bolaga ish buyur, ketidan o‘zing yugur”. Bu juda to‘g‘ri, xayotiy gap. Bu bolalarga biron yumush bajarilganda, uni qanday bajarayotganliklaridan ko‘z-quloq bo‘lib turishlari kerak, degan ma‘noni bildiradi.

Bolalarda, xususan, kichik yoshdagi maktabgacha bolalarda xali mehnat malakalari yo‘q, qo‘l muskullari yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Ana shuning uchun bolalar qasddan yoki anqovliklaridan emas, balki eplay olmasliklaridan biror narsani tushirib, sindirib yuborishlari mumkin. Ana shunday “falokat” yuz bergan paytda bolani “anqov, merov, ko‘zinga qarasang bo‘lmaydimi” deb urinishi yoki koyish yaramaydi. Buning o‘rniga bolaga shu mehnatni qanday qilib bajarishni ko‘rsatib berish lozim[2].

Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatsevarlik ruxida tarbiyalashda ularni inoq jamoaga uyushtirish katta ahamiyatga egadir. Jamoa bo‘lib mehnat qilishda tarbiyachi har bir bolaga ma‘lum bir mehnatni bajarishni buyuradi. Ana shu tariqa bolalar jamoa bo‘lib mehnat faoliyati bilan shug‘ullanadilar .

Masalan: katta guruh bolalari jamoa bo‘lib navbatchilik qiladilar. Bunda bir bola stolga dasturxon yozib chiqsa , ikkinchisi qoshiq va vilkalarni qo‘yib chiqadi, uchinchi bola esa stulchalarni qo‘yib chiqsa , to‘rtinchi bola stolga nonlarni qo‘yib chiqadi. Bog‘chada navbatchilikka o‘rgangan bolalar oilada ham yordamlashadigan bo‘ladilar.

**Tadqiqot ishining metodologik asosi (Research methodology).** Umuman o‘rta va katta yoshdagi Maktabgacha bolalariga oilada kuchlari etadigan mehnat topshiriqlarini berish kerak. Bu ularni mehnatsevarlik ruxida tarbiyalashda va ularni ayrim mehnat malakalarini xosil bo‘lishi uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi. Ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etadigan bolani keyinchalik mehnatga jalb qilish juda qiyin bo‘ladi.

Bog‘chada bolalar jalb qilinadigan mehnat faoliyatining turi juda xilma – xildir. Masalan; tabiat burchagidagi jonivor yoki o‘simliklarni parvarish qilish, Maktabgacha xovlisida ishlash, oshxonada va guruhda navbatchilik qilish, kichkintoylarni kiyintirishga yordam berish va boshqalar.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, kichik yoshdagi aktabgacha yoshdagi bolalar o‘zlarining mhxnat faoliyatlarini xali yo‘lga qo‘ya olmaydilar. SHuning uchun ular mehnatning juda sodda turlari bilan , ya‘ni o‘simliklarga suv quyish, baliqlarga ovqat berish, xovliga suv sepish va shu kabilar bilan shug‘ullanadilar.





O‘rta va katta guruh bolalari mehnat faoliyatini o‘yindan batamom farqlab, unga nisbatan jiddiy munosabatda bo‘la boshlaydilar. Ular mehnatdan kelib chiqadigan natijani, ya’ni mehnatning ijtimoiy mohiyatini, kim uchun, nima uchun lozimligini tushunadilar. Ular kattalarning oiladagi uy – ro‘zg‘or ishlariga zo‘r ishtiyoq bilan yondoshadilar, kichkintoylar uchun qog‘oz, karton paner va plastilindan turli o‘yinchoqlar yasaydilar. Pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilingan mehnat faoliyati bolalarning har tomonlama, ham jismoniy, ham psixik, ham estetik, ham axloqiy tomondan barkamol rivojlanishlariga juda katta ta’sir qiladi[3].

Maktabgacha yoshdagi bolalar biron o‘yin, ta’lim yoki mehnat faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lar ekan, ular asosida harakatga soluvchi mayllar yotadi. Kichik Maktabgacha yoshidagi bolalarning xatti – harakatlari amalga oshirilayotgan sharoitga bog‘liq bo‘ladi. Ular xatti – harakat motivlarini anglab ham etmaydilar. SHuning uchun ko‘pincha o‘zlaricha mutlaqo xisobot bermay, ma’lum bir vaziyatda u yoki bu xatti – harakatni amalga oshira boshlaydilar.

Bu yosh davrida bolalarning xatti – harakatlari va xulq – atvorlarining motivlari ham o‘zgarib, rivojlanib boradi. Katta yoshli maktabgacha yoshdagi bolalarining xatti – harakat motivlari to‘la anglangan motivlardan iborat bo‘ladi. Masalan; katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning xatti – harakatlari, xulq – atvorlari asosida yotgan motivlar har tomonlama kattta odamlarga o‘xshashdan iborat. Ular ana shunday kuchli mayl asosida taqlidiy o‘yinlarni, ta’limiy, ya’ni etakchi mashg‘ulotlarni va mehnat mashg‘ulotlarini tashkil qilib o‘tkazadilar. Bolalarning asosiy maqsadlari katta odamlar bilan o‘zaro munosabatni mustaxkamlashdir. Bolalar katta kishilar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatishga kirishar ekanlar, ular katta kishilarning buyurgan topshiriqlarini bajarishga, o‘rnatgan tartib qoidalariga so‘zsiz bo‘ysunishga xarakat qiladilar[7].

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Bolaning maktabgacha yoshidagi davrida o‘z qadr – qimmatini anglashi ham yuzaga kela boshlaydi. Bolalar bog‘chaga kelganda dastavval o‘z tengqurlarini sezmaslikka, payqamaslikka harakat qiladi. Keyinchalik turli o‘yin va majburiy mashg‘ulotlar davomida bolalar jamoasiga qo‘shilib, o‘z tengqurlarining xurmatini qozonishga harakat qiladilar, ya’ni boshqa bolalarga har tomonlama yaxshi ko‘rinishga intiladilar. Maktabgacha yoshidagi bolalar xatti-harakatlari motivlarining rivojlanishida axloqiy motivlarning roli nixoyatda kattadir. Bolalar o‘z xatti-harakatlarini anglaganlari sayin axloqiy qoidalarga rioya qilish motivlarining ya’ni

ijtimoiy axloqiy qoidalarga rioya qilish motivlarining o‘rni kuchayib boradi. Bolalar endi o‘zlarining egaistik manfaatlari yuzasidan emas, balki ijtimoiy manfaat nuqtai nazaridan harakat qilishga o‘rgana boshlaydilar. Masalan: bolalar o‘zlari yoqtirgan o‘yinchoqlarini boshqa bolalarga beradigan va xattoki o‘zlarini uyidan olib kelgan shirinliklarini bo‘lib beradigan bo‘ladilar. Shu tariqa bolalarda ijtimoiy motivlar rivojlana boshlaydi. Katta yoshdagi maktabgacha bolalar har doim kichik yoshdagi bolalarga yordam berishga, ya’ni ijtimoiy motivlar asosida harakat qilishga intiladilar. Birgalikda o‘yin o‘ynash xamjixatlikni, ijodkorlikni xam keltirib chiqaradi. Bu esa bolalarda ijodkorlikni shakllantirishda mehnat faoliyatining amaliy ahamiyatini to‘liq yoritib beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmatova M.SH. Xasanova SH.T. “Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faolyatga o‘rgatish metodikasi”. “Cho‘lpon”, T.: 2010
2. S.F. Abdirasilov “Tasviriy san‘at o‘qitish metodikasi”. T.:2012
3. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. T.:Tafakkur bo‘stoni, 2013
4. M.U. Hamidova, F.A. Karimova “Tasviriy faoliyatga o‘rgatish maxsus metodikasi” Toshkent-2014y
5. Norboyeva M. “Maktabgacha ta’limda ijodiy faoliyat asoslari” ma’ruzalar matni. Termiz-2018y
6. Umarova M.M. O‘smirlarda oilaviy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari: Dis.... psixol.fan.nomzodi: 19.00.05. – T.: 2004. – 166 b.
7. Razakova R. S., Mohida Q., Shahzoda Q. Bog ‘cha yoshi bolalarda nutq taraqqiyoti //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2024. – T. 2. – №. 1. – S. 73-79.
8. Saylaubekovna R. R. Fertil atamasi va fertil yoshdagi insonlarning psixologik xususiyatlari //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2023. – T. 1. – №. 3. – S. 21-24.



## “MONA LIZA” kim bo‘lgan?

**Oltmishev Tohirjon Turg‘unovich.**

A.Qodiriy nomidagi JDPU

Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi kafedrasi kata o‘qituvchisi

+998 91 591 49 46

**Qobiljonova Jasmina Jasur qizi.**

A.Qodiriy nomidagi JDPU

Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi 2-bosqich talabasi

+998 91 568 22 08

### **Annotatsiya**

Yuqori Uyg‘onish davri uslubining asoschisi va tipik vakili Leonardo da Vinchi san‘atning ko‘pgina turlarida o‘z kuchini sinab ko‘rdi, matematika, mexanika, fizika sohasida ilg‘or fikrlarni ilgari surdi. Uning har bir asari hayotni o‘rganish zamirida yuzaga kelgan, ijodkorning qalb harorati bilan isitilgan va hayotga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi asarlardir. Uning shox asari “Monna Liza” ham hozirgi kungacha barcha san‘at shaydolarini o‘yga cho‘mdirib kelmoqda. Asardagi obraz kimga tegishli ekanligi haligacha noma’lumligicha qolmoqda.

### **Abstract**

Leonardo da Vinci, the founder and typical representative of the Upper Renaissance style, tried his hand at many forms of art, advancing advanced ideas in mathematics, mechanics, and physics. Each of his works is based on the study of life, warmed by the heart of the artist and expresses his attitude to life. Her masterpiece, Monna Lisa, still haunts all art lovers. It is unknown at this time what he will do after leaving the post.

**Kalit so‘zlar:** Mona Liza, Leonardo da Vinchi, tasviriy sa‘at, portret.

**Keywords:** Mona Lisa, Leonardo da Vinci, fine art, portrait.



o'lchami 77 sm x 53 sm yog'och



**Mona Liza (Jakonda) 1503 yil ,  
moybo'yoq . Luvr (Parij).**

**Leonardo da Vinchi** (1452—1529). Leonardo da Vinchi Vinchi qishlog'i yaqinida, notarius oilasida dunyoga keldi. Leonardo 17 yoshlik paytida otasi Florensiyaga ko'chib o'tadi. Shu yerda Leonardo Andrea Verokkio ustaxonasida tasviriy san'at borasidagi bilimni oshirdi. U o'z ustози Verokkioga yordamlashib, uning «Isoni cho'qintirish» (tax. 1476 y., Florensiya, Uffitsi galereyasi) asarining chap tomonidagi farishta rasmini ishlaydi va ustozidan ham mohirligini ko'rsatadi.

#### **Avtoportret, Leonardo da Vinchi 1514 yil**

Yuqori Uyg'onish davri uslubining asoschisi va tipik vakili Leonardo da Vinchi san'atning ko'pgina turlarida o'z kuchini sinab ko'rdi, matematika, mexanika, fizika sohasida ilg'or fikrlarni ilgari surdi. Leonardo uchun san'at hayotni bilish vositasi bo'ldi. Uning real voqelik asosida ishlagan suratlari keyinchalik ilmiy asarlari uchun illyustratsiya vazifasini o'tadi. Ijodkor xarakteriga xos bo'lgan bu xususiyat u





yaratgan rangtasvir asarining o‘ziga xos tomonlarini belgilaydi. Uning har bir asari hayotni o‘rganish zamirida yuzaga kelgan, ijodkorning qalb harorati bilan isitilgan va hayotga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi asarlardir. Rassomning «Gul ushlagan Madonna» (Benua Madonnasi) deb nomlangan ilk asarida shunday xislatlar mavjud. Rassom kompozitsiyada ortiqcha detal va lavhalardan voz kechib, tasvirlanuvchining xarakteristikasini kuchaytirishga, shakllarini umumlashtirishga intilgan. Kompozitsiyada yosh ona tizzasida o‘tirgan go‘dakning ona qo‘lidagi gulga talpinayotgan payti tasvirlangan. Tepa tomondan tushayotgan yorug‘lik tasvirning yanada yaqqol ko‘rinishiga imkoniyat yaratgan. Darchadan ko‘rinayotgan osmon kompozitsiya muvozanatligiga xizmat qilib, obrazni cheski tabiat bilan uzviy bog‘lagan. Asarda hech qanday diniy-mistik kayfiyat yo‘q. Ona va bola boshi atrofiga ishlangan tilla gardishni hisobga olmaganda, hammasi oddiy florensiyalikning uyidagi baxtni, ona va bola shodligidagi go‘zallikni kuylovchi asar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu asar dunyo sirlarini bilishga qiziqqan, nur va go‘zallikka intilgan insonni sevgan rassomning dunyoqarashini namoyon qiladi.

Rassom har bir asar ustida uzoq vaqt ishlar, ishlanadigan har bir obraz va detalning hayotiy bo‘lishi uchun dastlab ularni alohida naturaning o‘zidan ishlab, o‘rganib, so‘ng kompozitsiyaga ko‘chirar edi. Bu unga berilgan buyurtmalarning ba‘zan vaqtida tugallanmasligiga sabab bo‘lar, buyurtmachi bilan nizolar kelib chiqar edi. «Sehrgarlar ta‘zimi», «Avliyo Ieronim» kabi asarlarning yarimtugal holatda qolishiga ham sabab shudir. Leonardo Milanda yashagan kezlari 1482—1499 yillarda u o‘zini olim, rassom, injener sifatida namoyon etish imkoniyatiga erishdi. U o‘z faoliyatini haykaltaroshlik bilan boshladi. Milan hokimi Lodoviko Moro otasi uchun yodgorlik modelini ishladi. Lekin 1499 yili Milanning fransuz qo‘shinlari tomonidan bosib olinishi bu ishni amalga oshirish imkoniyatini bermadi.

Me‘mor sifatida ham Leonardo Milanda bir qator surat va proektlar ishladi. «G‘ordagi madonna» (1483—1494), «Sirli oqshom» (1495—1497) kabi mashhur asarlarini yaratdi. Milandagi «Sant Mariya della Gratsie» monastri uchun ishlagan mashhur «Sirli oqshom» devoriy surati Leonardo da Vinchini novator rassom darajasiga ko‘taradi. U injildan olingan an‘anaviy syujetni erkin va asosan, obrazlarning his-tuyg‘u va kechinmalarini ishonarli talqin etishi hisobiga ochadi.

Milan fransuz qo‘shinlari tomonidan bosib olingan yili Leonardo Florensiyaga qaytib keladi. Bu erda «Angiari oldidagi jang» devoriy suratining kartonini

yaratadi, shuningdek, o‘zining mashhur asari «Mona Liza» (Jakonda) asarini ishlaydi. «Mona Liza» portreti (1503) jahon rangtasvirining mashhur yodgorligidir. Bu portret bilan Yevropa san‘atida chuqur psixologik portret san‘ati boshlanadi. (Abdullaev N.U. Tasviriy san‘at tarixi, Toshkent – “O‘QITUVCHI”-1987 yil, 170- bet).

Daslab suratda na uning nomi, na muallifning ismi, na chizilgan sanasi bor edi. Xo‘sh Jakonda qanday qilib “yulduz” bo‘ldi?

Uyg‘onish davrida yashagan mashhur san‘atshunos tarixchi Jorj Vazarining kitobida ushbu suratga oid ilk qaydlar mavjud. Olim da Vinchi vafotidan so‘ng o‘ttiz yil o‘tgach u chizgan nodir surat xaqida yozadi. Jumladan, unda bayon qilinishicha, Leonardo da Vinchiga 1503 yilda florensiyalik savdogar Franchesko di Jakonda xotining suratini chizishga buyurtma bergan ekan. Da Vinchi to‘rt yil deganda suratni nihoyasiga yetkazadi.

### San‘atshunos tarixchi Jorj Vazari

Lekin surat buyurtmachiga topshirilmaganining sababi xanuzgacha noma‘lum. Balki rassom tengsiz san‘at asari vujudga kelganini anglab, nodir surat qandaydir savdogarning uyida qolib ketishini istamay shu yo‘lni tutgandir? Yoki florensiyalik savdogar umuman xech qanaqa buyurtma bermaganmi?...

Qirol Lyudvik XIII taxtga kelgach suratda aks ettirilgan xonim aslida kimligini aniqlashni buyuradi. Shundan keyin suratga qiziqish kuchaydi. Olimlar va sana‘tshunoslar tadqiqotlarni boshlab yuborishdi.

Lyudovik XIV davrida yashagan matematiklardan biri suratdagi geometric mutanosibliklarni aniqlagan. Natijada olim bu suratda ko‘plab rebus va formulalar yashirin, degan xulosaga kelgan.





Ma'lumki, da Vinchi abadiy dvigatel yaratish bilan ham shug'ullangan. Abadiy dvigatel yaratilsa, boqiy umr siri ochiladi, degan u Sirlarga to'la "Mona Liza" surati shu yo'ldagi bir tajriba emasmikan? Suratdagi xonim orqasidagi manzara ham, uning libos va yopinchig'ida ham o'zgacha ma'no mujassam.

Oradan yuz yil o'tib, ta'mirtalab bo'lib qoladi. Elik yil o'tgach, surat yana bir bor ta'mirlanadi. Oqibatda xonimning boshidagi xarir yopinchiqni tutib turuvchi tasma uning yuzi bilan bir tusga kiradi va xonimning manglayi keng bo'lib qoladi. Keyingi eksperimentlar natijasida bunday o'zgarishlarning yana bir qanchasini topishga muvaffaq bo'lindi.

Italiyalik arxivshunoslar kardinal Lui Aragon kotibining kundaligini topishdi. Bu tadqiqotlarning yangi yo'nalishini boshlab berdi. Suratdagi xonim aslida, uni Juliani Medichi Rim papasi Lev X ning tug'ishgan ukasi. Medichi uni buyuk musavvir bilan tanishtirib, suratni chizdirishga undab, xonimni shod qilmoqchi bo'lgan. Balki surat xarajatlarini Medichi to'lagandir? Shuning uchun surat buyurtmachiga berilmay qolgandir. Balki surat chizdirish bahonasida Juliano Medichi va xonim musavvir ustaxonasida uchrashishgandir.

Surat siri hali – beri ochilmaydi, shekilli. "Mona Liza" esa hamon jilmayib turibdi. Qaydan, bu topishmoqning javobi juda – juda oddiy bo'lishi ham mumkin. Suni o'ylasam, suratdagi xonim kinoyali kulimsirab turganga o'xshaydi... ("Bekajon" gazetasi 2011 yil 6 oktabr, 61-bet).

Shu o'rinda yuqoridagi fikrlarga va tortishuvlarga sabab bo'ladigan, yana bir taxmin yoki "Mona Liza"ning kim ekanligi xaqida yangi bir fikr. Xammamizga ma'lumki Leonardo da Vinchi Toskani tog'lari etagida joylashgan Vinchi shaxrida 1452 yil 15 aprelda tavallud topgan. Leonardoning sirliligi, u tug'ilganidan boshlangan, chunki Leonardo noqonuniy tug'ilgan bo'lib onasi xaqida xech qanday ma'lumot yo'q edi. Na familiyasi, na uning tashqi ko'rinishi yoki u o'qimishli bo'lganmi-bo'lmaganmi bizga noma'lum edi. Mayli shunday bo'laqolsin faqat biz uni Katerina ismi bilangina bilamiz. Uning tarjimai holi faqatgina dexqon ayoli jumlası bilangina cheklanadi. Leonardoning otasi P'yero da Vinchi xaqida esa ko'proq ma'lumotga egamiz, lekin bu ham yetarli emasdek. Ma'lumki otasining to'rt avlodi notariuslik bilan shug'ullangan va bu Leonardoning otasiga meros bo'lib o'tgan. Demak ma'lumki otasining jamiyatdagi mavqeyi va obro'si yaxshi bo'lgan. Onasi xaqida bunday deyolmaymiz dexqon ayolni jamiyatdagi egallagan o'rni xavas qiladigan darajada bo'lmagani aniq. Leonardoning ota – onasining bir

oilalar boʻlib yashaganliklari toʻgʻrisida ham maʼlumotga ega emasmiz. (**Роберт Ушлэс “Мир Леонардо” МОСКВА “ТЕРРА”-“TERRA” 1997 й, 9-бет**). Qaysidir maʼnoda Leonardo dunyoga kelgach onasining taqdiri bilan otasining ishi boʻlmagan. Bundan koʻrinib turibdiki Leonardo bolalik davrlarida oʻz tuqqan onasining mehriga toʻymay ulgʻaygan koʻrinadi. Dexqon ayolning axvoli albatta ogʻir kechganini his qilishimiz qiyin emas.

Nima uchun onasi xaqida toʻxtalayotganimizga izoh berishga xarakat qilamiz. Demak Leonardo da Vinchining “Mona Liza” asari xaqidagi tortishuvlar dunyo sanʼatshunoslari, olimlar va rassomlar oʻrtasida xaligacha davom etib kelayotganligi bu asarning bebaholigining isbotidir. Jorj Vazari, Leonardo da Vinchiga 1503 yilda florensiyalik savdogar Franchesko di Jakonda xotining suratini chizishga buyurtma bergan deydi, yana bir guruh olimlar aslida bu fransiyalik gertsogina Izabella dʼEstening singlisi boʻlgan deyishsa yana bir guruh olimlar bu “Mona Liza” Leonardo da Vinchining avtoportreti deb bong urishadi. Maʼlumki farzandlarning tashqi qiyofsi ota-onasiga oʻxshagan boʻladi, ayniqsa koʻp hollarda oʻgʻil bolalar onasiga juda oʻxshash boʻladi.

Bu oʻxshashliklarni atrofimizdagi oilalarni diqqat bilan kuzatsak oʻzimiz guvohi boʻlamiz, mana shu fikrlarga suyanib biz “Mona Liza” asarida tasvirlangan ayol bevosita Leonardo da Vinchining onasi Katerinaning portreti deb taxmin qilsak juda mubolagʻa boʻlmasa kerak. Onasining portreti deyshimizga yana bir sabab koʻryapmiz, bu “Mona Liza” portretini ayrim olimlar xatto Leonardoning avtoportreti degan taxmini ilgari surishgan, bu shuni koʻrsatadiki Leonardo va Mona Lizaning bosh chanogʻi juda oʻxshash bu esa ularni ona-bola ekanligiga aniqlik kiritadi. Yana bir sabab shuki Leonardo da Vinchi bu asarini doim oʻzi bilan olib yurganligidir. Chunki bu onasining suratidir.

Fransuz qiroli Fransuzik I taklifiga binoan Leonardo da Vinchi Fransiyaga tashrif buyuradi, u oʻzi bilan Kluga yaʼni umrining oxrigacha yashagan manzilga koʻp narsa olib kelmaydi (**Роберт Ушлэс “Мир Леонардо” МОСКВА “ТЕРРА”-“TERRA” 1997 й, 177-бет**), lekin “Mona Liza” ni oʻzi bilan olib keladi va bu asar Leonardo vafotidan keyin Fransiyada qoladi. Bugungi kunda Luvrda “Ermitajda” saqlanadi





### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaev N.U. Tasviriy san'at tarixi, Toshkent – “O‘QITUVCHI”-1987 yil
2. Роберт Ушлэс “Мир Леонардо” МОСКВА “ТЕРРА”-“TERRA” 1997 й
3. Виппер Б. Р. Итальянское Возрождение. Курс лекций. М., 1977. 4. Леонардо да Винчи. Книга о живописи. М., 1934. Челлини Бенвенуто.
5. ”Beqajon ” gazetasi 2011 yil 6 oktabr.



# Research Science and Innovation House



## Zamonaviy ta’lim paradigmalari va ulardan foydalanishning samarali usullari

**Quvondiqova Mohinur Ilhomiddin qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

**Zuxridinova Mubinabonu Jamoliddin qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya** Ushbu maqola globallashtirish muhitida ijtimoiy fan sohalari o‘qituvchilari uchun zamonaviy ta’lim paradigmalarining 5 usulini tanishtirish va ta’lim jarayonida ulardan foydalanib, dars samaradorligini, o‘quvchilarning bilim darajasi, shaxsiy fazilatlarini, tafakkurining rivojlanishiga erishishni ko‘zda tutadi. Maqola orqali o‘quvchining funksional savodxonligi, ta’lim muassasasiga ta’lim oluvchilarning maqbul xulq-atvorini shakllantirish, bolalarning erkinligi va ijodkorligini ta’minlash, Ta’lim oluvchi shaxslarning jismoniy, psixik kuchlarini rivojlantirishga oid tavsiyalar yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** an’anaviy (bilimga yo‘naltirilgan) paradigma; fenomenologik (insonparvarlik) paradigmasi; ratsionalistik (bixevioristik, xulq-atvorga doir) paradigma; texnokratik paradigma; ezoterik paradigm, model, paradigmatic yondashuv, texnologiya.

**Аннотация:** Данная статья представляет собой введение 5 методов современных образовательных парадигм учителям обществознания в условиях глобализации и использования их в образовательном процессе для достижения эффективности урока, развития уровня знаний, личностных качеств, мышления учащихся. В статье освещаются вопросы функциональной грамотности обучающегося, формирования оптимального поведения обучающихся в образовательном учреждении, обеспечения свободы и творчества детей, развития физических, психических сил обучающихся.

**Ключевые слова:** традиционная (ориентированная на знания) парадигма; феноменологический парадигма, рационалистическая (бихевиористская, поведенческая) парадигма; технократическая парадигма; эзотерическая парадигма, модель, парадигматический подход, технология.

**Abstract:** This article provides for introducing 5 methods of modern educational paradigms for teachers of Social Science in the atmosphere of



globalization and using them in the educational process to achieve the effectiveness of the lesson, the level of knowledge of students, personal qualities, the development of thinking. The article will highlight recommendations on the functional literacy of the student, the formation of acceptable behavior of the educational institution, ensuring the freedom and creativity of children, the development of the physical, psychic powers of the educated persons.

**Keywords:** traditional (knowledge-oriented) paradigm; phenomenological paradigm, rationalist (behaviorist, behaviorist) paradigm; technocratic paradigm; esoteric paradigm, model, paradigmatic approach, technology.

### KIRISH.

Zamonaviy pedagogikada ta'limning yagona nazariyasi yo'q. Biroqbir vaqtning o'zida turli xil paradigmalarning mavjudligita'lim va uning nazariyasining hozirgi holatini, ilmiy bilimlarni rivojlantirishning paradigmadan oldingi bosqichi sifatida baholashga imkon beradi, shu bilan birga ta'lim haqidagi poliparadigmal bilimlarning xususiyatini saqlab qoladi.Paradigmatik yondashuv ta'lim tizimlarining asosiy modellari, ularning mohiyati va xususiyatlarini aniqlash va tavsiflashga imkon beradi.

Paradigma - (grekcha — “namuna, andoza”)<sup>1</sup> — ilmiy yutuqlar majmui. Paradigma u yoki bu davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olingan va yangi ilmiy tadqiqot uchun namuna asos bo'lib xizmat qilishi zarur. Mazkur tushuncha amerikalik tarixchi Tomas Kunning „Ilmiy inqiloblar strukturasi“ asari tufayli ilmiy muomalaga kiritilgan. ”Paradigma ilmiy jamoatchilik birligini ta'minlaydi. Ilmiy namunani, universal qonunlarni konkret hodisalarga tadbiq etish asosida fan rivojlanadi”, - deydi Tomas Kun. Umuman olganda, paradigmani ilmiy tan olingan va qaysidir davrda ilmiy tadqiqot uchun yo'naltirilgan bir yoki bir nechta fundamental yig'indi sifatida ta'riflash mumkin. Shu boisdan ham ilmiy paradigma vositasida ilmiy muammolar o'rtaga tashlanadi va uni yechish modeli namoyon bo'ladi. Geosiyosiy paradigma esa tan olingan nazariyalar yordamida dunyoning geosiyosiy ko'rinishini ilmiy jihatdan aniqlash modeli hisoblanadi.

Falsafiy ensiklopedik lug'atda keltirilishicha ta'limda paradigma - bu tadqiqot topshiriqlariga yechim namunasi sifatida qabul qilingan nazariya (yoki muammolarni shakllantirish va hal qilish modeli).

<sup>1</sup>[www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz) saytidan olindi.



Paradigma-bu boshlang'ich kontseptual sxema, muammolarni shakllantirish va ularni hal qilish modeli, fanda ma'lum bir tarixiy davrda hukmronlik qiladigan tadqiqot usullari, bu dunyoni g'oyalar, qarashlar va tushunchalar asosida anglashdir. Fanda bu tushuncha G. Bergmantomonidan normativ metodologiyani tavsiflash uchun kiritilgan va T. Kun tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u ilmiy inqiloblar nazariyasini tavsiflovchi tushunchalar tizimini taklif qilgan. Ushbu tushunchalar tizimida eng muhim o'rin paradigмага tegishli, ya'ni. "...ma'lum vaqt davomida ilmiy jamoatchilikka muammolarni shakllantirish modeli va ularning yechimini taqdim qiladigan ilmiy yutuqlar sifatida qabul qilinadigan " nazariyaga (T. Kun,1975). Boshqacha qilib aytganda, paradigma - bu ma'lum bir usul, ilmiy jamoatchilik tomonidan o'rganilishi kerak bo'lgan voqelikning tegishlijihati haqidagitasavvurlarni qabul qiladigan ilmiy muammolar va ularni hal qilish usullari. T. Kunning fikricha, paradigmalarning o'zgarib turishi, bu - ilmiy inqilobdir. I. A. Lipskiy ham aynan shunga asoslanib, ilmiy-tadqiqot yoki ommaviy amaliyotda yuz beradigan barcha o'zgarishlar ham inqilobiy deb hisoblanishi uchun shunchalik radikallikda ro'y bermayotganligi tufayli paradigmani ilmiy bilimlarning boshqa toifalariga nisbatan eng yuqori ilmiy kategoriya sifatida ko'radi. Bundan kelib chiqadiki, boshqa umumiy ilmiy toifalar paradigmaning "bo'ysunuvchilari" desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ta'limning yangi paradigmasining paydo bo'lishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lmasdan, u butun madaniy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan. Uning shakllanishida insonparvarlik falsafasi va psixologiyasi asosiy o'rin egallaydi. Mazkur konsepsiyaning asosiy nuqtai nazari – har bir alohida inson hayotining o'ziga xosligi, har bir shaxs noyob, individual, shartsiz qadriyat ekanligini e'tirof etish. Insonparvar falsafa va psixologiya o'z-o'zini realizatsiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini insonning yuksak ehtiyoji deya e'tirof etib, insonning o'z noyobligini asrash va rivojlantirish, insonning erkinlikka erishish mexanizmi sifatida individual shaxsiy tanlovni amalga oshirishni o'zida namoyon etish, qilingan tanlov uchun javobgarlikni bo'yniga olishda ularni amalga oshirishning muhim shartini ko'radi. Shuning uchun shaxsning rivojlanishi va insonning shakllanishi boshqalar bilan hamjihatlikda, ishonch, oshkoralik, sevgiga asoslangan insonparvar munosabatlarni o'rnatish jarayonida sodir bo'ladi.<sup>2</sup>

---

<sup>2</sup>B.X.Xodjayeov, Umumiy pedagogika, «Sano-standart» nashriyoti Toshkent – 2017; 65-66-betlar





Ta'limning keng tarqalgan paradigmalari quyidagilarni tashkil qiladi: an'anaviy (bilimga yo'naltirilgan) paradigma; fenomenologik (insonparvarlik) paradigma; ratsionalistik (bixevioristik, xulq-atvorga doir) paradigma; texnokratik paradigma; ezoterik paradigma.

Endi ushbu paradigmalarning mohiyatiga birma-bir to'xtalib o'tsak.

**An'anaviy paradigma** - bilimga yo'naltirilgan paradigm bo'lib, uning bosh maqsadi har qanday qiymatdagi bilim, bilim va yana bilimdir. Ushbu paradigm turida ta'lim muassasasining roli insoniyat sivilizatsiyasi madaniy merosining ko'proq mavjud unsurlari – individual, ijtimoiy tartibni saqlab qoluvchi, individual rivojlanishga imkon beradigan zaruriy, xilma-xil, muhim bilim, ko'nikma va malakalarga asoslanib bilim berish hisoblanadi. Shuning uchun bu o'quv nazariyasining o'quv dasturlari mazmuni tayanch va asosiy kompetensiyalar, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash vaqtida sinovdan o'tuvchi, shaxsning funksional savodxonligi va ijtimoiyligini ta'minlashga asoslanadi.

**Bixevioristik paradigma** - ratsionalistik paradigm deb ham yuritiladi. Uning an'anaviy paradigmadan farqli jihati shundaki, unda diqqat markazida mazmun emas, o'quvchilarning turli xildagi bilimlarni o'zlashtirishining samarali yo'llarini izlashga e'tibor qaratiladi. Bixevioristik ta'lim paradigmasi ijtimoiy injeneriya bixevioristik konsepsiyasi asosiga qurilgan. Unda ta'lim muassasasi maqsadlari ta'lim oluvchilarda ijtimoiy me'yorlar, milliy madaniyat talablari va natijalariga muvofiq, moslashuvli «xulq-atvor majmui»ni shakllantirishga qaratadi. “Xulq-atvor” atamasi barcha turdagi insoniy xususiyatlar – uning fikrlashi, his-tuyg'usi va harakati ma'nosida keladi. Mazkur paradigma ta'lim muassasasiga ta'lim oluvchi o'quvchilarning xulq-atvorini maqbul ravishda shakllantirishni bilimlarni o'zlashtirish yo'li sifatida tan oladi, ya'ni har qanday ta'lim muassasasi – bu yashash muhitiga moslashtirishning ta'limiy mexanizmi demakdir. Bunday o'qitishning asosiy metodlariga o'rgatish, trening, test nazorati, individual o'qitish, korrektsiyalash kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin sanaladi.

**Insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasining** asosida o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojiga ega bo'lgan, shaxs erkinligi va ma'naviyati sifatidagi rolini yaxshilashga urinuvchi o'quvchi turadi. Nazariyaning bu turi bolaning ichki dunyosini rivojlantirishga, shaxslararo muloqot, ijod kabilarni rivojlantirish, umuman olganda, shaxs o'sishi uchun yordamga yo'naltirilgan. Insonparvarlik paradigmasi vakillari yagona qarash bilan ajralib turmaydi. Uning zamirida



ta'limning xilma-xil modeli amalga oshadi. Bunda ta'lim muassasasining ustuvor vazifasi aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik jihatdan bolani rivojlantirish ekanligini e'tirof etib o'tish lozim. Insonparvarlik paradigmasi doirasida harakatlanuvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy izlanishga asoslanadi hamda ta'lim va tarbiyaning sof mazmuni, metod va vositalaridan foydalanish nazariya mohiyatini yanada ochib beradi. Fenomenologik paradigm ham o'qituvchi, ham o'quvchilarning erkinligi va ijodkorligini talab etadi. Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tamoyiliga asoslanuvchi paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:

- ta'limning ijtimoiylashuvi – o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, ular tomonidan nisbatan o'zlashtiriladigan bilimlar majmuasining pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini ta'minlash, o'qituvchilarda umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g'oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;
- milliy hamda jahon madaniyati asoslari va ularning mohiyatidan xabardor bo'lish;
- ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqloq g'oyalariga asoslanish;
- shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;
- o'qituvchilarning kasbiy jihatdan shakllantirish jarayonida o'qituvchi hamda talabalarning o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;
- ta'lim (xususan, kasbiy ta'limi) jarayonida o'quv dasturlarining talabalar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko'ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;
- pedagogik ta'limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya'ni, talabalar tomonidan o'zgaruvchan sharoitlarda shaxs ijodiy rivoji asosini ta'minlovchi invariant bilimlarning o'zlashtirilishiga erishish; - mehnat bozori hamda ijtimoiy jarayonlarda yuzaga keluvchi hamda doimiy ravishda o'zgarib turuvchi ehtiyojlarga to'laqonli javob bera oladigan ta'limni shakllantirish shu asosda kasbiy moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalash;
- ta'limning uzluksizligi, ta'limning har bir jarayon bosqichining natijalanishini ta'minlovchi kasbiy ta'lim (kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash) dasturlarining tizimining yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta'limning u yoki bu bosqichida o'qitilishi yoki o'qishni boshqa tipdagi o'quv muassasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi;





- ta'limning ekvivalentligi, ya'ni uning davlat ta'lim standarti, milliy madaniyati va mentalitet, shuningdek, xalqaro me'yorlarga muvofiq darajasi.<sup>3</sup>

**Ilmiy-texnik, texnokratik paradigma.** Uning asosiy maqsadi amaliy jihatdan rivojlanish uchun zaruriy bo'lgan aniq, ilmiy bilimlarni berish, olish va o'zlashtirishdan kelib chiqadi. Bu paradigmadagi inson o'zini o'zi fikriga ko'ra emas, balki, faqat aniq belgilangan etalon o'rtacha namuna, standartlashgan belgidagi bilish yoki xulq-atvor sohibi sifatidagina baholaydi. Ilmiy-texnik paradigma sharoitida o'quv-tarbiya jarayonining istalgan natijasi “ha – yo‘q”, “egallagan – egallamagan”, “biladi – bilmaydi”, “tarbiyali – tarbiyasiz” kabi qolipda baholanishi mumkin. Bu yerda tayyorgarlik, ma'lumotlilik, tarbiyalanganlik darajasi tekshirib aniqlanadigan qandaydir ideal qolip mavjud bo'ladi.

**Secondly**, the number of Internet users is such that this situation does not allow the creation of a large market necessary for e-commerce (the number of Internet users in Uzbekistan is more than 2.5 million).

Thirdly, the lack of development of a reliable system providing online payments from bank account numbers of individuals. We can make payments with plastic cards issued by our banks only using special terminals, and according to international experience - with plastic cards, through special modules installed to accept payments directly online. Payment can also be made in the mines.

The main problem is that the online banking service for individuals has not become widespread in Uzbekistan. Internet banking allows bank customers to manage their accounts and make payments via the Internet or mobile phone. SMS banking, offered by several banks, is one-way and is intended only for obtaining account information and transaction history. This situation is one of the biggest obstacles to the development of e-commerce.

**Fourthly**, there is a lack of sufficient level of professionalism in the activities of existing online stores. According to the Communications and Information Agency, as of January 1, 2008, there were 24 online stores operating in Uzbekistan.

We propose the following as the main areas of attention in solving the above problems:

- It is necessary to deepen scientific research in the field of e-commerce. Scientific work, writing articles, creating specialized Internet resources, organizing regular forums and conferences, taking into account not only technical, but also economic and legal features of e-commerce when training personnel, prevents one of the main problems - the lack of qualified personnel.

- Development of competition in the field of telecommunications services. This leads to improved service quality, lower prices and the creation of a specific online audience for e-commerce.





- Ensuring the continued availability of favorable legal conditions for investment in the ICT sector in the prescribed manner.
- Creation of systems of self-government and exchange of experience.
- Development of an electronic education system
- Ensure widespread dissemination of information technologies throughout Uzbekistan. The introduction of information technologies not only in regional centers, but also in remote villages will lead to a significant increase in the volume of e-commerce.
- Effective implementation of the online banking system throughout the country. This will increase the ability of entrepreneurs engaged in wholesale and retail trade to freely trade their goods and services via the Internet. At the same time, this will lead to significant changes in other areas of the banking industry.

It can be easily noted that Uzbekistan, with its high intellectual capabilities, should not be left behind in the civilization of information technology.

The development of e-commerce will give our society the following results:

- The development of e-commerce has a positive effect on the structure of the labor market in Uzbekistan. The industrialization of high information technologies will create thousands of new jobs.
- Stabilizing the economy of Uzbekistan, increasing the competitiveness of goods and services, and developing e-commerce will lead to an increase in our export opportunities.
- E-commerce ensures an increase in the standard of living of the population and the development of such areas as marketing and management.

**Conclusion.** Thus, it should be emphasized that the opportunities for the development of e-commerce in Uzbekistan are growing every year. Its development creates opportunities for our national manufacturers to open new markets and find new customers. Following the chosen and current path of development of e-commerce will allow the economy of Uzbekistan to become one of the leading representatives of the world market in the future. Choosing the right way to solve the problems of e-commerce in Uzbekistan affects the well-being of the people, the progress of our society and our economic development.



### List of used literature:

1. U. Sharifkhodzhaev, Z. Khakimov. Interactive and digital marketing. Toolkit. - T.: Economics. 2019.-271 p.
2. Abdukhalilova L.T. Internet Marketing. – T.: Economics, 2019. 265 p.
3. Ergashkhodzhaeva Sh. Zh., Kasimova M.S., Yusupov M.A. Marketing. Textbook.- T.: Economics, 2018.-315 p.
4. Ergashkhodzhaeva Sh.J., Samadov A.N., Alimkhodzhaeva N.E., Sharipov I.B. Marketing communications. Toolkit. – T.: Economics, 2019. – 418 p.
5. Gary Armstrong, Philip Kotler, Michael Harker, Ross Bernnan. Marketing introduction. England, 2016, Paperback: 720 pages, Pearson.
6. Rasulova, N. N., Primova, A. A., & Khudayarova, M. M. (2020). Small business and private enterprise as a priority for the further development of Uzbekistan. European research, (6), 64.
7. Otabek Ganiyevich Nabijonov, & Sh. A. Kholbutaeva (2022). THE ROLE OF CONSULTING IN THE MODERN MARKET ECONOMY. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (2), 5-8.
8. Shavkatova , S. ., & Nabijonov , O. . (2022). INNOVATSIYA FAOLIYATINING AHAMIYATI. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(11), 4–7. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/4088>
9. Ugli, A. S. O., Ganiyevich, N. O., Ugli, Y. S. Z., & Ugli, K. R. A. (2021). About how cheap (actually very expensive) loans may not enrich the poor. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2191-2193.

# Research Science and Innovation House





## COMSOL MULTIPHYSICS 6.2 YORDAMIDA MODELLASHTIRISH ORQALI P-N O‘TISHLI DIODNING ELEKTR ZANJIRINI YIG‘ISH METODI

A.KHASANOV, N.AMINBOYEVA, S.RO‘ZIMATOVA.  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Comsol Multiphysics 6.2 paketida p-n o‘tishli diodning elektr zanjiridan foydalangan holda ishlashini tekshirish va olingan natijalarni experiment natijalari bilan taqqoslashga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Comsol, geometrik parametrlar, kirishma konsentratsiyasi, metal kontakt, elektr zanjir interfeysi, Semiconductors, Electrical circuit.

Bugungi kunda modellashtirish dasturlari fiziklar uchun juda katta ahamiyatga ega. Chunki bunday dasturlar har bir fizik qurilma yoki jarayonni o‘rganish uchun hech qanday laboratoriyalarni talab qilmaydi va ishlatish uchun juda qulay. Bulardan biri COMSOL Multiphysics dasturidir. Shuningdek tadqiqotchilar orasida elektron sxemalarni loyihalash va simulyatsiya qilish keng tarqalgan. Lekin bunda hamma simulyatsion dasturlar ham zanjirdagi biror qurilmani olib uning ichidagi fizik hodisalarni o‘rganishga qodir emas. Bu borada Comsol dasturi zanjir hamda yaratilgan qurilmani birgalikda ishlatish va modellashtirish yordamida uning xarakteristikalarini o‘rganishni taklif qiladi.

Ushbu maqola COMSOL Multiphysics dan foydalangan holda elektr zanjirlarini modellashtirishning murakkab dunyosini o‘rganib chiqadi. Ushbu maqola tadqiqotchilar, fiziklar, muhandislar va simulyatsiya ishqibozlari uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi va elektron sxemalarni COMSOL dasturida yasash usulini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

COMSOL dasturida modellashtirishni interfeysga Semiconductor va Electrical circuit fizikalarini tanlash hamda time dependent study ni qo‘shish bilan boshlaymiz. Bunda Semiconductor moduli diodni geometrik o‘lchamlari bilan birgalikda yasash hamda Electrical circuit moduli esa elektr zanjir tuzishga yordam beradi (1-rasm). Diod ni yasash uchun biz 2D o‘lchamdan foydalanamiz. Chunki bu 1D ga qaraganda visual ko‘rinishni ta‘minlaydi va 3D dagi ketadigan juda ko‘p hisoblash vaqtini kamaytiradi.


Keyingi bosqich modellashtirish davomida kerakli bo‘lgan kattaliklarni parameters 1 bo‘limiga kiritamiz. Quyidagi 1-jadvalda kerakli barcha parametrlar keltirilgan. Diod materiali sifatida Si (kremniy) materiali tanlangan. Diodni modellashtirish avvalo unga asos konsentratsiyasi kiritishdan boshlanadi. Keyinchalik esa asos konsentratsiyasidan farqli ravishda diodning bir tarafiga n tipli kirishma konsentratsiyasi va boshqa tarafiga p tipli kirishma konsentratsiyasi kiritiladi. Boshqa hamma sozlamalar COMSOL paketi tomonidan avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Keyingi jarayon esa rekombinatsiya turini tanlash. Bunda biz trap-assisted recombination turidan foydalandik. Diodni zanjirga ulash uchun uning ikkala tarafiga metal kontaktlar berilishi kerak. Bunda birinchi kontakt kuchlanishi 0 V (ground), boshqasi esa zanjirdagi manbaga bog‘liq bo‘ladi.

Elektr zanjir tuzish uchun 1-rasmdagi sxemani tasavvurimizda yaratib olishimiz lozim. Chunki COMSOL dasturida elektr zanjirining sxemasi ko‘rsatilmaydi. Biz bunda faqat tugunlardan foydalanib zanjir yasashimiz mumkin. Avvalo bizga kerakli qurilmalarni Electrical circuit bo‘limiga qo‘shib olamiz (masalan, resistor va kuchlanish manbasi). Keyingi muommo yasalgan diod hamda tayyor elektr zanjiri sxemalarini bir-biriga ulash. Bu ishni bajarish uchun Electrical circuit bo‘limiga borib sichqoncha o‘ng tarafi bosilsa, External couplings bo‘limida External I vs. U qurilmasi hosil qilinadi. Aynan shu qurilma bizga elektr zanjir va istalgan yasalgan boshqa qurilmani birlashtirishga yordam beradi. Elektr zanjirda ground ya’ni yerga ulangan tugun 0 deb belgilanadi va shunga qarab boshqa qurilmalar ketmat-ket ulab boriladi. Masalan, kuchlanish manbasining bir tarafi 0 tugunga yana bir tarafi 1 tugunga ulanadi. Kuchlanish manbaini tanlanganda uning turi hamda chastotasi kiritiladi.

---

# Research Science and Innovation House






Name	Expression	Value	Description
l_diod	10[um]	1E-5 m	Diod uzunligi
d_diod	7[um]	7E-6 m	Diod qalinligi
w_diode	10[um]	1E-5 m	Diod eni
d_p	1[um]	1E-6 m	p-n o'tish sohasi kengligi
w_anod	4[um]	4E-6 m	Anod eni
Nd_max	2e17[1/cm^3]	2E23 1/m <sup>3</sup>	Maksimal donor konsentratsiyasi
Na_max	1e17[1/cm^3]	1E23 1/m <sup>3</sup>	Maksimal akseptor konsentratsiyasi
Nd_asos	1e15[1/cm^3]	1E21 1/m <sup>3</sup>	Asos donor konsentratsiyasi
I0	0.01[pA]	1E-14 A	To'yinish toki
Va	5[V]	5 V	Kuchlanish amplitudasi
f	10[kHz]	10000 Hz	Chastota

1-rasm. Elektr sxemasi

1-jadval

Study bo'limida bizga kerakli vaqt oralig'i va uning birligi tanlanadi. Hisob-kitob jarayonlari tugagandan so'ng natijalarni ekranga chiqarish uchun results bo'limidan foydalanamiz. Ushbu ishda biz manbaning o'zgaruvchan kuchlanishini diod yordamida o'zgarmas kuchlanishga aylanganini kuzatdik. Bu natijani chiqarish uchun Results bo'limiga o'tilib 1D plot group tanlanadi. Keyin esa 1D plot group ustiga sichqoncha olib borilib uning o'ng tarafi bosiladi. Bunda sozlamalar oynasi y va x o'qlarga qaysi kattaliklar kiritilishi kerakligini so'raydi. Ma'lumotlar kiritilgandan so'ng Plot tugmachasini tanlashimiz va natijani ko'rishimiz mumkin (2-rasm).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, modellashtirish orqali olingan natijalar real tajriba natijalariga nisbatan juda yaqin va aniqlik juda yuqori. Bundan kelib chiqadiki, COMSOL Multiphysicsda turli qurilmalar va elektr zanjirlarini modellashtirish fizik jarayonlarni o'rganishda tadqiqotchilar uchun keng eshiklar ochib beradi. Bu esa kelajakda ilm-fan rivojlanishida katta ahamiyatga ega.



2-rasm. a) Modellashtirish natijalari; b) real zanjirdan olingan natijalar

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. The p-n junction diode. John Watson. [https://doi.org/10.1007/978-1-349-86040-1\\_7](https://doi.org/10.1007/978-1-349-86040-1_7)
2. Electronic devices and circuits, Second edition. Pearson Education.
3. AC/DC module User's guide published by COMSOL.
4. <https://www.comsol.com/model/p-8211-n-diode-circuit>.

Research Science and  
Innovation House





## Иқтисодиётда хизматлар соҳасининг ўзига хос хусусиятлари

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна

ТАТУ Қарши филиали “Логистикада Ахборот Технологиялари” кафедраси  
ўқитувчиси

**Аннотация:** ушбу мақолада хизматлар соҳаси хизматларнинг табиати, уларнинг мақсади, фаолият турлари ва хизмат кўрсатиш жараёнларининг ўзига хос хусусиятлари туфайли турли хил функцияларга, манбаларга, уланишларга эга бўлган мураккаб, ўзига хос ижтимоий-иқтисодий тизимдан иборатлиги ёритиб ўтилган.

**Калит сўзлар:** хизмат кўрсатиш, саноат соҳаси, реал даромад, ЯИМ, тадбиркорлик субъектлари, микро фирмалар, бизнес, молиявий хизматлар.

**Кириш.** Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021- йил 11-майдаги ПҚ-5113-сон қароридида «Хизматлар соҳасининг мамлакат иқтисодиётидаги улушини ошириш, жойларда хизматлар соҳасидаги мавжуд имкониятлардан тўлиқ фойдаланиш, хизмат турларини кенгайтириш ва сифатини ошириш, тадбиркорлик субъектларини янада кўллаб қувватлашнинг ғоят муҳим аҳамияти ва долзарблигини эътироф этади. Ҳозирги даврда хизмат кўрсатиш соҳасида юз бераётган ўзгаришлардан бири - соҳада кичик ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг сон жиҳатидан кўпайиши ва фаолият турлари жиҳатидан кенгайиши ҳисобланади. Бунинг сабаби, бир томондан, хизмат кўрсатиш соҳаси объектив ва субъектив омиллар таъсиридан келиб чиққан ҳолда, кичик ва хусусий бизнес фаолияти учун жуда жозибадор бўлиб ҳисобланади. Иккинчи томондан, республикада кичик ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш ижтимоий-иқтисодий сиёсатнинг устувор йўналишларидан бири эканлиги ва шу сабабли юқори суръатларда ривожланиши ҳисобланади. Жумладан, 2022-йилда қабул қилинган



“Хизматлар соҳасини қўллаб-қувватлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги Президент қарори соҳада кичик корхоналар ва микрофирмаларни имтиёзли кредитлаш, имтиёзли солиқ ставкаларини жорий этиш, янгича хизмат турларини ташкил этиш юзасидан инфраструктураларни яхшилаш ҳамда тадбиркорларни молиявий қўллаб-қувватлаш орқали хизматлар ҳажмини янада кенгайтириш учун рағбат бўлмоқда.



2023-йилнинг январь-июнь ойлари якунларига кўра, ЯИМ таркибида катта бўлмаган ўзгаришлар кузатилган бўлсада, ЯИМ (ЯҚҚ) таркибида хизматлар соҳасининг улуши 44,1 % дан 47,1 % га ошганини кўришимиз мумкин.

ЯИМнинг бошқа тармоқарига назар ташлайдиган бўлсак, жумладан, қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалигининг улуши 20,9 % дан 20,1 % га, саноатнинг улуши 28,0 % дан 26,3 % га, қурилиш тармоғининг улуши 7,0 % дан 6,5 % га камайди.






Жорий йилнинг ўтган 8 ойида тармоқлар кесимидаги ўсиш кўрсаткичлари 2022-йилнинг мос даврига нисбатан ўзгаришлари қуйидагича акс этган:

хизмат кўрсатиш соҳаси - 58,7 трлн сўмга;

қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги - 12,9 трлн сўмга;


саноат соҳаси - 12,6 трлн сўмга;

қурилиш соҳаси - 3,3 трлн сўмга ошган.



Иқтисодий тармоқларда хизматлар соҳасининг ўсиш сур'ати юқори бўлганлиги сабабли, ушбу соҳадаги ўзгаришлар ҳамда ривожланишлар келгусида ҳам янада ўсиши прогноз қилинмоқда.

Research Science and  
Innovation House





Шунингдек, хизматлар соҳасида молия, алоқа ва ахборотлаштириш, та’лим ва транспорт хизматларидаги ўзгаришлар бошқа турдаги хизматларга nisbatan юқори ўсиш бўйича натижаларни қайд этган.

Мисол учун, қуйидаги диаграммаларда бир неча йиллик ўсиш тенденциялари билан юқори ўсишни қайд этган хизматларни кўришимиз мумкин:

Умуман олганда, 2021-йилдан бугунги кунга қадар корхона ва ташкилотлар томонидан жами 357 трлн сўмлик хизматлар кўрсатилди, хизматлар ҳажми эса 2020-йилга nisbatan 2 баробарга ўсди.

Хулоса қилиб айтганда, хизматлар ҳажмининг ўтган йилларга nisbatan жадал ўсиб бориши аҳоли жон бошига кўрсатилган хизматлар ҳажмининг юқори ўсишига ҳамда аҳоли даромадларининг кўпайишига сабаб бўлмоқда.





### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nusriddinovich, i. N., & ilhomkhojayevna, a. N. (2022). Cyber threats, vulnerabilities and risks in economic sectors. *Galaxy international interdisciplinary research journal*, 10(9), 139-140.
2. Ibragimov, n., amirov, a., & abduraxmanov, v. (2022). Axborot tizimlarining tahdidga zaifligi. *Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: muammolar va yechimlar*, 1(28), 15-18.
3. Ibragimov, n. N. (2021, april). An imitation model of the development of public utilities. In *archive of conferences* (vol. 19, no. 1, pp. 18-20).
4. Ibragimov, n. N. (2021, april). Empirical modeling of public utilities. In *archive of conferences* (vol. 18, no. 1, pp. 19-20).
5. Ibragimov, n. N. (2021, april). Econometric modeling of public utilities. In *archive of conferences* (vol. 20, no. 1, pp. 54-55).
6. Mukhitdinov, s. K., & ibragimov, n. N. (2021, april). The importance of improving the quality of information and communication technologies in the provision of utility services. In *archive of conferences* (vol. 20, no. 1, pp. 52-53).
7. Mukhitdinov, k. S., & ibragimov, n. (2021). Providing household goods and computer repair services to the population of the region. *South asian journal of marketing & management research*, 11(2), 22-32.
8. Ibragimov, n. N., aliev, g. M., abdinov, d. S., mamedov, s. M., & mekhtieva, s. I. (1970). Certain results of research on selenium. *Soviet physics uspekhi*, 12(6), 792.
9. Iso 15190:2003. Medical laboratories — requirements for safety.
10. Yusupovna, muxammadiyeva yulduz. "qashqadaryo viloyati salohiyatini iqtisodiy tahlili." *journal of universal science research* 1.11 (2023): 371-374.
11. Ibragimov, nodirjon nusriddinovich, et al. "globalashuv jarayonida axborot xavfsizligiga va ahamiyati." *scientific progress* 4.4 (2023): 38-41..
12. Nusriddinovich, ibragimov nodirjon, abduraxmanov vohid abdumuqim o'g'li, and amirov akbarshox dilshod o'g'li. "axborot xavfsizligiga tahdidlarni tahlili va baholash." *journal of universal science research* 1.4 (2023): 93-97.
13. Nusriddinovich, ibragimov nodirjon, and abdurakhmanov vahid abdumuqim oglu. "relevance and importance of ensuring the security of information in networks." *galaxy international interdisciplinary research journal* 11.4 (2023): 906-908.

## UY-JOY KOMMUNAL SOHAGA KLASTER BOSHQARUVI YORDAMIDA INNOVATSION RIVOJLANTIRISH

**Adilova Yulduz Shavkatovna**

Qarshi tumani “Yengil sanoat” kolleji direktori

**Bebutov Jasurbek Jamshid o‘g‘li**

TATU Qarshi filiali “Kompyuter Tizimlari” kafedrası magistranti

**Annotasiya:** Maqolada AQSh va Yevropa mamlakatlaridagi kommunal xizmatlar uy-joy fondini boshqarish bo‘yicha xorijiy tajribalar keltirilgan. Uy-joy kommunal xizmatlarini ko‘rsatuvchi xususiy va davlat tashkilotlari o‘rtasida raqobatni shakllantirish xususiyatlari ko‘rib chiqildi va qiyosiy taqqoslash usuli bilan ilmiy tavsiyalar keltirildi.

**Kalit so‘zlari:** uy-joy kommunal xo‘jaligi, boshqaruv, AQSH, Yevropa, uy-joy bozori, MDH mamlakatlari, kam ta‘minlangan oilalar, subsidiyalar

**Kirish.** Uy-joy kommunal xo‘jaligi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishining eng muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Mulkchilikning barcha shakllarining ushbu sohasidagi teng huquqlilik asosida uning ishlash sifati uy-joy-kommunal xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar sifati sohasini va prinsiplarni amalga oshirish uchun tarmoq muhitini yaratishga imkon beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Uy-joy kommunal xo‘jaligini boshqarishni tashkil etishning ilmiy-uslubiy jihatlarini chet ellik olimlar Gracheva I.I., Gnezdova Yu.V., Romanova Yu.A., Oboymova N.T, Savotina S.V, Korolyuk Ye.V., Molchan A.S., kabi xorij davlatlari iqtisodchi olimlari tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada asosan xorijiy tajribalarni monografik tahlillar natijasida o‘rganilib, rivojlangan mamlakatlardagi ijtimoiy xizmat ko‘rsatish va kommunal xizmatlari keltirilib o‘tilidi.

**Tadqiqot natijalari va tahlili.** Rivojlangan mamlakatlarda umuman xizmat ko‘rsatish sohasiga va ayniqsa uy-joy kommunal sohasiga katta e‘tibor beriladi. Qo‘shma Shtatlarda davlat ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni tartibga solishi, ushbu sohani moliyalashtirish manbai federal, shtat va mahalliy byudjetlardir. O‘rganilayotgan tizimning rivojlanishini boshqarishda mahalliy hokimiyat organlarining etakchi o‘rni shundaki, ular ushbu soha tomonidan taqdim etilayotgan



xizmatlarga talab va taklifning muvofiqligini va mahalliy byudjetdan ajratilgan mablag‘larning umumiy hajmini nazorat qilishadi.

Rivojlangan mamlakatlarda uy-joylarning joriy faoliyati va ta'mirlash masalalarida ijarachilar manfaatlarini himoya qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'mirlash mahalliy qabul qilingan standartlarga muvofiq bo‘lishi kerak, ham kvartiralar, ham jamoat ob'ektlari ta'mirlanishi kerak. Butun binoni yangilash xarajatlari qisman maxsus soliqlar hisobiga qoplanadi (Avstriya, Belgiya va boshqalar). Agar kerakli ishlar bajarilmasa, boshqaruv kompaniyasi pulni foizlar bilan qaytarishga majburdir. Norvegiyada uy egasining belgilangan muddatda kapital ta'mirlashni tugatmaganligi, hokimiyatga o‘z tashabbusi bilan yoki ijarachining iltimosiga binoan uyni qaytarib olish huquqini beradi. Agar ijarachi ta'mirlash xarajatlarining bir qismini o‘z zimmasiga oladigan bo‘lsa, u holda uning ijara miqdori to‘g‘irlanadi (Daniya, Finlyandiya, Fransiya, Germaniya va boshqalar).

Shunday qilib, uy egalari va ijarachilar o‘rtasidagi munosabatlardagi aniqlik, ularning qonuniy tasdiqlanishi, aholining haqiqiy to‘lov qobiliyatini davlat tomonidan hisobga olish va shu asosda uy-joy narxlarini tartibga solish, kommunal to‘lovlar uchun subsidiyalar va subsidiyalar fuqarolarni ijtimoiy himoyalashga yordam beradi uy-joy kommunal xizmatlar bozori.

MDH mamlakatlarida uy-joy-kommunal sohasidagi islohotni amalga oshirayotganda, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasi va uni qayta tuzishni amalga oshirgan sobiq socialistik mamlakatlar tajribasi moslashtirilishi va hisobga olinishi kerak. Estoniyada islohot to‘rt yil davom etdi. 1992 yildan boshlab yer solig‘i, ta'mirlash ishlari, binolarni sug‘urtalash, binoni to‘liq tiklash uchun amortizasiya asta-sekin ijara tarkibiga kiritildi. Shu bilan birga, ijara uchun shiftni belgilash huquqi mahalliy hokimiyat organlariga o‘tkazildi. Natijada, 1996 yilda munisipalitetlar tomonidan belgilangan ijara chegarasi har bir kvadrat metr uchun oyiga 0,2 dan 0,8 dollargacha bo‘lgan, ijara narxi esa o‘tgan ikki yilda deyarli ikki baravarga oshgan.

Estoniyada kam ta'minlangan oilalar uchun davlat nafaqa tizimi joriy etildi. Ular uy-joy narxi sof daromadning 30 foizidan oshadigan oilalarga tegishli. Shu bilan birga, imtiyozlar miqdori bilan emas, balki hukumat tomonidan standartlashtirilgan kommunal xizmatlar hajmi bilan belgilanadi.

**Xulosa.** Uy-joy kommunal sohasi faoliyatining jahon amaliyoti uy-joy fondi egasining funksiyalarini taqsimlash va ularga uy-joy-kommunal ob'ektlarini boshqarish va xizmat ko'rsatish funksiyalarini ixtisoslashtirilgan tashkilotlarga tanlov asosida topshirish samaradorligini isbotlaydi. Shu bilan birga, uy-joy fondining egasi, uy-joy kommunal xizmatining buyurtmachisi va xizmat ko'rsatuvchi pudratchilar o'rtasida munosabatlar shakllanadi.

Shunday qilib, shuni ta'kidlash kerakki, uy-joy kommunal xizmatlarining ayrim segmentlarida ham raqobat imkoniyatlaridan foydalanish ko'p jihatdan nafaqat jismoniy shaxslar, balki davlat xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi. Bundan tashqari, raqobatning kuchayishi aholini sifatli xizmatlar bilan ta'minlash uchun qo'shimcha imkoniyatlarning paydo bo'lishi uchun sharoit yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nusriddinovich, i. N., & ilhomkhojayevna, a. N. (2022). Cyber threats, vulnerabilities and risks in economic sectors. *Galaxy international interdisciplinary research journal*, 10(9), 139-140.
2. Ibragimov, n., amirov, a., & abduraxmanov, v. (2022). Axborot tizimlarining tahdidga zaifligi. *Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: muammolar va yechimlar*, 1(28), 15-18.
3. Ibragimov, n. N. (2021, april). An imitation model of the development of public utilities. In *archive of conferences* (vol. 19, no. 1, pp. 18-20).
4. Ibragimov, n. N. (2021, april). Empirical modeling of public utilities. In *archive of conferences* (vol. 18, no. 1, pp. 19-20).
5. Ibragimov, n. N. (2021, april). Econometric modeling of public utilities. In *archive of conferences* (vol. 20, no. 1, pp. 54-55).
6. Mukhitdinov, s. K., & ibragimov, n. N. (2021, april). The importance of improving the quality of information and communication technologies in the provision of utility services. In *archive of conferences* (vol. 20, no. 1, pp. 52-53).
7. Mukhitdinov, k. S., & ibragimov, n. (2021). Providing household goods and computer repair services to the population of the region. *South asian journal of marketing & management research*, 11(2), 22-32.
8. Ibragimov, n. N., aliev, g. M., abdinov, d. S., mamedov, s. M., & mekhtieva, s. I. (1970). Certain results of research on selenium. *Soviet physics uspekhi*, 12(6), 792.
9. Iso 15190:2003. Medical laboratories — requirements for safety.





10. Yusupovna, muxammadiyeva yulduz. "qashqadaryo viloyati salohiyatini iqtisodiy tahlili." journal of universal science research 1.11 (2023): 371-374.
11. Ibragimov, nodirjon nusriddinovich, et al. "globallashuv jarayonida axborot xavfsizliga va ahamiyati." scientific progress 4.4 (2023): 38-41..
12. Nusriddinovich, ibragimov nodirjon, abduraxmanov vohid abdumuqim o'g'li, and amirov akbarshox dilshod o'g'li. "axborot xavfsizligiga tahdidlarni tahlili va baholash." journal of universal science research 1.4 (2023): 93-97.
13. Nusriddinovich, ibragimov nodirjon, and abdurakhmanov vahid abdumuqim oglu. "relevance and importance of ensuring the security of information in networks." galaxy international interdisciplinary research journal 11.4 (2023): 906-908.



---

Research Science and  
Innovation House



## TEST RESULTS OF A NEW SEEDER FOR SEEDING ONION SEEDS

Karshi Institute of Irrigation and Agrotechnology at the National Research  
University “TIHAME”

Eshdavlatov Akmal Eshpulatovich  
Yusupov Fuzayl Farxod o‘g‘li

**Abstract.** (Purpose of research) To develop a new vegetable seeder in relation to the soil and climatic conditions of Uzbekistan and to determine the onion seed rate depending on the length of the active part of the seed coil, as well as to assess the quality of the formation of sowing ridges and irrigation furrows.

**Key words:** seeder, sowing apparatus, onion seeds, sowing ridges, irrigation furrows, sowing, sowing belt method, sowing rate, active part of the sowing coil, dependence.


Increasing the level of cultivation of vegetable crops is one of the important tasks facing farmers of the Republic of Uzbekistan. Onions occupy a significant share in vegetable production. Special seeders are used to sow its small seeds.. However, there is no local production of such machines, while many different pneumatic seeders are produced abroad. They provide precise sowing of seeds to a given depth in a row method. But foreign samples are complex in design, are not adapted to the soil and climatic conditions of Uzbekistan, and cannot ensure uniform placement of seeds on the ridges. The cost of the seeders themselves and service is very high. Therefore, farmers and peasants are forced to adapt other available technical means. In addition, the operations of preparing the soil and sowing seeds are carried out separately, which each time is accompanied by the arrival of units on the field, excess consumption of fuel and lubricants, time and labor costs. All this increases the cost of production.

**Purpose of research** – develop a vegetable seeder in relation to the soil and climatic conditions of Uzbekistan, determine the sowing rates of onion seeds depending on the length of the active part of the sowing wheel, evaluate the quality of the formation of seed ridges and irrigation furrows.

**Materials and methods.** The Research Institute of Agricultural Mechanization has developed a new seeder for sowing onion seeds and other small-



seeded vegetable crops (Fig. 1). In one pass, it cuts irrigation furrows with the formation of trapezoidal seed ridges and sows onion seeds or other small-seeded crops using the belt method in three rows in each belt. As the seeder moves across the field, furrow cutters cut irrigation furrows and form ridges. Levellers cut off the upper part of the ridges, giving them a trapezoidal shape. A slide with coulters seals the upper part of the ridge using a spring of a parallelogram mechanism. The coulters open the seed grooves of the required depth. Onion seeds are dosed with grooved seeding coils and fall into the seed ducts, and then into the sowing grooves. The sealing working body covers the seeds with a thin layer of soil. Markers are used to indicate the subsequent arrivals of the sowing unit.



**Fig.1. Design diagram of a vegetable planter:**  
**a – side view; b – top view**

1 – frame; 2 – drive; 3 – three-point hitch; 4 – marker; 5 - hopper; 6 – seeding machine; 7 – parallelogram mechanism; 8 – seed duct; 9 – sealing working body; 10 – coulter; 11 – coulter slide; 12 – leveler; 13 – furrow cutter; 14 – support and drive wheel

To determine the seeding rate of onion seeds in the laboratory, its dependence on the length of the active part of the seeding coil was studied, which was changed by moving the device relative to the body of the apparatus.

The seed ducts of the sowing machines were removed and numbered cups for collecting the sown seeds were placed under the receiving funnels of the devices. Then, setting a certain position of the seeding coil along the length, the seeding was

carried out in 10 revolutions of the support and drive wheel, which is equivalent to a distance of 12.56 m (wheel diameter 0.4 m). The sown amount of seeds was weighed with an accuracy of 0.01 g. The seeding rate is 10 times for each coil position along the length. The length of the active part of the seeding coil was 0; 5; 10; 15 and 20 mm.

The seeding rate is determined by the formula:

$$Q = \frac{10qn}{BC}$$

In this here  $Q$  is the seeding rate of the seeder, kg/ha;

10 – conversion factor;

$q$  – sowing seeds from 1 machine per 1 revolution of the support-drive wheel, g;

$n$  – the number of sowing machines on the drill;

$B$  – the width of the seeding machine, m;

$C$  – is the length of the path traveled in 1 revolution of the support and drive wheel of the seeder, m.

The quality of the formation of seed ridges and irrigation furrows was assessed during preliminary field tests. The furrows were adjusted to a row spacing of 70 cm, the depth of the irrigation furrows is 10 cm, the width of the ridges along the top is 40 cm. After carrying out all the adjustment work and trial runs, a registration check-in was carried out on the site, having previously determined the transverse profile of the field before the passage of the unit. After passing the unit in the same places, the profiles of the obtained sowing ridges and irrigation furrows were studied. To do this, a well-known technique was used, using a special rail with a scale with divisions of 5 cm and a ruler. The repeatability of removing profiles is 5-fold.

**Results and discussion.** The seeding rate is directly proportional to the length of the active part of the seeding coil: the longer the length of the coil, the higher the seeding rate (table). Thus, the average seeding rate for three seeding machines of the same row (ridge) with a length of the active part of 5 mm for 10 revolutions of the support-drive wheel was 1.89 g of seeds with a coefficient of variation of 4%.

The width of the gripper  $B = 2.8$  m, the number of sowing machines on the drill  $n = 12$  pcs, the length of the path traveled in 1 revolution of the support-drive wheel,  $C = 1.256$  m. Therefore, the seeding rate of onion seeds per hectare by the



seeding machine with a length of the active part equal to 5 mm will be equal to 6.45 kg / ha.


**Table**

**The dependence of the seeding rate of onion seeds on the length of the active part of the coil**

Length of the active part of the coil, mm	The average seeding rate for three machines, g	Coefficient of variation of the seeding rate between devices, %	Seeding rate of the seeder, kg/ha
5	1,89	4,0	6,45
10	3,91	2,8	13,34
15	8,27	3,7	28,22
20	11,63	2,7	39,68

With a length of the active part of the seeding coil of 20 mm, the sowing of onion seeds was 11.63 g/m<sup>2</sup>, or 39.68 kg /ha, and the coefficient of variation was 2.7%.

The dependence of the seeding rate of the seeding machine on the length of the active part of the seeding coil has a weakly expressed parabolic shape (Fig. 2).



**Fig. 2. Change in the seeding rate of onion seeds depending on the length of the active part of the seeding coil**

According to the initial requirements, the seeding rate of small vegetable seeds with one device should be within 24-48 pcs. / sq. m. In our case, when the seeder



has a working width of 2.8 m and sows 12 rows in 1 pass, this corresponds to the norm of 3.9-7.8 kg / ha (weight 1000 pcs. onion seeds are equal to an average of 3.8 g). To sow onion seeds with the specified norms, the sowing coil must have an active length within 3.3-6.2 mm (Fig. 2).

In preliminary field experiments, the row spacing was  $68.8 \pm 4.8$  cm instead of the specified 70 cm (coefficient of variation  $V = 7.0\%$ ). The width of the ridges at the top is set to 40 cm. In fact, the average was  $42.5 \pm 2.9$  cm ( $V = 6.8\%$ ). The depth of irrigation furrows averaged  $9.6 \pm 0.4$  cm ( $V = 4.3\%$ ).

**Conclusions.** The developed vegetable seeder for sowing small-seeded vegetable crops with simultaneous formation of seed ridges and cutting of irrigation furrows is operable, provides set norms for sowing onion seeds, high-quality cutting of seed ridges and irrigation furrows.

#### LIST OF LITERATURES

1. Hoque M.A., Wohab M.A. Development and evaluation of a drum seeder for onion // Int. J. Agril. Res. Innov. & Tech. 2013. N3(1). pp.23-28.
2. Маматов Ф.М. Сельскохозяйственные машины. –Ташкент: Ворис, 2014. – 387 с.
3. Ibragimov A., Karakhanov A., Abdurakhmanov A., Eshdavlatov A., Uteniyazov P., Khadzhiev A. Research results for a new onion seed drill // Agricultural machinery and technologies. – Moscow, 2020. – N 4. – C.12-16.
4. E E Eshdavlatov, F M Mamatov, A E Eshdalatov, A A Suyunov and F F Yusupov. Drum dispenser of feed additives. Conf.Series:Earth and Environmental Science 1284 (2023) 012012 IOP ETESD-II-2023.IOP

Research Science and  
Innovation House





## Alkaloidlarining o‘simlik dunyosida tarqalishi, biosintezi va xususiyatlari

Otoboyeva Maxbuba Yunusjon qizi  
Xiva qishloq xo‘jalik texnikumi  
Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va  
qayta ishlash texnologiyasi  
yo‘nalishi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada alkaloidlarining o‘simlik dunyosida tarqalishi, biosintezi va xususiyatlari xususida qimmatli fikrlar yuritilgan.

**Kalit so‘zlari:** alkaloid, o‘simlik, biosintezi, fiziologik, xususiyatlar

**Kirish.** O‘simliklar tarkibida uchraydigan, kuchli fiziologik ta’sirga ega bo‘lgan azot saqlovchi geterotsiklik asoslar alkaloidlar deyiladi. Alkaloid so‘zi arabcha – alkali – ishqor, grekcha – oides – simon so‘zlaridan olingan bo‘lib, “ishqorsimon” degan ma’noni anglatadi.

O‘simliklarning ko‘knorguldoshlar (Papaveraceae), dukkakililar (legumin-seae), ituzumguldoshlar (Solanaceae), ayiqtovonguldoshlar (Ranunculaceae), zirkulgudoshlar (Berberidaceae) singari oilalari alkaloidlarga boy. O‘simliklarda alkaloidlarning miqdori turlicha bo‘ladi.

O‘simliklarda alkaloidlar asosan organik kislotalarning (olma, limon, oksalat, qahrabo, sirka, propion, sut kislotalari va hokazo) tuzlari holida uchraydi. Deyarli barcha alkaloidlar erkin asos holida suvda erimaydi, ularning tuzlari esa suvda, spirtida, qon plazmasida va turli fiziologik eritmalarda yaxshi eriydi. Tibbiyotda alkaloidlarning tuz holida ishlatilishi ham ularning eruvchanligiga asoslangan.

Alkaloidlar o‘simliklardan suv va spirt yordamida (tuz holida) yoki boshqa organik erituvchilar bilan (asos holida) ekstraksiya qilib ajratib olinadi. Erituvchilar haydalgandan so‘ng qolgan qoldiq «alkaloidlar yig‘indisi» dan maxsus usullar (masalan, xromatografiya usuli) yordamida alkaloidlar alohida-alohida ajratib olinadi. Alkaloidlarning ko‘pchiligi oson kristallanadigan, rangsiz moddalar bo‘lib, ayrimlarigina (konin, nikotin, anabazin) suyuq holatda bo‘ladi. Ko‘pchilik alkaloidlar optik aktivlikka ega.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Alkaloidlar kimyosining rivojlanishiga o‘zbek olimlaridan akademik S.Yunusov (1909-1995)

va O.Sodiqovlar (1913-1987) katta hissa qo‘shishgan. Hozirgi kunda Respublikamizda O‘zbekiston fanlar akademiyasi O‘simlik moddalar kimyosi va Bioorganik kimyo institutlarida hamda O‘zbekiston Milliy Universiteti kimyo fakultetida alkaloidlar sohasida ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda va ulkan muvaffaqiyatlarga erishilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda alkaloidlar kimyosi Sobir Yunusovich Yunusov rahbarligida yuqori cho‘qqilarga erishdi. O‘simlik moddalar kimyosi instituti alkaloidlar kimyosi laboratoriyasi xodimlari akademik S.Yu.Yunusovning bevosita rahbarligi va ishtirokida Markaziy Osiyo florasining 4000 dan ortiq o‘simligini alkaloid saqlash nuqtai nazaridan tekshirib chiqdilar. 270 dan ortiq o‘simlik turidan 900 dan ortiq alkaloid ajratib olindi, ulardan 520 ga yaqin alkaloidlarning kimyoviy tuzilishi aniqlandi. Institutda o‘tkazilgan kompleks tadqiqotlar natijasida hozirgi kunda 10 dan ortiq dori-darmonlar sanoat miqyosida ishlab chiqarilmoqda.

**Tadqiqot ishining metodologik asosi (Research methodology).** Hozirgi vaqtda alkaloidlar ular molekulasiga kiradigan geterotsikl tabiatiga qarab quyidagilarga farqlanadi:

1. Piridin va piperidin guruhi alkaloidlari (nikotin, anabazin, lobelin).
2. Tropan guruhi alkaloidlari (tropin, ekgogin, atropin, kokain)
3. Purin guruhi alkaloidlari (teofillin, teobromin, kofein)
4. Xinolin guruhi alkaloidlari (xinin, sinxonin).
5. Izoxinolin guruhi alkaloidlari (papaverin, narkotin).
6. Fenantren – izoxinolin guruhi alkaloidlari (morfin, kodein) va hokazo.

**Tropan guruhi alkaloidlari.** Tropan guruhi alkaloidlaridan eng ahamiyatlilari atropin va kokaindir.

**Atropin.** Atropin – ituzumdoshlar oilasiga mansub o‘simliklar: belladonna (*Atropa belladonna*), mingdevona (*Hyoscyamus niger*), bangidevonaning ba’zi turlari (*Datura stramonium*) tarkibida mavjud bo‘lgan o‘simlik alkaloidi. Atropin – tropin spirti va trop kislotasidan hosil bo‘lgan murakkab efir hisoblanib, kristall modda, eng kuchli zaharlardan biri. Juda kichik miqdori tibbiyotda dori sifatida qo‘llaniladi. U silliq muskullarning spazmatik ravishda qisqarib turadigan har xil kasalliklarida yordam qiladi. U ichak, jigar, buyrak sanchiqlarida va bronxial astmada naf beradi. Atropin bunday hollarda silliq muskullarning bo‘shashuviga sabab bo‘ladi va og‘riq sezgilariga barham beradi. Atropin izomeri - giostsiamin,



atropindan faqatgina qutblangan nurni chapga burishi bilan farqlanadi. U ishqor hamda yuqori harorat ta'sirida, optik xususiyatini tez yo'qotadi va natijada atropinga aylanib qoladi.

**Fizik-kimyoviy xossalari.** Hidsiz, oq rangli donador yoki kristallchalardan iborat bo'lgan kukun. Suv va spirtida oson eriydi. Eritmalari neytral xossaga ega. Inekson eritmalariga, stabilizatsiyalash uchun, pH 3,0-4,5 bo'lgan xlorid kislotaga qo'shiladi. 30 daqida davomida +100°C temperaturada sterillanadi. Atropin optik jihatdan harakatsiz: fiziologik faol levorotatoriya va fiziologik faol bo'lmagan dekstrorotatsion izomerlar aralashmasi. Levorotator izomeriga giotsiamin deyiladi va atropindan 2 baravar faolroq. O'simliklarda uchraydigan tabiiy alkaloid bu giotsiamin; alkaloidni kimyoviy izolatsiyasi bilan u asosan rasemik shaklga - atropinga aylanadi.

**Organizmga ta'siri.** Atropinning asosiy farmakologik xususiyati uning m-xolinergik retseptorlarini blokirovka qilish qobiliyatidir; u shuningdek n-xolinergik retseptorlarga ta'sir qiladi (juda zaif bo'lsa ham). Shuning uchun atropin selektiv bo'lmagan m-xolinergik retseptorlari blokerlariga tegishli. Tibbiyotda atropin sulfat oshqozon yarasini va 12 barmoqli ichak yaralarini davolashda, xoletsistit, o't pufagi toshlari xastaliklarida, bronxial astma, yo'g'on ichak va peshob kanali spazmlarida qo'llaniladi. Oftalmologiyada ko'z tubini ko'rish uchun qo'llaniladi. Ko'pincha bolalar belladonna o'simligini mevasini va ituzumdan ko'proq iste'mol qilganda baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin. Atropin ishqoriy muhitda organik erituvchilar bilan ekstraksiyalab ajratib olinadi. Zaharlanish alomatlari atropin uchun juda xarakterlidir, chunonchi avval asab tizimi qo'zg'olishi kuzatilib, kishi talvaslanadi, harakat qilishi tezlashadi, beixtiyor gapirish va kulgu kuzatiladi. Bundan keyin parasimpatik nerv oxirlarini paralichlanib, ko'z qorachig'ini kengayadi, burun qurishi, xurрак otish, terini qurishi va qizishi kuzatiladi. O'lim sodir bo'lganda patalogo-anatomik tekshirish xarakterli emas. Atropin shilliq pardalar, teri va ichak orqali yaxshi shimiladi. Organizmga tushgan atropinning bir qismi qonga so'riladi, ikkinchi qismi zardob oqsillari bilan birikadi. Atropinni organizmda saqlanishi to'g'risida olimlarimiz har xil ma'lumotlar beradilar. Ba'zilari atropin organizmda tez parchalanadi degan fikr bersa, boshqalari esa 3 hafta yoki 2 yilgacha organizmda saqlanishi mumkin degan fikr beradilar. Umuman, atropin organizmda trop kislotasi va tropin spirtigacha parchalanadi, undan tashqari bir

necha metabolitlar hosil qilib, organizmga tushgan atropinning 50% o'zgarmagan holda peshob orqali ajraladi.

**Skopolamin.** Skopolamin bangidevona o'simligida uchrab, u skopin va trop kislotasidan tashkil topgan murakkab efirdir. Tibbiyotda skopolamin bromid holida qo'llaniladi. Asos holida quyuc qiyomsimon modda bo'lib, organik erituvchilarda yaxshi eriydi, tuzi esa suvda, spirtida yaxshi erib, efir va xloroformda erimaydi. Organik erituvchilar bilan ishqoriy muhitda ajratib olinadi (pH=8-10). Skopolamin atropin kabi ko'z qorachig'ini kengaytiradi, shilliq parda mushaklarini bo'shashtiradi, bezlar sekretsiasini susaytiradi. "Aeron" tabletkasi qusishga qarshi va tinchlantiruvchi dorilar tarkibiga kiradi. Organizmda oqsillar bilan yaxshi birikadi, qisman gidrolizlanadi. Asosan jigarda parchalanadi va peshob bilan chiqariladi.

**Kokain.** Kokain Janubiy Amerikada o'sadigan kokka o'simligining barglari tarkibida uchraydigan kristall modda bo'lib, 98°C da suyuqlanadi. Tibbiyotda kokain alkaloidining xlorid kislotali tuzi narkotik ta'siriga ega (kokainizm) bo'lganligi sababli ko'z, quloq, tomoq, burun bo'shlig'idagi shilliq qavatlar kasalliklarida hamda jarrohlikda og'riq qoldiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Kokain kuchli zaharli modda, parallich qilish qobiliyatiga ega. Nerv sistemasining sezish qobiliyatiga ta'sir qiladi. Kokain ko'p ishlatilsa unga o'rganib qolish mumkin, shuning uchun ham u zarur holatlardagina ishlatiladi. Hozirgi vaqtda uning o'rnida novokain, dikain kabi anestetik moddalar ko'proq ishlatiladi. Kokain (lotincha: Cocainum) — koka butasi bargidan olinadigan alkaloid.

Rangsiz, ta'mi achchiq, suvda yaxshi eriydigan kristall. Ogriqsizlantiruvchi moddalar guruhiga kiradi. Kuchli zaharlovchi ta'siri borligidan faqat kon'yunktiva, mugo'z parda, og'iz, burun, tomoq shilliq pardalari, siydik chiqarish nayi va boshqalarni mahalliy og'riqsizlantirishda ishlatiladi. Kokainga ruju qilinganda unga o'rganib qolinadi (kokainizm). Hadeb iste'mol qilinaversa, narkomaniyaga olib kelishi mumkin. Kokainizm yoki kokainomaniya — giyohvandlik (narkomaniya, bangilik) ning bir turi; ogriqsizlantiruvchi alkaloidlar guruhiga mansub kokainga o'rganib qolish, uni iste'mol qilmasdan turolmaslik. Kokainni giyohvandlar teri ostiga, venaga yuborib, ko'p hollarda hidlab kayf (eyforiya) qiladilar. Birinchi marta iste'mol qilgan kishi xushchaqchaq, sergap, serharakat bo'lib qoladi, fikrlashi tiniqlashgandek tuyuladi va har xil ishlarni bajarishga ishtiyoqi kuchayadi; 2—3 soat o'tgach, bu holat kayfiyatning aynishi, umumiy holsizlanish, ta'sirchanlikning





kuchayishi va loqaydlik bilan almashinadi. Kokainda o‘tkir va surunkali zaharlanish kuzatiladi. O‘tkir zaharlanishda yuz oqaradi, ko‘z qorachiq-lari kengayadi, yurak urishi tezlashadi. Bosh aylanadi, holsizlik, nafas markazining falajlanishi ro‘y beradi, oqibatda nafas to‘xtab qolishi mumkin. Surunkali zaharlanishda kokainga juda tez o‘rganib qolinadi va giyohvandlarning shaxsi tezda tubanlashib (degradatsiya) ketadi. Kokainga muhtalo bo‘lganlar tez orada qo‘pol, ezma, xudbin, shubhalanuvchan, ta’sirchan, isqirt, qarimsiq bo‘lib qoladi. Mehnat qilmay tekinox‘rlarcha hayot kechiradi va butunlay odamgarchilikdan chiqib ketadi. Kokainni surunkali va uzoq vaqt iste’mol qilgan giyohvandlarda kokain psihozi (illyuziyalar, qo‘rqinchli ko‘ruv gallyusinatsiyalari, taktil gallyusinoz, rashk va boshqalar), vasvasalar ko‘zatilishi mumkin. Keyingi yillarda og‘riqsizlantiruvchi preparatlarning ko‘pgina boshqa turlari paydo bo‘lishi tufayli davolash amaliyotida kokainni qo‘llash taqiqlangan, shu bois uni iste’mol qilish kamaydi.

**Xinolizidin alkaloidlari** – har xil tuzilishli birikmalardan iborat, ular asosida xinolizin struktura fragmenti- bisilin geteroxalqadan iborat bo‘lib xalqa tugunida azot atomi uchraydi, dekalin azotli hosilasiga o‘ziga xosdir. Bu gurux alkaloidlarining oddiy vakili lupinindir, xinolizidin alkaloidlari qatori ikkita kondensirlangan bir xil getroxalqali strukturalardan iborat (spartein va afilin). Bu guruh alkaloidlariga ayrim likopodium alkaloidi ( masalan, likopodin) kiradi, ular ayrim, ya’ni ajratilgan xomash’yoga qarab bo‘linadi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Bu alkaloidlar har xil biologik faollikga ega, nafas olish markazlarini qo‘zg‘aydi, arterial bosimni ko‘taradi, bachadonni qisqartiradi va x.k.zo. Lekin yuqori toksikligi sababli tibbiyotda qisman qo‘llaniladi: 5% li plaun-baranez ekstrakti (Lecopodium selago) kuchli qayt qiluvchi preparat, alkogolizmni davolashda qo‘llaniladi.

Ayrim xinolizidin alkaloidlari dengiz xayvonlaridan ajratilgan, ular terapevtik ahamiyatga ega: galixlorin-indusirlangan VCAM-1 ekspresii ingibitori (tomir xujayralar molekulasi adgeziyasi), ateroskleroz, koronar-arterial kasalliklar, ko‘krak jabbasi (angina) va nonkardiovaskulyar shamollash kasalliklarini davolashda qo‘llanilgan.

Xinolizidin alkaloidlardan indolizidin strukturali alkaloidlar ham qo'llanilgan ularda ayrim o'xshash struktura (azot atomi-bitsikl tugunida) joylashgan. Svansonin-bu gurux vakili kuchli va spetsifik lizosom kislotasi va mannozidaza spetsifik ingibitori hisoblanadi. Bu enzimlarni ingibirlash ayrim gibrid tipidagi oligosaxaridlarni to'planishiga olib keladi va glikoproteidlarni kamayishiga olib keladi, ularning tarkibida tarmoqlangan yon zanjirlar bo'ladi. Rakitnik urug'larida tsitozin ko'proq uchraydi. Nikotinga o'xshab markaziy nerv sistemasini qo'zg'atuvchi ta'sir qiladi, keyin paralichga olib keladi.

Meditzinada paxikarpin ganglio to'shuvchi modda sifatida, periferik qon tomirlari spazmi, surunkali ekzema va gipertoniya kasalliklarida muskul distrofiyalarida (miopatiyada) hamda asosan tug'ruqni tezlashtirish uchun, spartein esa tsitozining o'xshab nafas olishni kuchaytiruvchi sifatida qo'llaniladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акопов И.Э. Важнейшие отечественные лекарственные растения и их применение. – Т.: Медицина, 1990. - 440 с.
2. Борисова Г.Г., Ермошин А.А., Малева М.Г., Чукина Н.В.; Основы биохимии вторичного обмена растений: [учеб – метод. пособие, под общ. ред. Г.Г Борисовой]; М-во образования и науки Рос. Федератции, Урал. федер. Ун-т – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та – 2014.
3. Орехов Алкалоидлар, Химия алкалоидов, М., 1955; Итоги исследования алкалоидоносных растений, Т., 1993.
4. Пўлатова Т.П., Холматов Х.Х. Фармакогнозия амалиёти. – Т.: Ибн Сино, 2002.
5. N.Parpiyev, X.Rahimov, A.Muftaxov "Anorganik kimyo nazariya asoslari", "O'zbekiston", Toshkent, 2000 yil, 478-b.



## ГАСТРОНОМИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ҲОЗИРГИ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ

Тлеуов Н.Р. Қорақалпоқ давлат университети, доцент PhD  
Сағындиқова Ш. Қорақалпоқ давлат университети, магистр  
Утениязова Д. Қорақалпоқ давлат университети, магистр

Қадимий инглиз тилининг турли ёзма манбалари мавжуд бўлиб, булардан энг машҳури “BEOWOLF” дир. Бу энг қадимий инглизча эпик қаҳрамонлик шеър бўлиб, уни ёзган кишининг исми маълум эмас. Аммо тилшунослар фирича бу асар бундан 1000 йиллар аввал ёзилган.

Ўрта Асрлар инглиз тилиси:

Ушбу даврни Англияда французлар истилоси даври деб ҳам юритилиб, истислочилар ўзи билан бирга французча сўзлашувчи ҳокимларни олиб кирди ва француз тили давлат аҳамиятидаги асосий, расмий тил сифатида ишлатилди. Инглиз тили эса аҳолининг паст табақаси, оддий халқ ишлатадиган тилга айланди. 300 йил давомида инглиз тили жуда ўзгарди, чунки у оддий халқ томонидан фақат оғзаки нутқда фойдаланилиб, ёзма инглиз тили деярли ишлатилмаган эди. Шунинг учун ҳам эски инглиз тили қўлланила бошланди. Уни устига турли французча сўзлар кириб келиб, бу тилни бойитди.<sup>4</sup>

Масалан:

Crown, castle, court, parliament, army, mansion, gown, beauty, banquet,  
Art, poet, romance, duke, servant, peasant, traitor ва governor.

<sup>3</sup> "The Origin and History of the English Language", Kryss Katsiavriades

<sup>4</sup> "Language Timeline", The British Library Board



чорвачилик, деҳқончилик билан оддий аҳоли шуғулланганлиги учун ҳайвон номлари инглизча (cow, sheep, swine, deer) аммо ошпазлар ўз вакилларидан бўлганлиги учун гўшт номлари франсузча ном билан аталган, масалан: (beef, veal, mutton, pork, bacon, venison).<sup>5</sup>

Ўрта асрлар инглиз тилиси учун энг мақбул мисол бу Чаусернинг “The Canterbury Tales”, Кантербуй эртаклари бўлиб, бу эртаklar асосан 30 кишидан иборат бўлган зиёратчилар гуруҳини Англияга сафари ҳақидадир. Асар орқали XIV аср ҳаёти ҳақида жуда кўп маълумотларни олса бўлади.<sup>6</sup>

Замонавий Инглиз тили (1500 йилдан ҳозирги давргача бўлган инглиз тили).

Замонавий инглиз тилининг пайдо бўлиши ва ривожланиши 1476-йилда Уильям Какстон томонидан биринчи бўлиб Уестминстер черковига нашр қилувчи усқунани ўрнатганлиги билан боғланади. Аслида, 1450-йилда Жонан Гутенберг нашр қилувчи усқунани яратган бўлиб, у Германиялик эди. Аммо Какстон биринчи бўлиб нашриётни Англияда ташкил қилди. Библия ва шунга ўхшаш қимматли асарлар шу ерда чоп қилинди. Чоп қилиш усқунасини яратилиши бир турдаги китобларни кўпчиликка етиб боришини таъминлади. Натижада китоблар арзонроқ бўла бошлади, табиийки ҳамма ўқиб ўрганишга қизиқиб кетди. Нашриётни ташкил топиши инглиз тилида стандартлик тушунчасини пайдо қилди.

Машҳур инглиз ёзувчиси Уильям Шекспир (1592-1616) замонавий инглиз тилида наъмуналар ёзган дастлабки ижодкордир. Замонавий инглиз тилининг ҳам ўз навбатида 3 қисмга: Ренессанс даври инглиз тилиси, Инқилобий даври инглиз тилиси ва Британия колониялари даври инглиз тилисига бўлинди. Ренессанс даври энг кўп грек ва латин тили сўзларини инглиз илгига кириб келиши билан изоҳланса, айрим адабиётлар бу давр Шекспир даври адабиёти ёки Элизабетга эраси даври деб юритилади. XVIII асрларда эса Инқилобий инглиз тили даври луғат бойлигида янги сўзларни пайдо қила бошлади, булар бевосита янги кашф қилинаётган техника воситалари билан боғлиқ эди.

<sup>5</sup> "The Origin and History of the English Language", Kryss Katsiavriades

<sup>6</sup> Расторгуева Т.А. История английского языка. – М.: 1983. – 341с



Масалан: (trains, engine, pulleys, combustion, electricity, telephone, telegraph, camera) ва бошқалар.<sup>7</sup>

Британия Империя сифатида XVIII асрдан XX асргача бутун дунё бўйлаб кенг ёйилди ва ўз навбатида ҳозирги АҚШ, Австралия, Янги Зеландия, Ҳиндистон, ва Осиё, Африка ҳудудларигача етиб борди. Империя халқлари шу ҳудудларда кенг томир ёзиб, жойлаша бошлади. Натижада яна янги ўша ҳудудлар билан боғлиқ бўлган сўзлар кириб инглиз тилини яна бойитди. Аммо инглиз тилининг грамматикасини асосини Англо сакслар шакллантирган бўлса, тил грамматикаси герман тиллари каби қолаверди (he, she,it).

Ҳозирда жами 5 қитъада сўзлашилувчи инглиз тилининг ҳаётийлик давомийлиги 4 асрдан ошади. Колонияларнинг таъсири ҳақида бир неча тарихий мисоллар ва фактлар келтириб ўтилди. Тил ривожини билан унинг Грамматик, лексик, фонетик ўзгаришларга учраганлиги ҳам айтиб ўтилди аммо бу ривожланишлар бу тилдаги мураккаб Грамматик тил қоидаларини чеклаб, янги фойдаланувчилар ўзларига осонроқ шаклда тилни ўзлаштирганликлари инглиз тилини турли жиҳатларининг ўзгаришида намоён бўлади. Ҳозирги кунда тилнинг 4 асосий гуруҳга ҳам бўлиб ўрганилади. Бу гуруҳлар тилнинг географик минтақалараро ўзгариши ва турланиши билан боғлиқдир. Ҳатто XII-XIX асрлар оралиғи инглиз тилининг тарқалиш периоди деб аталиб қиролича Викториа номи билан ҳам инглиз тилининг тил сифатидаги ҳолати боғлиқдир. Ҳатто халқ орасида куёш Британия империясига нур сочишдан ҳеч қачон тўхтамайди дея бу империя давомийлиги абадий деб ишонишган.

# Research Science and Innovation House

<sup>7</sup> Иванова И.П., Чахоян Л.П. История английского языка. – М. 1976





### Фойдаланилган адабиётлар.

1. Абдуазизов А.А. Ҳозирги инглиз тили назарий фонетикаси.- Т.:1986.
2. Абдуазизов А.Тилшунослик назариясига кириш. –Т.:”Шарқ” 2010.
3. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М.:1973.
4. Антрушина Г.Б., АфанасьеваО.В., Морозова Н.Н. Лексикология английского языка. –М.:1985.
5. Crowley,Tony. Standard English and the Politics of Language (2nd ed.). Palgrave Macmillan. 2003.
6. Bex, Tony; Richard J. Watts. Standard English: The widening debate. Routledge.1999.



---

# Research Science and Innovation House

## MATEMATIKANI O‘QITISHDA ELEKTRON RESURSLARDAN FOYDALANISH

**Bahriddinov Odiljon Salim o‘g‘li**

**Toshkent Moliya Instituti Akademik litseyi**

**matematika fani o‘qituvchisi**

[bahriddinovodiljon5631262@gmail.com](mailto:bahriddinovodiljon5631262@gmail.com)

**Tilavov Fazlidan Shokir o‘g‘li**

**Toshkent Moliya Instituti Akademik litseyi**

**matematika fani o‘qituvchisi**

[tilavovfazliddin09@gmail.com](mailto:tilavovfazliddin09@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada matematika fanlarini o‘qitishga yangi texnik vositalar, shu jumladan, kompyuter va boshqa axborot texnologiyalarining jadal kirib kelayotgan hozirgi davrida fanlararo uzviylikni ta‘minlash maqsadida informatika fani yutuqlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri ekanligi yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar.** AKT, axborot texnologiyalari, texnik vositalar, matnlar, tasvirlar, ovozlari, shakllar, arifmetik hisoblashlar, differensial tenglamalar.

### KIRISH

O‘zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiya (AKT) larini yanada rivojlantirish, har bir sohaga tatbiq qilish, mutaxassislarining kompyuter savodxonligini oshirish kabi masalalar davr talabiga muvofiq yechilmoqda.

Hozirgi paytda axborot kommunikatsiyasi rivojlanishining asosiy omillari EHM larning turli sohalarda tobora keng qo‘llanib borayotganligidadir. Kompyuter texnologiyalarining qo‘llanish sohasining kengayishi, axborot texnologiyalarining yaratilishi jamiyat hayotining barcha sohalarda ya‘ni ishlab chiqarishda, fanda, ta‘limda, tibbiyotda va boshqa jabhalardagi rivojlanish ya‘ni tezkor axborot almashinuviga, qisqa vaqtda axborotlarni qayta ishlash, o‘z vaqtida manbaga uzatishga olib kelmoqda.

Zamonaviy o‘qituvchining jamiyatni axborotlashtirish sharoitida ishlashga tayyorligini belgilab beradigan quyidagi axborot-kommunikativ salohiyatlar muhim hisoblanadi: Kasbiy vazifalarni informatikaning zamonaviy vositalari va metodlarini





axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalangan holda bajara olish malakasi; Kasbiy faoliyatda axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalanish borasida tayyorgarlik darajasini real aks ettiruvchi, shakllanib ulgurgan shaxsiy sifatlari; Vaziyatni to'g'ri baholash va pedagogik faoliyatda axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalangan holda samarali qarorlar qabul qila oladigan predmet-maxsus bilimlarni tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lish.

Yangi axborot muhitining an'anaviy muhitdan prinsipial farqi, uning o'ziga xos kichik texnologik tizimdan iboratligidadir. Zero, istalgan ta'lim muassasasi axborot-kommunikativ texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi, ta'limning boshqa barcha didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, nazariy-metodologik jihatdan kichik tizimlardagi tub o'zgarishlar bilan kechadi. Axborot ta'lim muhiti imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun pedagogning iste'molchi sifatida o'zi mo'ljaldagi texnik imkoniyatlarining to'liq to'plamini egallagan bo'lishi talab etiladi.

Kompyuterli o'qitishning afzalliklari juda ko'p: o'quvchilarda ma'lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaradi; mashq qilinadigan topshiriqlar soni oshadi; o'quvchilarning ishlash sur'ati jadallashadi; kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o'quvchi ta'lim sub'ektiga aylanadi; o'quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyati hosil bo'ladi; kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda darsni uzoqdagi manbalar bilan ta'minlash imkoniyati hosil bo'ladi; kompyuter bilan muloqot didaktik o'yin xarakterini oladi va bu bilan o'quvchilarda o'quv faoliyatiga motivatsiya kuchayadi va hokazo.

Kompyuterli ta'lim jarayonida ta'lim o'quvchi va kompyuter orasidagi munosabatlarga ko'ra tashkil etiladi, boshqariladi, nazorat qilinadi.

Kompyuterli ta'limni tashkil etish – o'quvchi bilan o'quv materiali o'rtasidagi bog'lanishni kompyuter vositasida yo'lga qo'yish. O'quvchi bilan o'quv materiali o'rtasidagi bog'lanishni tashkil etish uchun ta'lim loyihalanadi. O'quvchilarning o'quv ishlarini tashkil etish, ular faoliyatini rag'batlantirish tegishli vositalar asosida modellashtiriladi.

Ta'lim jarayonida foydalanishga mo'ljallangan ko'plab elektron o'quv materiallari yaratilganki, unga elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma, o'rgatuvchi dastur vositalari kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Ular o'zida boshqarilish imkoniyati, interfaol uslublar, sun'iy intellekt elementlari, hissiy



moslashuvchanlik kabi xususiyatlar muvjudligiga ko‘ra ta’limda ma’lum samaradorlikni ta’minlaydi.

## MUHOKAMA

Kompyuterlarni o‘quv jarayonida qo‘llash quyidagilarga imkon beradi:

- o‘quvchilarda bilish ehtiyojini shakllantiradi;
- o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi;
- kompyuter bilan ishlashni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni oshiradi;
- kompyuterlardan foydalanish bilan bog‘liq dunyoni ilmiy bilishning hozirgi zamon metodlari bilan tanishtiradi;
- ta’limda o‘quvchining individuallik darajasini oshiradi;
- o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi;
- materiallar mazmunining xilma-xilligini ta’minlaydi;
- ta’limda foydalaniladigan o‘quv materiallari doirasini kengaytiradi;
- ta’limda ko‘rgazmalilikni kuchaytiradi;
- o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilishi, ya’ni baholash jarayonining omillarini kengaytiradi va h.k.

Kompyuter texnikalarini ta’lim muassasalariga tatbiq etish, o‘qitish jarayonini optimallashtirishga keng yo‘l ochib beradi.

Keyingi o‘n yillikda matematika fanini o‘qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo‘nalishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdagi o‘rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o‘yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi.

Matematika o‘qitishda kompyuterlarni qulayligini yana bir yo‘nalishi ayrim o‘quv holatlarini modellashtirishdir. Modellashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o‘qitishning boshqa usullari qo‘llanganda tasavvur qilish, ko‘z oldiga keltirilishi qiyin bo‘lgan materiallarni tushunarli bo‘lishini ta’minlashdan iborat. Modellashtirish yordamida o‘quvchilarga ma’lumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasi ko‘rinishida taqdim qilish mumkin. Shu boisdan ular matematikani chuqur o‘rganish va o‘quv jarayonida sezilarli darajada mustaqillik namoyon etishga moyil bo‘ladilar.

Ko‘p holatlarda vujudga keladigan matematik muammoni tez va berilgan aniqlikda hal etish uchun professional matematikdan o‘z kasbi bilan bir vaqtda





ma`lum bir algoritmik til va dasturlashni bilishi talab qilinadi. Shu maqsadda XX asrning 90-yillarida matematiklar uchun ancha qulayliklarga ega bo`lgan matematik sistemalar yaratilgan. Bu maxsus sistemalar yordamida turli sonli va analitik matematik hisoblarni, oddiy arifmetik hisoblashlardan boshlab, to xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishdan tashqari grafiklarni yasashni ham amalga oshirish mumkin.

Axborotlarni ifodalash va uzatishga bo`lgan ehtiyoj so`z, yozuv, tasviriy san`atda, kitob chop etish, pochta aloqasi, telegraf, telefon, radio, oynai jahon va ishlab chiqarishning boshqa jabhalarini boshqarishning barchasi kompyuter texnologiyalari yordamida osongina hal qilinmoqda.

Buning siri shundaki, axborotning katta qismi, shu paytgacha asosan, qog`ozlarda, magnit tasmalarida, ya`ni EHM dan tashqarida saqlanmasdan, matn, chizmalar, sur`atlar, tovushlarning barchasini axborot shaklida EHM larda saqlash, qayta ishlash va uzatish usullarini ishlab chiqilganligidadir.

### XULOSA

Kompyuter texnologiyasida matnlar, tasvirlar, ovozlar, shakllar va shunga o`xshash boshqa ishlarni amalga oshirish imkoniyatlari maxsus dasturlash yordamida juda yengil va tezkorlik bilan hal etilmoqda. Shuning uchun matematika, fizika, kimyo, biologiya va boshqa fanlarni o`qitishda kompyuter texnologiyasidan foydalanish ijobiy natijalarni olib kelmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Yo`ldoshev J.G`. Usmonov.S. Ilg`or pedagogik texnologiyalar. – T.:O`qituvchi,2004
2. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T.,2003.
3. Alixonov S. « Matematika o`qitish metodikasi » Qayta ishlangan II nashri. T., «O`qituvchi» 1997 yil.
4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

## ИССЛЕДОВАНИЕ КИНЕТИЧЕСКИХ СВОЙСТВ РЕАКЦИИ ПОЛИМЕРИЗАЦИИ N-ВИНИЛПИРРОЛИДОНА

И.Н. Хайдаров

Алфраганус университет

**АННОТАЦИЯ:** Для выяснения кинетических закономерностей реакции полимеризации N -винилпирролидона, в воде была проведена серия опытов при 10-25°C в интервале концентраций персульфата калия (0,02-0,1 моль/л), цетилпиридиний хлорида (0,015-0.06 моль/л) и мономера (1,0-9,0 моль/л)[1-3]. Приведенные экспериментальные результаты следует, видимо, объяснять с позиции возможности образования в реакционной смеси иницирующих центров: при очень низких либо очень высоких концентрациях азотсодержащих непредельных соединений в исследуемой системе способность персульфата калия к комплексообразованию с мономером резко уменьшена в первом случае, видимо, в связи с малым содержанием в реакции донорной (N-мономера), а во втором - в результате нарушения гомогенности реакционной среды, поскольку персульфат калия практически не растворим в N-винилпирролидоне, а также концентрированных растворах акриламида.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА.** Кинетические параметры, персульфата калия, N-винилпирролидона, цетилпиридинийлорида

Для выяснения кинетических закономерностей реакции полимеризации N -винилпирролидона, в воде была проведена серия опытов при 10-25°C в интервале концентраций персульфата калия (0,02-0,1 моль/л), цетилпиридинийхлорида (0,015-0.06 моль/л) и мономера (1,0-9,0 моль/л)[1-3].

При исследовании влияния на процесс концентрации мономера обнаружено, что полимеризация N-винилпирролидона, начинается практически при содержании их относительно общего объема реакционной смеси не менее 20, 11 и 10 % соответственно. При дальнейшем повышении концентрации азотсодержащих мономеров в системе общая скорость процесса начинает расти и достигает максимального значения при содержании N-винилпирролидона. в реакции в количестве 33,0; 33,0 и 25% соответственно. Затем скорость полимеризации падает, и в отсутствие растворителя (воды) процесс полностью останавливается. Приведенные экспериментальные



результаты следует, видимо, объяснять с позиции возможности образования в реакционной смеси инициирующих центров: при очень низких либо очень высоких концентрациях азотсодержащих непредельных соединений в исследуемой системе способность персульфата калия к комплексообразованию с мономером резко уменьшена в первом случае, видимо, в связи с малым содержанием в реакции донорной (N-мономера), а во втором - в результате нарушения гомогенности реакционной среды, поскольку персульфат калия практически не растворим в N-винилпирролидоне, а также концентрированных растворах акриламида. С учетом экспериментальных фактов, все последующие опыты проводились при концентрациях мономеров, обеспечивающих максимальное значение общей скорости полимеризации. Для восходящей ветви зависимости скорости реакции от концентрации мономера, кинетический порядок по N-винилпирролидону, составляет  $1,6 \pm 0,1$  [4-6].

Изучением кинетических параметров полимеризации N-винилпирролидона установлено, что скорость реакции растет с повышением содержания в системе персульфата калия и цетилпиридинийлорида и в стационарном состоянии зависит от их концентрации соответственно в степени 0,5 и 1,0.

Скорость процесса увеличивается с ростом температур, а общая энергия активации, найденная из зависимости начальных скоростей реакции от обратной температуры, составляет 9,2 ккал/моль. Молекулярная масса поливинилпирролидона падает с увеличением температуры, концентрации персульфата калия, мономера и цетилпиридинийлорида растет с глубиной превращения что, свидетельствует о существенной роли в процессе инициировании «мономерных» радикалов [7-9].

В области высоких концентраций мономеров, при которых фиксируется снижение общей скорости полимеризации, обычно наблюдается резкое повышение молекулярной массы полимеров. Это особенно наглядно можно проследить на примере полимеризации акрилонитрила в диметилформамиде. Рост скорости реакции, сопровождающийся небольшим спадом величины молекулярной массы полиакрилонитрила, происходит при повышении содержания мономера в реакционной смеси до 5,0 моль/л. В этой области концентраций, как установлено опытами, гомогенность системы сохраняется

до относительно высоких конверсий (50% и выше). При содержании акрилонитрила в реакции более 5,0 моль/л скорость процесса падает, молекулярные массы полимеров резко возрастают и выпадение полиакрилонитрила из раствора начинается при низких степенях превращения: при концентрации акрилонитрила 7,65 моль/л гомогенность в реакционной смеси сохраняется лишь до 7 % превращения. Из приведенных результатов следует, что нарушение гомогенности среды-одна из причин повышения молекулярных масс полимеров в области высоких концентраций мономеров, поскольку в этом случае реализуются условия для торможения реакций обрыва растущих макроцепей (табл. 1).

Таблица 1.

Зависимость ММ·10-5 поливинилпирролидона от условий реакции (в отсутствие цетилпиридинийхлорида)

Конверсия %,	/N-винилпирролидон/моль/л		/персульфат калия/ моль/л		Температура, 0С	
	4.6	5.6	0.07	0.1	10	20
10.0	1.5	1.4	5	1.5	1.6	1.5
	7	8		0	6	7
20.0	1.6	1.5	1.65	1.5	1.7	1.6
	5			8	5	5

В связи с полным совпадением кинетических закономерностей реакций полимеризации N-винилпирролидона, акриламидами 2-метил-5-винилпиридина, подробное описание экспериментальных результатов исследований для двух последних мономеров (акриламид, 2-метил-5-винилпиридин) в работе не приводится.

В заключение следует сказать, что кинетическое уравнение общей скорости полимеризации азотосодержащих мономеров в воде представляется равенством.

$V=K/\text{мономер}/1,5/\text{персульфат калия}/0,5/\text{цетилпиридинийхлорид}/$ , принятым для радикальных процессов





(исключением является порядок по мономеру). Невысокое значение общей энергии активации ( $9,2 \pm 0,1$  ккал/моль) характерно для окислительно-восстановительного инициирования, которое реализуется путем взаимодействия N-мономеров с перекисным соединением.

В работе проводились исследования по выяснению возможности использования инициирующих центров, образующихся при диссоциации комплекса N-мономер-перекись, для активации реакций сополимеризации азотсодержащих мономеров друг с другом и непредельными соединениями донорной и акцепторной природы.

Экспериментально установлено, что при сополимеризации N-винил-пирролидона, акрилонитрилом сополимеры, состав которых, независимо от мольных отношений сомономеров, близок к эквимольным, что характерно для чередующихся сополимеров. При этом как скорость процесса, так и вязкость сополимеров не зависят от состава исходной мономерной смеси (табл.2). Скорость реакции в этом случае очень велика, и за 2,5 часа выход сополимера составил более 90%. Одинаковые константы скорости сополимеризации в различных мольных отношениях мономеров, способных к эффективному комплексообразованию с персульфатом калия, могут быть свидетельством того, что концентрации действующих активных центров реакции в рассматриваемых случаях одинакова.

Скорость реакции для пар сомономеров «активный» донор-акцептор определяется концентрацией «активного» азот содержащего мономера, и процесс практически полностью останавливается при содержании его в исходной смеси менее 0,5 мол.долей. Интересно отметить, что если с глубиной превращения составы этих сополимеров не меняются, то вязкость повышается (таблица 2). Эти данные свидетельствуют о существенной роли в процессе инициирования «мономерных» радикалов.

Research Science and  
Innovation House

Таблица 2.

Сополимеризация N-винилпирролидона с винильными мономерами в водной эмульсии цетилпиридинийхлорида (0,06 моль/л); /персульфат калия/=0,075 моль/л; pH=7.

Со став смеси,	Исхо дной мол. доли	Состав сополимера, мол.доли		[η] дл/г (дим етил формами д, 25 <sup>0</sup> )	Время сополи мериз ации, час	Конве рсия, %
		М 1	М 2			
Акрилонитрил-N-винилпирролидон						
0.9 5	0.05	0 .53	0 .47	1.61	3.5	18.0
0.6 0	0.40	0 .52	0 .48	1.60	3.5	16.9
0.5 0	0.50	0 .48	0 .52	1.60	3.5	17.6
0.1 7	0.83	0 .49	0 .51	1.52	3.5	17.0

Сопоставление экспериментальных факторов сополимеризации «активных» и «неактивных» донорных соединений приводит к выводу, что введение в реакцию систему более сильных, чем азот содержащий мономер, непредельных донорных веществ, способных в условиях опыта к гомополимеризации, значительно ослабляет каталитический эффект (вплоть до полного ингибирования полимеризации). Это происходит, по всей вероятности, из-за блокирования "активных" центров и преимущественного неэффективного комплексообразования перекиси с "неактивным" донорным мономером. Последнее подтверждается результатами исследования изменения содержания персульфата калия в системе, состоящей из метилметакрилата, водного раствора цетилпиридинийлорида и перекиси. Перекись предпочтительнее комплектуется с азотсодержащим мономером,



когда последний отличается более высокой реакционной способностью по сравнению с "неактивным" мономером.

Таким образом, при сополимеризации двух "активных" донорных мономеров под действием радикалов, продуцируемых распадом комплекса азотсодержащий мономер-перекись, образуются преимущественно чередующиеся, а "активного" мономера с неопределённым соединением акцепторной природы - статистические сополимеры. При сополимеризации азотсодержащего мономера с "неактивным" донорным следует учитывать их реакционную способность, и для обеспечения высокой скорости процесса необходимо подбирать такие пары сомономеров, в которых N-соединение отличалось бы более высокой активностью. Приведенные результаты по сополимеризации азотсодержащих мономеров с рядом неопределённых соединений дают возможность прогнозирования состава сополимера соответствующим подбором исходной композиции сомономеров.


### Литература

1. Sigaeva, N. N., et al. "Complex-radical polymerization of methyl methacrylate in the presence of metallocenes." *Polymer Science Series B* 51 (2009): 226-232.
2. Пузин Ю.И., Исламова Р.М. Регулирование комплексно-радикальной полимеризации метилметакрилата добавлением гафноцендихлорида // *Высокомолекулярные соединения*. –Москва, 2015. -№1, -с. 20-24.
3. Abduvaliyevna, O. D. (2024). LATIN'S ROLE AND FUTURE PROSPECTS IN MEDICAL TERMINOLOGY. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 4(01), 137-149.
4. Олимбоева, Д. А., & Мухамедова, М. С. (2024). ОСОБЕННОСТИ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 56-60.
5. Nizamova S.A., Khasanova N.Kh. Determination And Analysis Of The Improvement Of Educational Efficiency In The Teaching Of Chemistry Based On A Qualitative Approach // *Eesj*. 2023. №3-2 (88).
6. Хуснутдинова Г.Р., Земский Д.Н., Карманова О.В. Полимеризация виниловых мономеров в присутствии иницирующих каталитических

комплексов «Третичные оксипропилированные ароматические амины–перекись бензоила». Вестник ВГУИТ, Воронеж, 2017. -№2, Т.79.-с. 165-169.

7. Исмаилов Р.И., Аскарлов М.А., Салиджанова Н.С., Тошбоев Г.А. Полимеризация четвертичных солей N,N-диметиламиноэтилметакрилата с бромсодержащими соединениями. Башкирский химический журнал. – УФА, 2000. – Т.7. – № 6, . – С. 42-46.

8. Ismailov, R. I. "Synthesis and Mechanism of the Preparation of Polymeric Cationic Surface-Active Substances." International journal of chemical and physical sciences 4.2 (2015): 93.



Research Science and  
Innovation House





## TURIZM SANOATINI NAZARIY TADQIQ ETISH MASALALARI.

**Ibragimova D.A.** – Termiz davlat universiteti magistranti

e-mail: [idildora371@gmail.com](mailto:idildora371@gmail.com)

**Turayev B.E.** – Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi, i.f.f.d. (PhD)

e-mail: [turayevb@tersu.uz](mailto:turayevb@tersu.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada turizmning iqtisodiy faoliyatdagi ahamiyati, turizm, ichki va xalqaro turizm tushunchalariga xalqaro turizm tashkilotlari va olimlar tomonidan berilgan ta’riflar tahlili va shuningdek, mamlakatimizda turizm sohasini jadal rivojlanishi uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilayotgan me’yoriy – huquqiy hujjatlarning ahamiyati keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** turizm, turist, ichki turizm, xalqaro turizm, valuta, xorijiy davlatlar, sayyohlar, viza, to‘lov balansi, qonun, me’yoriy-huquqiy hujjatlar

Hozirgi kunda ko‘plab eng rivojlangan mamlakatlar aynan turistik faoliyat bilan dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rnini topmoqda. Ya’ni hozirgi kunda turizm dunyo bo‘yicha avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o‘rinda turganligi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Butunjahon turistik tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 2021-yilda turizmning jahon YaIMdagi ulushi 8,8 trillion AQSH dollariga, ya’ni YaIMning 10,4%iga, shuningdek umumiy eksportning 1,5 trillion AQSH dollari ya’ni 6.5%iga va 319 million ish o‘rni (har 10 kishidan bir kishi turizm sohasida ishlaydi) ga teng bo‘ladi. So‘nngi besh yil ichida barcha global ish o‘rinlarining beshtadan bittasi aynan turizm sohasida yaratilgan<sup>1</sup>.

Rivojlangan mamlakatlar turistik faoliyatidan kuzatishimiz mumkinki, turizm orqali birinchi navbatda aholining ish bilan bandligi oshadi, budget daromadlari kengayadi, soliq bazasi ortadi, yo‘qolib ketayotgan milliy urf-odatlar tiklanadi. Shuningdek, milliylik ufurib turgan hunarmandchilik, kashtachilik va shu kabi mahsulotlarni ishlab chiqarish safi yanada kengayadi.

Turizm so‘zini eshitganimizda ko‘zimiz oldiga birinchi navbatda biror mamlakatga sayohat qilish tushuniladi. BMT “Xalqaro turizm tashkiloti” tomonidan

<sup>1</sup> Travel & Tourism Economic Impact 2021. P1



berilgan ta’rifga ko’ra, turizm - dam olish, hordiq chiqarish, biron narsani kashf etish maqsadida amalga oshiriladigan va kamida yashash joyidan 80 km masofani bosib o’tishga mo’ljallangan safardan iborat bo’lib, safarga tegishli barcha xizmatlarni o’z ichiga oladi. Turist esa shu maqsadlar uchun uyidan chiqqan shaxs hisoblanadi.

Shuningdek, xalqaro turizm tashkiloti “WTO” 1995-yil turizm uchun quyidagi ta’rifni bergan: bir kishi yoki bir necha kishining o’zi oddiy hayot kechiradigan joydan boshqa joyga safar qilib, o’sha yerda bir kechadan bir yilgacha bo’sh vaqtini o’tkazish uchun safar qilsa turist deb ataladi. Albatta ish bilan shu’gullanish va kasb va daromad uchun qilingan safarlar bunga kirmaydi.

Birlashgan millatlar tashkiloti ma’lumotiga ko’ra turizmning 2 ta turi mavjud:

1. Ichki turizm: bir mamlakat fuqarolarining o’z o’lkalarining turli mintaqalariga safarlari;
2. Chiqish turizmi (xalqaro turizm): bir o’lka fuqarolari boshqa mamlakatlarga safarlari<sup>2</sup>.

Ichki turizm o’z davlat chegarasi doirasida doimiy yashovchi fuqarolarning vaqtinchalik tashrif buyuruvchi joyiga turistik maqsadlarda sayohat qilishi tushuniladi. Bunda milliy valuta, til, hujjatlar oldingidek o’zgarmasdan qoladi. Hozirgi kunda dunyo safarlarining 80-90 foizi ichki turizm ulushiga to’g’ri kelmoqda. Ayniqsa, Turkiyada ichki turizm barqaror rivojlanmoqda. Turkiyadagi mahalliy sayyohlar soni 2019-yilda o’tgan yilga nisbatan 11,4 foiz ortib, jami 56,88 million kishiga yetdi. Bu o’sishning sabablaridan biri hukumatning “Turkiya turizm haftaligi”, “O’z yurtini kashf et” kabi kompaniyalar bilan ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan harakatlaridir<sup>3</sup>.

Xalqaro turizm tushunchasiga berilgan ta’riflarni ko’rib chiqilsa, ko’pgina manbalarda turlicha qarashlarni ko’rish mumkin. (1.1.1-jadval)

# Research Science and Innovation House

<sup>2</sup> “O’zbekistonda MICE turizmining rivojlanishi: istiqbollari va xorij tajribasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari, Toshkent-2022,40 bet

<sup>3</sup> Travel & Tourism Economic Impact 2019





1.1.1-jadval

“Xalqaro turizm” tushunchasiga berilgan ta’riflar<sup>4</sup>.

Mualliflar	Ta’riflar
Vikipediya <sup>5</sup>	Xalqaro turizm deganda milliy chegaralarni kesib o‘tuvchi turizm tushuniladi.
X.M. Mamatqulov, I.S Tuxliyev, A.B Bektemirov <sup>6</sup>	Xalqaro turizm muntazam va aniq bir maqsadga qaratilgan korxonalarining turizm sohasidagi faoliyati bilan bog‘liq holda, biron bir mamlakat hududida (kirish turizmi) turistik xizmatlar va turistik mahsulotlarni biron bir mamlakatda (chiqish turizmi) doimo yashaydigan sayohat qiluvchi shaxslarga taqdim etishdir.
tourismteacher.com <sup>7</sup>	Xalqaro turizm mohiyatan tashrif buyuruvchilar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni anglatadi, shuningdek tashrif buyuruvchilar iqtisodiyoti deb ham ataladi.
The Cambridge dictionary <sup>8</sup>	Xalqaro turizm bu - siz yashayotgan joydan boshqa davlatga dam olish yoki ishbilarmonlik maqsadida bir yildan ortiq bo‘lmagan muddatga sayohat qilish harakatidir.
P. Boerjan N. Vanhove <sup>9</sup>	Xalqaro turizm bu - doimiy yashash mamlakatidan tashqarida turistik maqsadlarda sayohat qilish. Bu xalqaro shartnomalar asosida xalqaro

<sup>4</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>5</sup> <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xalqaro-turizm/>

<sup>6</sup> Mamatqulov X.M., Tuxliyev I.S., Bektemirov A.B. A. Norchayev “Xalqaro turizm”. Darslik. Toshkent, 2009 -10b

<sup>7</sup> <https://tourismteacher.com/what> is international tourism and why is it important?/

<sup>8</sup> <https://dictionary.cambridge.org> The Cambridge dictionary

<sup>9</sup> Boerjan P. and Vanhove, N. “the Tourism Demand Reconsidered in the Context of the Economic Crisis”, Tourist Review,38(2),pp.2-11,1984



	odatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladigan sayohat tizimi.
Г.В. Турбан <sup>10</sup>	Xalqaro turizm bu - xorijiy turistlarning keng doiradagi ehtiyojlarini qondirishga yordam berish uchun turli xil turistik xizmatlar va tovarlarni taqdim etishni o‘z ichiga olgan faoliyat turi.
И. Л. Федорова <sup>11</sup>	Xalqaro turizm bu - odamlarning doimiy yashash joyidan boshqa davlatga sayohati boshqa davlatda qolish muddati cheklanmagan. Minimal chegara 24 soat, maksimal 12 oy
А.Ю. Александрова Международный туризм Москва 2002 <sup>12</sup>	Xalqaro turizm sayohatchilarning sayohatlarini qamrab oladi va doimiy yashash mamlakatidan tashqarida turistik maqsadlarda bo‘lgan shaxslar. Ular uchun davlat chegarasining kesishmasi muayyan mutaxassisliklar: xorijiy passport va vizalar olish. O‘tish mumkin bo‘lgan protseduralar: valuta va tibbiy nazorat.
zavtrasessiya.com <sup>13</sup>	Xalqaro turizm bu valuta tushumlari manbai va aholini ish bilan ta‘minlash vositasi. Shuning bilan birga to‘lov balansiga hissa qo‘shadi. Turizm sohasiga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarni rag‘batlantirish orqali iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga yordam beradi.
tourfaq.net <sup>14</sup>	Xalqaro turizm bu boshqa davlatga turizm, ya’ni xorijiy turizm. U chiquvchi va kiruvchiga bo‘linadi.

<sup>10</sup>Турбан Г.В “Экономика и управление внешнеэкономической деятельностью”, Минск, 2006

<sup>11</sup> Федорова И. Л. “География Международного туризма” Брест, 2020, стр 17

<sup>12</sup>Александрова А.Ю “Международный туризм”, Москва, 2002

<sup>13</sup> [http://zavtrasessiya.com/Международный туризм](http://zavtrasessiya.com/Международный_туризм)

<sup>14</sup> <http://tourfaq.net> Формы и виды международного туризма





	Chiqish turizmi bu biror bir mamlakatda doimiy yashovchi shaxslarning boshqa davlatga sayohati.
--	---

Berilgan ta'riflarning ayrimlarida xalqaro turizm tushunchasi to'liq yoritilmagan, degan fikrdamiz. Masalan, [tourismteacher.com](http://tourismteacher.com) bazasidan olingan ta'rifga ko'ra, “Xalqaro turizm mohiyatan tashrif buyuruvchilar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni anglatadi, shuningdek, tashrif buyuruvchilar iqtisodiyoti deb ham ataladi”. Ya'ni bunda aynan qaysi tashrif buyuruvchilar: tashqimi, ichkimi ko'rsatilmagan.

P. Boerjan va N. Vanhovelarning bergan ta'riflari nisbatan to'liq desak adashmagan bo'lamiz.

Yuqoridagi xalqaro turizm ta'riflarini umumlashtiradigan bo'lsak, xalqaro turizm odamlarning doimiy yashash joyidan boshqa bir mamlakatga ishbilarmonlik, dam olish hamda turistik maqsadlarda sayohat qilishi tushuniladi. Boshqa davlatda qolish muddati cheklanmagan. Minimal chegara 24 soat, maksimal 12 oy. Shuning bilan birga, xalqaro turizm bu valuta tushumlari manbai va aholini ish bilan ta'minlash vositasi hisoblanadi.

Shuningdek, xalqaro turizm to'lov balansiga hissa qo'shadi. Turizm sohasiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarni rag'batlantirish orqali iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga yordam beradi.

Xalqaro turizm iqtisodiyotga turli yo'llar bilan pul olib kirishda yordam berishi mumkin. Ya'ni xalqaro turizmning ahamiyati valuta tushumlari orqali namoyon bo'ladi va mamlakatning turizmdan oladigan pullari keyinchalik iqtisodiyotga qayta sarmoyaga kiritilishi mumkin.

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, turizm iqtisodiyotni dinamik o'sishga olib chiqadigan tarmoq sifatida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, O'zbekistonda ham turizmni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqdaki, ular mazkur sohaning jadal rivojlashi uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-dekabrda PF-5273-sonli “Chorvoq” erkin turistik zonasini tashkil etish to'g'risida”gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-iyundagi 355-son “Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash



haqida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 –yil 6-fevraldagi PQ-3509-son “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 –yil 5-yanvardagi PQ-5611-son “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 828-son “Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2019-yil 5–yanvarda “2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi” 2019- yil 18-iyul kuni “Turizm to‘g‘risida” gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 –yil 13-avgustdagi PF-5781-son “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabuli qilinib, ularning tub mohiyatida turizmni takomillashtirish, unga investitsiyalarni jalb etish va mavjud muammolarni hal etish maqsad qilib olingan.

2019-yil 5-yanvarda 2019-2025 yillarda “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi”da quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan: Jumladan:

- turizm faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me‘yor va standartlarni implementatsiya qilish;
- turizm infratuzilmasini rivojlantirish va qulay turizm muhitini yaratish;
- transport logistikasini rivojlantirish, ichki va tashqi yo‘nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish;
- turizm bozorining turli segmentlariga yo‘naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish;
- respublika ichida turizm xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga yo‘naltirilgan turizm faoliyati subyektlarining faolligini rag‘batlantirishni ta‘minlovchi ichki turizmni rivojlantirish;
- O‘zbekiston Respublikasi turizm mahsulotini xalqaro va ichki turizm bozorlarida targ‘ib qilish, mamlakatning sayohat va dam olish uchun xavfsiz sifatidagi imidjini mustahkamlash;





– turizm tarmog‘i uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish<sup>15</sup>.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi, aholi turmush darajasini yaxshilanishida va xalqaro maydonga chiqishi va unda munosib o‘rin egallashida barcha tarmoqlar singari turizm sohasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki va xalqaro turizm tushunchalari orqali turizmni kengroq tushunib olishimiz mumkin. Bunda ichki turizm deganda o‘z mamlakati hududida turistik faoliyatini olib borish tushunilsa, xalqaro turizm esa xalqaro miqyosda boshqa bir mamlakatga safar qilish tushuniladi. Shuningdek, so‘nggi yillarda mamlakatimizda milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida turizmni rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu esa uning tez rivojlanishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, daromadlarini oshishi, aholi turmush darajasi va sifatini yuksaltirish hamda investitsion jozibadorlikni oshirishga munosib hissa qo‘shadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi sayyohlik sohasini rivojlantirishni tezlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. –T.:2.12.2016y.

2. 2017- 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. <http://lex.uz/docs/-3107036>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoniga 1-ilova. “ 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi”.

4. “O‘zbekistonda MICE turizmining rivojlanishi: istiqbollari va xorij tajribasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari, Toshkent-2022,40 bet

5. Xudoyorov A.A. “O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishning o‘ziga xos tashkiliy iqtisodiy jihatlari” Iqtisod va moliya ilmiy-amaliy jurnal. T.: 2019 yil. №8(128). 9-bet.

6. Александрова А.Ю “Международный туризм”, Москва,2002

<sup>15</sup> 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. <http://lex.uz/docs/-3107036>



7. Boerjan P. and Vanhove, N. “the Tourism Demand Reconsidered in the Context of the Economic Crisis”, *Tourist Review*,38(2),pp.2-11,1984
8. Федорова И. Л. “География Международного туризма” Брест,2020,стр 17
9. Mamatqulov X.M., Tuxliyev I.S., Bektemirov A.B. A. Norchayev “Xalqaro turizm”. Darslik. Toshkent, 2009 -10b
10. Xudoyarov A.A. “Turizm va mexmonxona industriyasi asoslari” O‘quv qo‘llanma. “SOMPLEX PRINT” nashriyoti. T.2020
11. Турбан Г.В “Экономика и управление внешнеэкономической деятельностью”, Минск,2006
12. Travel & Tourism Economic Impact 2021. P1
13. <https://tourismteacher.com/what> is international tourism and why is it important?/
14. <https://dictionary.cambridge.org> The Cambridge dictionary
15. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xalqaro-turizm/>
16. [http://zavtrasessiya.com/Международный туризм](http://zavtrasessiya.com/Международный_туризм)
17. <http://tourfaq.net> Формы и виды международного туризма
18. <https://tourismteacher.com/what> is international tourism and why is it important?/
19. <https://dictionary.cambridge.org> The Cambridge dictionary

---

# Research Science and Innovation House



## Qarilikda bilish jarayonlarining kechishi va bilish jarayonlarining umumiy tasnifi hamda bilish jarayonlari haqida umumiy ma'lumotlar

**Turdiqulov Kamronbek Muzaffar o'g'li**

Amaliy psixologiya yo'nalishi 221-guruh 3-kurs talabasi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada qarilikni qanday kechishi hamda ushbu davrda insonlarda bilish jarayonlarining qay tarzda borishi haqida umumiy keng ma'lumotlar berib o'tilgan, shu bilan birgalikda bilish jarayonlariga qisqa hamda umumiy ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** qarilik, qarilik davri, bilish jayonlari va bilish jarayonlari funksiyasi

Qarilik, keksalik (qarish) — organizm hayotining yoshga bog'liq muayyan bir davri, muqarrar ravishda yuz beradigan jarayon. A'zo va sistemalarda o'ziga xos o'zgarishlar ro'y berib boradi, bu esa asta-sekin organizmning hayotga moslashuv imkoniyatlari susayishiga olib keladi. Odamlarning Qarilik davri 75 yoshdan keyin boshlanadi (90 yoshdan oshgan kishilar uzoq umr ko'ruvchilardir), bu fiziologik Qarilikdir bunda aqliy va jismoniy quvvat, ma'lum ish qobiliyati, xushchaqchaqlik va atrofqa qiziqish saqlanadi. Turli noxush tashqi va ichki ta'sirotlar barvaqt yoki patologik Q.ga olib keladi. Odatda, Q.ning dastlabki belgilari odamda yetuklik davridan (shartli ravishda 60 yoshdan) so'ng boshlanadi. Lekin aslini olganda, Q. organizmning o'sishi va rivojlanishi to'xtagandan keyin sezila boshlaydi. Mas, 30—35 yoshlarda biologik jarayonlarning faollik darajasi pasaya boshlaydi. Qarish turli to'qima va a'zolarida bir vaqtda boshlanmaydi va turli darajada kechadi, u organizm hujayralari yashash xususiyatlarining asta-sekin susaya borishidan iborat. Dastlab Q. tufayli boshlangan o'zgarishlar amalda organizmning hayot sharoitlarining keskin o'zgarishlariga moslashuvchanlik jarayonini buzmasada, ammo borabora yosh ulg'ayib, o'zgarishlar kuchayganda organizm bunga endi ancha qiynalib moslashadi. Xususan, bu kasallik davrida, jismoniy va ruhiy zo'riqishlarda bilinadi. Qarish jarayoni, birinchi navbatda, yuraktomir va nerv sistemasiga ta'sir qiladi; bunda bir faoliyatdan ikkinchisiga o'tish qobiliyati qiynlashadi. Tormozlanish jarayonining yetarli bo'lmasligi nerv sistemasi qo'zg'aluvchanligining oshishiga olib keladi, shu tufayli atrofdagi narsalarga moslanish va javob reaksiyalari sust

ishlanib, sekin yo‘qoladi; emotsional beqarorlik kuchayadi. Q. qo‘pincha turli xil surunkali kasalliklar bilan kechadi, bu barvaqt qarib qolishga olib kelishi mumkin. Umuman yoshga xos o‘zgarishlar bilan kasallanish o‘rtasida ma’lum darajada bog‘liklik bor. Q.da organizmning moslanuvchanlik va tiklanish imkoniyatlari susayadi, bu — kasalliklarning avj olishiga va ularning ancha og‘ir o‘tishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun kasallikning oldini olish barvaqt qarishga yo‘l qo‘ymaslikka yordam beradi. Hozirgacha Q. sabablari to‘g‘risida aniq fikr yo‘q, lekin u bir qadar irsiyatga ham bog‘liq. Ba’zi oilalarda uzoq umr ko‘ruvchilarning nasldannaslgaga o‘tganligi ma’lum. Ayollarda Q.ning erkaklarga nisbatan kechroq kuzatilishi genetik apparatning xususiyatlariga va boshqalar omillarga (mas, ayollarda chekish, spirtli ichimliklar ichish kam) ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, Q. sur’ati turlicha bo‘ladi: ba’zilar 75—80 yoshda, hatto ancha keyin ham turli ishlar bilan shug‘ullanish uchun kuchquvvat va imkoniyat bo‘ladi. Biroq yosh o‘tishi bilan barcha odamlarda mehnat qobiliyati pasayadi, salga toliqadi. Shu sababli, yosh o‘tganda kishining ahvoli yaxshi bo‘lsa ham og‘ir ish qilmaslik kerak. Q. davrida ovqatlanish, mehnat va dam olish rejimiga qat’iy rioya etish, uxlashdan oldin ozroq sayr qilish, chiniqish muolajalari va boshqalar katta ahamiyatga ega. Biroq chiniqish muolajalari turini va muddatini, albatta, vrach bilan maslahatlashib olgan ma’qul. Aytib o‘tilganlarga amal qilish barvaqt Q.ning oldini oladi va uning maromida kechishiga, shuningdek, odamning jismoniy va ma’naviy imkoniyatlarini iloji boricha saqlab qolishga olib keladi. Q. sabablari va sirasrorlarini gerontologiya, ularda kechadigan kasalliklarni esa geriatriya fani o‘rganadi.

Qarisi bor uyning qarisi bor (O‘zbekxalqmaqoli) Biologik qarish psixik jarayonlar, holatlar, xususiyatlar va xatti-harakatlarda keskin o‘zgarishlarni vujudga keltiradi. Aksariyat sezgi organlari zaiflashadi, asab sistemasi kuchsizlanadi, ma’lumotlarni qabul qilish (xotira) va ularni qayta ishlash, mohiyatini anglash (tafakkur), u yoki bu holatlarga nigohini to‘plash va unda muayyan muddat tutib turish (diqqat) qiyinlashadi. Biologik qarish psixik jarayonlar, holatlar, xususiyatlar va xatti-harakatlarda keskin o‘zgarishlarni vujudga keltiradi. Aksariyat sezgi organlari zaiflashadi, asab sistemasi kuchsizlanadi, ma’lumotlarni qabul qilish (xotira) va ularni qayta ishlash, mohiyatini anglash (tafakkur), u yoki bu holatlarga nigohini to‘plash va unda muayyan muddat tutib turish (diqqat) qiyinlashadi.

Irodaning kuchsizlanishi og‘riq sezgilariga nisbatan bardoshlilik tuyg‘usini emira boshlaydi. Natijada tashqi ta’sirni qabul qilishda diqqatni saralash xususiyati





o‘z ahamiyatini yo‘qotib borishi sababli qari odam bola tabiat arazchan, ko‘ngli bo‘sh, hissiyotga beriluvchan xarakterli bo‘lib qoladi. Shuning uchun ular bilan muloqotga kirishishda mazkur shaxsning sifatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Xotiraning zaiflashuvi qariyalarda xayolparastlik illatini keltirib chiqaradi, ko‘pincha esda olib qolish, esda saqlash va esga tushirish o‘rtasida ko‘pgina sabablarga ko‘ra nomutanosiblik tug‘iladi, natijada unutish jarayoni kuchayadi. Diqqatni muayyan obhektga to‘play olmaslik oqibatida biron faoliyat turi ustida uzoq mashg‘ul bo‘la olmaslik vujudga keladi. Narsa va jismlarni noto‘g‘ri idrok qilish, yahni illyuziyalar ko‘proq o‘rii egallaydi. Monokulyar va binokulyar ko‘rishda xilma-xillik yuzaga keladi. Xarakter hislatlarida chekinish, hadiksirash, ishonchsizlik hislari etakchirolo‘ynay boshlaydi.

Psixologlardan I. Baylash va D. Zabeklar keksalarda xotira, idrok, mantiqiy tafakkur, eruditsiya, nutq surhati kabilarni tadqiq qilib, ular o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishni (xotira -0,20, idrok -0,28, mantiqiy tafakkur -0,37, eruditsiya -0,33, nutq tezligi -0,40 ligini) aniqlaganlar. Amerikalik psixologlar Frennd va Zabeklar keksalik davrida tafakkurning tanqidiyligini o‘rganishda deduktsiya va sillogizmlardan foydalanib, keksalikda tafakkurning obhekti torayishi va keskin rad qilish kuchayishini aniqlaganlar. D. Bromley qariyalarda ijodiy tafakkurning pasayishi, o‘ta qiyinchilik bilan yangi sharoitga moslashuvini va dogmatizmga asoslanishini topgan.

Yirik jahon psixologlari S. Pako, G. Offre, L. Bine, U. Maynot, E. Medavir, A. Komfort, I. V. Davidovskiy, B. G. Ananov, N. V. Nagorniy, Ye. D. Aleksandrova va boshqalar uzoq umr ko‘rish sirlarini ekologik omillar orqali tushuntirishga harakat qiladilar. Aksariyat olimlarning fikricha, ekologik omillar insonning yashash sharoitiga, kamol topishiga, bevosita yoki bilvosita ta’sir qiladigan omillardir.

Insonning ijtimoiy muhiti sharoitlari ichiga kasb mehnati, turmush tarzi, madaniyati va ma’naviyati kabilarni kiradi. Jahon fani to‘plagan ma’lumotlarga ko‘ra ochiq havoda ortiqcha zo‘riqishsiz jismoniy mehnat bilan shug‘ullangan odamlarda harakatning tezligi, qad-qomatning tikligi, ma’naviy tetiklik, ruhiy faollik uzoqroq saqlanadi. Mana shu holat jismoniy tarbiya bilan doimiy shug‘ullanuvchi kishilarda ham bo‘ladi. «Umrni uzaytirish muammolari» nomli (1952) kitobda dog‘istonliklarda uzoq umr ko‘rishning asosiy sabablari quyidagilar ekani ta’kidlangan: 1) Respublikaning tog‘li qismidagi iqlim sharoiti va jug‘rofiy omillar;

2) sutkasiga 3-4 marta istehmol qilinadigan go'shtli, o'simlik moyli va sutli oziq-ovqatlar, chekishning, ichish va ortiqcha jinsiy aloqaning taqiqlangani; 3) avlodan-avlodga asrlar davomida o'tib kelayotgan madaniy anhanalar, o'ziga xos turmush tarzi va uning xususiyatlari; 4) gigienaning barcha qonun va qoidalariga rioya qilinishi va butun umr bo'yi jismoniy mehnat bilan shug'ullanish; 5) bir maromda ham passiv, ham aktiv hordiq chiqarish; 6) aholi turmush darajasining moddiy-maishiy jihatdan yaqinlanishi va hokazolar.

Uzoq umr ko'rishning, umr uzayishining muhim omillaridan yana bittasi kasb-korlik faoliyatiga bog'liq psixiy holatning barqarorlashuvidir. Ana shu holatga insonning ko'rish idrokida fazoni farqlash (fazoviy tasavvur) qobiliyati kiradi. Frantsuz gerontologi va oftalmologi G.Offre «Gerontologiya asoslari» (1960) kitobidan joy olgan «Ko'zning keksalarga xos o'zgarishi» asarida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar keltiradi. Uning fikricha, keksalikda presbioniya (grekcha, qarilikda ko'rishning zaiflashuvi) hodisasi ro'y berib, yaqinni ko'rish yomonlashadi. G.Offrening fikricha, 10 yoshdan ko'rish akkomodatsiyasining kuchi pasayishi, agarda 10 yoshda akkomodatsiya kuchi 16 dioptriyaga (grekcha optik o'lchov) teng bo'lsa, 40-45 yoshda-4, keyinchalik esa 1 bir dioptriyaga tushib ketishi mumkin. 50-60 yoshlarda akkomodatsiya o'zining eng quyi darajasiga tushadi, biroq shundan keyingi yosh davrlarida barqarorlashib boradi. Jahon psixologiyasi fani ma'lumotlariga qaraganda akkomodatsiyaning kuchi shunchalikkamayibboradiki, yaqinnifaqatko'zoynakbilanko'riladiganbo'ladi. Biologik qarish psixik jarayonlar, holatlar, xususiyatlar va xatti-harakatlarda keskin o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Aksariyat sezgi organlari zaiflashadi, asab sistemasi kuchsizlanadi, ma'lumotlarni qabul qilish (xotira) va ularni qayta ishlash, mohiyatini anglash (tafakkur), u yoki bu holatlarga nigohini to'plash va unda muayyan muddat tutib turish (diqqat) qiyinlashadi. Irodaning kuchsizlanishi og'riq sezgilariga nisbatan bardoshlilik tuyg'usini emira boshlaydi. Natijada tashqi ta'sirni qabul qilishda diqqatni saralash xususiyati o'z ahamiyatini yo'qotib borishi sababli qari odam bola tabiat arazchan, ko'ngli bo'sh, hissiyotga beriluvchan xarakterli bo'lib qoladi. Shuning uchun ular bilan muloqotga kirishishda mazkur shaxsning sifatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Xotiraning zaiflashuvi qariyalarda xayolparastlik illatini keltirib chiqaradi, ko'pincha esda olib qolish, esda saqlash va esga tushirish o'rtasida ko'pgina sabablarga ko'ra nomutanosiblik tug'iladi, natijada unutish jarayoni kuchayadi. Diqqatni muayyan obhektga to'play olmaslik oqibatida



biron faoliyat turi ustida uzoq mashg‘ul bo‘la olmaslik vujudga keladi. Narsa va jismlarni noto‘g‘ri idrok qilish, yahni illyuziyalar ko‘proq o‘rii egallaydi. Monokulyar va binokulyar ko‘rishda xilma-xillik yuzaga keladi. Xarakter hislatlarida chekinish, hadiksirash, ishonchsizlik hislari etakchi rol o‘ynay boshlaydi.

Keksalik yoshidagi chol va kampirlarda o‘z shaxsiyatiga yangicha munosabatlar paydo bo‘ladi. Ko‘pincha ular o‘zlarini kamroq bezovta qilishga, jismoniy kuch-quvvatni ayashga, ehtiyotkorlik bilan harakat qilishga odatlanadilar, organizmlarining toliqishiga yo‘l qo‘ymaydilar, iloji boricha nutq faoliyatiga kamroq murojaat qiladilar, ortiqcha axborotlarni qabul qilmaydilar. Shuning uchun keksayganda «jon shirin bo‘lib qoladi». Keksalikda er-xotin o‘rtasidagi munosabat yanada mustahkamlanadi, yangi shakl va yangi sifat kasb etadi. Muloqot kezida barcha taassurotlar, ma‘lumotlar, kechinmalar, his-tuyg‘ular yuzasidan fikr almashadilar. Bir-birlarini qo‘msash, hamdardlik kabi yuksak tuyg‘ular totuvlikni yanada mustahkamlaydi. Keksalik davrining yana bir xususiyati boshqa kishilarga, begonalarga ham xayrixohlik bildirishdir. Ana shu yuksak insonparvarlik hissi tufayli ular er yuzidagi jamiki inson zotiga yaxshilik tilaydilar. Bu so‘nggi yuksak tuyg‘u baynalmilalchilikning tabiiy ko‘rinishidir. Qariyalardagi rahmdillik, poklik, orastalik, muloyimlik, samimiylik singari tuyg‘ularning ifodalanishi boshqa yosh davridagi odamlar tuyg‘usiga aslo o‘xshamaydi. Shuning uchun «qari bilganni pari bilmas»,- degan naql bor.

Keksayish davrida bilish jarayonlari Kundalik hayotda ko‘pchilik qariyalarning aqli ham susayadi, deb hisoblaydi. Masalan, yosh yigit qo‘ygan narsasini eslay olmasa, hech kim bunda hech qanday qo‘rqinchli narsani ko‘rmaydi, lekin bunday e‘tiborsizlik qariyalar tomonidan amalga oshirilsa, bunday o‘zgarishlarni qarilik o‘zgarishlarining namoyon bolishi— skleroz deb baholaydi. So‘nggi vaqtlarda ilmiy adabiyotlarda normal qarilikda intellectual faoliyatning susayishi haqidagi qarama-qarshi fikrlar uchraydi. Qarilik davrida kognitiv jarayonlarning o‘zgarishi muammosini o‘rgangan tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, ko‘pgina aqliy ko‘nikmalar nisbatan saqlanib qoladi. Bu yosh davrida xotirani keng doirada o‘rganish natijalariga ko‘ra (Perlmutter, Adams, Barry, Kaplan, Person & Verdonik, 1987) xotiraning susayishi faqat qarilik oqibati emas, balki boshqa omillar, depressiya, faol faoliyatning to‘xtatilishi va dorilarning salbiy ta’siri

natijasidir.

Qarilik davrida kognitiv rivojlanish darajasida ma'lum susayish ro'y beradi. Masalan, bilish jarayonida ma'lumotlarni qayta ishlash, mexanik eslab qolish tezligining pasayishi kuzatiladi. Lekin bunga mos ravishda kompensatsiyalar ham ro'y beradi. Natijada ma'lum kognitiv xarakteristikalarining yo'qotilishi kundalik hayotga ta'sir qilmaydi (Perlmutter et al., 1987; Salthouse, 1985). Qarilik davridagi inson bilish qobiliyatidagi muhim o'zgarishlardan biri — bu jismoniy va aqliy operatsiyalar bajarish tezligining susayishida namoyon boladi. Bu yoshga yetgan insonlarda reaksiya vaqti ortadi, perseptiv ma'lumotlarni qaytaishlashsekinlashadi, kognitiv jarayonlar tezligi susayadi. Qariyalarda kognitiv qobiliyatlarning susayishi muammosi xotira funksiyalarining o'zgarishi doirasida ko'proq o'rganilgan. Informatsion nuqtayi nazardan yondashuvchi xorijpsixologlari sensor, birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi xotira mavjudligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, sensor xotira — juda qisqa muddatli ko'rish yoki eshitish xotirasidir, bunda informatsiya qayta ishlanguncha 250 milli sekund vaqt oralig'ida xotirada saqlab turiladi.

O'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bolishicha, qariyalar yoshlarga qaraganda kamroq ma'lumotni xotirada saqlab qoladi. Birlamchi xotira xorijlik tadqiqotchilar tomonidan cheklangan ma'lumotlar hajmini saqlash sifatida tavsiflanadi. Masalan, sotib olinayotgan tovarning narxini eslab qolishni misol sifatida keltirish mumkin. Bu xotira turini ishchi xotira, yoki operativ xotira ham deb atash mumkin. Tadqiqotlarda yoshlar keksalarning birlamchi xotirasida farqlar aniqlanmagan. Ikkilamchi xotira uzoq muddatli xotira turi bolib, unda yosh xususiyatlari yaqqol namoyon boladi. Yodlash va qayta esga tushirishni o'rganishga bag'lashlangan tadqiqotlarda qariyalar berilgan ro'yxatdagi kam so'zlarni, rasm detallarining oz qismini eslab qolishi aniqlandi. Uchlamchi xotira bu ilgari bolib o'tgan voqeani eslashdir. Xotiraning bu turi keksalardatoliqeslabqolinadi. Keksalarilgaribolib, jo'tgan tarixiy voqealarni batafsil eslab qoladi, agar bu voqeada o'zi ishtirok etgan bolsa, yanada yaxshiroq xotirada saqlanadi. Shu bilan birga keksalik davridagi insonlarda xotira saqlanishida individual farqlar kuzatiladi. Masalan, oliy ma'lumotli keksalar o'rta ma'lumotli tengdoshlariga nisbatan xotira testlarini yaxshiroqeslabqoladi.

Intellektual faoliyat bilan faol shug'ullanadiganlar bu testlarda yaxshi natija ko'rsatishadi. Rus psixologlari tomonidan xotiraning yosh funksiyalarini o'zgarishini





kuzatilgan tadqiqotlarda aniqlanishicha, yosh o‘tishi bilan mexanik esda olib qolish yomonlashadi, mantiqiy xotira esa saqlanib qoladi. Obrazli xotira so‘z-mantiq xotiraga nisbatan kamroq esda qoladi. Shunday qilib, keksalik davrida xotira asosida mantiqiy boglanish yotadi, mantiqiy xotira tafakkur bilanchambarchasboglangani uchun keksalarda tafakkur yaxshi rivojlangan deyish mumkin. Yoshlar xotira jihatdan keksalardan ustun bolsalar-da donolik jihatidan ustun emas. Donolik — bu inson bilimlarining ekspert tizimi bolib, hayotning amaliy jihatlariga yo‘naltirilgan, hayotiy muhim muammolar bo‘yicha foydali maslahatlar berishdir. Pol B.Bal hamkasblari bilan birga donolikni o‘rganib, uning bir necha kognitiv xususiyatlarini aniqlagan. Birinchidan donolik, insonlarning hayot mazmuniga aloqador muhim va murakkab muammolarni yechish bilan bogliqdir. Ikkinchidan, donolik bilimlar, fikrlar va maslahatlarning yuksak darajasi bilan ajralib turadi. Uchinchidan' donolik bilan bogliq bilimlar shunchalik keng va chuqurki, ularni maxsus vaziyatlarda qollash mumkin. To‘rtinchidan, donolik shunday aqlni o‘z ichiga oladiki, undan shaxsiy foydaga hamda insoniyat foydasiga foydalanish mumkin. Beshinchidan, donolikka erishish qiyin, lekin ko‘pchilik insonlar uni osongina anglaydi.

Xulosa: umumiy xulosa qilib olib aytganda qarilik jarayonlarida bilish funksiyali bir muncha sustlashadi bilish jarayonlarining kechishi keksa insonlarda zaiflashadi. Ushbu mavzuni o‘rganish jarayonida buning sababi shunda eknligi malum bo‘ldiki, bilish jarayonlarining sustlashishiga sabab eng avvalo organizmning zaiflashganligi hamda ikkilamchi omil sifatida esa yoshlikdan bilish jarayonlarini to‘g‘ri shug‘ullantirilmaganligi deb topildi. Bunday salbiy hollarni oldini olish uchun esa bolalik davridanoq bilish jarayonlarini to‘g‘ri tarbiyalash hamda inson o‘z tanasini to‘g‘ri parvarishlamoq zarurdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1- Karimova v.M. Psixologiya – t, 2002
- 2- Nemov r. S Psixologiya- 1990
- 3- Psixologiya uchebnik -pod red A. Krilova-m. 1998
- 4- Umumiy psixologiya A.V.Petrovskiy tahriri ostida t. 1992
- 5- [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## POMIDOR O‘SIMLIGINING MAHALLIY VA XORIJIY NAVLARINI DURAGAYLASH ASOSIDA YANGI GENOTIPLAR YARATISH UCHUN DURAGAYLAR OLISH

**D.R. Narziqulov**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti biologiya yo‘nalishi talabasi

[surxondaryo004@gmail.com](mailto:surxondaryo004@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada *Solanum Lycopersicum* L. turiga mansub mahalliy va xorijiy nav va namunalari o‘rtasida olib borilgan duragaylash ishlari tahlili keltirilgan. Chatishtirish *Solanum Lycopersicum* L. turiga mansub mahalliy va xorijiy navlardan tashkil topgan 30 ta kombinatsiya bo‘yicha 89 ta gulda amalga oshirildi va 24 ta  $F_0$  duragaylar olindi. Xorijiy va mahalliy navlar chatishishidan hosil bo‘lgan duragaylar 54 % ni, qolgan 46 % i xorijiy navlarni bir-biriga chatishtirishdan hosil bo‘lgan duragaylar ekanligi aniqlandi.

**Kalit so‘zlar:** duragay, pomidor, *Solanum Lycopersicum*, kombinatsiya, genetika, chatishtirish

### АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится анализ гибридизационной работы, проведенной между существующими сортами и образцами, относящимися к типу *Solanum Lycopersicum* L. Проведено скрещивание 89 цветков 30 комбинаций использования и сортов, принадлежащих к виду *Solanum Lycopersicum* L., и получено 24 гибрида  $F_0$ . Выявлено 54% гибридов от скрещивания зарубежных и культурных сортов, а остальные 46% составили гибриды от скрещивания сортов сельскохозяйственных культур.

**Ключевые слова:** гибрид, томат, *Solanum Lycopersicum*, комбинация, генетика, скрещивание.

### ABSTRACT

This article analyzes the hybridization work carried out between existing varieties and accessions belonging to the type *Solanum Lycopersicum* L. Crossing 89 flowers of 30 combinations of uses and varieties belonging to the type *Solanum Lycopersicum* L. was carried out and 24  $F_0$  hybrids were obtained. 54% of hybrids



were identified from crossing foreign and cultivated varieties, and the remaining 46% were hybrids from crossing varieties of agricultural crops.

**Key words:** hybrid, tomato, *Solanum Lycopersicum*, combination, genetics, crossing.

## KIRISH

Bugungi kunda insoniyatning oziq-ovqat va biologik faol moddalarga bo‘lgan talabini o‘zgarishi, foydali mahsulotlarni iste‘mol qilish tendensiyasining rivojlanishi, o‘simliklardan olinadigan sog‘liq uchun kerak bo‘lgan birikmalarga bo‘lgan ehtiyoji yanada ortishiga olib kelmoqda. Shuningdek, insoniyat salomatligini saqlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar sirasiga foydali mahsulotlarni iste‘mol qilish va iqtisodiyotda samarali foydalanish ham kiradi. Bu borada olib boriladigan ilm-fan sohasida yangiliklarni amalga oshirish, genetika va seleksiya sohasida hosildor, ozuqabop, qurg‘oqchil sharoitga chidamli bo‘lgan navlarni yaratish dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Pomidor (*Solanum Lycopersicum*) bir yillik yoki ko‘p yillik o‘t o‘simligi, Solanaceae oilasiga *Solanum* (*Solanum*) turiga mansub bo‘lib, sabzavot ekinini sifatida mevalarini iste‘mol qilish mumkin bo‘lgani uchun yetishtiriladi. Pomidor italyanча pomod'oro so‘zidan olingan bo‘lib, „oltin olma“ degan ma‘noni anglatadi [1].

Hozirgi kunda pomidorning juda ko‘p navlari dunyoning turli mamlakatlarida yetishtiriladi. Uning 1000 dan ortiq turli-tuman navlari yaratilgan bo‘lib, ular ochiq va himoyalangan maydonlarda (masalan issiqxonalarda ) yetishtirilmoqda. Hozirda dunyoda taxminan 4,4 million gektar (2009-yil) maydonda ekilib, 153 million tonna yalpi hosil yetishtiriladi. Asosiy pomidor yetishtiruvchi davlatlar Xitoy (45,4 million tonna ), AQSh (14,14 million tonna), Hindiston (11,15 million tona), Turkiya (10,7 million tonna), Misr (10,0 million tonna) hisoblanadi. O‘zbekistonda asosiy sabzavot ekinlaridan biri hisoblanib, sabzavot ekinlar umumiy maydonining 40-45 % ini pomidor tashkil qiladi. 2010-yilda O‘zbekistonda pomidor 75000 gektar maydonda yetishtirilgan. Yalpi hosilning 70 %i qayta ishlanadi, 10-15 %i mahalliy bozorda realizatsiya qilinsa, 15-20 %i eksport qilinadi [2].

Pomidor yuqori darajada rivojlangan ildiz tizimiga ega. Ildizlari shoxlangan, tez o‘sadi va shakllanadi. Namlik va oziqlanish mavjud bo‘lganda, poyaning har qanday qismida qo‘shimcha ildizlar paydo bo‘lishi mumkin, shuning uchun



pomidorni nafaqat urug'lar, balki ko'chatlar va yon kurtaklar orqali ham ko'paytirish mumkin. Pomidorning poyasi tik yoki cho'zilgan, shoxlangan, bo'yi 30 sm dan 2 m gacha yoki undan yuqori [4].

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pomidor genotiplarida suv tanqisligining biokimyoviy va fiziologik ko'rsatkichlarga bo'lgan zararli ta'siri o'rganilgan. Stress omilning pigmentlarga ta'siri tekshirilganda xlorofill “a”, “b”, umumiy xlorofill miqdori mos ravishda 26,3 %, 31,2 %, 27,3 % ga kamayganligi aniqlandi [5].

Pomidorning sariq barglari jingalak virusi, pomidor xlorozi virusi va ularning hosildorlikka ta'siri haqida tadqiqot ishlari olib borilgan. Bundan tashqari pomidor hosildorligiga biotik, abiotik stresslar to'sqinlik qilishi mumkin va bu stresslar universal oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid soladi. Ta'kidlash joizki, pomidorning sariq barglari jingalak virusi (TYLCV) va pomidor xlorozi virusi (ToCV) pomidor o'simliklarini og'ir qurg'oqchilik sharoitlaridan himoya qilish qobiliyatiga ega. Ushbu tadqiqot ikkita pomidor naviga, Money Maker (MK, Buyuk Britaniya) va Shalala (SH, Ozarbayjon) ga TYLCV, ToCV va qurg'oqchilik stressining birgalikdagi ta'sirini o'rganishga qaratilgan [6].

Shuningdek, pomidorda ildiz gipoksiyasining (1-2% kislorod) fiziologik va hosildorlik ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish uchun bosqichma-bosqich ekilgan o'simliklarda bir qator fiziologik va agronomik o'lchovlar o'tkazilib, barglardagi o'zgarishlar, umumiy xlorofill miqdori, barg maydoni, maydonga nisbatan barg massasi o'zgarganligi, reproduktiv bosqichida gul va meva tugish jarayonining pasayishiga olib kelganligi aniqlangan [3].

### **TADQIQOT OBYEKTI VA USULI**

Tadqiqot ishlari Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakultetiga qarashli tajriba maydonida amalga oshirildi. Tadqiqot obyekti sifatida pomidor (*Solanum lycopersicum* L.) o'simligining mahalliy Yusupov (O'zbekiston) va xorijiy NC-37517 (AQSH), NC-37703 (AQSH), NC-37742 (Qrim), NC-37539 (Armaniston), NC-37581 (Ukraina) kabi namunalari olindi. Tadqiqotni amalga oshirishda duragaylash usulidan foydalanildi.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

O'simliklarda duragaylash ishlarini olib borilishi istiqbolli, serhosil, kasalliklarga va qurg'oqchil sharoitga chidamli yangi navlarni yaratish uchun dastlabki qadam sanaladi. Tadqiqot ishlarini olib borish uchun pomidor



o‘simligining mahalliy va xorijiy namunalari o‘rtasida duragaylash chatishtirish sxemasi tuzildi (1-jadval).

O‘simlikning gullash fazasida dastlabki chatishtirish ishlari olib borildi. Bunda albatta, o‘simlik uchun abiotik omillarning ta’siri, nav va namunalarning gullash fazasidagi farqlar ham alohida e’tiborga olindi.

1-jadval

♂ \ ♀	NC-37581	NC-37742	NC-37539	NC-37517	NC-37703	Yusupov
NC-37581		NC-37742 X NC-37581	NC-37539 X NC-37581	NC-37517 X NC-37581	NC-37703 X NC-37581	Yusupov X NC-37581
NC-37742	NC-37581 X NC-37742		NC-37539 X NC-37742	NC-37517 X NC-37742	NC-37703 X NC-37742	Yusupov X NC-37742
NC-37539	NC-37581 X NC-37539	NC-37742 X NC-37539		NC-37517 X NC-37539	NC-37703 X NC-37539	Yusupov X NC-37539
NC-37517	NC-37581 X NC-37517	NC-37742 X NC-37517	NC-37539 X NC-37517		NC-37703 X NC-37517	Yusupov X NC-37517
NC-37703	NC-37581 X NC-37703	NC-37742 X NC-37703	NC-37539 X NC-37703	NC-37517 X NC-37703		Yusupov X NC-37703
Yusupov	NC-37581 X Yusupov	NC-37742 X Yusupov	NC-37539 X Yusupov	NC-37517 X Yusupov	NC-37703 X Yusupov	

### TADQIQOT MUHOKAMASI.

Duragaylash jarayoni amalga oshirilgan 30 xil kombinatsiyadan 9 xilidan Fo duragaylar olindi. NC-37517 x NC-37581 kombinatsiyasidan 2 ta, NC-37581 x NC-



37517, NC-37693 x Yusupov, NC-37742 x Yusupov kabi kombinatsiyalardan 5 tadan, NC-37703 x NC-37514, NC-37517 x Yusupov kombinatsiyalaridan 3 tadan, qolgan NC-37514 x NC-37742, NC-37539 x NC-37525, NC-37567 x NC-37525 kombinatsiyalaridan 1 tadan jami 24 ta duragaylar olindi. Olingan duragaylarga qarab chatishish darajasi tahlil etilganda, xorijiv va mahalliy navlar chatishishidan hosil bo'lgan duragaylar 54 % ni, qolgan 46 % xorijiy navlarni bir-biriga chatishtirishdan hosil bo'lgan duragaylar ekanligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, pomidor o'simligining xorijiy va mahalliy namunalari o'rtasida olib borilgan duragaylash ishlari 30 xil kombinatsiyada 89 ta chatishtirish olib borilgan bo'lsa, undan 24 ta F<sub>0</sub> duragaylar olindi. Bundan ko'rinib turibdiki, duragaylash jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bo'lsa ham o'simlikka muayyan muhitdagi abiotik omillar, gullash fazasida ozmuncha bo'ladigan farq, ota-ona sifatida olingan manbalarning kelib chiqish hududlari ham ahamiyatga molik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atherton J.G. & Rudich J. Pomidor hosili // Chapman & Hall, London/Nyu-York, Birlashgan qirollik / AQSh // 1986. 661-b.
2. Divinagracia C.N. & Villareal R.L. Filippinda pomidor ishlab chiqarish // Killej, Laguna, Filippin. // 1971. 38-b.
3. [Horchani F.](#), [Aloui A.](#), [Brouquisse R.](#), [Aschi-Smiti S.](#) Physiological Responses of Tomato Plants (*Solanum lycopersicum*) as Affected by Root Hypoxia // [Journal of Agronomy and Crop Science](#) // 2008. [Volume 194, Issue 4](#) -P. 297-303.
4. Kuo CG & Lai Sh. Pomidor uchun tavsiya etilgan madaniy amaliyotlar // Xalqaro hamkorlik bo'yicha qo'llanma. AVRDC. Shanxua, Tayvan. // 1979. 30-b.
5. Mukesh L., Janagoudar B.S., Dharmatti P.R., Koti R.V. Biochemical changes in tomato (*Solanum lycopersicum* L.) genotypes as affected by drought stress // *J.Asian Hort.* // 2009. -P. 44-48.
6. Mirzayeva S., Huseynova I., Canen Y.O'., Ali Ergul Physiology and Gene Expression Analysis of Tomato (*Solanum lycopersicum* L.) Exposed to Combined-Virus and Drought Stresses // *Plant Pathol J.* // 2023. -P.466-485.





## Преимущества и актуальность дуального образования в высших учебных заведениях Узбекистана

**Айткулова Гулжавхар Шекербаевна**

Преподаватель Термезского инженерно-технологического института

Эл.почта: [aitkulovaguljavxar@gmail.com](mailto:aitulovaguljavxar@gmail.com)

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются преимущества, особенности дуального образования. Повышение качества профессиональной подготовки квалифицированных кадров и дальнейшего успешного трудоустройства выпускников высших учебных заведений

**Ключевые слова:** дуальное образование, взаимовыгодное сотрудничество, инновационный путь развития, системе дуального образования «Мастер профессии»

«Повышение качества образования – единственно правильный путь развития Нового Узбекистана» - утвердил Президента Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев. Повышение качества образования, подготовки квалифицированных кадров и специалистов имеют ключевое значение для инновационной экономики нашего государства. Наблюдая за экономикой и промышленностью развитых стран, мы можем увидеть, насколько важную роль играют профессиональные кадры в развитии той или иной сферы.

Президент Республики Узбекистан принял Указ «О мерах по установлению взаимовыгодного сотрудничества с субъектами предпринимательства по сокращению бедности». Основная цель документа – обеспечить работой молодежь, наладить в системе высшего образования подготовку кадров по системе дуального образования «Мастер профессии». В системе дуального образования они имеют возможность учиться и одновременно работать по своей специальности.



В условиях перехода экономики на инновационный путь развития роль системы высшего образования существенно возрастает в обеспечении новых рабочих мест квалифицированными кадрами, в стимулировании творческой активности студентов высших образований и в создании условий для её эффективной занятости, в связи с чем требования к качеству образования для высших учебных заведений становятся всё более определенными. Основная проблема – это разрыв между теорией и практикой. Самым перспективным направлением в подготовке специалистов для реального сектора экономики и для решения этой проблемы на сегодняшний день считается дуальное обучение. Дуальная система образования, получила мировое признание, это наиболее распространенная и признанная форма подготовки кадров, которая комбинирует теоретическое обучение в учебном заведении и производственное на предприятии. Работодатели всё больше говорят, что сегодняшней основной проблемой на производствах является текучесть кадров. Внедряя на предприятиях систему дуального образования, можно положительно решить проблему повышения качества профессиональной подготовки будущих специалистов. Предусматривается обучение и выпуск таких специалистов, которые будут способны к самореализации, социально мобильны, смогут легко адаптироваться в современных рыночных условиях развития экономики региона, сумеют вырабатывать и изменять собственную жизненную стратегию. Но без непосредственного участия работодателей данных целей достичь практически невозможно. Несмотря на усилия ВУЗов, представители работодателей, в силу объективных и субъективных причин, не принимают активного участия в разработке и организации внедрения новых стандартов. В дуальной системе обучения усиливается и качественно меняется именно роль работодателя. В





идеале всё должно выглядеть следующим образом: предприятия делают заказ образовательным учреждениям на конкретное количество специалистов, принимая при этом участие и в составлении учебно-методической документации, студенты проходят практику на предприятии без отрыва от обучения. Важнейшим компонентом данной системы является наличие подготовленных кадров на самом предприятии, которые выступают в качестве наставников. Важной особенностью дуального подхода к обучению является то, что в данном случае предприятия даже в большей степени, чем образовательное учреждение, заинтересовано в качественной подготовке кадров. Поэтому производственники в полной мере разделяют ответственность за организацию учебного процесса, осуществляется процесс деятельности образовательного учреждения, следят за наличием преимущественности в теоретической и практической подготовке обучающихся, которых воспринимают уже как своих будущих работников. Дуальная форма обучения выгодно отличается от традиционной по степени ориентации на конкретно-практические задания в реальных условиях. Учебно-методические материалы, разработанные в рамках дуальной формы, отличаются принципиальной ориентацией на практическую деятельность студентов. Преимуществом дуального обучения является обеспечение высокого процента трудоустройства выпускников, так как они полностью отвечают профессиональным требованиям и к окончанию учебы имеют и стаж, и опыт работы. Обучение максимально приближено к запросам производства. И для выпускников, с психологической точки зрения, адаптация к новому месту работы, к кругу обязанностей и к коллективу проходит намного легче. И это объяснимо: за студентом с первого дня на предприятии закреплен наставник, который и поможет, и подскажет, и опытом поделится. Объем обязанностей у



работающего студента увеличивается постепенно, по мере освоения отдельных операций.

Преимущества для ВУЗов участвовавших в дуальном образовании это:

- а) решается немаловажная проблема баз практики;
- б) гарантированное трудоустройство выпускников;
- в) повышение уровня качества обучения и вследствие этого рейтинга учебного заведения;
- г) возможность стажировки педагогических кадров;

Преимущества для предприятий участвовавших в дуальном образовании это:

- а) квалифицированных специалисты полностью отвечающих их требованиям;
- б) решение кадровой проблемы.

Дуальная система образования отвечает интересам участвующих в ней сторон - предприятий, учебных заведений и конечно выпускников. Для них дуальное обучение это не только шанс устроиться на квалифицированную должность по окончании учебы, но и рано приобрести самостоятельность и легче адаптироваться к взрослой жизни. Дуальная система предоставляет выпускникам высших учебных заведений перспективы и возможности для управления собственной карьерой.

Подводя итоги можно сказать, что основанная на дуальном обучении, образовательные программы будут способствовать переходу на новый уровень в подготовке квалифицированных кадров и специалистов с высшим образованием для современного производства и предприятий. Взаимовыгодное партнёрство между ВУЗами и предприятиями способствуют





формировать профессиональные и общие компетенций обеспечивая конкурентоспособность, востребованность выпускников на рынке труда.

### Литература

1. Югфельд Е.А. Анализ эффективности дуальной модели обучения при подготовке специалистов в условиях государственно-частного партнерства // Вестник высшей школы «Алматы». 2014. № 9. С.44-47.

2. Югфельд Е.А. Дуальная система образования как катализатор успешной профессиональной и социальной адаптации будущего специалиста // Образование и наука. 2014. С.49–6

3. Постановлением Кабинета Министров от 29.03.2021 г. № 163 «О мерах по организации дуального обучения в системе профессионального образования» LEX.UZ

4. Определены приоритетные задачи по совершенствованию образования. <https://president.uz/ru/lists/view/4424>

---

# Research Science and Innovation House

## UCHINCHI RENESSANS – O‘ZBEKISTON TARIXINING YANGI SAHIFASI (MATBUOT MISOLIDA)

Guliston davlat universiteti

Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo‘nalishi talabasi

**Durdimurodova Dilnoza Umidjonovna**

**Annotasiya:** Ushbu maqolada “Jadid“ gazetasining vujudga kelishi, uchunchi renessansdagi ahamiyati va ushbu gazetada O‘zbekiston Respublikasi prezidentimizning madaniyat va marifatga e‘tibori, amalga oshirilishi kòzda tutilayotgan islohotlar doirasi atroflicha yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** prezident, istiqbol , gazeta ,nashr, tuzum , faoliyat ,sharaf , masuliyat , el -yurt , vosita, renessans, salohiyat, fazilat , ibrat, marifatparvar.

O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi – yuksak bosqichi Uchinchi renessans arafasidadir. Renessans bu – uyg‘onish degan manoni anglatib, dastlab Italiyada madaniy va marifiy yuksalishga nisbatan qo‘llanilgan tushuncha hisoblanadi. Renessans tafakkurda, ilm-ijodda, jaholat va mutassiblikni yoritib, insonni ulig‘lash uning aqliy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishdir.

O‘zbekiston davlatchiligi tarixida ikkita renessans bo‘lgan Birinchi renessans IX-XII asrlarda yuz bergan ( “Musulmon renessans”(A.Metis), “Sharq uyg‘onishi” (N.I.Konrat) nomi bilan ham ataladi). Bu davrda ilm-fan, madaniyat yuksak darajada rivojlangan.

Ikkinchi renessans davri Sohibqiron Amir Temur nomi bilan chambarchas bog‘liq. Bu haqda nafaqat ilmiy adabiyotlarda balki matbuotda ham etirof etilgan. Masalan, O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning bergan bahosini keltirishimiz mumkin.: “XV asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat yurtimizda Ikkinchi





uygʻonish yani ikkinchi renessans davrini boshlab berdi. Temur boshlab bergan ikkinchi renessans davrida 27 davlatni bir erga yigʻilishi, bir-biri bilan madaniy savdo, ijtimoiy aloqalar yangidan rivojlandi” [1]. Darhaqiqat, Temur va temuriylar davrida iqtisodiyot, ilm-fan, sanat gullab yashnaganini nafaqat bizning jamiyat balki jahon hamjamiyati ham tasdiqlaydi. Bu esa albatta, insoniyat tamaddunidagi Ikkinchi renessans ekanligini etirof etadilar.

Bugun Oʻzbekiston zarvaraqlariga bitilayotgan bir jumla bor. Bu “Uchunchi renessans”dir. Shavkat Mirziyoyev matbuotga bergan intervyusida mazkur jumla nima ekanligini asoslab berdi: “Bugungi kunda butun xalqimizning qalbida chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi Oʻzbekiston” gʻoyasi zamirida ana shunday ulugʻ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uygʻonish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adshmagan boʻlamiz“[2], - dedi davlat rahbari. Darhaqiqat, Uchunchi renessans bugungi kundagi islohotlar va yangilanishlarning eng ustuvor yoʻnalishlari va maqsadlarini ifodalaydigan va amalga oshiradigan davr boʻlganligi sababli Prezident Sh. Mirziyoyev ushbu davrga shunday nom berdi.

Bugungi rivojlanayotgan zamonda fikr odamlariga milliy gʻururni uygʻotadigan marifatparvar bobolarimizga juda katta zarurat tugʻilmoqda ularning marifatparvar gʻoyalarini bugungi avlodga anglatish uchun esa matbuotning oʻrni juda ham muhim. Matbuot davlat va xalq orasida mustahkam oyna vazifasini bajarib jamiyatda sodir boʻlayotga siyosiy, marifiy voqealarni yoritib beradi. Shu sababli, Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2024 yilning ilk kunidan “Jadid” nomli gazetani chop etish gʻoyasi ilgari surildi. Davlat rahbarining ushbu gazetani tashkil etish gʻoyasini 2023 yil 22 dekabr kuni oʻtkazilgan “Respublika Manaviyat va Marifat Kengashi”da oʻz tasdigʻini topdi. Prezidentning topshirigʻi bilan Iqbol Mirzo



rahbarligida qisqa fursat davomida yani sakkiz kun ichida sakkiz sahifalik ilk soni nashrga nashr qilindi.

Ushbu gazeta nashrlari orqali jadid bobolarimiz Behbudiy, Fitrat, A.Qodiriylarning o‘gitlaridan ular hayotida yuz bergan shonli va armonli kunlaridan ibrat olib istiqbolga Vatan va millat kelajagiga nazar solishimiz rivojlanishi uchun hissa qo‘shmog‘imiz uchun jadid nomi berildi. Zero, M.Behbudiy ta’kidlab o‘tganlaridek, “moziy istiqlol tarozisidir”.

O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo “jadid” so‘ziga o‘zining “Birlashmoq davri” nomli maqolasida: “Jadid bu - faqat o‘tmish emas jadid bugun va kelajakdir. Jadid bu - yangi O‘zbekistondagi Uchinchi renessans poydevorini yaratish yo‘lida Vatanning har bir fuqarosi tafakkurini yoritib turadigan marifat chirog‘idir” [3]-deya tarif beradi .

O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ham “Uchunchi renessansni aynan jadid bobolarimiz amalga oshirishi mumkin edi. Ammo mustabid tuzum bunga imkon bermadi. Bugun biz Vatanimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz jadid bobolarimizning gumanistik g‘oyalariga tayanishimiz zarur. Shu sababli, ularning ushbu g‘oyalarini aks ettiradigan “Jadid” nomli gazetaning chop etilishi ulkan tarixiy voqea bo‘ladi“. [4] deb takidlaydi.

Gazetaning shoriga jadidlarning “Tilda, fikrda, ishda birlik“ singari mardonovor so‘zlari asos qilib olindi. Ushbu nashr “O‘zbekiston sanati va adabiyoti” gazetasi negizida tashkil qilindi. Bu gazeta hodimlari jadidshunoslar, ilm-fan olimlari, marifat ziyolilari qilib belgilandi. Gazetaning bosh muharriri qilib xalq shoiri Iqbol Mirzo tayinlandi.

“Jadid” gazetasida Prezident Sh.Mirziyoyevning ilm fan , san‘at , adabiyot sohalariga oid qaror va farmonlari hamda ushbu sohalarga oid maqola va tezislar





nashr etiladi. “Jadid “gazetasining 2024-yil 1-yanvarda nashr etilgan birinchi sonida “Manaviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak“ nomli maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabrda o‘tkazilgan “Manaviyat va Marifat kengashida e‘lon qilgan islohotlar” Dasturi e‘lon qilingan [5]. Ushbu islohotlar dasturida Ibrat domlaning “Millatni kim isloh etar? Ulamo g‘ayrat etkanda millat albatta isloh topur” nomli hikmatli so‘zlariga asoslanib “Teatr” san‘atini rivojlantirish bo‘yicha Madaniyat vazirligi izchil yangilanishlar olib borilishi yuklatildi. Jumladan, tarixiy va zamonaviy mavzular bo‘yicha 20 ta eng yaxshi pyesa uchun buyurtma berish va g‘oliblarga ellik million so‘mdan rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish; 50 nafar ijodiy va yordamchi xodimlarning rivojlangan davlatlar teatrida mahorat oshirishlarini yo‘lg qo‘yish; yosh rejissorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg‘ur nomidagi davlat mukofotini tashkil etish va g‘oliblarni munosib taqdirlash; teatrlar to‘liq tamirlanib, eng ilg‘or texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish; Maqom san‘atini rivojlantirish va maqom, katta ashula, baxshichilik, atlas, adras, kulolchilik va zargarlik kabi 12 ta noyob madaniy meros namunalarini davom ettira oladigan maktablar tashkil etish; muzeylar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha yetti yillik dastur qabul qilish; eksponatlarni saqlash va muhofaza qilish maqsadida barcha muzeylarni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash; innovatsion texnologiyalar asosida Tarix — muzeyi va San‘at muzeylari uchun zamonaviy yangi binolar barpo etish; muqaddas kitob Usmon Qur‘oni sahifalarini konservatsiya qilish; O‘zbekistondagi 18 ta ko‘hna yodgorliklarni ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish; Samarqand viloyatida Amir Temur bog‘ini qayta tiklash va Bibixonim majmuasini restavratsiya qilish kabi islohotlar loyihasi amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda.[6]

Bundan tashqari, YUNESKO bosh konferensiyasini 2025 yilda Samarqandda o‘tkazish, Buxoro viloyatidagi tarixiy maskanlarda Jadidlar merosi davlat muzeyini



bunyod etish, Yozuvchilar Uyushmasi, Fanlar akademiyasi, Manaviyat va Marifat markazi, Milliy mass-mediani qo‘llab quvvatlash va rivojlantirish jamoa fondi, “Shahidlar xotirasi” jamg‘armasi va “Jadid” gazetasiining elektron versiyasini tashkil etish to‘g‘risidagi qarorlar qabul qilindi. Ushbu islohotlar dasturi yoshlarimizga ulkan imkoniyatlar eshigini ochadi.

Aytish joizki, Yangi O‘zbekistonda yoshlarni ma’rifatparvar jadid bobolarimiz ruhida tarbiyalash davr zaruratiga aylandi. Shu sababli, Prezident Sh.Mirziyoyev islohotlari loyihasida eng avvalo milliy an’analarni, o‘zligini, manaviyatini yillar davomida shakllangan o‘ziga xos tarixni nomoyon qiladigan, o‘zlikni anglashga davat etadigan teatr, san’at, adabiyot ilm-fan sohalariga ko‘proq etibor qaratdilar. Uchunchi renessans davrida marifatli, vatanparvarlik ruhini anglashda Behbudiy, Qodiriy, Cho‘lpon va boshqa bobolarimiz g‘oyalarini, ularning hayot yo‘lini bilishimiz, ulardan o‘rnak olishimiz juda ham muhim. “Jadid” gazetasiining nashr etilishi yoshlarga ana shunday imkoniyatni taqdim etadi. Millatning manaviyatli va marifatli bo‘lishi yo‘lida jadidlarga zarurat seziladi. Ushbu zaruratni istdodli shoir Iqbol Mirzo “Jadid” nomli sherida quyidagicha tasvirlaydi:

Talim tarbiyani najot bilganlar,  
Ilmiga o‘zlari amal qilganlar,  
Qarang amal deb o‘z jonin yulganlar

Jadidlar yetishmayapti, Jadidlar.

Tavollo, Qodiriy, Cho‘lponlar qayda  
Hamzahonlar qayda, Usmonlar qayda,

Og‘iz juda katta, yuraklar mayda

Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.[7]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak “Jadid” gazetasi bugungi kunimiz minbaridir. Yoshlarimiz va kelajak avlodga taraqqiyot yo‘limizni belgilab beradigan, jadid





bobolarimizning ma’rifatparvar g’oyalari his qildira oladigan muhim tafakkur manbayidir. “Jadid” gazetasining ahamiyati shundaki, ushbu gazeta Uchunchi renessans poydevori bo’lib xizmat qiladi hamda taraqqiyot yo’lini belgilab beradi. Yangi O‘zbekiston yoshlari “Jadid” gazetasidagi marifatparvar g’oyalarni anglagan holda millat rivoji uchun jadid bobolarimizning yo’lidan borib, ezgu ishlarga intilishlari, ilm olishdan tolmasliklari lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .

1. “Jadid“ gazetasi №1 2024.
2. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/08/17/> Учинчи Ренессанс нима дегани?
3. 10. Ergasheva M.Z. Abdurauf Fitratning siyosiy va huquqiy qarashlari. Nomz. diss. T. 2002 va boshqalar.
4. 11. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to’plam. № 1. – Toshkent: Universitet, 1999.
5. 11. Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash (jadidchilik, muxtoriyatchilik, istiqlolchilik). Xalqaro konferensiya materiallari. - T., 2001.

Research Science and  
Innovation House



## ON SOCIAL PEDAGOGICAL CONDITIONS IN THE PERFORMANCE OF TRADITIONAL SINGING WORKS

**Dilorom Abduazimova**

**State Institute of Art and Culture of Uzbekistan**

**Teacher of the “National Singing” department**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada hozirgi kunda An’anaviy xonandalik asarlari ijrochiligida ijtimoiy pedagogik shart-sharoitlar to’g’risida fikr-mulohazalar yurutilgan. Shuningdek, An’anaviy xonandalikning maqsad vazifalari, pedagogik shart-sharoitlari, ijtimoiy holati haqida ham batafsil ma’lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so’zlar:** An’anaviy xonandalik, pedagogika, imkoniyatlar, musiqa ta’limi va san’at, musiqa ijrochisi, metodika va metodologiya, xorijiy tajriba va milliy an’analar.

**Аннотация:** В данной статье представлены мнения о социально-педагогических условиях исполнения традиционных певческих произведений. Кроме того, приводится подробная информация о целях и задачах традиционного пения, педагогических условиях, социальном статусе.

**Ключевые слова:** Традиционное пение, педагогика, возможности, музыкальное образование и искусство, музыкальный исполнитель, методология и методика, зарубежный опыт и национальные традиции.

**Annotation:** In this article, there are opinions about social pedagogical conditions in the performance of traditional singing works. In addition, detailed information about the goals, pedagogic conditions, and social status of traditional singing is provided.



**Key words:** Traditional singing, pedagogy, opportunities, music education and art, music performer, methodology and methodology, foreign experience and national traditions.

When it comes to music education, we can quote the words of our grandfather Sheikh Saadi: "Music is the companion of the human soul." Music is a tool that actively develops emotional feelings that quickly affects a person. Therefore, the main goal of music education is to educate students in musical culture, which is a component of human spirituality. Although the role of music in aesthetic education is sufficiently covered in the literature of philosophy, musicology and performers, the role of traditional singing in the spiritual and moral education of a person has not yet been scientifically covered. The reason for this, in our opinion, is the complexity of the art of traditional singing and the versatility of its influence on the human mind. In this work, we will try to fill this gap, i.e. to shed light on the educational aspects of traditional singing, its role in the development of a new person, and pedagogical conditions. The goals and tasks of "traditional singing". Traditional singing in Uzbek music has been formed and developed, adapting to different conditions based on its field and direction. Among them are folk songs, epics, ritual songs, modern academic (vocal) and pop singing, classical singing.

Each direction has its own style and rules in terms of form and performance. Among them, the traditional direction, formed within the framework of invariable characteristics and reflecting the most perfect traditions, is an example with all its characteristics and potential. In classical music singing, the most beautiful traditions of the Uzbek people, the values related to the national spirit have emerged, and the rich spirituality of the people has been manifested. Therefore, in the tradition of singing, the directions and styles of classical singing have been formed. It has become a tradition to conduct this as a direction of traditional singing art. National



classical singing traditions have developed as the basis of Uzbek traditional singing art.

Forming educational skills specific to the art of "traditional singing", giving them excellent knowledge on the psychology of being able to sing folk songs individually or in a group, and being able to organize status groups, and being able to lead a team. consists of imbibing the characteristics. Depending on the purpose of the subject, a number of tasks are performed in group lessons.

1. Getting to know the students who will be assigned to the makom singer and the leadership of the makom team.
2. Learning the nature, didactic principles and other laws of group and individual singing.
3. To have direct acquaintance with folk songs, songs created by composers, and examples of shashmaqom and to have a high artistic taste for their selection.
4. To feel the mental and physiological changes that occur in the human body during singing in a group and working with a group, and to develop skills for it.

•The following tasks of the traditional singing course are carried out: Learning traditional and folk singing. To give an understanding of 4 types of folk songs in traditional performance. Labor songs, seasonal ritual and traditional songs, lyrical songs, terms. Practical acquaintance with the performance of traditional singing samples:

- Expanding students' knowledge about Uzbek traditional music culture, enriching their repertoire, connecting theoretical knowledge with practice;
- Increasing students' interest and respect for national traditions;
- Accustoming to singing laments, kochirims, characteristic of Uzbek singing;
- Developing general musical skills of students;



- Feeling the psycho-physiological states that occur in the human body during singing and working and creating skills for it;
- Know and follow the requirements for singers.
- Education and upbringing of students in the course of the lesson, preparing them to become deeply knowledgeable and highly qualified specialists, developing students artistically, teaching them traditional performance and its secrets. One of the goals of traditional singing is to prepare professional personnel for artistic groups of our Republic. In addition to providing students with information about Uzbek folk songs and "Shashamaqom", the history of creation, performance range, use of voice, dynamic signs, the singer's performance position, measurements in works, methods, the formal structure of melodies, performance techniques, information about the authors of the studied works and necessary instructions are given. Also, science serves to create and teach understanding and skills about Uzbek folk songs, and to develop feelings of love for traditional music and musical-artistic taste in students. As a conclusion, we can say that the art of music is an important tool for moral, cultural and educational education of a person. Therefore, in all eras and societies, great attention has been paid to the art of music and its development. Uzbek music culture has an ancient and rich heritage. Its contents reflect the national spirit of our people, their high human activities, their artistic spirituality, their struggle for independence, and their dreams and hopes. The goal of music education is to educate the young generation, schoolchildren, to the level of cultured people who can inherit our national musical heritage and perceive the wealth of universal music. For this, it is necessary for students to learn the art of music with all its elegance and beauty, to acquire the skills of artistic perception, collective singing, dancing and creativity, and extensive use of music culture in training. So, traditional singing works are very

important in raising a perfect person. We should use such performance works effectively.

#### LIST OF REFERENCES:

1. Rajabov "Maqomlar" 2006. 12 - p
2. T.Ismailov; “THE IMPORTANCE OF RUSSIAN CLASSICAL COMPOSERS IN CLASSES OF MUSIC CULTURE” "Экономика и социум" №1(80)
3. T.Ismailov; “CHARACTERISTICS OF KHOREZM DOSTON ART” "Экономика и социум" №3(82) 2021;
4. O. Ibrohimov “O‘zbek xalq musiqa ijodi” 1994 y
5. T.Kh.Ismailov; “Musical currents and the formation of Russian classical music” “Вестник магистратуры” 2021. №5 (116);
6. Shakhlo Khakimovna Kharatova “USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS” Science and Education ISSUE 3, March 2022;

---

# Research Science and Innovation House



## Ички ишлар органлари тизимида стрессоген вазиятлар психофизиологияси

Ўзбекистон Республикаси ИИВ МОИ  
Бош психологи, майор **И.М.Хакимова**  
ИИББ полиграфологи **Н.Х.Ибрагимова**

